



*Umida ABDULLAYEVA,*  
*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: umidaabdullayeva@mail.ru*

*DSc, dotsent D.Madumarova taqrizi asosida*

### ARTISTIC CHARACTERISTICS OF EXECUTIVE LYRICS

Annotation

This article provides information about the types of performance texts, which differ from each other according to the subject and stylistic features of the lyrics, and in order to fully reveal the problem, the poems of the poets Erkin Vahidov, Usman Azim, Halima Khudoyberdiyeva are analyzed.

**Key words:** Performance lyricism, event, lyrical thinking, immanence, subjectivity.

### ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ЛИРИКИ

Аннотация

В данной статье представлены сведения о типе исполнительской лирики, которые различаются по предметности текста песни и ее стилистическим особенностям, а также с целью полного раскрытия проблемы были проанализированы стихи поэтов Эркина Вахидова, Усмана Азима, Халимы Худойбердыевой.

**Ключевые слова:** Ролевая лирика, феномен, лирическое мышление, имманентность, субъективность.

### IJROVIY LIRIKANING BADIYLIK XUSUSIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada lirikaning subyektivligiga ko'ra farqlanuvchi ijroviy lirika turi, uning uslubiy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan hamda muammoni to'liq ochish uchun shoirlar Erkin Vohidov, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva she'rlari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijroviy lirika, fenomen, lirik tafakkur, immanent, subyektivlik.

**Kirish.** XX asr o'zbek adabiyotida badiiy estetik tamoyillarning yangilanishida ijroviy lirika muhim o'rin tutdi. Mukammal ijroviy lirika namunalari yaratish shoiridan teran tafakkur, betakror uslub va badiiy ijodda fenomenlikni talab etadi. Cho'lpon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Usmon Azim, Xurshid Davron, Halima Xudoyberdiyeva, Eshqobil Shukur, Yo'ldosh Eshbek ijroviy lirikalarida o'zbekona lirik tafakkur imkoniyatlarining rang-barangligi aks etadi. Ijroviy lirika xarakteridagi she'rlarning mazmuni birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Bunda lirik qahramonning rol ijro etish xarakterini matndan tashqari omillar ham belgilashi mumkin. Xususan, o'quvchi muallif shaxsi haqidagi bilimlarni – immanent (lot.immanens – o'ziga xos; xususiy)ini uning ijodidagi ijroviy lirika namunalari bilan bilib olishi mumkin. Ijroviy lirika bu – birinchi shaxs tilidan aytiladigan lirik hikoya hisoblanib, o'zga shaxs tilidan o'quvchi ongiga singdiriladi.

Lirikada "Men"ning ijro xarakterini ochish uchun matndan tashqari omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarga shoirming immanent xususiyati asos sifatida kiritiladi. Ijroviy lirika nazariyasiga ko'ra, bu kabi she'rlarda ikki subyektivlik – lirik qahramon va ijroviy qahramon mavjud bo'ladi. She'r mazmuni aksar hollarda ana shu qahramonlar sintezi vositasida anglashiladi.

Lirik janrlarning yetakchi nazariyachilaridan biri bo'lgan B.O.Korman ijroviy lirikani "turli qahramonlar nomidan yozilgan, uning ongi lirik qahramonning ongi bilan mos kelmaydigan she'rlar" deb ta'riflagan. Adabiyotshunos va tanqidchi Antoni Estxop emperizm (yun.yetrita – tajriba so'zidan yasalgan, falsafiy oqim)ni ingliz mentalitetining asosiy xususiyati ekanligini isbotladi[3] va shu mavzuda ilmiy asar yozdi. Britaniya she'riyatidagi ijroviy lirika namunalari mashhur tadqiqotchisi Robert Langbaum buni

"adabiyotda emperizmning namoyon bo'lishi", tajriba she'riyatini"[5] deb tasnif qildi.

Erkin Vohidovning "Lirik qahramon" nomli she'ri ijroviy lirika nazariyasini shoir nigohi bilan ochib beradi. Shu ma'noda, she'rni tahlilga tortish o'rinni. She'rning tematik kompozitsiyasiga ko'ra, dastlabki bandi boshlanma bo'lib, ramka unsuri bilan birgalikda o'quvchini she'rni qabul qilishga emotsional jihatdan tayyorlaydi.

"She'rni sevib o'qiyman, ammo

Hayron qilar bir holat meni.

"Men" deb yozar shoir doimo,

Kimdir o'sha shoirming "men"i?[4]

Keyingi o'rinlarda bandma-band muammo o'rtaga tashlanadi. Shoir she'rning "Goh muhandis ul, munajjim goh, Goh o'zini tolib deb atar / Goh muallim, goh sohib dastgoh... kasbi ko'pmi uning shu qadar?", "O'tmishda ham kelajakdadir, Bormi unga zamon va makon?", "Shoirlarning xotini bormi? Yo barchaga birdek vafodor?" kabi savollariga javob berishi asnosida o'y-fikr va his-kechinmalari rivoji ochila boradi.

She'rxon, meni tutding savolga

Tushunaman, o'quvchim, seni.

Hech taajjub qilma, bu holga,

Sen o'zingsan, shoirming "meni"[4].

Ijodkorga ilhom beradigan, dard-u hasratlarini she'r bo'lib yaralishiga asos bo'ladigan vosita aslida jamiyatdagi insonlar ekanligi haqiqati ochib beriladi. Shoir "Muallim", "Abdulla Nabiyev", "Munajjim", "Laylo", "Majnun", "Ukrain qiz", "Azganush" qiyofasida o'z fikrlarini ifoda etadi. She'r davomida "Tanidingmi, do'stim o'zingni?", "Sen o'zingsan, shoirming "men"i" misralari takroran qo'llanib, she'rda qo'yilgan muammoning yechimi dalillashga xizmat qiladi. "Yetar, nechun ta'rif-u tavsif, Biz ikkimiz asli bitta jon / Faqat olim meni muallif, Seni atar lirik qahramon" misralari

o'quvchini she'ning yakuniga oid xulosa chiqarishga undaydi. She'r yakunida shunday fikrlar beriladi:

Xoh yasharsan olamda bukun,  
Xoh yaratur seni tafakkur,  
Lekin faqat borliging uchun,  
Qahramonim, senga tashakkur[4].

Ijroviy lirikada muallif yoki lirik qahramon turli vaziyatlarda va ko'rinishlarda harakat qilganda ham rivoyat lirik qahramon nomidan aytiladi. Uning muallifdan uzoqligi ularning qarashlari orasidagi farqda ifodalanadi. Lirik qahramon va ijroviy qahramon ikki turdagi ong egalari hisoblanadi. Usmon Azimning "Sirk. Muallaqchi ayol" she'ri bunga misol. Ushbu ijroviy lirika namunasida shoir ayol dunyosiga kirib borishga harakat qiladi. Shoir o'z xarakter xususiyatidan kelib chiqib, ijro qahramoni bilan lirik qahramon o'rtasidagi farqqa erisha oladi: ijro qahramoni o'z orzulari dunyosiga ega, qat'iy, ma'naviy jihatdan kuchli, taqdiridan nolimaydigan, hayot qiyinchiliklarini yenga oladigan irodali shaxs. Bu she'rda ayollar tabiatan dardlarni yengishda erkaklarga qaraganda kuchli ekanligi isbotlanadi. "Men – qushman. Vujudim shift sari o'rlar / Men beg'am yashadim. Uchdim men beg'am" misralari buning isboti. Shuningdek, she'rda yillar davomida o'z muhabbatiga sodiq qolib, sevgi uchun qurbon bo'lishga qodir ayollarning xususiyatlari kuzatiladi.

Nog'orachi, chalgin! Bo'zlab qo'shil, nay!  
Skripka, yangra men uchun yonib! –  
Topib yo'qotganim baxt uchun uchay...  
Yelkadan qo'lingni olsang-chi, jonim [2] !

Bu o'rinda shoir A.A. Fet aytganidek, "Begona lahzalarni o'zinikidek his eta oladi", ya'ni ayol hislarini mohirona ifoda etadi. Lahzalik baxtdan masrur, xayol singari falakda kezgan gimnastikachi ayol o'z baxtini butun umrini bag'ishlagan sirk arenalarida deb biladi. U shunday shiddatli va mohirki, qalbida yashirin bo'lgan sevgi va rashk unga g'ayratibiy kuch ato etadi, shu sabab yillar davomida uchib yurgan halqalar-u, arqonlarni uzib, binoning shiftini yorib chiqishga-da qodir.

Men senga aytdim-ku: bu bino – qafas,  
Qo'llarimni baland ko'targin, kiftim!  
O'zimni balandga otaman besas...

Yorilib ketadi binoning shifti!  
She'r ijroviy qahramon ruhiy holati tasvirining mukammalligi bilan ham ahamiyatli. Hayot sinovlari va jismoniy mashqlarda toblangan gimnastikachi ayol sevgilisining birgina nigohi oldida taslim:

Vujudim ketadi birdan uvishib,  
Qo'llarim silkinmas, toliqar kiftim...  
Tomingga qo'naman har kun qunishib –  
Qachon yoriladi uyingning shifti [2] ?

Shu o'rinda bir mulohaza, "Ayolni faqatgina sevib qilurlar taslim..." degan fikrdan kelib chiqib, sevilgan kishi yonida taslim bo'lish va shiftni yorib-da chiqib ketishga intilish lirik qahramonning kredosi. Ma'shuqaning e'tiboriga sazovor bo'lish uchun hamma narsaga tayyor. Sevgi yo'lida

qurbon bo'lish – erkak jinsiga xos xususiyat. Alisher Navoiy aytganlaridek:

Shayxni andoqki shaydo etdi ishq,  
Olam ahli ichra rasvo etdi ishq.

Arastuning fikricha, shoir o'z shaxsini o'zgartirmagan holda, o'z-o'zi bo'lib qolaveradi[1]. Shu ma'noda, Usmon Azimning "Sirk. Muallaqchi ayol" ijroviy lirikasida ijroviy qahramon bilan lirik qahramon sintezini ko'rish mumkin.

Ijroviy lirika qahramonini yaratishda shoir she'riy matnning semantik markazida "men"ni ijro ettirish uchun uni hammaga tanish bo'lgan boshqa obrazlar bilan birlashtiradi. Halima Xudoyberdiyevaning "To'marisning aytgani" (1985-yil) ijroviy lirikasi buning dalilidir. Xronotop she'ning voqeligi va ijodkor g'oyasini to'liq ochib beradi. "Ayolning og'iri, qo'rg'oshini men, qasos meni ham silkitdi, qo'ymadi / Qonli xumga tiqdim, yov boshini men, qonga to'ysin dedim, to'ymadi!"

Ijodkor ijroviy qahramon (To'maris) timsolida qasoskor ayol ruhiyatini ochib beradi: "Men ham nafis edim, sitora edim / Qasosimga bo'yinsunmaganimda". Qasos olish – milliy etikamizga xos bo'lmagan xususiyat, aslida. Lekin millat uchun, g'urur va or uchun kurashish milliy g'ururni shakllantiradi. Sarbadorlar harakati, milliy ozodlik harakatchilarining faoliyati milliy g'urur, or uchun olib borilgan harakatlarning bir ko'rinishi.

Isonkor shoir ijroviy qahramon tilidan farzand-u nabiralarni ham g'urur, or uchun halol kurashga chaqiradi:

Nabiram, senga ham yetadi bu xun,  
Asli yo'q narsani so'ramam Sendan.  
Raqib duch kelganda yig'lamay mahzun,  
Qon yuqi xanjaring sug'urgin qindan[3].

She'rda lirik qahramon o'z hissiyotlarini ijroviy qahramon vositasida ochiq ifoda etishdan cho'chimaydi. Ijroviy lirika qahramoni lirik qahramonning o'ziga xos rivoji mahsuli hisoblanib, hatto farzandining o'limi ham uning g'ururini sindirolmasligi, zaif va himoyasiz qilolmasligini ko'rsatadi. Shuningdek, she'ning mazmunidan shoiraning badiiy olamidagi ayolning har qanday erkaklardan ham ruhan kuchli ekanligi, butun avlodi va naslini himoya qilish uchun hech narsadan qaytmay kurasha olishi anglashiladi. "Qasos havolarin ochlik bilan yut, Garchand sitorasan, nafis ayolsan / Mening gumonim yo'q ketmog'iga o't, Sen agar "o't ketsin" deya qo'zg'olsang..." To'marisning jasorati haqida xalq dostonlari yaratildi, jangnoma va rivoyatlar to'qildi. Ergash Jumanbulbul o'g'lidan Hodi Zarifov yozib olgan "Oysuluv" dostonida Turon mamlakatining podshosi Oysuluv obrazida To'maris faoliyati o'zining badiiy talqinini topgan. Mirkarim Osimning "To'maris" qissasi, Ibrohim Yusupovning "To'maris" (1974) dostoni, bastakor Ulug'bek Musayevning "To'maris" (1982) nomli baletida To'marisning jasorati ulug'lanadi.

Ijroviy xarakterdagi she'rlarning sarlavhasi, sarlavha ostidagi izohi, epigrafi yoki asosiy matnning o'zida kechinma egasiga ishora mavjud bo'ladi. Ijroviy lirika ikki subyektivlikka asoslanadi hamda unda lirik qahramon va ijroviy qahramon subyekti mavjud bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Arastu. Poetika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.70.
2. Azimov U. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1995. – B.170-171.
3. Xudoyberdiyeva H. Yo'ldadirman. – Toshkent: Sharq, 2006. –B. 92.
4. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018. – B.219.
5. Langbaum R. The Poetry of Experience. The Dramatic Monologue in Modern Literary Tradition. Lnd., -N.Y, 1957. – B.261.
6. Hamdam U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib, 2012 – B. 255.



**Kumush ABDUSALOMOVA,**  
ToshDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi  
E-mail: [abdusalomovakumush@mail.ru](mailto:abdusalomovakumush@mail.ru)

DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

### APPLICATION OF CLASSICAL POETIC ARTS IN THE POETRY OF MATNAZAR ABDULHAKIM

Annotation

This article reveals how the poet Matnazar Abdulhakim used the poetic arts widely used in classical literature in his poems written in aruz and finger. In this article, theoretical information has been confirmed in practice. Verses from the poet's ghazals are analyzed and their meanings revealed.

**Key words:** Classical literature, poetic arts, verse, theory, analysis, radif, rhyme, spirit, melody.

### ПРИМЕНЕНИЕ КЛАССИЧЕСКОГО ПОЭТИЧЕСКОГО ИСКУССТВА В ПОЭЗИИ МАТНАЗАРА АБДУЛХАКИМА

Аннотация

В данной статье раскрывается, как поэт Матназар Абдулхаким использовал поэтическое искусство, широко используемое в классической литературе, в своих стихах, написанных арузом и пальцем. В данной статье теоретические сведения подтверждены на практике. Анализируются стихи из газелей поэта и раскрывается их смысл.

**Ключевые слова:** Классическая литература, поэтическое искусство, стих, теория, анализ, рафиф, рифма, дух, мелодия.

### MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATIDA MUMTOZ SHE'RIY SAN'ATLARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir Matnazar Abdulhakim o'zining aruzda va barmoqda yozgan she'rlarida mumtoz adabiyotda keng qo'llaniladigan she'riy san'atlardan qay yo'sinda foydalangani ochib berilgan. Ushbu maqolada nazariy ma'lumotlar amaliy jihatdan o'z tasdig'ini topgan. Shoirming g'azallaridagi baytlar tahlil qilinib, ma'nolari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mumtoz adabiyot, she'riy san'atlar, bayt, nazariya, tahlil, radif, qofiya, ruh, ohang.

**Kirish.** Shoir Matnazar Abdulhakim o'z bolaligini shunday xotirlaydi: "Men adabiyotimizning mumtoz namoyandalari asarlari mutolaasini otam yordamida juda barvaqt boshlaganman. Otamning hamsaboq do'sti – Xorazm adabiy muhitida sezilarli ovozga ega bo'lgan aruzchi shoirlardan Orzu domla, Mahbubiy domlaning muntazam tashriflari, otam mulla Abdulhakimdan olgan saboqlarim ham beta'sir o'tmagan. Otam arab, fors tilidagi diniy kitoblarni mutolaa qilishdan tashqari, she'riyatning ulkan muxlisi, Navoiyafim inson edilar." Ushbu fikrlar shoir qalbi mumtoz adabiyot sarchashmalaridan juda erta suv ichishni boshlaganini yaqqol ko'rsatadi. Matnazar Abdulhakimning ijodi mumtoz adabiyot bilan chambarchas bog'liq ekanligini tushunish uchun shoirming kitoblarini varaqlab ko'rishning o'zi yetarli. G'azallarining ruhi, qofiyalanishi, o'ziga xos ohangi shoir qalbining mumtoz adabiyot chashmasidan suv ichganini namoyon qiladi. Baytlarda qo'llangan mumtoz she'riy san'atlar, bejirim o'xshatishlar, tadrijiy davomiylik, mutanosib so'zlarning san'atkorona qo'llanishi bilan g'azallarining qimmatini yanada ortgan.

Shoir muntazam ravishda qizg'in ijod qilganini, qo'lga qalam olar ekan yuksak badiiy maqsadlarni ko'zlaganini, shuningdek, o'z ijodiga tanqidiy nigoh bilan ham qaraganini mana bu bayt orqali yaqqol ko'ramiz:

Abdulhakimning tuzmadi, oh, bitta tuzuk bayt,  
She'rlar bitadi garchi u devon talabinda.

Ushbu tadqiqotda shoir tomonidan qo'llangan mumtoz she'riy san'atlarni tahlil qilamiz. She'riy san'atlarni navoiyshunos olim Vahob Rahmonovning 2020-yilda "Sharq" nashriyotida chop etilgan "She'r san'atlari" kitobidagi ketma-ketlikda berishga qaror qildik.

Bilamizki, mumtoz adabiyotda "intoq" she'riy san'ati bor. Bu nutqi yo'q narsa va predmetlarni nutq egasi sifatida jonlantirish usulidir. Matnazar Abdulhakim "Endi" radifli g'azalida ushbu she'riy san'atdan unumli foydalanadi:

Bag'rini tongga qadar tirnaydi,  
Ingray-ingray, oh, qarang, tor endi.

Ushbu baytda bir vaqtning o'zida ikkita she'riy san'at qo'llangan. Ya'ni torning inson kabi bag'rini tirnashi "tashxis" – shaxslantirish san'atini vujudga keltirgan. Shuningdek, torning inson kabi ingrashi "intoq" san'atini hosil qiladi. Ushbu she'riy san'atni shoir ijodida ko'plab uchratamiz. Misol uchun, "Kelur" radifli g'azalida:

Jildirar suv, tol shivirlar ham gujumlar oh chekar,  
Ishqda borliq yodiga turlik talaffuzlar kelur.

Baytda suvning jildirashi tabiiy hol. Ammo tolning inson kabi shivirlashi, gujumning oh chekishi "intoq" san'atining ayni o'zidir. Baytning ikkinchi misrasida ushbu talaffuzlarning barchasiga ishq sabab qilib ko'rsatilgan.

"Tajnis" san'ati ham mumtoz adabiyotda ko'p uchraydigan san'at turlaridan biridir. Chunki tilimizda jinsdosh – shakldosh so'zlarning salmog'i keng. Shoir ham bundan unumli foydalangan holda yozadi:

Yuzingning tonglaridan tong qolurman,  
Soching tun. Dilda rayhon bo'lsa bo'ldi.

"Tong" so'zining ikki ma'nosi bor: ajsahar, ertalab; b) tong qolmoq – hayron qolmoq. Shoir yor yuzining tongligi, ya'ni oqligi, yorug'ligidan hayron qolmoqda.

Mumtoz adabiyotdagi yana bir o'ziga xos she'riy san'at bu "tardiaks"dir. Ya'ni bunda shoir ikki so'zni ketma-ket qo'llab, ikkinchi misrada shu ikki so'zning aksini qo'llaydi.

Mirob shoirmi yo shoirmi mirob,

Faryod daryomi yo daryomi faryod?

Ushbu baytda "iyhom" san'ati ham qo'llangan. Ya'ni shoir o'quvchini shubhaga solmoqda. Mirob shoirmi yoki shoir mirobmi, degan savol o'quvchini o'ylantirib qo'yadi.

"Takrir" (arabcha "takrorlash") san'ati – muayyan she'ra yoki bu so'zni takror qo'llashdir. So'zni takrorlashdan maqsad, o'sha so'zning ma'nosini, tub mohiyatini ta'kidlash, unga o'quvchi diqqatini tortishdir. Matnazar Abdulhakimning "Bog'larda xazonlar sipohi..." deb boshlanuvchi she'ri boshdan oyoq mana shu san'at ustiga qurilgan. Har bir band yakunida takrorlarni ko'ramiz. To'rtinchi band ayniqsa ta'chirchan:

Sokinlikdan qattiq dimiqqan

Borlig'im shahd tilar, g'ulu tilar.

Yog'ib yog'mas, tarqab tarqamas

Bulutlar...bulutlar...bulutlar...

Shoir o'z ruhiy holatini "yog'ib yog'mayotgan", "tarqab tarqamayotgan" bulutlarga o'xshatmoqda. Bulutlar so'zining uch marta takror ishlatilishi o'quvchini shoir chizgan tasvirga tezroq olib kirishga yordam beradi.

"Takrir" san'atiga yaqin turuvchi yana bir san'at bu "mukarrar" (arabcha; takror-takror; qayta-qayta) san'atidir. V.Rahmonovning yozishicha, shoir baytda takror-takror bo'luvchi so'zni ishlatadi. "Takrir"dan farqli ravishda "mukarrar" so'zlar orasiga defis qo'yiladi va takror so'zning ikkinchisi nutqdagi "xo'p, juda, rosa" kabi kuchaytiruvchi so'z vazifasini bajaradi. Matnazar Abdulhakim she'riyatida ushbu san'atning bebaho namunasi uchramiz:

Seviklim! Vasl-u hijron boshqa-boshqa,

Guliston birla zindon boshqa-boshqa.

V.Rahmonovning yozishicha, mumtoz adabiyotdagi "muvozin" (arabcha; tengdoshlik) san'atida birinchi misradagi so'zlar ikkinchi misradagi so'zlar bilan vazn jihatidan ham, talaffuz jihatidan ham teng bo'ladi. Muvozinada

"parallel so'zlar miqdori teng, so'zlar hijolari teng, o'qishdagi parallel misralarga sarflanadigan vaqt ham tengdir. Demak, shoir baytni shunday tuzadiki, birinchi misrada nechta ritmik to'xtam va pauzalar bo'lsa, ikkinchi misrada ham aynan o'sha holat takrorlanadi". Matnazar Abdulhakimning ushbu beshligida:

Yorlarga yorlardirlar aziz,

Zorlarga zorlardirlar aziz,

Torlarga torlardirlar aziz,

Raqsidan ko'p xorlardirlar aziz,

Ham azizlar xor-zor o'ynab kular, deyilgan.

Ushbu bandning dastlabki uch qatori muvozin san'atiga misol bo'la oladi. Demak, shoir mumtoz she'riy san'atlarni faqat aruz vaznidagi she'rlarida emas, balki barmaq vaznidagi she'rlarida ham mohirona qo'llay olgan. Shuningdek, shoirning "Bahorlar keldi, ketdi" radifli g'azalida ham ushbu san'atning betakror namunasi uchramiz:

Misol bir dam, bahorlar keldi, ketdi,

Nechun bu g'am, bahorlar keldi, ketdi.

Mumtoz adabiyotdagi yana bir go'zal an'ana bu "tazmin" (arabcha; bir narsani ikkinchi bir narsa orasiga qo'yimoq) bog'lashdir. Bunda ijodkor yaratilayotgan asariga boshqa biror shoirning kuchli ta'sir qilgan misra yoki misralarini o'zgartirishsiz olib kiradi, ammo buning o'zgarish sharti bor: ya'ni yaratilayotgan asardagi bosh g'oyaga mos bo'lishi, uning mohiyatini chuqurroq va ta'sirchanroq ochishi lozim. Matnazar Abdulhakim ham ushbu an'anaga sodiq qolib, shoir Abdulla Ahmadning g'azaliga muxammas bog'lagan:

O'zni qutlay Siz bilan, tanlarni, chun, jonlar bilan,

Qushni, singan kun qafas, qutlayman osmonlar bilan,

Yelkamizga tegdi oftob, erdi gavronlar bilan,

Do'stlarim, tabrik qilay bu yaxshi davronlar bilan,

Maqsadi bir, hamnafas do'st-u qadrdonlar bilan.

Banddagi oxirgi ikki misra Abdulla Ahmadning qalamiga mansub bo'lib, bandga o'zgartirishsiz olib kiritilgan. Milliy istiqlol g'oyasi ilgari surilgan ushbu muxammas – beshlikda shoir "qushlar", "singan qafas", "osmon" obrazlari orqali ozodlikka erishgan xalqimizni tasvirlamoqda.

Mumtoz adabiyotdagi e'tiborga molik she'riy san'atlardan yana biri bu, shubhasiz, "tadrij" (arabcha; ketma-ket, peshma-pesh) san'atidir. Bunda tasvirga olingan obyekt darajama-daraja rivojlantirib boriladi; bu rivojlanish jarayoni o'xshatish vositasi bilan ketma-ket o'sib boradi.

Faryod, bu ne qirg'inlar, faryod, bu ne xunrezlik,

Olamga kelib odam, to'kmak ishi tinmay xun.

Baytdagi "bu ne" birikmasi "qirg'inlar" so'zidan "xunrezlik" kacha o'sib boradi, bayt esa "tinmay xun to'kmak" bilan yakunlangan. Bunda darajama-daraja o'sib borishni ko'rishimiz mumkin. Baytdagi tasvir "qirg'in" – "xunrezlik" – "tinmay xun to'kish" tarzida rivojlanib borganini ko'ramiz.

"Irsol-u masal" (arabcha; maqol keltirish) she'riy san'ati ham mumtoz adabiyotda keng tarqalgan. Ushbu san'at baytda fikr qaymog'ini tashuvchi, ayni paytda, judayam siq shakldagi maqollarni qo'llash san'atidir. Mumtoz adabiyotda hatto har bir bayti shu san'at ustiga qurilgan g'azallar ham bor. Bularning ichida eng mashhuri Lutfiyning "Oyoqingg'a tushar har lahza gisu..." g'azalidir. Tadqiq etayotganimiz shoir ijodida ham ushbu san'atdan o'rinni foydalangan she'r va g'azallar ko'plab uchraydi. Misol uchun, shoirning "Topar" radifli g'azalida xalqimiz juda ko'p ishlatadigan maqollardan biri keltirilgan:

Topdi ko'nglim zor bo'lib ko'nglingni, yor,

Har qachon tilloni, bil, tillo topar.

Xalqimiz o'tmishda "Tilloni tillo topar" shaklida ishlatgan ushbu maqol hozirgi kunda "Pulni pul topar" shaklida ishlatilmoqda. Lirik qahramon yorning ko'ngli o'z ko'ngliga munosibligini, shu sababdan ular bir-birini tezda topib olganini isbotlash uchun mazkur maqoldan unumli foydalangan.

"Tajohuli orif" (arabcha; bilib-bilmaslikka olish) san'ati ham mumtoz adabiyotda keng qo'llaniladi. Ushbu san'at "andin iboraturkim, so'zlaguvchi bir nimani bilur, bir nuqta bila o'zni bilmagandek ko'rsatur" (Atoullah Husayniy). Ushbu san'at qo'llanilgan bayt mazmunida gumonsirash, ikkilanish, shubhalanish, hayratlanish, ajablanish tuyg'ulari yaqqol ko'zga tashlansa-da, shu hissiyotlar orqali haqiqat, asos jonli va go'zal tarzda g'aydalanadi.

Oh, shoh-u gadolarning sirtinda tafovut ko'p,

Kimning dilida oqqay, kim aytadi, oh, qay xun?!

Lirik qahramon shoh va gadolarning tashqi ko'rinishida farq ko'pligini eslatib, ammo ularning dilida qanday qon oqayotganligini o'quvchidan so'ramoqda. Ya'ni shoir bilib turib, bilmaslikka olmoqda. Ammo ushbu baytda lirik qahramon tomonidan shohning ham gadoning ham bir xil inson ekanligi ta'kidlanayotganini sezish qiyin emas. Baytda ushbu she'riy san'atdan o'rinni foydalanilgan.

Shoirning "Quduq" dostonida ham "tajohuli orif" san'ati ustiga qurilgan bandlarni uchramiz:

Daryo bo'larmidi, tin desang tinib,

Daryo bo'larmidi, oq desang, oqsa.

"Talmeh" (arabcha; nazar somoq, ko'z qirini tashlash) san'atida shoir qahramon siymosini gavdalanirishda uni o'tmishdagi mashhur adabiy, diniy yoki tarixiy qahramonlar bilan qiyoslaydi, o'xshatadi; goho o'sha o'tmish qahramonlari ismi-shariflarini keltiradi. Matnazar Abdulhakimning "Qo'shiq" radifli g'azalida "talmeh" san'ati qo'llangan:

So'z soz, soz so'z izlagay,

Majnun bilan Laylo qo'shiq.

Baytdagi "so'z soz, soz so'z" tarzida qo'llanilishi "tardi aks" san'atini ham hosil qilgan. So'zning soz izlashi, sozning esa so'z izlashi Layli va Majnunning bir-birini

mudom izlagani va intilganiga qiyos qilinmoqda, o'xshatilmoqda. Oxir-oqibat paydo bo'lgan qo'shiq "Layli bilan Majnun", ya'ni "oshiq-ma'shuq" deb atalmoqda. Layli bilan Majnun o'tmishdagi mashhur adabiy qahramonlarga misol bo'ladi. Shuningdek, mumtoz adabiyotda tarixiy-diniy qahramonlarga ham murojaat qilinadi. Ya'qub alayhissalom o'g'li Yusuf alayhissalomdan ayrilib, ko'zlari ojiz bo'lib qolganini bilamiz. Matnazar Abdulhakim ushbu qahramonlarni yodga olish orqali o'z holatini ifodalaydi:

Yusufdan ayrilib qolgan g'arib Ya'qub misoliman,

Kelur diydanga nur kelsang agar, bolam kelur, kelsang.

Shu paytgacha she'riyatda yor diydoriga yetishish diydaga nur kelishiga ko'p bora o'xshatilgan. Ammo yorning kelishini farzandning kelishiga o'xshatish adabiy tasvirdagi yangilik desak bo'ladi. Bunda "talmeh" san'ati bilan birgalikda "tashbeh" ham qo'llangan. "Tashbeh" (arabcha; o'xshatish) san'atida shoir bir predmet yoki hodisani boshqa bir predmet yoki hodisaga o'xshatadi. Matnazar Abdulhakimning she'riyatda qo'llagan tashbehlari, o'xshatishlari originalligi, chuqur falsafaga yo'g'rilgani bilan ajralib turadi. Masalan, mana bu baytni olsak:

Ro'mol yechding, sochildi sochlaring sho'x,

Bu tutqunlarga istiqloq muborak.

Sochlarni ro'mol ichidagi tutqunlarga, uning yozib yuborilishi esa istiqloqga erishishga o'xshatish o'quvchini hayratlantirmay qolmaydi.

"Harf san'ati" (harfiy san'at)da arab alifbosidagi harflar yorning qomatiga yoki biror tana a'zosiga o'xshatiladi. Matnazar Abdulhakim ushbu birmuncha murakkab she'riy san'atni ham o'rinlatib qo'llagan.

Qomating nevcun "alif"dir, zulflaringdir "lom-u "mim",

Hikmatin anglay desam, bo'ynimga zunnor bog'lanur.

"Tamsil" (arabcha; misol keltirish) san'ati professor Anvar Hojiahmedovning yozishicha, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'atdir. Matnazar Abdulhakim she'riyatida ham ushbu san'atning benazir namunalarini uchratamiz:

Visol dil hushlarimni sayratur sho'x,  
Misol: bulbulga bo'ston bo'lsa bo'ldi.

Ko'nglim kecha-yu kunduzi jonon talabinda,  
Bulbul kabidir, bog' ila bo'ston talabinda.

Ko'chadan ko'z uzmadim, kelgaymusan deb, bir nafas,

Bo'lsa dard og'ir, tabib yo'lga bemor bog'lanur.

Ushbu baytlarning har birida avval oshiqning holati berilgan. So'ngra shu holatga sabab bo'lgan biron hayotiy voqea misol qilib keltirilgan. "Visol dil qushlarimni sayratur sho'x" holatiga "Misol: bulbulga bo'ston bo'lsa bo'ldi" hayotiy haqiqat misol qilib keltiriladi. "Tamsil" – misol keltirish san'ati dedik. Aynan ushbu baytda "misol" so'zining aynan o'zi berilishi va so'ngra hayotiy voqea-hodisot keltirilishi ham shoirning yuksak badiiy mahoratidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Matnazar Abdulhakimning an'anaviy ishqiy mavzudagi g'azallarida teran tafakkur tarzi, ustozlardan ta'sirlanish, yangi davr ruhi, an'anani boyitish yo'lidagi badiiy izlanishlari o'z aksini topgan. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov ta'kidlaganidek: "Ta'sirlanish jarayonida ijodkor o'zida mavjud potensial imkoniyatlarni ishga solib, ijodda favqulodda zo'r natijalarga erishadi". Matnazar Abdulhakim she'riyatida ham mana shunday favqulodda zo'r natijalarni ko'ramiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Solijonov Y. Hozirgi o'zbek lirikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. FDU, 2009.
2. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Darslik. -T.: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Umurov S. Detal va tafsilot. //Sovet maktabi, 1966.
4. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. 1 jild, T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2017.
5. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. 2 jild, T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2017.
6. Matnazar Abdulhakim. So'z chamani. Tuzuvchi Muhiddin Abdusamad. She'rlar, nazm. Akademnashr, 2020.
7. Matnazar Abdulhakim. Ko'prik. She'rlar, nazm. Yangi asr avlodi, 2009.



*Begoyim ABDUSATTOROVA,*  
*Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti*  
*E-mail: begoyimabdusattorova@mail.ru*

*DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

**STUDY OF MOOD CONCEPT VERBALIZERS BASED ON THE TRANSLATIONS OF THE WORK  
"BABURNOMA" FROM UZBEK TO ENGLISH BY DIFFERENT PEOPLE**

Annotation

This article contains information about the study of the famous work "Boburnoma" by various translators and the fact that the English translators tried to preserve the originality and artistic character of the work, as well as the scientific tendency in the translations in terms of artistic style, the translations of the proverbs in it. It is given that they tried to translate the proverbs in English through an equivalent that is close to their meaning.

**Key words:** Translation, aphorism, dictionary, equivalent, historical image, content.

**ИЗУЧЕНИЕ ВЕРБАЛИЗАТОРОВ КОНЦЕПТОВ НАСТРОЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПЕРЕВОДОВ ПРОИЗВЕДЕНИЯ  
«БАБУРНОМА» С УЗБЕКСКОГО НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, СДЕЛАННЫХ РАЗНЫМИ ЛЮДЬМИ**

Аннотация

В данной статье содержатся сведения об изучении знаменитого произведения «Бобурнома» различными переводчиками и о том, что английские переводчики старались сохранить оригинальность и художественный характер произведения, а также научную направленность переводов с точки зрения художественный стиль, переводы пословиц в нем. Приводится, что пословицы на английский язык пытались перевести через эквивалент, близкий к их смыслу.

**Ключевые слова:** Перевод, афоризм, словарь, эквивалент, исторический образ, содержание.

**“BOBURNOMA” ASARINING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TURLI SHAXSLAR TALQINIDA QILINGAN  
TARJIMALARI ASOSIDA KAYFIYAT KONSEPTI VERBALIZATORLARINI O'RGANISH**

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashhur “Boburnoma” asarini turli tarjimon shaxslar tomonidan o'rganilganligi va ingliz tarjimonlari asarning o'ziga xosligi, badiiy xususiyatini saqlab qolishga intilganliklari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan hamda tarjimalarda badiiy uslub jihatidan ilmiylikka moyillik, undagi maqollar tarjimalari ingliz tilidagi maqollar mazmuniga yaqin bo'lgan ekvivalent orqali tarjima qilishga harakat qilishganligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarjima, aforizm, lug'at, ekvivalent, tarixiy tasvir, mazmun.

**Kirish.** Boburnoma asari ko'p marta turli shaxslar tomonidan o'rganilgan va tarjima qilingan. Eng birinchi tarjima yesa Jon Leyden Vilyam Erskin tomonidan 1826 yilda amalga oshirilgan. 1921 yilda yesa Annetta Susanna Beveridj ikkinchi marta Boburnomani tarjima qilishga qo'l urdi. Eng so'nggi tarjima esa Xiler Tekston edi va u zamonaviy ingliz tiliga 1996 yilda nashr qildi.

R.M.Kaldikot (1879), A.S.Beverij(1921), F.Talbot (1909), L.King (1921), V.Tekstonlar (1996) xam Boburnomani ingliz tiliga tarjima qilishgan. Amalga oshgan tarjimalar orasida J.Leyden-V.Erskin, A.S.Beverij va V.Tekstonlarning olimlar tomonidan nisbatan mukammal va to'liq deb topildi.

Erskinning tarjimasida fors tilidan, Leydenning asliyati tili – eski o'zbek tilidan (ba'zi manbalarda qayd etilishicha «chig'atoy tili») tarjima qilingan. Erskinning tarjimasida Har tomonlama maqtovg'a arzigulik, sifati, saviyasi bilan ajralib turadi, uning ishi asliyat tilining uslubi bilan mos tushgan.

1909 yilda F.Talbot «Boburnoma»ning inglizcha tarjimasini chop ettirgan. Ushbu tarjima asosida bir qancha nashrlar chop etildi. 1845 yilda Leyden–Erskin tarjimasining qisqartirilgan variantini R.M.Kaldikot chop ettirgan. 1879 yilda esa sharqshunos olim F.Talbot ushbuqisqartirilgan nashrning ikkinchi variantini bosmadan chiqargan. L.U.King 1921 yilda muhim ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirilgan «Boburnoma»ning ikkinchi nashrini chop ettiradi. Ushbu nashrda “Boburnoma” dagi uzilib qolgan yillar voqealari boshqa manbalardan olib tiklagan.

**Tadqiqot mavzusidagi mavjud muammolar.** N.Otajanovning fikriga ko'ra, ingliz tarjimonlari asarning o'ziga xosligi, badiiy xususiyatini saqlab qolishga intilganlar. U tarjimalarning tili haqida ham bunday deb yozadi: «Leyden–Erskin tarjimasida uslub ataylab ingliz o'quvchisiga tushunarli qilib tanlanganday. Aksincha, Beverijning tarjimasida quruqroq, ilmiy tilda bitilgan». Professor Tekston esa, A.S.Beverijning tarjimasida talabalarning ishiga o'xshaydi, barcha so'zlar xuddi lug'atdagining o'zginasi, turkiy (o'zbek) va inglizcha so'zlarni aynan mos keltirishga harakat qilgan deya fikr bildiradi.

“Boburnoma”ning Leyden–Erskin tarjimasida murakkab va asliyadagi so'zlar miqdoriga solishtirganda har bir satrda uch to'rttaga oshib borgan. Susanna Beverijning tarjimasida badiiy uslub jihatidan ilmiylikka moyil, undagi maqollar tarjimalari ingliz tilidagi maqollar mazmuniga yaqin bo'lgan ekvivalent orqali tarjima qilingan va bu Leyden–Erskinda ham aks etgan. S.Beverijning tarjimasidan roppa-rosa 75 yildan keyin, 1996 yilda professor Vil'yer Tekston uchinchi bor «Boburnoma»ning mukammal inglizcha tarjimasini chop ettiradi. Mazkur tarjimaning nashr etilishi Bobur Mirzo hayoti, ijodi va davri haqidagi ma'lumotlarni boyitdi.

Muammoni hal qilish usullari; V.Tekston ko'proq diqqat-e'tiborini asliyat uslubi va maqol ohangdoshliginiga qaratdi. Muallif “Boburnoma” da keltirilgan tarixiy shaxslar xarakterini ochib berishda maqollar va matallarni o'z o'rnida qo'llab, emotsional xolat, baxo munosabat va shaxsga nisbatan fikr bayonini tasvirlaydi. Misol uchun; xayotda sodir

bo'lgan, jon talvasasidagi navkarlariga nisbatan ushbu aforizmni qo'llagan;

Agar sad sol moni va-r yake ro'z,  
Biboyad raft az in koxi dilafro'z.

Aforizmi quyidagicha ma'noga yega; Agar yuz yil va agar birgina kun yashasang xam ko'ngil oluvchi bu qasrdan ketish kerak bo'lur.

Quyidagi gapni yendi J.Leyden-V.Erskin (1826), A.S.Beverij (1921), V.Tekstonlar (1996) tarjimalarida qay darajada ifoda yetilganini ko'ramiz.

J.Leyden-V.Erskin tarjimasida: Should a man live a hundred, may a thousand years, yet at last he ..... Mazmuni yesa: Garchi inson yuz yil, balki ming yil yashasa, nixoyat..... bu yerda tarjima tugatilmagan.

S.Beverij tarjimasida: If a man live a hundred years or thousand years, at the last nothing..... Tarjima esa quyidagicha; Agar inson yuz va ming yil yashasa xam, nixoyat xech narsa... bu yerda xam tarjima nihoyasiga yetmagan.

"Boburnoma" ni 1996-yilda tarjima qilgan so'nggi ingliz tarjimoni V.Tekstonda esa muallif nazarda tutgan fikrni to'liq bo'lmasda yakunda yetkazishga muvaffaq bo'lgan va Boburning achinishi va afsuslanish kayfiyatini yetkazib bera olgan: Be it a hundred years or one day, in the end must depart from this noxious palace.

Leyden-Erskin bilan S.Beverijlarning tarjimalari ma'no jixatdan aslyatdagi yuz yil va agar birgina kunning bir-biriga zid bo'lgan, kontrast ma'nosini qo'llab, a hundred years or thousand years- yuz yil yoki ming yil, tarzida bergan, yuz yil a hundred, birgina kun- a thousand ga o'zgartgan. Tarjimada ba'zi so'zlarning yo'qotilish xisobiga ekspressiv ma'no kuchaytirish bilan ikkinchi qism to'ldiriladi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar; Yuqoridagi misollarni ko'rib chiqqan xolda Agar yuz yil va agar birgina kun yashasang xam ko'ngil oluvchi bu qasrdan ketish kerak bo'lur ni quyidagicha tarjima qilinishi eng maqbul variant deb topildi : Though a man lives a one or a hundred years, he must leave this much-admired palace one day.

Boshqa misol bilan tanishib chiqsak: Tarixshunos olim Muhammad xaydar Mirzoga nisbatan : Otasini o'zbek o'lturgandin so'ng kelib, mening mulozamatimda uch-to'rt yil bo'ldi,so'ngra ijozat tilab,Qoshg'arga xon qoshig'a bordi.

Boz gardad ba asli xud xama chiz,  
Zarri sofiyu nuqravu arziz.

Ma'nosi esa: Xamma narsa: Xox sof oltin, xox kumush xox qo'rg'oshin bo'lsin, baribir o'z asliga qaytadi. Bu tarixda, deydurlarkim, toyib bo'lub, yaxshi tariqa paydo qilibdur.

J.Leyden-V.Erskin tarjimasida: .... after his father was slain by the Uzbeks he entered my service and maintained in it three or four years; he than took leave of me and went to Kashghar to the Khan; but as:

But as everything returns to its original principles,

Whether pure gold, or silver, or tin; It is said that he has now adopted a commendable course of life and become reformed.

Susanna Beverij esa quyidagicha tarjima qilgan: He was in my service for three or four years after the Auzbegs slew his father, then asked leave to go Kashghar to the presence of SI Said Khan.

"Everything goes back to its source,  
Pure gold, or silver or tin."

People say, he now lives lawfully and has found the right way.

Mumtoz asarlarda qo'llangan aforizmlarni kuzatsak, tarjimonlar ko'p xollarda so'zma so'z tarjimadan foydalanishadi va bunga eng oson yo'l deb qarashadi. Chunki, unga mos ekvivalentlarini qidirib topish uchun unga aloqador asarlarni mutolaa qilish, manbalardan izlanish zarur va bu ko'p vaqt talab qiladi.

"Boburnoma" dagi yana bir misolni ko'rib chiqsak: "Bu besh kunluk o'lar jon uchun yomon ot bila bordi. Xotun so'ziga kirib, o'zini neknomlar chargasidan chiqardi. Mundoq kishining vaqoyini mundin ortuq bitib bo'lmas. Bu yo'sunluq shani" xarakotni mundin ortiq eshitib bo'lmas."

"Bu besh kunluk o'lar jon uchun yomon ot bila bordi" gapida muallif bu yerda asardagi qaxramonga baxo beradi. Jon Leyden va Vil'yam Erskinlarning tarjimasida : " From this over-anxiety to preserve this transitory and mortal life , he left a name of infamy behind him; and, from following the suggestions of a woman, struck himself out of the list of those who have earned for themselves a glorious name. It's impossible to write any more of the transactions of a such a personage, and impossible to listen any farther to the recital of such and dastardly proceedings".

Susanna Beverij esa " For a matter of this five-days mortal life, he died with a bad name; having entered into a woman's affairs, he withdrew himself from the circle of man of good repute. Of such people's doings no more should be written; of acts so shameful, no more should be heard " tarzida tarjima qilgan.

"Boburnoma" da yana bir "Qopudagini qopmasa, qariguncha qayg'urur" maqoli ishlatilgan. Bu maqol mazmun jihatdan anglash juda mushkul. Chunki bu maqolning zamirida Boburning yon atrofdagi beklaridan biri-Vays Log'ariyning maslaxati bilan dushman ortidan bormaganligi va bu xolatning oqibati kelgusida Andijonni tashlab chiqishgacha sabab bo'lgani va bu Boburni dilini ranjtgani va bu o'zining xatosiga ko'ra bo'lgani nazarda tutilgan.

Leyden-Erskin esa quyidagicha tarjima bergan: He that does not seize what comes into his grasp. Must indulge his regret even to old age, and repine. Bu quyidagicha " Kimki qo'lidagini ushlab qololmasa, qariguncha ko'ngilchanligidan afsuslanib va zorlanib yuradi."

A.S.Beverij o'zining tarjimasida: Work must be snatched at betimes.Vain is the slacker's mistimed work.

Hiler Tekston esa quyidagicha tarjima qilingan: " If you don't seize what is at hand you will rue it until old age". " Qo'lingdagini tutib qololmasang, qariguncha achinib yurasan".

Uch xil variant va ma'no jihatidan A.S.Beverijda kuchaytirilgan, Leyden Erkinda esa ma'no kengaytirilgan,Tekston tarjimasida 'a'no toraytirilgan.

"Boburnoma" da berilgan " teng bo'lmaguncha, to'sh bo'lmas" maqolini Leyden Erskin " A narrow place is large to the narrow-minded ", Hiler Tekston esa " There is no noon without dawn" shaklida tarjima qilgan. Ammo Hiler Tekston qofiyadosh ko'rinishiga e'tibor berib maqol mazmunini buzilgan. Aslida esa " teng bo'lmaguncha, to'sh bo'lmas" iborasi " No equals, never make friends" deb tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi.

Ingliz sharqshunosi Monstyuart Elfinstonning "Boburnoma" va uning bosh qahramoni haqida aytgan quyidagi fikrlari e'tiborga molikdir: "Bu xotiralarda buyuk turkiy podshoning hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his-tuyg'ulari har qanday mubolag'a va pardalash lardan xoli. Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlar va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir. Bobur harbiy odamning tashqi ko'rinishi, kiyimi, tab'i va odatlarini ifoda etadi, mamlakatlarni, ularning iqlimi, tabiati, xo'jaligi, san'at va hunarmandlik namunalarni tasvirlab beradi. Lekin muallifning yorqin xarakteri asarga eng kup joziba bag'ishlaydi". (Elphinstone has also remarked about it thus- "Almost the only piece of real history in Asia. " Besides, the description of Babur regarding friends and foes, his emotional reaction to individuals and circumstances, natural beauty of

mountains, rivers, forests and flowers is very much absorbing which credits his biography as a piece of literature).

“Boburnoma” da Alisher Navoiy to‘g‘risida Mizoji nozik iborasi ishlatilgan va bu o‘quvchida Alisher Navoiy nozik tabiatli, kayfiyati tez o‘zgaruvchan degan xulosaga keladi.

Inglizcha tarjimada esa (Levden-Erskinda): Ali Sher Beg was celebrated for the elegance of his manners deb berilgan.

Leyden-Erskin ishiga yozilgan Lukas Uayt King maqolasida mazkur 1826 yilgi inglizcha tarjima “to‘liq va jozib” deb baholanadi. Bobur zamonasida, deydi u, o‘tkir zexnlilik, fors mumtoz adiblarining asarlarini bilish, ruboiynavislik san‘ati va ruboiyxonlik har qanday qahramonlik va jasoratdan ham ko‘proq qadrlangan. Bobur

juda qiyin paytlarda ruboiylar yozar, xatarnok, tang kezlarda maxzun g‘azallar bitib, ularga kuy bastalab, orom olgan.

“Boburnoma”da Jon Leyden bilan Vilyam Erskin xamkorlik qilgan. (Leyden vafotidan keyin Erskin uning chala kolgan tarjimasini uz tarjimasini bilan kushib, ishni nihoyasiga yetkazgan). Erskin muqaddimasida, Zaxiriddin Muhammad Bobur o‘zi yozgan “Vaqoye”dan nihoyatda mamnun bo‘lganligi, o‘z hayotining nihoyasida asarning bir nusxasini Hindistondan Kobulga jo‘natganini aytib o‘tgan. Bobur vafotidan sung “Boburnoma” Dexli va Agra saroylarida juda e‘tibor va shuxrat topganligi va Xumoyun taxtga chiqqanidan so‘ng va o‘limidan oldin bu kitobni o‘z qo‘li bilan ko‘chirganligi haqida ham ma‘lumot berilgan. Leyden-Erskin inglizcha tarjimasining tarixi izlanish, umidsizlik va ishonch bilan to‘la samarali ish bo‘lib qolgan.

#### ADABIYOTLAR

1. A.Sodiqov, A.Abduazizov, M.Irisqulov “Tilshunoslikka kirish” Toshkent «O‘qtuvchi», 1981
2. A.E.Mamatov, “Zamonaviy lingvistika” Toshkent, “Noshir” 2019
3. Zaxiriddin Muxammad Bobur. Boburnoma.”IJOD PRESS” 2019
4. R.Rasulov.” Umumiy Tilshunoslik”. Toshkent-2010.
5. S.Hasanov. “Zahiriddin Muhammad Bobur”. Toshkent- “ O‘zbekiston”.2011.-88 b.
6. Safarov.Sh. “Konsept” hodisasi haqida/Sistem-Ctruktur tilshunoslik muammolari (N.Q.Turniyozov tavalludining 70 yilligiga bag‘ ishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi materiallari ). Samarqand-2010.
7. Teshaboyeva Z.Q. «Boburnoma»ning inglizcha tarjimalarida maqollarning berilishi. Toshkent davlat sharqshunoslik institutining ilmiy jurnali. № 1, TDSH. – 2011. – B.76-78. (07.00.00; №10).
8. Teshaboyeva Z.Q. «Boburnoma»dagi matal va frazeologik birliklarning inglizcha tarjimalari xususida. Filologiya masalalari. – Toshkent: O‘zDJTU. – 2016. – № 1. – B.111-115. (10.00.00; №18).
9. Teshaboyeva Z.Q. «Boburnoma»dagi aforizmlarning inglizcha tarjimalarda aks etishi. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2016. – № 4. – B.121-125. (10.00.00; № 1).
10. Z.Teshaboyevaning “«Boburnoma» ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklarning kognitiv va leksikografik tadqiqi” Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati 2021.





*Madina ALLIDINOVA,*  
*Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor-tadqiqotchisi*  
*E-mail: madina@mail.ru*

*DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida*

**THE CONCEPT OF THE AUTHOR IN CONTEMPORARY RELIGIOUS-MORAL PROSE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK AND RUSSIAN LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF O. NIKOLAIEVA, A. VARLAMOV, Y. VOZNESENSKAYA)**

Annotation

This article examines the concept of the author in contemporary religious-moral prose through a comparative analysis of Uzbek and Russian literature, focusing on the works of O. Nikolaeva, A. Varlamov, and Y. Voznesenskaya. By examining their narrative methods, character development, and thematic preoccupations, the study aims to highlight both the similarities and differences in their approaches to spirituality, morality, and human existence. The analysis reveals how these authors navigate their cultural contexts while shaping their narratives, contributing to a deeper understanding of the role of the author in contemporary religious and moral discourse. This comparative study highlights the richness and diversity of contemporary religious and moral prose in Uzbek and Russian literature, offering insights into the enduring significance of faith and morality in literature.

**Key words:** contemporary literature, religious prose, moral prose, uzbek literature, russian literature, O. Nikolaeva, A. Varlamov, Y. Voznesenskaya, narrative techniques, character development, thematic study, spirituality, morality.

**КОНЦЕПЦИЯ АВТОРА В СОВРЕМЕННОЙ РЕЛИГИОЗНО-ПРАВСТВЕННОЙ ПРОЗЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ И РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ О. НИКОЛАЕВОЙ, А. ВАРЛАМОВА, Ю. ВОЗНЕСЕНСКОЙ)**

Аннотация

В данной статье авторская концепция в современной религиозно-нравственной прозе рассматривается посредством сравнительного анализа узбекской и русской литературы с акцентом на произведения О. Николаевой, А. Варламова и Ю. Вознесенская. Изучая их повествовательные методы, развитие персонажей и тематические занятия, исследование направлено на то, чтобы подчеркнуть как сходства, так и различия в их подходах к духовности, морали и человеческому существованию. Анализ показывает, как эти авторы ориентируются в своем культурном контексте, формируя свои повествования, способствуя более глубокому пониманию роли автора в современном религиозном и моральном дискурсе. Это сравнительное исследование подчеркивает богатство и разнообразие современной религиозно-нравственной прозы в узбекской и русской литературе, предлагая понимание непреходящего значения веры и морали в литературе.

**Ключевые слова:** современная литература, религиозная проза, моральная проза, узбекская литература, русская литература, О. Николаева, А. Варламов, Ю. Вознесенская, повествовательные техники, развитие персонажа, тематическое исследование, духовность, мораль.

**ZAMONAVIY DINIY-AXLOQIY NASRDA MUALLIF KONSEPSIYASI: O‘ZBEK VA RUS ADABIYOTINING QIYOSIY TAHLILI (O. NIKOLAYEVA, A. VARLAMOV, Y. VOZNESENS NASILDA)**

Annotation

Ushbu maqolada muallifning zamonaviy diniy-axloqiy nasrdagi tushunchasi O. Nikolaeva, A. Varlamov va Yu. Ularning hikoya qilish texnikasi, xarakter rivojlanishi va mavzuga oid izlanishlarini o‘rganib, tadqiqot ularning ma’naviyat, axloq va inson borlig‘iga bo‘lgan yondashuvlaridagi o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatishga qaratilgan. Tahlil ushbu mualliflar o‘zlarining hikoyalarini shakllantirish uchun o‘zlarining madaniy kontekstlarini qanday yo‘naltirishlarini ochib beradi va muallifning zamonaviy diniy va axloqiy nutqdagi rolini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shadi. Ushbu qiyosiy tadqiqot o‘zbek va rus adabiyotidagi zamonaviy diniy-axloqiy nasrning boyligi va rang-barangligini ko‘rsatib, adabiyotda e‘tiqod va axloqning doimiy ahamiyati haqida tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy adabiyot, diniy nasr, axloqiy nasr, o‘zbek adabiyoti, rus adabiyoti, O. Nikolaeva, A. Varlamov, Yu Voznesenskaya, hikoya texnikasi, xakterni rivojlantirish, Keys, ma’naviyat, Axloq.

**Введение.** В сфере современной литературы исследование религиозных и моральных тем занимает значительное место, особенно в обществах, где духовные и этические ценности глубоко вплетены в культурную ткань. Узбекская и русская литература, богатая традициями и разнообразием, предлагает убедительные повествования, отражающие сложное взаимодействие веры, морали и человеческого существования. В данной статье ставится задача рассмотреть авторскую концепцию

в современной религиозно-нравственной прозе посредством сравнительного анализа избранных произведений О. Николаевой, А. Варламова и Ю. Вознесенская.

Понятие автора в литературоведении со временем претерпело значительную трансформацию, перейдя от романтической идеи об одиноком гении к более современным взглядам, которые рассматривают автора как продукт своего культурного и социального контекста.

В случае религиозной и моральной прозы роль автора становится еще более важной, поскольку он решает глубокие вопросы веры, этики и человеческого существования. Целью данного исследования является освещение того, как Николаева, Варламов и Вознесенская, каждая из которых имеет свои уникальные культурные и религиозные корни, артикулируют эти темы в своих произведениях.

О. Николаева, видный деятель русской литературы, известна своими интроспективными и духовно-рефлексивными повествованиями. Ее работы часто представляют собой глубоко личный интерес к религиозным темам, приглашая читателей присоединиться к путешествию духовных исследований и моральных вопросов. А. Варламов, другой значительный российский писатель, предлагает иной подход, акцентируя внимание на этических дилеммах и моральном выборе, с которыми сталкиваются его герои. Его рассказы дают более широкий взгляд на человеческое поведение и его моральные последствия, подчеркивая сложность и нюансы этического принятия решений.

Ю. Вознесенская, известная своим изображением веры перед лицом невзгод, привносит в дискуссию еще одно измерение. В ее историях часто изображены главные герои, которые обретают силу и стойкость благодаря своим религиозным убеждениям, подчеркивая преобразующую силу веры. Посредством сравнительного анализа этих авторов данная статья направлена на раскрытие различных и пересекающихся способов их взаимодействия с религиозными и моральными темами, тем самым способствуя более глубокому пониманию концепции автора в современной прозе.

Изучая повествовательные техники, развитие персонажей и тематические проблемы Николаевой, Варламова и Вознесенской, это исследование выяснит, как культурный и религиозный контекст каждого автора влияет на их творчество. Он также подчеркнет уникальный вклад узбекской и русской литературы в более широкий дискурс о духовности и нравственности в современной литературе. Благодаря этому анализу мы надеемся пролить свет на непреходящее значение религиозных и моральных тем в современной прозе и жизненно важную роль автора в формировании этих повествований.

**Методология.** В этом исследовании используется сравнительный литературный анализ с упором на избранные тексты каждого автора. Анализ учитывает повествовательный голос, развитие персонажей, тематическое исследование и культурный контекст. Помещая эти тексты в рамки соответствующих литературных традиций, исследование стремится выявить отличительные особенности подхода каждого автора к религиозно-нравственным вопросам.

О. Николаева: Голос духовного размышления. Произведения О. Николаевой часто затрагивают сложности человеческой духовности и нравственности. Ее повествовательный стиль отличается глубоким интроспективным характером, отражающим личное участие в религиозных темах. В таких романах, как «Молитва за живых», Николаева использует повествование от первого лица, которое вовлекает читателей в духовное путешествие главного героя. Ее персонажи часто изображаются в моменты кризиса или трансформации, ищущие смысла и искупления в мире, полном моральной двусмысленности. Авторское присутствие в прозе Николаевой одновременно направляет и вопрошает, приглашая читателей задуматься о своем духовном пути.

А. Варламов: Моральные дилеммы и этический выбор. Литературный вклад А. Варламова характеризуется исследованием моральных дилемм и этического выбора. В его рассказах часто представлены персонажи, которые сталкиваются с трудными ситуациями, проверяющими их моральные убеждения. В «Испытании веры» Варламов использует всеведущего рассказчика от третьего лица, чтобы представить более широкий взгляд на борьбу и решения персонажей. Эта повествовательная техника позволяет Варламову представить тонкий взгляд на мораль, где авторский голос выступает в роли наблюдателя и комментатора человеческого поведения и его моральных последствий. Работы Варламова подчеркивают сложность нравственного выбора, отражая глубокое понимание состояния человека.

Ю. Вознесенская: Вера перед лицом невзгод. Ю. Проза Вознесенской глубоко укоренена в исследовании веры, особенно перед лицом невзгод. Ее повествования часто сосредоточены вокруг главных героев, которые борются со своими убеждениями в сложных обстоятельствах. В «Женщине, которая не могла забыть» Вознесенская использует повествовательную структуру, которая переплетает прошлое и настоящее, подчеркивая непреходящую природу веры. Авторское присутствие в ее работах — это проявление сочувствия и устойчивости, голос, который резонирует с собственным опытом веры и невзгод читателей. Герои Вознесенской изображены с глубоким чувством внутренней силы, отражающей преобразующую силу веры.

**Сравнительный анализ.** Нарративные приемы, использованные О. Николаевой, А. Варламовым, Ю. Вознесенской отражают их различные подходы к исследованию религиозно-нравственных тем. В произведениях Николаевой, таких как «Молитва за живых», часто используется повествование от первого лица, которое погружает читателей во внутреннее духовное путешествие главного героя. Этот интроспективный стиль позволяет Николаевой глубоко углубиться в личные размышления о вере и морали, создавая ощущение близости и непосредственности.

Напротив, в «Испытании веры» А. Варламова используется всеведущий рассказчик от третьего лица, предлагающий более широкий и отстраненный взгляд на моральные дилеммы персонажей. Эта повествовательная техника позволяет Варламову представить несколько точек зрения и изучить сложность этического принятия решений с разных точек зрения. Всеведущая перспектива также позволяет провести более полный анализ социальных и культурных факторов, влияющих на выбор персонажей.

Ю. В романе Вознесенской «Женщина, которая не могла забыть» повествовательная структура переплетает прошлое и настоящее, обеспечивая многослойное и многогранное изображение веры главного героя. Этот метод подчеркивает непреходящую природу религиозных убеждений и их влияние с течением времени. Вознесенская часто использует ограниченную перспективу от третьего лица, уделяя пристальное внимание переживаниям и эмоциям главного героя, что усиливает эмоциональный резонанс и глубину повествования.

Развитие персонажей в произведениях Николаевой, Варламова и Вознесенской тесно связано с исследованием ими религиозно-нравственной темы. Герои Николаевой часто изображаются в минуты духовного кризиса или трансформации. Например, в «Молитве за живых» путешествие главного героя отмечено интроспективной борьбой и возможным духовным

пробуждением. Герои Николаевой глубоко интроспективны, отражая сосредоточенность автора на личной вере и нравственном самоанализе.

С другой стороны, герои Варламова часто попадают в ситуации, проверяющие их моральные убеждения. В «Испытании веры» персонажи сталкиваются с этическими дилеммами, которые требуют от них сделать трудный выбор, раскрывающий их моральные сильные и слабые стороны. Подход Варламова к развитию характера подчеркивает сложность человеческой природы и запутанное взаимодействие между индивидуальной моралью и социальными влияниями.

Персонажи Вознесенской часто воплощают стойкость и силу, проистекающие из их веры. В «Женщине, которая не смогла забыть» непоколебимая вера главного героя является источником внутренней силы и выносливости среди невзгод. Герои Вознесенской изображены с чувством сопереживания и сострадания, что отражает веру автора в преобразующую силу веры и ее способность поддерживать людей в трудные времена.

Тематическое исследование религиозных и моральных вопросов занимает центральное место в работах всех трех авторов, однако их подходы существенно различаются. Рассказы Николаевой глубоко интроспективны и сосредоточены на духовном пути человека и личных отношениях с верой. Ее работы часто исследуют темы искупления, прощения и поиска смысла в морально неоднозначном мире.

Тематический фокус Варламова лежит на этических сложностях человеческого поведения. В его повествованиях персонажи часто сталкиваются с моральными дилеммами, подчеркивая нюансы и проблемы принятия этических решений. Работы Варламова подчеркивают важность моральной целостности и влияние социального и культурного контекста на индивидуальную мораль.

Работы Вознесенской характеризуются исследованием веры перед лицом невзгод. В ее рассказах часто изображаются главные герои, которые обретают силу и стойкость благодаря своим религиозным убеждениям, подчеркивая преобразующую силу веры. Тематический акцент Вознесенской на выносливости, надежде и поддерживающей силе веры дает острый комментарий к роли религии в человеческой жизни.

Культурный контекст, в котором пишет каждый автор, существенно влияет на его изображение религиозных и моральных тем. Работы Николаевой отражают духовно-нравственные проблемы современного российского общества, часто затрагивая проблемы сохранения веры в светский мир. Ее рассказы находят отклик у читателей, которые сталкиваются с подобными духовными вопросами в своей жизни.

Исследование Варламовым этических дилемм глубоко укоренено в культурных и социальных сложностях современной России. Его работы часто критикуют моральные компромиссы и этические проблемы, с которыми сталкиваются люди в быстро меняющемся обществе. Повествования Варламова дают критическое размышление над нравственной тканью современной российской культуры.

На изображение веры Вознесенской среди невзгод влияют ее собственный опыт и более широкий культурный контекст постсоветской России. Ее работы находят отклик у читателей, которые испытали подобные трудности и находят утешение в своих религиозных убеждениях. Рассказы Вознесенской несут послание надежды и стойкости, отражая непреходящее значение веры перед лицом жизненных проблем.

**Заключение.** Сравнительный анализ О. Николаевой, А. Варламова и Ю. Вознесенской подчеркивает многогранность религиозно-нравственной прозы в современной узбекской и русской литературе. Каждый автор привносит уникальный голос и точку зрения в свои исследования веры, морали и условий жизни человека, сформированные их культурным и социальным контекстом. Данное исследование раскрывает как разнообразие, так и общность подходов к этим темам, обогащая наше понимание роли автора в современном религиозном и моральном дискурсе.

Интроспективные повествования О. Николаевой приглашают читателей к глубоко личному погружению в духовные темы, подчеркивая индивидуальный путь веры и искупления. Использование ею приемов повествования от первого лица создает интимную связь с читателем, отражая внутреннюю борьбу и трансформацию ее персонажей. Работы Николаевой находят отклик у тех, кто ищет личного и глубокого исследования духовности в сложном мире.

Акцент А. Варламова на этических дилеммах и моральном выборе обеспечивает более широкий социальный взгляд на человеческое поведение. Его всеведущий стиль повествования от третьего лица позволяет всесторонне изучить факторы, влияющие на принятие моральных решений. Персонажи Варламова переменяются по сложным этическим ландшафтам, отражая сложное взаимодействие между личной целостностью и ожиданиями общества. Его работы подчеркивают сложность моральных суждений и важность этического размышления в современном обществе.

Ю. Повествования Вознесенской о вере перед лицом невзгод предлагают мощное изображение стойкости и надежды. Ее многослойное повествование и акцент на непреходящей силе веры дают острый комментарий о роли религии в поддержке людей в жизненных невзгодах. Чуткие и сострадательные персонажи Вознесенской находят отклик у читателей, переживших аналогичные трудности, подчеркивая преобразующую и поддерживающую силу веры.

Различия в повествовательных техниках, развитии персонажей и тематическом исследовании Николаевой, Варламова и Вознесенской подчеркивают богатство современной религиозно-нравственной прозы. Хотя каждый автор обращается к универсальным темам веры и морали, их разные подходы предлагают разные точки зрения и идеи. Этот сравнительный анализ не только повышает нашу оценку их индивидуального вклада, но также выдвигает на первый план более широкий культурный и литературный контекст, который формирует их произведения.

В заключение следует отметить, что концепция автора в современной религиозно-нравственной прозе представляет собой динамичную и многогранную конструкцию, находящуюся под глубоким влиянием культурных, социальных и личностных факторов. Николаева О., Варламов А., Вознесенская вносят уникальный вклад в дискурс о вере и морали, предоставляя ценную информацию о человеческом опыте. Их работы отражают непреходящее значение религиозных и моральных тем в современной литературе, предлагая читателям глубокое исследование духовности, этики и состояния человека. Своими рассказами эти авторы продолжают формировать и обогащать литературный ландшафт, предлагая нам задуматься о наших собственных убеждениях и ценностях в быстро меняющемся мире.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Новикова Елизавета Олеговна БИБЛЕЙСКИЕ АЛЛЮЗИИ В РОМАНЕ А. ВАРЛАМОВА «ЗАТОНУВШИЙ КОВЧЕГ» // Сибирский филологический форум. 2023. №2 (23). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bibleyskie-alluzii-v-romane-a-varlamova-zatonuvshiy-kovcheg> (дата обращения: 16.07.2024).
2. Осипова, Ольга Ивановна, and Юэцю Нью. "Религиозные мотивы и образы в романе А. Варламова" Затонувший ковчег"." Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Гуманитарные науки 8-2 (2022): 103-106.
3. Беляева Марина Юрьевна, Стукова Злата Анатольевна Тексты Ю. Н. Вознесенской в аспекте формирования православных ценностей // Культурная жизнь Юга России. 2015. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teksty-yu-n-voznensenskoj-v-aspekte-formirovaniya-pravoslavnyh-tsennostey> (дата обращения: 16.07.2024).



*Nilufar ANDAKULOVA,*  
*Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: nilufarandakulova@gmail.com*

*DSc, professor N.Soatova taqrizi asosida*

## STRUCTURALISM AND POST-STRUCTURALISM IN 20TH-CENTURY ENGLISH LITERATURE

Annotation

This article explores the profound influence of Structuralism and Post-structuralism on 20th-century English literature. It delves into the origins and development of these critical theories, highlighting the contributions of key figures such as Ferdinand de Saussure, Claude Lévi-Strauss, Roland Barthes, and Jacques Derrida. The transition from Structuralism to Post-structuralism is examined, alongside the impact of these movements on literary analysis and criticism. Additionally, the significance of intertextuality and its application in literary studies is discussed. Through detailed portrait descriptions and comparative analysis, this article underscores the continuing relevance of Structuralism and Post-structuralism in contemporary literary theory.

**Key words:** Structuralism, post-structuralism, 20th-century English literature, Claude Lévi-Strauss, intertextuality, textual analysis, T.S. Eliot.

## СТРУКТУРАЛИЗМ И ПОСТСТРУКТУРАЛИЗМ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА

Аннотация

В этой статье исследуется глубокое влияние структурализма и постструктурализма на английскую литературу XX века. Рассматриваются происхождение и развитие этих критических теорий, подчеркиваются вклады ключевых фигур, таких как Фердинанд де Соссюр, Клод Леви-Стросс, Ролан Барт и Жак Деррида. Изучается переход от структурализма к постструктурализму, а также влияние этих движений на литературный анализ и критику. Кроме того, обсуждается значимость интертекстуальности и ее применение в литературоведении. Посредством детальных портретных описаний и сравнительного анализа, статья подчеркивает продолжающуюся актуальность структурализма и постструктурализма в современной литературной теории.

**Ключевые слова:** Структурализм, постструктурализм, английская литература XX века, Клод Леви-Стросс, интертекстуальность, текстуальный анализ, Т.С. Элиот.

## STRUKTURALIZM VA POSTSTRUKTURALIZM 20-ASR INGLIZ ADABIYOTIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola 20-asr ingliz adabiyotida strukturalizm va poststrukturalizmning chuqur ta'sirini o'rganadi. U ushbu nazariy oqimlarning kelib chiqishi va rivojlanishini ko'rib chiqadi, Ferdinand de Sossyur, Klod Levi-Stross, Roland Bart va Jak Derrida kabi asosiy shaxslarning adabiyotga qo'shgan hissalarini ta'kidlaydi. Strukturalizmdan poststrukturalizmga o'tish jarayoni tahlil qilinadi va ushbu harakatlarning adabiy tahlil va tanqidga ta'siri o'rganiladi. Bundan tashqari, intertekstuallikning ahamiyati va uning adabiyotshunoslikda qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Portret tavsiflari va qiyosiy tahlil orqali maqola Strukturalizm va Poststrukturalizmning zamonaviy adabiyot nazariyasidagi dolzarbligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Strukturalizm, poststrukturalizm, 20-asr ingliz adabiyoti, Klod Levi-Stross, intertekstuallik, matn tahlili, T.S. Eliot Introduction.

The 20th century witnessed the rise of Structuralism and Post-structuralism, two critical movements that profoundly transformed literary theory. Structuralism, rooted in the linguistic theories of Ferdinand de Saussure, aimed to uncover the underlying structures that govern human expression. This approach emphasized the relationships between elements within a system. Post-structuralism, emerging as a critique of Structuralism, introduced concepts like deconstruction and intertextuality, challenging the notion of fixed structures and stable meanings. This article explores the origins, key concepts, and impact of these movements on 20th-century English literature.

**Literature Review.** Ferdinand de Saussure's "Course in General Linguistics" laid the foundation for Structuralism by defining the linguistic sign as a combination of the 'signifier' (word form) and the 'signified' (concept). He emphasized the arbitrary nature of this relationship and distinguished between 'langue' (language system) and 'parole' (speech acts). Saussure's semiotics provided tools for

dissecting cultural phenomena, enabling a scientific approach to the humanities.

Claude Lévi-Strauss applied Structuralist principles to anthropology, analyzing myths and cultural practices through binary oppositions (e.g., nature/culture, raw/cooked). In "The Savage Mind" and "Structural Anthropology," he argued that these oppositions are fundamental to human thought and are reflected in cultural artifacts.

Roland Barthes expanded Structuralism into literary theory. In "Mythologies," he analyzed cultural myths, and in "S/Z," he applied Structuralist methods to literature. Barthes's idea of the "death of the author" shifted focus from authorial intent to reader interpretation, paving the way for Post-structuralist approaches.

Jacques Derrida's theory of deconstruction questioned the stability of meaning and the idea of fixed structures. In "Of Grammatology" and "Writing and Difference," he demonstrated how texts undermine their meanings through internal contradictions. Deconstruction reveals the assumptions and oppositions within texts, showing that

meaning is always deferred, a concept Derrida termed 'différance.'

Structuralism introduced key concepts such as binary oppositions, the relationship between langue and parole, and the distinction between signifier and signified. These concepts influenced literary analysis by encouraging critics to focus on underlying structures and systems within texts.

Structuralist methods were applied to analyze the formal elements of literature, revealing the structures that govern narrative, genre, and meaning. This approach influenced a wide range of literary works and authors, encouraging a systematic examination of texts.

Authors like T.S. Eliot and James Joyce employed techniques that reflect Structuralist principles, focusing on the interplay of language and meaning. Structuralism also influenced the New Criticism movement, which emphasized close reading and textual analysis.

Post-structuralism emerged as a critique of Structuralism, challenging its assumption of stable, underlying structures. Critics argued that Structuralism's focus on binary oppositions oversimplified complex cultural and textual dynamics.

Post-structuralism introduced concepts like deconstruction, intertextuality, and reader-response theory. These approaches emphasized the fluidity of meaning, the interconnectedness of texts, and the active role of the reader in interpretation.

Post-structuralism transformed literary criticism by highlighting the instability of meaning and the multiple layers of interpretation within texts. This shift encouraged a more dynamic and participatory approach to literary analysis.

Post-structuralist critics like Derrida, Barthes, and Michel Foucault made significant contributions to literary theory. Derrida's deconstruction, Barthes's intertextuality, and Foucault's discourse analysis reshaped how texts are read and understood.

Authors such as Jeanette Winterson, Salman Rushdie, and Angela Carter incorporated Post-structuralist ideas into their writing, exploring themes of identity, language, and power. Their works reflect the movement's emphasis on the fluidity of meaning and the complexity of textual interpretation.

Intertextuality refers to the ways in which texts reference, influence, and relate to each other. This concept, popularized by Barthes and Julia Kristeva, emphasizes the interconnectedness of literary works.

Intertextual analysis involves examining specific texts to uncover their relationships with other works. For example, James Joyce's "Ulysses" draws heavily on Homer's "Odyssey," creating a complex web of references and allusions.

20th-century English literature is rich with intertextual references. T.S. Eliot's "The Waste Land" incorporates a multitude of literary allusions, while Salman Rushdie's "Midnight's Children" engages with both historical and literary texts.

**Research Methodology.** This study employs a qualitative research methodology, focusing on textual analysis to explore the influence of Structuralism and Post-structuralism on 20th-century English literature. The research involves close reading of primary texts, analysis of secondary sources, and comparative studies of key literary works and theoretical texts.

**Analysis and Results.** A Structuralist reading of "The Waste Land" reveals its use of mythic structures and binary oppositions, such as life/death and order/chaos. The poem's fragmented form and intertextual references underscore its complex underlying structure.

Joyce's "Ulysses" employs a highly structured narrative, drawing on the framework of Homer's "Odyssey." A Structuralist analysis highlights the intricate patterns and linguistic play within the text, revealing its layered meanings.

Winterson's novel challenges conventional narratives and explores the instability of identity and language. A Post-structuralist reading emphasizes the text's fluidity and the multiplicity of interpretations it invites.

"Midnight's Children" blends historical and literary references, creating a rich tapestry of intertextual connections. Post-structuralist analysis reveals how the novel subverts traditional narratives and engages with the complexities of postcolonial identity.

**Conclusion.** This article has explored the origins, key concepts, and impact of Structuralism and Post-structuralism on 20th-century English literature. Structuralism provided tools for analyzing the underlying structures of texts, while Post-structuralism challenged the stability of meaning and emphasized the reader's role in interpretation. Both movements have significantly influenced literary theory and criticism, offering different approaches to understanding texts and reshaping contemporary literary analysis. Structuralism and Post-structuralism continue to be relevant in contemporary literary theory, providing valuable frameworks for analyzing literature. Their insights into the nature of language, meaning, and textuality remain influential in the field. The concepts and methods developed by Structuralist and Post-structuralist theorists continue to inform literary criticism, offering new ways to engage with texts and explore their meanings. These movements have opened up new possibilities for understanding the complexities of literature and its relationship to culture and society. The future of literary theory may involve further integration of Structuralist and Post-structuralist ideas, along with new approaches that build on their foundations. As literature continues to evolve, these critical movements will remain essential tools for understanding and interpreting texts. Future developments in literary theory may involve new interdisciplinary approaches that draw on insights from Structuralism and Post-structuralism, as well as other fields such as cognitive science, digital humanities, and postcolonial studies. These approaches will continue to enrich our understanding of literature and its role in shaping human experience.

#### BIBLIOGRAPHY

1. Barthes, R. (1972). *Mythologies* (A. Lavers, Trans.). Hill and Wang. (Original work published 1957).
2. Barthes, R. (1977). *Image, Music, Text* (S. Heath, Trans.). Hill and Wang.
3. Barthes, R. (1974). *S/Z* (R. Miller, Trans.). Hill and Wang. (Original work published 1970).
4. Derrida, J. (1976). *Of Grammatology* (G. C. Spivak, Trans.). Johns Hopkins University Press. (Original work published 1967).
5. Derrida, J. (1978). *Writing and Difference* (A. Bass, Trans.). University of Chicago Press. (Original work published 1967).
6. Eliot, T. S. (1922). *The Waste Land*. Boni and Liveright.
7. Foucault, M. (1970). *The Order of Things: An Archaeology of the Human Sciences*. Pantheon Books.
8. Foucault, M. (1972). *The Archaeology of Knowledge* (A. M. Sheridan Smith, Trans.). Pantheon Books. (Original work published 1969).
9. Joyce, J. (1990). *Ulysses: The corrected text* (H. W. Gabler, W. Stepp, & C. Melchior, Eds.). Vintage Books. (Original work published 1922).

10. Kristeva, J. (1980). *Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art* (L. S. Roudiez, Ed.; T. Gora, A. Jardine, & L. S. Roudiez, Trans.). Columbia University Press.
11. Lévi-Strauss, C. (1966). *The Savage Mind*. University of Chicago Press. (Original work published 1962).
12. Lévi-Strauss, C. (1963). *Structural Anthropology* (C. Jacobson & B. G. Schoepf, Trans.). Basic Books. (Original work published 1958).
13. Rushdie, S. (1981). *Midnight's Children*. Jonathan Cape.
14. Saussure, F. de. (1959). *Course in General Linguistics* (W. Baskin, Trans.). Philosophical Library. (Original work published 1916).
15. Winterson, J. (1985). *Oranges Are Not the Only Fruit*. Pandora Press.



UDK: 070

Aziza ASLANOVA,  
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi  
Email: aziyamir17@gmail.com

Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi direktori o‘rinbosari, t.f.d., professor F.X. Raximov taqrizi asosida

## DIGITAL PR TOOLS FOR BRAND PROMOTION

Annotation

In the era of the development of the Internet in everyday life, people have an increasing demand for the use of digital PR. Digital PR is essential to running a business because companies must use the Internet and social media to advertise and sell their products. The need to use digital tools for brand communication is becoming increasingly important in the digital economy. Although the essence of brand communication remains the same - the exchange of information with the consumer through symbols and the formation of a positive brand image, the content of such an exchange process is fundamentally different. The effectiveness of digital PR serves to increase the communicative activity of the brand. The article discusses an integrated approach to the promotion and sale of goods and services on the example of digital PR.

**Key words:** Digital PR, social networks, digital strategies, communication, business success.

## ЦИФРОВЫЕ PR-ИНСТРУМЕНТЫ ДЛЯ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДИНГА

Аннотация

В эпоху развития интернета в повседневной жизни людей растет и спрос на использование цифрового PR. Компаниям необходимо использовать интернет и социальные сети для рекламы и продажи своей продукции, поскольку цифровой PR играет важную роль в ведении бизнеса. В условиях цифровой экономики использование цифровых инструментов для коммуникации бренда становится все более значимым. Хотя суть коммуникации бренда остается прежней – обмен информацией с потребителем посредством символов и формирование положительного образа бренда, содержание этого процесса обмена принципиально отличается. Эффективность цифрового PR способствует повышению коммуникативной активности бренда. В статье рассматривается роль маркетинговых инструментов и каналов в продвижении и продаже товаров и услуг на примере цифрового PR.

**Ключевые слова:** Цифровой PR, социальные сети, цифровые стратегии, коммуникация, успех в бизнесе.

## BRENDINGNI TARG‘IB QILISHDA DIGITAL PR VOSITALARI

Annotatsiya

Insonlarning kundalik hayotida internetning rivojlanib borayotgan bir davrda raqamli PR dan foydalanish talabi ham ortib bormoqda. Kompaniyalar o‘z mahsulotlarini reklama qilish va sotish uchun internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlari lozim, sababi raqamli PR biznes yuritish uchun juda muhimdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida brend aloqalari uchun raqamli vositalardan foydalanish zarurati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Brend aloqasining mohiyati bir xil bo‘lib qolishiga – ramzlar orqali iste‘molchi bilan ma‘lumot almashish va brendning ijobiy imidjini shakllantirishga qaramasdan, bunday almashuv jarayonining mazmuni tubdan farq qiladi. Raqamli PR ning samaradorligi brendning kommunikativ faolligini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada raqamli PR misolida tovarlar va xizmatlarni ilgari surish va sotishga marketing vositalari va kanallari o‘rni ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli PR, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli strategiyalar, aloqa o‘rnatish, biznesda muvaffaqiyat.

**Kirish.** O‘zgarishlar bizga yangi davrni – “raqamli asrni” olib keldi va bu asr bizga tashkilot muammolarini hal qilishga imkon beradigan yangi usullarni taqdim etdi. Raqamli asr tashkilot brendiga juda ko‘p afzalliklarni olib keldi, ammo agar brend tashkilot iste‘molchilar bilan ijobiy munosabatlarga ega bo‘lsa u juda qimmatli marketing vositasi natijasida bo‘lishi mumkin.

Platformadan tortib yangilik va e‘lonlar joylashtiriladigan ijtimoiy tarmoqlarning barchasi targ‘ibot muhitini o‘z ichiga oladi. Har qanday marketolog media va potensial targ‘ibotni yani bir so‘z bilan aytganda reklama va PRni rejalashtirishda investitsiyani e‘tiborga olishi kerak bo‘ladi. Lekin nima uchun PR va uning vositalari juda muhim?

So‘nggi yillarda raqamli kanallarning ko‘payishi va ushbu kanallardan foydalanuvchilar sonining doimiy ortishi, brendni targ‘ib qilish aksariyat Digital PRga o‘tdi, chunki bu so‘nggi yildagi tendensiyadir. Digital PR brendga o‘z mijozlarining ehtiyojlari va istaklari haqidagi bilimlarni taklif

qildi, chunki bu raqamli kanallar mijozlar bilan aloqada bo‘lishni osonlashtirdi. Raqamli kanallar brendlarga ijtimoiy media foydalanuvchilarining eng ko‘p soniga erishishga yordam beradi. Bu esa tobora ko‘proq mijozlarni jalb qilishga imkon yaratadi. Digital PR foydalanishda ko‘plab qiyinchiliklar mavjud bo‘lgani uchun brend egasi har bir kanal bilan qanday ishlashini bilishi, hamda raqamli kanallar orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash orqali kuchli brend barqarorligi va obro‘sin oshirishda samarali foydalanishi mumkin. Dunyoda brendlar soni yildan-yilga ortib bormoqda va ushbu tadqiqot brendlarni Digital PR dan foydalangan holda, katta foyda olishini tasdiqlaydi. Bu kompaniyaga o‘z ish faoliyatini yaxshilash, imidjini oshirish va sotishni ko‘paytirishga yordam beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda korxonalar marketing uchun raqamli mediadan tobora ko‘proq foydalanmoqdalar. Saytda yangilanib turgan matn mazmuni insonlarga foydali kontent va yaxshi marketingning ajoyib



qismidir. Bu biznesga yordam berishi va biznes veb-saytga mijozlar oqimini jalb qilishi mumkin. Rasmlar, videolar, diagrammalar va modellar har doim Internetda yuqori reytingga ega bo'lib, bozorda o'z o'ringa ega bo'lishga yordam beradi.

Digital PR – bu bosma ommaviy axborot vositalari, savdoni rag'batlantirish, televideniye va radiodagi reklamalar kabi mijozlarga erishishning an'anaviy usulidan farqli o'laroq, mijozlarga erishish uchun onlayn tarzda amalga oshiriladigan barcha marketing faoliyatidir. L. Veinstonning ta'kidlashicha onlayn PR – bu raqamli yoki elektron platforma orqali tashkilot mahsulotlarini ilgari surishdir [1].

R. Jennifer keltirishicha, onlayn marketingni iste'molchilarga yoki keng jamoatchilikka xabar yetkazish uchun internetdan foydalanadigan tashkilotning har qanday reklama faoliyati deb atash mumkin [2]. Onlayn marketing turli shakllarda bo'lishi mumkin, shu jumladan elektron pochta marketingi, displey reklamasi (bannerli reklamaning turli shakllari), qidiruv tizimi marketingi, mobil reklama, ijtimoiy media reklamasi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Digital PR kanallaridan foydalanish kompaniyaning onlayn platformalariga foydalanuvchilar oqimini olib keladi. B. Caemmerer ta'kidlashicha, integratsiyalashgan marketing aloqasi tashkilot tomonidan xodimlar, mijozlar va aksiyadorlar o'rtasidagi muhim munosabatlarni boshqarish uchun qo'llaniladigan yondashuv bo'lib, targ'ibotning maqsadli auditoriyaga ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun birlashtirilgan xabarlarini yuborish yo'lidir [3]. Shuningdek, muvaffaqiyatli marketing kommunikatsiyalari strategiyasi uchun aniq maqsadli auditoriyani tanib olish, aloqa maqsadlari va vazifalarini belgilash, xabarni yaratish, integratsiyalashgan aloqa strategiyasini rejalashtirish va aniq yetkazib beradigan asosni ishlab chiqish kabi bir qator bosqichlarni kuzatishi kerakligini ta'kidlaydi.

R. Jennifer tomonidan qayd etilishicha, Digital PR - bu shaxs yoki shaxslar guruhi o'zlarining ehtiyojlari hamda istaklari asosida tovarlar va xizmatlarni birgalikda almashishi mumkin bo'lgan jamoaviy vositadir [4]. U keltirishicha, onlayn marketingni iste'molchilarga yoki keng jamoatchilikka xabar yetkazish uchun internetdan foydalanadigan tashkilotning har qanday reklama faoliyati deb atash mumkin.

Ushbu vosita birinchi marta 1953-yilda N. Borden tomonidan taqdim etilgan va u bugungi kunda marketing termini bilan hamohang bo'lib – joy, reklama, narx va mahsulot sifatida tanildi. Kotler Digital PR bu marketing rejasiga erishish uchun tashkilot tomonidan qo'llaniladigan turli xil vositalar to'plami ekanligini ta'kidlaydi [5]. 1980 va 1990-yillardagi brending faoliyatida an'anaviy marketing aralashmasi oflayn rejimda ustunlik qildi. Internetning paydo bo'lishi bilan marketingning asosiy e'tibori digitalga ko'chdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati mavzu yuzasidan to'plangan tahlil va xulosalar zamonaviy jurnalistikada dolzarb bo'lgan jamoatchilik bilan aloqalar, reklama kabi yo'nalishlardagi mavjud nazariy ma'lumotlarni to'ldirishga xizmat qilishi, shuningdek, milliy brendingni aynan raqamli PR orqali rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda amaliyotda keng foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy va kuzatuv metodlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Raqamli axborot vositalarining asosi – bu matndir. Internetda ushbu turdagi kontent asosiy maqsadni ifodalaydi. Yangiliklar birinchi marta raqamli dunyoga ko'chganida kontent(matn) "portlashi" sodir bo'ldi, ayniqsa bugungi kunda barcha so'zlarni matn muharrirlari tomonidan qayta ishlash imkoniyati paydo bo'ldi. Internet rivojlanishi bilan onlayn marketingning turli shakllari yuzaga keldi, jumladan elektron pochta marketingi, displey reklama (bannerli reklamaning turli shakllari), qidiruv tizimi

marketingi, mobil reklama, ijtimoiy media reklamasi va boshqalar.

Digital PR kanallaridan foydalanish kompaniyaning onlayn platformalariga foydalanuvchilar oqimini olib keladi [6]. Ushbu oqimni jalb qilishning yakuniy maqsadi, albatta– sotish. Ammo zamonaviy iste'molchi kamdan-kam hollarda faqat bitta brend bilan aloqaga asoslanib xaridlarni amalga oshiradi.

Shuning sababli amalda foydalanuvchiga bir vaqtning o'zida bir nechta aloqa yo'nalishlarini qamrab oladigan ta'sirlar to'plami qo'llaniladi. Bular:

#### 1. Blog va veb-saytlar

Blog yoki veb-sayt raqamli media Digital PR ning juda muhim tarkibiy qismidir. Mijozlar internetni yaxshi bilishadi va ular tez-tez onlayn do'konlardan kerakli narsalarni sotib olishadi. Shuning uchun har qanday biznes uchun onlayn faoliyat yuritish nafaqat shahar yoki shahar aholisi, balki global onlayn bozorga ham tanita boshlaydi va brend doirasini kengaytiradi.

#### 2. Televideniye

Televideniye, mahalliy gazeta va radiostansiyalarga qaraganda ancha kengroq auditoriyani qamrab oladi hamda buni qisqa vaqt ichida amalga oshiradi. Har qanday tashkilot yoki biznesga tegishli xabarni ko'rish, ovoz va harakat bilan yetkazishga imkon beradi, bu har qanday biznes, mahsulot yoki xizmatga bir zumda ishonchlik imkonini berishi mumkin. Bu biznesning ijodiy bo'lishiga va biznesga shaxsiyat ishtiroki va brend shaxsiyatini yaratishga, hamda mijozlarning qalbiga yo'naltirishga yordam beradi.

#### 3. Elektron pochta marketingi

Kompaniya iste'molchilar fikrini to'g'ridan-to'g'ri bilishi qiyin. Aytishimiz mumkinki, elektron pochta xabarnomalari Digital marketingni joriy etish yo'lidagi birinchi qadamdir. Elektron pochta marketingining afzalliklaridan biri shundaki, ma'lumotlar bazasi kompaniyaning brendlari va takliflari bilan allaqachon tanish bo'lgan odamlarning aloqalarini o'z ichiga oladi, bu ularning javob berish ehtimoli yuqori ekanligini anglatadi.

#### 4. Ijtimoiy media marketingi (SMM)

Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi ushbu soha vakillarini shakllantirdi. Chunki bunday media platforma ko'pchilikni o'ziga tortadi. Bu soha vakillari ijtimoiy tarmoqlar orqali har kuni foydalanuvchilarning e'tiborini sezilarli darajada ushlab turadi. Qolaversa, bunday media-platformalar auditoriyaning qiziqishlari to'g'risida batafsilroq ma'lumot olish uchun sharoit yaratadi.

#### 5. Qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO)

Foydalanuvchilarning onlayn dunyo bilan tanishish tajribasi deyarli Google va Yandex kabi qidiruv saytlari bilan bog'liq. Foydalanuvchilar har qanday mahsulot yoki xizmat, sharhlar, tavsiyalar va hokazolarni qidiradilar va ular orqali ma'lumotga ega bo'ladilar. Bugungi kunda SEO, iste'molchini jalb qilish kanali sifatida, qidiruv uchun muhim bo'lgan kalit so'zlari orqali sayt tarkibidagi kerakli manbaalarni ta'minlashni, shuningdek, maqsadga erishish yo'lida pullik qidiruv reklamasidan foydalanishni o'z ichiga oladigan yuqori natijali platformadir.

#### 6. Kontent marketingi

Brendga oid ma'lumotlarni tarqatish va uning obro'sini oshirishga mo'ljallangan Internet-marketingning yetakchi yo'nalishlaridan biri. Bu yo'nalish o'zida kompaniyaning veb-sayti bilan ishlash, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarni yuritish, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro aloqa qilishni o'z ichiga oladi.

Kontent marketingi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tinglovchilar bilan ishlash;

Mavzularni qidirish;

Kontent rejasini tuzish;

Matnlar va ularni yozish uchun talablarni ishlab chiqish;

Nashrlarni targ'ib qilish.

7. Pullik ko'tarilish (reklama)

Bu ma'lumotni pullik tarqatish va mahsulot yoki xizmatga yangi odamlarni (potensial mijozlarni) jalb qilish uchun mijoz va reklama beruvchi o'rtasidagi marketing sohasidagi aloqa turi. Boshqacha qilib aytganda, bu e'tiborni jalb qilish uchun turli yo'llar bilan odamlarga keng tarqatiladigan ma'lumotdir. Potensial mijozlar bilan shaxsiy hamkorliksiz mahsulotlarni ilgari surish usuli.

8. Ta'sir agentlar orqali marketing (influencers marketing)

Ta'sir qiluvchilar yoki fikr yetakchilari orqali mahsulot yoki xizmatlarni ilgari surishdir. Ular ta'sirni mavqei tamoyiliga asoslangan holda amalga oshiradi. Odamlar ommaviy axborot vositalarining tahririyatlaridan ko'ra, ularga ko'proq ishonib, boshqa odamlardan ma'lumot olishni afzal ko'radilar. Bloggerlar tomonidan to'plangan jamoalar kompaniyalarga katta qiziqish uyg'otadi, chunki bu tavsiyalar maydonini yaratish va xaridorlar auditoriyasini kengaytirish uchun katta manbadir.

9. Ijtimoiy tarmoqlar

So'nggi yillarda ijtimoiy media eng ommabop reklama platformalaridan biriga aylandi, Facebook Google dan keyin dunyodagi yetakchi reklama daromadi hisoblanadi. Ijtimoiy media – bu ijtimoiy tarmoqlarda tashkilot mahsulotlari va xizmatlarini targ'ib qilishning keng platformasidir. Kotler ta'kidlashicha ijtimoiy media tashkilotga maqsadli auditoriyaga minimallashtirilgan xarajat bilan erishish uchun

noyob imkoniyatni taqdim etadi [7]. So'nggi bir necha yil ichida ijtimoiy media rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan tashkilot, vaqt o'tishi bilan uning o'sishi barqarorlashishi ehtimoli katta.

App Annie tahliliy kompaniyasi hisobotiga ko'ra, 2022 yil holatida Global mobil ilovalar bozori xarajatlari 129 milliard dollarga yetgan. Bu juda katta miqdor, biroq iste'molchilar ilovalarga taxminan 133 milliard dollar sarflagan o'tgan yilga nisbatan biroz pasayganini ko'rsatadi [8]. Ma'lum bo'lishicha, ilova ichidagi reklama butun mobil ilovalar bozori uchun asosiy o'sish omili hisoblanadi.

Reklama daromadining muhim qismini ijtimoiy tarmoqlar, videoxizmatlar va o'yinlar oladi. Ushbu toifadagi eng tez o'sish mobil video reklama formatlariga tegishlidir. Katta brend reklamalari barcha ilova ichidagi reklama joylashtirishlarining 12,5% ni tashkil qiladi. WhatsApp va Viber mobil ilovalar bozorining yetakchilari bo'lib, ular tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun aloqalarni almashish uchun ishlatiladi va ko'pincha ikkala aloqa kanali orqali qo'llaniladi.

O'zbekistonda esa turli tashkilotlar va PR kompaniyalar asosan kontent-marketing, ijtimoiy tarmoqlarda marketing, videoreklama yaxshi natijalarni berayotganini ta'kidlash zarur. Sababi internet foydalanuvchilarning aksariyat foizi yoshlar va o'rta yoshlilar bo'lgani uchun qisqa va barchasini o'zida mujassam qilgan yo'nalishlarni afzal ko'rishmoqda. 1-rasmda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning PR vositalaridan foydalanish piramidasi keltirilgan.



1-rasm. PR vositalaridan foydalanish piramidasi

Brend rivojlanishining birinchi va asosiy bosqichi uning joylashuvi, ya'ni mahsulotning bozordagi o'rnini hisoblanadi [9]. Kapferer ta'kidlaganidek, joylashishni aniqlash raqobat sharoitida brendning o'ziga xos va rag'batlantiruvchi xususiyatlarini ta'kidlash jarayonidir [10]. Kellerning so'zlariga ko'ra joylashuv taktikasini yaratish uchun brendning joriy va kerakli pozitsiyasini aniqlash va brending strategiyasini ishlab chiqish muhimdir [11].

Bu brendning missiyasi, qarashlari va qadriyatlarining mohiyati ochib beradi. Buning uchun bir nechta asosiy bosqichlarni aniqlash zarur. Ulardan birinchisi mahsulotning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdir. Bu uning maqsadi, iste'molchilar foydalanishi uchun afzalliklar va barcha ijobiy, kuchli tomonlarini ta'kidlash lozim. Google da keltirishicha internetga kirish imkoniga ega bo'lganlar ulushi har yili dunyo aholisining o'sish sur'atlaridan o'rtacha 3,8 foizga oshib bormoqda. Axborot texnologiyalari bugungi raqobat sharoitida tashkilotning rentabelligini oshiradi. Ular global auditoriyani minimallashtirilgan xarajat bilan qamrab olish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin va global iqtisodiyotning muvaffaqiyatli integratsiyasiga 50 foizdan ko'proq hissa qo'shadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Digital PR tashkilot va kompaniyalarga potensial

mijozlarni jalb qilish imkonini beradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, hozirgi kunda dunyo bo'ylab bir necha milliard odam internetdan foydalanadi va har kuni ko'proq odamlar internet olamidani xabarador bo'lib bormoqda. Internet geografik va milliy chegaralarni kesib o'ta oladigan yagona vositadir. Shuningdek brendingni targ'ib qilishda quyidagi usullar taklif etiladi:

Internetda biznesni targ'ib qilish boshqa marketing vositalariga qaraganda arzonroq. Bu kichik va o'rta biznes vakillariga o'z mahsulotlarini reklama qilishni osonlashtiradi.

Internet real vaqt rejimida mijozlar bilan aloqada bo'lish imkoniyatini beradi.

Internet-marketing mijozlar mahsulotdan foydalangandan keyin o'z tajribalari haqida bo'lishish orqali tezkor fikr-mulohazalarini bilishni osonlashtiradi.

Internet-marketing ko'p vaqt va kuchni tejaydi. Xaridorlarning so'rovlariga javob berish uchun ularga xizmat ko'rsatish vakili bo'lish o'rniga, mahsulot yoki xizmat haqidagi barcha ma'lumotlarni Internetga joylashtirish va mijozlar u orqali ma'lumotlarni bilishlari mumkin.

Internet-marketing sizning biznesingizga 24/7 ishlay olish imkonini beradi, bu esa savdo va daromadning oshishini anglatadi.

## ADABIYOTLAR

1. Weinstein, L. (2008). Technology adoption and performance in the sales force. Proquest Dissertation and Thesis (online). Retrieved from Proquest: <http://search.proquest.com/docview/304642054?accountid=10612>
2. R.Jennifer (2001). Remodeling marketing communications in an Internet environment,. Internet Research, Bradford,
3. Barbara Caemmerer (2009). The planning and implementation of integrated marketing communications
4. R Jennifer (2001). Remodeling marketing communications in an Internet environment,. Internet Research, Bradford,
5. Kotler and Keller, Marketing Management, 12th edition, Chapter 1. Page No. 6, 12
6. Devi, P., & Konti, V. V. (2011). The Banned Surrogate Marketing as brand
7. new Brand Extension Advertising. International Journal of Research in Commerce and Management (e-Journal), 1-8.
8. Kotler, Ph.: Kotler on marketing: How to create, win and dominate markets,
9. Mobile App Industry 2024: Trends And Statistics by Rebecca Lal // <https://ideausher.com/blog/mobile-app-industry-trends-and-statistics/>
10. Ellwood, I. (2009), Brand strategy, in: Brands and Branding, ed. R. Clifton, Profile Books Ltd
11. Kapferer J.-N. The New Strategic Brand Management: Advanced Insights and Strategic Thinking. – 5th ed. – Kogan Page, 2012
12. Keller, K.L. (1998), Strategic Brand Management in: Building, Measuring, and Managing Brand Equity, Prentice Hall, New Jersey.
13. Simon andSchuster, New York City. (2012)



**Yakitan BABAJANOVA,**  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi*  
*E-mail: ym\_babajanova@gmail.com*

*QarDU professori G.Ernazarova taqrizi asosida*

### AMERIKA HIKOYALARINING BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMA QILINISHI

Annotsatsiya

Ushbu maqola Amerika hikoyalarining o‘zbek tiliga bevosita hamda bilvosita tarjima muammolarini yoritib berishga asoslangan bo‘lib, xususan unda E.Xeminguey hikoyalarini bilvosita tarjima qilgan Olim Otaxon va bevosita tarjima qilgan tarjimonlar Umid Ali va Qandalat Yusupovalar tarjimalari misolida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Hikoya, tarjimon, tarjimashunoslik, bevosita tarjima, bilvosita tarjima, asliyat, adekvatlik, transformatsiya.

### DIRECT AND INDIRECT TRANSLATION OF AMERICAN STORIES

Annotation

This article is based on highlighting the problems of direct and indirect translation of American stories into Uzbek, in particular in it scientist Ali Otakhan, who indirectly translated the stories of E. Hemingway and the translators who translated directly, were analyzed using the example of the translations of Umid Ali and Kandalat Yusupova.

**Key words:** Story, translator, interpreting, direct translation, indirect translation, originality, adequacy, transformation.

### ПРЯМОЙ И КОСВЕННЫЙ ПЕРЕВОД АМЕРИКАНСКИХ ИСТОРИЙ

Аннотация

Данная статья основана на освещении проблем прямого и косвенного перевода американских рассказов на узбекский язык, в частности в ней были проанализированы рассказы Э.Хемингуэя на примере переводов Олим Отахана, который переводил их косвенно, и переводчиков Умида Али и Кандалят Юсуповой, которые переводили их напрямую.

**Ключевые слова:** Рассказ, переводчик, переводоведение, прямой перевод, косвенный перевод, аффект, адекватность, преобразование.

**Kirish.** Tarjimon asarni badiiy tarjimada mazmun va shakl uyg‘unligini o‘ziga xos xususiyatini saqlab qolgan holda tarjima qilishi kerak bo‘ladi. Matnning asli bilan tarjima, shakl va mazmun-mohiyat jihatdan bir - biriga mos bo‘lishi kerak. Asar shakl va mazmuni jihatdan bir biriga mos kelsa bu muvaffaqiyatli tarjima hisoblanadi. Tarjima muvaffaqiyati, asliyatda berilgan shakl va mazmun birligini, mosligini ifodalash uchun boshqa tildan unga mos bo‘lgan vositalar bilan to‘g‘ri ifodalanishidan iborat.

**Mavzuga oid materiallar va tadqiqot metodologiyasi.** Tarjimaning asliyatga adekvatligi asl nusxadagi mazmuni unga munosib variantlar orqali o‘quvchini asliyat darajasiga olib chiqishdir.

Biz shu borada bevosita va bilvosita tarjima prinsiplari orqali tarjima qilingan quyidagi Amerika hikoyalaridan tarjimaning asliyatga adekvatligini ko‘rib chiqamiz.

Tarjimon asarni o‘zining uslubiga xos tarzda tarjima qilar ekan, u asarni mohiyatini chuqur anglay olishi shart, aks holda tarjima noadekvat talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Ernest Xemingueyning “Yomg‘irda qolgan mushuk” hikoyasini uchta tarjimon tarjimasida foydalangan holda, ya‘ni bilvosita va bevosita tarjimalarni qay biri adekvatlikka yaqinligini tahlil qilamiz.

Hikoyani rus tilidan bilvosita tarjima qilgan Olim Otaxon va bevosita tarjima qilgan tarjimonlar Umid Ali va Qandalat Yusupovalar tarjimalari misolida ko‘rib chiqamiz.

Xeminguey: “There were only two Americans stopping at hotel” jumlasini rus tilidagi tarjimasi: В отеле было всего двое американцев”,

Olim Otaxon: “Mehmonxonada bor-yo‘g‘i ikki nafar amerikalik bor edi”[2] deb rus tarjimonini xatosini takrorlagan holda o‘zbek tiliga bilvosita tarjima qilgan.

Ushbu jumlaning Umid Ali bevosita ingliz tilidan “Mexmonxonada ajnabiylardan faqat ikki kishigina bor edi”[2] deb tarjima qilgan.

Biz har ikkala tarjimon ham ayni shu jumlada hikoyaning mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda yozuvchining uslubini o‘zbek kitobxoniga yetkazib bera olmagan deb hisoblashimiz mumkin. Rus tilida erkin tarjima yo‘lidan borilganligi sababli bilvosita tarjima qilgan Olim Otaxon ushbu jumlada aynan stopping so‘zi ruschada tarjima qilinmaganligi sababli bu so‘zni tarjimada beetibor qoldirgan holatda tarjima qilgan. Ushbu jumladagi stopping aynan yozuvchini kitobxoniga hikoyadagi qaxramonlarni tanishtirish uchun aytilgan yagona so‘zi misolida qarashimiz mumkin. Ya‘nikim, voqea mexmonxonada tunashga to‘xtagan aynan shu ikkita amerikalik bilan boshlanadi.

Ushbu jumlada Qandilat Yusupova tomonidan: “Mexmonxonada oldiga kelib tushgan amerikaliklar atiga ikki kishi edi: er-xotin muxojirlar”[2] so‘zma so‘z tarjima qilingan bo‘lsa ham aynan yozuvchining fikri o‘quvchiga tushunarli bo‘la olgan deb aytishimiz mumkin. Bu yerda biz ko‘rishimiz mumkinki Qandilat Yusupova stopping so‘zini o‘zbekcha muqobili “kelib tushgan” so‘zi bilan voqeani jonantirishi orqali o‘zbek kitobxonini ushbu hikoyani o‘qishni boshlashi bilan hikoyaning bosh qahramonlari endigina mexmonxonaga joylashgan, mexmonxonada va undagi odamlar notanish bo‘lgan, muxojirlar haqidaligini tushunishi mumkin. Aynan yozuvchi asliyatda nimaga e‘tibor qaratganini tarjimon o‘zining tarjimasida yaqqol namoyon qila olgan.

Gapimizni isboti sifatida asarning davomini olib qaraydigan bo'sak, Ernest Heminguey: "They didn't know any of the people they passed on the stairs on their way to and from their room", rus tilida "Они не знали ни кого из постояльцев с которыми встречались на лестнице по пути в свою комнату",

Olim Otaxonning rus tilidan tarjimasida "Ular o'z xonalarga chiqib ketayotganlarida zinada uchragan odamlarning birontasini tanimasdilar"[2] ushbu tarjimadan ko'rishimiz mumkinki hikoyaning rus tilidagi tarjimasida aynan yozuvchining fikri hikoyaning boshidan yoritilmaganligi sababli Olim Otaxon tarjimasida ham bu kamchilik ko'zga tashlanadi.

Q.Yusupova bevosita tarjimada ushbu jumlaning oldingi jumlagacha mos holatda uslubiy jihatdan to'g'ri tarjima qilgan "Ular o'z xonalari tomon yo'l olishar ekan, yo'llarida, zinalarda uchragan odamlarni hech qaysisini tanimadilar"[2]. Biz bu yerda aynan mexmonxonadagi ikkita amerikalik muxojirlar mexmonxonada tunash uchun to'xtashganidan keyin hikoyaning asl voqeyiligi o'sha yerdan boshlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Ayni shu jumlaning Umid Ali erkin tarjima qilgan holatda "They didn't know any of the people they passed on the stairs on their way to and from their room" jumlasini tarjima qilmasdan ketgan.

Hikoyaning asl varianti bilan tarjimalarni solishtirib ekanimiz biz tarjimonlarning muvaffaqiyatlarini aytmasdan keta olmaymiz. Tarjimalarda biz bilvosita rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan bo'lsa ham Olim Otaxonning tarjima uslubini va adekvatlikka mos ravishda tarjima qilganini ta'kidlamasdan ilojimiz yo'q.

Ernest Hemingway "The sea broke in a long line in the rain and slipped back down the beach to come up and break again in a long line in the rain"

Ruschadan tarjimasida "Море широким фронтом выплескивалось на берег и отступало чтобы снова пойти вперед сквозь пелену дождя".

Olim Otaxon tarjimasida: "Yomg'ir ostida to'lqinlar uzun tasma hosil qilib qirg'oqqa borib urulib, parcha-parcha bo'lib sochilib ketar, so'ng orqaga qaytib yana yomg'ir ostida oldinga yugurar hamda qirg'oqqa to'sh urib osmonga sapchirdi"[2]. Biz bu qatorda mutarjimning tarjima mahoratini ko'rishimiz mumkin.

Shu jumlaning Umid Alining bevosita tarjimasida erkin tarjima misolida ko'ramiz: "Bu payt dengizga ham kuch inib, pishqirar, to'lqinlar, qirg'oqqa suv toshib chiqardi"[2].

Erkin tarjimada tarjimon asliyatga yaqin holda tarjima qilganini lekin tarjimada yana ham ko'proq badiiy tasvir yetishmaganiga guvoh bo'lamiliz.

Q.Yusupova shu gapni ayni jo'shqinlik bilan badiiy tasvirni kuchaytirgan holatda tarjimaga "o'rindi" so'zini qo'shib tasvirlaganini ko'rishimiz mumkin: "Bir tomondan cheksiz dengiz betaskin to'lg'onib yotar, jala ostida qolgan asov to'lqinlar dam o'rindiqlargacha urilib kelar, dam o'tmay shashlaridan qaytib, tag'in ortga chekinib ketishardi"[2].

Ushbu hikoyani har uchala tarjimon ham asliyatga adekvat holatda tarjima qilgan bo'lishiga qaramay Qandilal Yusupova hikoyani oxiriga yetkiza olmagan.

**Muhokama.** Shu jumladan, bilvosita va bevosita tarjimini asliyatga adekvatligini Xemingueyni "Ko'prikdagi chol hikoyasida" gi tarjimalar misolida ko'rib chiqamiz. Ushbu hikoyani 1938 yil bilvosita rus tilidan Qulmon Ochil va 1991 yil bevosita O'roq Ravshanov tarjima qilgan. Biz ushbu hikoyada bevosita tarjima qilgan tarjimonning biroz tarjima san'ati yetishmaganini ko'rishimiz mumkin.

Xeminguey: "The trucks ground up and away heading out of it all and the peasants plodded along in the ankle deep dust".

Rus tilidagi tarjima: "Грузовики с грохотом взбирались наверх и исчезали, вырываясь из толчи, крестьяне тащились, утопия в пыли по щиколотку". Bilvosita tarjima: "Yuk mashinalari tiqilinchda otilib chiqib, taraqa turuq qilganча tepalikka o'rmalar va darhol ko'zdan g'oyib bo'lardi, to'pig'igacha tuproqqa botgan dehqonlar esa zo'rg'a sudralib borar"[3], bevosita tarjima "Gox dehqonlar, tupiqlarigacha changa botib, sudralib o'tardilar" deya tarjima qilingan[4]. Ushbu tarjimadan asliyatda berilgan urushning qiyofasini tarjimonlar o'zbek kitobxoniga qay darajada yetkazib bera olganini ko'rishimiz mumkin. Aslida bu jumla hikoyadagi mashaqqatli kun va undagi qahramonlarni ahvolini o'quvchining ko'z o'ngida gavdalantirib beradigan jumla bo'lishiga qaramasdan ushbu gapni ingliz tilidan bevosita tarjima qilgan O'roq Ravshanov bee'tibor qoldirgan holatda tarjima qilmasdan ketgan.

Ushbu gap tarjimasini Q.Ochilov kitobxonga asliyatdagi urush davrining qiyinchiligi, odamlarning ahvolini yozuvchi bayon qilgani kabi yoritib bera olgan.

Biz ushbu holatni ya'na bitta jumladan guvohi bo'lishimiz mumkin: Xeminguey "I did this and returned over the bridge. There were not so many carts now and very few people on foot, but the old man was still there".

Rus tilida tarjima: "Я сделал это и вернулся через мост. Теперь повозок было меньше, пешеходов совсем мало, но старик все еще сидел там".

Bilvosita tarjima: "Topshiriqni bajarib, yana ko'prik osha ortga qaytdim. Endi aravalari ham piyodalar ham ancha kamayib qolgan, cholning o'tirishi esa o'sha o'sha edi"[3].

Bilvosita tarjima: "Ko'prikda ulovlar siyrak edi, piyodalar ham kamayib qolishgandi, ammo chol hamon shu yerda o'tirardi"[4].

O'roq Ravshanov tarjimada ba'zi bir so'zlarni tarjimada tashlab ketib hikoyani adekvatligidan uzoqlashgan. Ya'ni "I did this and returned over the bridge" jumlaning tarjimasini tushirib qoldirgan.

Hikoyaning O'roq Ravshanov tarjimasida noto'g'ri tarjimalar uchraydi. Masalan: "I was watching the bridge and the African looking country of the Ebro Delta and wondering how long now it would be before we would see the enemy, and listening all the while for the first noises that would signal that ever mysterious event called contact".

Rus tilidagi tarjimasida: "Я смотрел на мост и на местность вокруг устья Эбро, напомиравшую мне Африку, и соображал, как скоро может показаться неприятель, и все время прислушивался, поджидая тех первых звуков, которые возвещают о вечно таинственном явлении, именуемом соприкосновением фронтов".

Rus tilidan tarjima: "Afrikani yodimga solgan Ebro daryosi etaklariga va ko'prikka dam-badam ko'z yugurtirib, muhoraba deb atalmish mangu sinoatdan dalolat beruvchi ilk shovqinlardan dog'da qolmay deb atrofga sergak quloq solar ekanman, dushman nechog'li tez paydo bo'lishini tahmin qilar edim"[3].

Ingliz tilidan tarjima: "Men ko'prikka qarab turardim. Amriqolik esa Ebro Dalta qishlog'iti tamon termulardi. U dushmanni o'ylar, tiq etgan tovush eshitilsa, vujudi quloqqa aylanardi"[4].

Yuqoridagi tarjimalarni qiyoslab ko'rilsa, bevosita yo'l bilan tarjima qilingan variantda tushunarsiz holat vujudga kelganligini va noto'g'ri tarjima yuzaga kelganini payqab olish qiyin emas. Qulman Ochilov ushbu tarjimini to'g'ri va chiroyli bera olgan. Ushbu gapdagi "contact" so'zini o'zbekcha ekvivalenti "muhoraba" so'zi va "every mysterious" so'zining o'zbek tilida unga mos tushadigan "mangu sinoat" ekvivalentini qo'llash orqali tarjimonning ishi chiroyli chiqqanini ko'ramiz. Biz O'roq Ravshanov tarjimasida hikoyani o'qir ekanimiz hikoyaning so'ngida chol va uning ahvoliga nima bo'lganligi to'g'risida biron bir

holatni bila olmaymiz. Mutarjim hikoyani oxirigacha tarjima qilmaganligi hikoyani muvaffaqiyatsiz chiqqanligiga yana bitta dalil bo'la oladi.

Xorij asarlari tarjima qilinganda har bir tarjimon o'ining tarjimonlik mahorati va uslubiga xos tarjima qiladi. Ya'ni biz tepada asosan bilvosita tarjimalani ko'proq asliyatga adekvatligini aytgan bo'sak, boshqa bir hikoyada bevosita tarjimini yutuqlarini ko'rishimiz mumkin.

Masalan: "If they knew who you were, do you think it would help you to get a vacant seat in a train which has no vacant seats in it?"

Rus tilida: "Если бы они знали кто мы, думаешь это помогло бы тебе получить свободное место в поезде в котором их нет?"

Rus tilidan tarjima: "Agar ular seni kimligingni bilgan taqdirda ham, aytchi, nima yordam berardi axir?"[3].

Ingliz tilidan tarjima: "Nima, ular seni kimligingni bilishsa, hech qanday bo'sh joy bo'lmagan vagondan biror bo'sh o'rin topib beradilar, deb o'ylaysanmi?"[4].

Xeminguey: "We'll have to put up with this". Ushbu jumla hikoyada bilvosita tarjimada "vaziyatni to'g'ri tushunaylik" deb tarjima qilingan, ingliz tilidan esa "bunga ko'nikishimiz kerak". Biz jumladagi "put up" frazeologik birikmasini o'zbek tilidagi tarjimasini "tan bermoq" ma'nosiga ekvivalent sifatida "ko'nikmoq" so'zi orqali berilganligi muqobillikni vujudga keltirgan. Bu misolning ingliz tilidagi

o'ziga xos ma'nosi bevosita tarjimada asliyatdagiga muvofiq keladi.

Xeminguey: "The poster's smiling face appeared in the doorway".

Rus tilida tarjimasini: "Улыбающаяся физиономия проводника появилась в дверном проеме".

Rus tilidan tarjima: "Eshik oldida yana o'sha miyig'ida jilmaygan yuz, sermulozamat ohangda gapiruvchi mehribon pravadnik paydo bo'ldi"[3].

Ingliz tilidan tarjima: "Shu payt yo'lakda kulib turgan kuzatuvchining chexrasi ko'rindi"[4]. Ushbu tarjimada ko'rishimiz mumkinki rus tilidan bilvosita tarjimada "pravadnik" so'zi o'zbekchada o'girilmay shunday berilib ketaverilganini guvohi bo'lamiz, ushbu so'zni bevosita tarjimada "kuzatuvchi" ekvivalenti orqali ifodalanishi hikoyaning yanada tushunarli bo'lishga xizmat qilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, jahon sivilizatsiyasida adabiyot, san'at va fanning rivojlanishiga tarjima juda katta ta'sir ko'rsatgan. Buni o'zbek tiliga bilvosita va bevosita amalga oshirilgan tarjimalarning ilmiy-nazariy va qiyosiy tahlillarini turli yo'nalishlarda namuna sifatida ko'rishimiz mumkin. Tarjimonning ijodidagi tarjima asarlarni ilmiy xususiyatlari, qiyosiy tahlilini ochib berish tarjimonlikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tarjimon bunda bevosita yoki bilvosita prinsipidan foydalanib, erkin va so'zma – so'z tarjima qilish san'atidan foydalanishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Amerika hikoyalari. – Toshkent, SMI - ASIA, 2011.
2. Эрнест Хемингуэй. Ёмғирда қолган мушук (хикоя) - [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) // <https://ziyouz.com/jahon-nasri/ernest-xeminguey/yomgirda-qolgan-mushuk/>
3. Ernest Heminguey. Ko'prikdagi chol (hikoya) (ziyouz.com) // <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/ernest-xeminguey-1899-1961-aqsh/ernest-xeminguey-ko-prik-bo-yidagi-chol-hikoya>
4. Ernest Heminguey. Ko'prikdagi chol (hikoya) (ziyouz.com) // <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/ernest-xeminguey-1899-1961-aqsh/ernest-xeminguey-ko-prikdagi-chol-hikoya>



*Dilnavoz BERDIYEVA,*  
*Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail: dilnavoz@mail.ru*

*DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

### IMAGE OF THE RIVAL IN CURRENT UZBEK POETRY (EXAMPLE OF POEMS OF H. KHUDOYBERDIYEVA)

Annotation

This article focuses on the image of the opponent in fiction, its role in lyrical works, the poet's ability to use the image of the opponent to demonstrate his poetic skills, artistic thinking, and capabilities. We will analyze the expression of this image in modern Uzbek poetry on the example of H. Khudoyberdiyeva's work. We will see how this image is reflected in the poet's poems in different ways.

**Key words:** The image of the opponent, lyrical works, poetic skill, the image of Xusrav, the lyric "I", "raging mountain", "kashkirlar", "sharp distraction"

### ОБРАЗ СОПЕРНИКА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ СТИХОВ Х. ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ)

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется образу противника в художественной литературе, его роли в лирических произведениях, умению поэта использовать образ оппонента для демонстрации своих поэтических способностей, художественного мышления и возможностей. Проанализируем выражение этого образа в современной узбекской поэзии на примере творчества Х. Худойбердиевой. Мы увидим, как этот образ по-разному отражается в стихах поэта.

**Ключевые слова:** Образ противника, лирические произведения, поэтическое мастерство, образ Хусрава, лирическое «Я», «бушующая гора», «кашкирлар», «острая отвлеченность».

### HOZIRGI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA RAQIB OBRAZI (H.XUDOYBERDIYEVA SHE‘RLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy adabiyotda raqib obrazi haqida, uning lirik asarlarda tutgan o‘rni, shoir poetik mahoratini, badiiy tafakkuri, imkoniyatlarini namoyon etishda raqib obrazidan foydalanish mahorati haqida to‘xtalinadi. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida bu obrazining ifodalanishini H.Xudoyberdiyeva ijodi misolida tahlil etamiz. Bu obrazning shoira she‘rlarida turli ko‘rinishlarda aks etishini ko‘rib chiqamiz.

**Kalit so‘zlar:** Raqib obrazi, lirik asarlar, poetik mahorat, Xusrav obrazi, lirik “men” “quturgan tog‘”, “qashqirlar”, “o‘tkir chalg‘i”.

**Kirish.** Raqib obrazining genezisi eng qadimgi davrlar og‘zaki va yozma adabiyotiga borib taqaladi. Antik adabiyot namunalari milliy dostonlarimizdan tortib, mumtoz adabiyot-u hozirgi zamonaviy adabiyotimiz durdonalarini raqib obrazisiz tasavvur eta olmaymiz. Ayniqsa, yozma adabiyotda eng ko‘p raqib obraziga murojaat qilgan va bu obrazning sara namunalari yaratgan hazrat Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav raqib obrazining yorqin timsolidir. Shuningdek, har qanday tarixiy sharoitda yashagan ijodkor shaxsning, tabiiyki, ijodda ham, shaxsiy hayotda ham raqibi bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ulug‘ mutafakkir Abdurauf Fitratning so‘zlari bilan ifodalanganda: “Har qanday iste‘dodning darajasi uning raqiblar soni bilan o‘lchanadi”. Shu hayotiy haqiqatdan kelib chiqsak, har qanday ijod namunasida u nasr yoki drama, lirika bo‘ladimi, unda subyektning qaysidir bir fikr munosabati oshkora, goh yashirin sezilib turadi. Bu holni psixanalitik metod asosida tahlil qilish o‘z-o‘zidan she‘r biografiyasini o‘rganishni mantiqan taqozo qiladi. Ma‘lumki, mumtoz adabiyotimizdan tortib to hozirgi modernistik she‘rlargacha lirik “men”ning raqib obrazi mavjud. U gohida “Uchinchi odam” (A.Oripov) shaklida, gohida iste‘dod kushandasi sifatida, gohida hasad-xusumat, alamzada obraz ko‘rinishida, ko‘pincha, esa oshiq va ma‘shuqning o‘rtasiga firoq soluvchi, fitna soluvchi,

iblisnamo shaklda ham paydo bo‘ladi. Abdulla Oripov ijodidan misol:

Dunyoni qizg‘anma mendan, azizim,  
Men sening ko‘changdan o‘tmasman zinhor.  
Mening bu dunyoda o‘z aytar so‘zim  
Va o‘zim sig‘inar mozorlarim bor[1].  
Yoki:

Qabring ustida egsalar ham bosh,  
Xato qilishingni kutarlar[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada qiyosiy-tipologik, germenivtik, badiiy psixologik metodlardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Lirik qahramon ruhiyati va raqib obrazi zamonaviy ayollar she‘riyatida ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Xususan, H.Xudoyberdiyeva ijodida raqib obrazining quyidagi ko‘rinishlari uchraydi:

Birov pichoq bilan kesdi, so‘rdi shiralarmni,  
Boshqa biri kallakladi, ko‘rdi ichim, qarimni.  
Bargim pilla qurti edi, birov kiydi zarimni  
Men-chi,

Birovlardan bir barg yulmagan daraxtman men[3].

Lirik qahramon har bir satrda raqiblarning qilmishlarini ta‘kidlab sanaydi. Raqiblar dastidan kun ko‘rmagan, omonlik topmagan lirik “men” o‘zini daraxtga qiyoslaydi va raqiblardan ko‘rgan azoblarini daraxt misolida, majoziy bir tilda so‘zlaydi. Shu o‘rinda, lirik qahramon o‘zini

aybsiz ekanligini-da, ta'kidlab o'tib, birovlardan bir barg yulmagan, ya'ni beozor ekanligini, kimsaga zarar bermaganligini aytadi. Odatda, H.Xudoyberdiyeva she'rlarida raqib bir emas, bir nechta ekanligi anglashiladi. Mazkur she'rda raqiblarni birin-birin sanagan bo'lsa, quyidagi she'rda jamlab, ko'plik qo'shimchasi bilan ularning bir necha kishi ekanligini yozadi:

Bir tomiri qilt etmadi!

Yetmadi unim.

Bu dunyo – dargoh emas, dardgoh ekan, inim,

Barchasidan yuragim qon, qaqshagan kunim

Barchasini Xudoga soldim, Ollohga aytdim[3].

Lirik qahramon raqibidan o'zini qancha himoya qilmasin, u bilan qanchalik kurashmasin, unga qarshi turmasin, raqibining bir tomiri qilt etmaganidan anglyadiki, unga bas kela olmaydi. Yuragi qon bo'lgan lirik qahramon dunyodan shikoyat qilib, dargoh emas, dardgoh ekan, deya ataydi. “Barchasidan yuragim qon, barchasini Xudoga soldim”, deya zorlanganidan bilish mumkinki, lirik qahramonning raqibi bir emas, bir nechta, balki bir guruhdur. Dushmanlarga bas kela olmagan, ularning qilmishlaridan yuragi qon bo'lib ketgan lirik “men” band so'nggida raqiblarini “Xudoga soldim, Ollohga aytdim”, deya takror-takror qarg'anadi.

Yiqilganni o'tolmadim chekkalab,

Qo'ltig'iga kirdim-u dast ko'tardim.

Keyin meni chetga tortdi chekkalar,

Menam tortdim, men qasdma-qasd ko'tardim.

Shunday o'tib borayapman, qarqara,

Yelkamda yuk ko'payar-u, ozaymas.

Chekkagirlar qilganda ham masxara,

Mening o'tim lovillar-u pasaymas[4].

“Maydon o'rtasida...” sarlavhali ushbu she'rning ilk bandida ko'pkaridan so'z borib, uning qoidalari haqida eslatadi. Shoir hayotni o'sha ko'pkariga qiyoslab, o'zini uchqur otga mengzaydi. Ko'pkaridagi kabi talato'p o'rtasida yiqilganlarga yordam qo'lini cho'zib, ular bilan o'vora bo'lib qolgan bir paytda lirik qahramonning raqiblari paytdan foydalanib qolishga qanchalik urinmasin, u chekkagirlardan shiddat bilan o'zib, o'rtalab boraveradi. Shoiraning shuhratini ko'ra olmaydigan safdoshlari uni “o'rtadan” olib tashlashga urinsalar-da, shoiradagi haqiqiy iste'dod va matonat bu raqiblarning g'olib bo'lishiga izn bermaydi. Shoir o'zi aytganidek, o'zbek adabiyotida abadiy lovullab turguvchi “olov”ga aylandi. Shoir bu she'rda chekkagir raqiblariga qasdma-qasd olg'a yurgan bo'lsa, quyidagi she'rda ham raqiblariga qasdma-qasd yashaydi:

Bilmam qora qormi, oq qormidim men,

Tilsiz daryo, tinsiz oqarmidim men.

Dunyosidan etak qoqarmidim men,

Goh odam deganim mollar bo'lmasa[3].

Shoir bu “To'shlagan yo'l” sarlavhali she'rda raqiblarini majoziy ma'noda “mollar” deb ataydi. Lirik qahramon “odam” deya atagan “mollar” (raqiblar) bo'lmasa, bu dunyodan allaqachon etak silkishini aytadi. Ammo lirik qahramon dunyoni hayvonsifat raqiblariga qoldirib ketishni istamaydi. U raqiblarini o'z bilganicha yashashiga yo'l qo'ymaydi. Lirik qahramon hattoki dunyoni-da raqibidan qizg'anadi. Bu she'rlardagi raqiblarga qo'yilgan majoziy nomlardan lirik qahramonning raqibga nisbatan haddan ortiq nafrati sezilib turadi, chunki u biror o'rinda raqibini odamiy sifatlar va nomlar bilan atamaydi.

Qabul qilish qiyin boshqacharoqni,

Gar yetib ortsa-da, o'zimga dardim.

Jig'iga tegdimmi quturgan tog'ni,

Yelkam toshbo'rondan qabardi.

Nimang ortiq sening, ortiq qayering?

O'rmoqqa chog'lanib o'tkir chalg'iday.

Buyruq qiladilar, yo'ldan qayiring –

Barcha yurgan yo'ldan yursin chalg'imay[3].

H.Xudoyberdiyevaning “O'zinning yo'lim” she'ridan keltirilgan bu parchada lirik qahramon tanlagan hayot yo'li boshqalardan farqli ekanligi haqida so'z boradi. Lirik qahramon hamma yurgan, hammaga tegishli yo'ldan yurmoqni istamaydi, chunki uning tabii va istaklari o'zgalardan farqli. U o'zgalardan boshqacharoq fikrlaydi. Shuning uchun ham hayot davomida u raqibini ko'p bora behalovat qiladi va dakki yeydi. Shoir boshqa she'rlaridagi kabi bu she'rda ham raqibni majoziy ma'noda yangicha nom bilan “Quturgan tog'” deya ataydi. Tog' leksemasining semantikasida “buyuk kuch-qudrat” ma'nosi yotadi. Demakki, lirik qahramonning “o'zga yo'ldan” yurishidan, harakatlanishidan cho'chigan raqib uncha-muncha “kichkina” odamlardan emas. “O'zga yo'l” deganda, albatta, bu yerda lirik qahramonning boshqalarga o'xshamagan fikr yuritishi, yaxshi-yomonni ajrata olishi, do'st-dushmani ko'ra olishi, o'g'ri bilan to'g'rini, yolg'onchi bilan haqo'yni, rost bilan yolg'onni farqlay olishi va o'zgalarga ham buni anglatishi, ko'rsatishi boshqalarni sinchkovlikka, sergaklikka da'vat qilishi, shuningdek, haqiqatparastligi, rosog'yiligi, adolatparvarligi kabi holatlarni nazarda tutadi. Shu sababli lirik “men”ning yelkasi “toshbo'rondan” qabardi. Hamma zamonlarda ham o'zgacha fikrlagan, zukko va sezgir shaxslarga qiyin bo'lgan. Keyingi bandda shoir raqibni “o'rmoqqa chog'langan o'tkir chalg'i”ga o'xshatadi. Demak, raqib bir necha bor lirik qahramonning hayotiga xavf solgan, uni “yo'l”dan olib tashlashga uringan.

Toqatingga tosh otsam, simlar qoqib ishingga,

Unutgan ayollaring kirmadimi tushingga?![3]

Bu ikki satrda lirik qahramonning suyganini qizg'anishi, rashk holati tasvirlangan. Albatta, ayollar uchun eng ko'p azob beruvchi raqib ham ayoldir. Lirik qahramon ko'ngliga shubha soluvchi, rashk azobiga qo'yib, yurak bag'rini yondiruvchi, ikki qalbning orasiga nifoq va firoq soluvchi raqibdan har daqiqa qo'rquvda, havotirda. Lirik qahramon u raqibni ko'rmagan, tanimaydi, hatto bor-yo'qligini-da aniq bilmaydi. Ammo uning xayolini bu raqib bir lahza bo'lsin tinch qo'ymaydi, oromini o'g'rilaydi. Yoridan har lahza xabardor bo'lib turgan ma'shuqa, qo'nglidagi shubhalar vahmidan takror-takror qo'ng'iroq qilaveradi. Baribir, shubhalar tark etmagan, yuragi o'tda yonayotgan lirik qahramon yorining tushlariga ham o'tmishdagi suyuqliklari kirishidan cho'chiydi. Bu misra so'ngidagi so'roq (?) va undov (!) tinish belgisi lirik “men”ning so'rovidagi havotir va shubha, rashk va kinoya ohanglarini ifodalagan.

Shuningdek, H.Xudoyberdiyeva ijodida raqib obrazini majoziy ma'noda “qashqirlar” atamasi bilan ham tez-tez uchratamiz:

Qashqirlar uyuri qo'zichoqlarday

Etagimga tumshuq surib keladi[3].

Lirik shoir butun umr uning yo'lga to'g'anoq bo'lgan, begunoh ayblagan, g'iybatini qilib charchamagan raqibini bir kuni qilmishlaridan, albatta, pushaymon bo'lib, tiz cho'kishiga ishonadi. Uning hayotiga qonxo'r, vaxshylarcha hamla qilgan, “chang solgan” “qashqirlar” uyuri qo'zichoqlardek etagiga tumshug'ini surib kelishini kutadi. H.Xudoyberdiyeva she'rlaridagi lirik qahramon qanchalik azob tortgan, raqiblari bilan kurashda ba'zida yengilib, ba'zida g'olib kelgan vaqtlarda, yo'llariga to'g'anoqlar bo'lib ozorlar bergan bo'lsada, u doimo mag'rur turib, o'z yo'ldan qaytmaydi va ularni fosh etishda davom etaveradi. Shoir ko'pchilik she'rlarida raqib obrazini majoziy ma'noda nomlaydi: “molar”, “qashqirlar”, “quturgan tog'”, “o'tkir chalg'i”, “chekkagirlar” va ularni bir kishi emas, bir guruh qudratli kishilar ekanligiga ishora beradi.

**Xulosa.** Badiiy asarlarda raqib obrazi adabiyot paydo bo'lgandan buyon mavjuddir. Raqib obrazining badiiy



asarlarda aks etishi ijodkorning badiiy konfliktini, xoh atrofdagi g'animlariga nisbatan bo'lsin, xoh jamiyatdagi adolatsizliklarga nisbatan bo'lsin o'z ichki qarashlarini, munosabatini, achchiq, alamli, iztirobli tuyg'ularini, ziddiyatlarini ifodalaydi. Ijodkor turmushi, hayot yo'llarini,

inson sifatidagi og'riqlari, kurashlarini ko'rsatib beradi. H.Xudoyberdiyeva she'rlaridagi lirik qahramon o'z raqiblarini haqorat qilmaydi, u haqda ko'p o'ylamaydi, gapirmaydi, ularni Xudoga soladi.

#### ADABIYOTLAR

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/oripov-mitti-yulduz-ruxsora.html>
2. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. A.Oripov.Tanlangan asarlar. 2-jild. She'rlar. 45-bet
3. Худойбердиева Х, Сайланма. IV жилдик. Тўртинчи жилд. Фафур Гулом номидаги НМИУ, – Тошкент. 2018.29- 31-70-84-132-135-138-бет.



UO'K: 821.512.133.091-1

*Aidakhon BUMATOVA,*  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti ilmiy tadqiqotchisi, PhD*  
*E-mail: aidabumatova@gmail.com*

*O'zMU dotsenti, PhD I.Ahmedova taqrizi asosida*

#### ALISHER NAVOI'S WORKS IN ENGLISH

Annotation

This article discusses the translation of the ghazals by Mir Alisher Navoi, the founder of Old Uzbek language and literature, a great thinker, poet, and statesman, from Uzbek into English. The research aims to provide comprehensive information about the translations of the poet's works that have been translated into English and officially published by the time the article was released. The study provides information on both poetic collections and individual ghazals published in journals and on the internet.

**Key words:** Ghazal, Alisher Navoi, poetic translation, classical literature, English ghazal, translation of images, intercultural dialogue, collections of poetic translations.

#### ТВОРЧЕСТВО АЛИШЕРА НАВОИ НА АНГЛИЙСКОМ

Аннотация

В данной статье рассматривается перевод газелей Мир Алишера Навои, основоположника староузбекского языка и литературы, великого мыслителя, поэта и государственного деятеля, с узбекского языка на английский. Исследование направлено на предоставление исчерпывающей информации о переводах произведений поэта, которые были переведены на английский язык и официально опубликованы к моменту выхода статьи. В исследовании представлена информация как о поэтических сборниках, так и об отдельных газелях, опубликованных в журналах и в интернете.

**Ключевые слова:** Газель, Алишер Навои, поэтический перевод, классическая литература, английская газель, перевод образов, межкультурный диалог, сборники поэтических переводов.

#### ALISHER NAVOIY IJODI INGLIZ TILIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada eski o'zbek tili va adabiyotining asoschisi, buyuk mutafakkir olim va daho shoir va davlat arbobi bo'lmish Mir Alisher Navoiyning boy poetik merosi tarkibiga kiruvchi g'azallarining o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinish holati xususida so'z yuritiladi. Tadqiqot shoirning maqola e'lon qilingan vaqtgacha ingliz tiliga tarjima qilingan va rasman chop etilgan tarjima matnlari haqida atroflicha ma'lumot berishga qaratilgan. Tadqiqotda ham she'riy to'plamlar, ham jurnal va internet sahifalarida alohida chop etilgan g'azallar haqida ma'lumot taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** G'azal, Alisher Navoiy, she'riy tarjima, mumtoz adabiyot, inglizcha g'azal, obrazlar tarjimasi, madaniyatlar aro mulqot, she'riy tarjima to'plamlari.

**Introduction.** Usually, the events in a ghazal develop as complaints of the lyrical hero about the unparalleled beauty and angelic appearance of the beloved, as well as their extreme cruelty and indifference towards the hero, the unrequited love, the pain of separation, the endless power of love, and the torment consuming and burning the hero's heart. In classical Persian and Turkic poetry, the concept of innovation is not marked by each poet discovering new images and means of depiction, but by reworking established traditional images and depictions to create their unique text. In this regard, it is usually challenging to identify the exact identity of the characters mentioned in a poet's ghazals, whether they are the cupbearer, friend, scholar, rival, or beloved. Each image in a ghazal should be analyzed based on the context of that specific ghazal. This is because the images typically do not represent a single specific person, but rather appear as generalized representations of people belonging to that category. Looking at its historical progression, ghazal writing developed as court literature. As we noted earlier, ghazals, which were once part of qasidas, were often composed by poets dedicated to officials, ministers, and sultans who supported them, including financially, hence they were typically written from the court's perspective.

**Literature review.** Inspiration bestows a poet with the power of imaginative creation. They become famous because of this power of creation and continue living in the minds and hearts of their people. However, the real fame and acknowledgement comes to the poets and writers in general only with the assistance of their translators. Thus, it is a translator, who really contributes to the international success of any writer. From this point of view, it is extremely important to have professional translators who can recreate the essence of the original work. So far, the ghazals of Alisher Navai have been translated into several foreign languages. Here, the English translations are collected only. The works of Leonid Kmetyuk, Kasimbay Ma'murov, Dinara Sultanova, Begoyim Kholbekova, Paul Smith, Dennis Daly, Andrew Staniland, Azam Abidov, Nosirjon Qambarov and Aidakhon Bumatoeva are listed in the work in the sequence of their publication year. Collective number of these ghazals reaches almost 200.

**Research methodology.** The research on the comparative studying of the translated into English text of ghazals by Alisher Navai and images in them requires the possession of information of various published versions of the ghazals by different translators throughout the period. This work combines all officially published versions of the ghazals

both in form of books and separate translation within the journals.

**Analysis and results.** For the time being, there are 10 translators, who are known for their poetic renderings from the ghazals composed by Alisher Navai. There is one prosaic translation made by a collective of authors as well. It should be mentioned that six of ten are of Uzbek origin, one is Russian and only three of them are native English speakers. In case of the Russian and English translators, the analysis of their text displayed the extremal reliance on the previously made translations. Being unable to understand the original text, the translators either repeated the mistakes of those texts or diverged from the meaning of the original completely.

“Pearls from the ocean” [5] – translation made in Uzbekistan by the translator Leonid Kmetyuk with the use of the word-for-word Uzbek Russian translation. The book contains of 21 ghazals translated by L.Kmetyuk and 98 “Wise sayings” and 6 rubaiys translated by Kasimbay Ma'murov, a prominent Uzbek translator of Navoi. The samples of his translations from the ghazals of Navai can be accessed in the monthly journal “Jahon Adabiyoti”, which is published in Uzbekistan in the Uzbek language. The collection contains the texts written in three languages: Uzbek, German and English;

“Selected gazels of Navoi” [10] – collection of translations from the ghazals of Alisher Navoiy made by another prominent translator Dinara Sultanova in Samarkand. She used to teach at Samarkand State institute of foreign languages most of her life and she translated quite a lot of pieces of poetry from Uzbek into English and vice versa. D.Sultanova used to compose her own poetry as well. Moreover, she is one of the first teachers of the author of this article in the sphere of poetic translation. The collection contains the texts written paralelly in two languages: Uzbek and English;

“Twenty-one ghazals” [3] – the collection of 21 translated ghazals by a famous American poet and translator, holder of MA in English Literature from Northeastern University Dennis Daly. The collection contains the texts written only in English;

N.Qambarov [6] published eight translations of ghazals by Navai on the pages of “Jahon Adabiyoti” (“World Literature”) journal's rubric titled “Navoiy Saboqlari” (“Lessons from Navai”) that were published in the following issues: January, February, March, April, May, June, July, November 2016;

A.Bumatova [2] published eleven translations of ghazals by Navai on the pages of “Jahon Adabiyoti” (“World Literature”) journal's rubric titled “Navoiy Saboqlari” (“Lessons from Navai”) that were published in the following issues: February, September, October, November, December, 2017, March, April, June, July, October, November 2018;

“Navoiy, A. Ghazals: prose description, comments and explanations. Book I.” [4] – this is not a quite poetic translation collection. This book is a narrative translations of the meanings and interpretations of selected ghazals by Alisher Navoiy. Collector and publisher of the book is professor B.Tukhliyev. The text with commentaries are provided by such prominent reserchers of life and works of Navai and general classic Uzbek literature as N.Kamilov, B.Tukhliyev, V.Rakhmanov, D.Yusupova and K.Mullakhujayeva. Phd Botir Jafarov, Qosimjon Sidiqov, and Feruza To'xlieva are the translators of the texts. The book was edited by Kosimboy Mamurov. Comments and explanations of each classic ghazal has been provided by a specialist who study the ghazals of Alisher Navoi and write their interpretations. After the texts of the interpretations were made, the translators rendered it into English. According to the entrance nook of the book itself, the book claims to “be an unusual and valuable gift to English-speaking readers. It can

also be used by translators, specialists and students who are engaged in comparative linguistics and theory of literature. Numerous pupils, students and book lovers can also use it”. The collection was created in the framework of the project “Creating Uzbek and English comments and explanations of Alisher Navoiy's ghazals from divan “Garoyib us-sigar”, thus it contains of 30 ghazals only from “G'aroyib us-sig'ar” (“Wonders of childhood”);

“From the treasury of meaning” [11] – the collection of 100 translated ghazals by another prominent Uzbek poetess and translator Begoyim Kholbekova. This is the first and for the time being the only collection of translated ghazals that encompasses 100 pieces in the same book. The author of this article had a pleasure to participate in the poetic translation masterclasses organized by the “Writers' Union” of Uzbekistan, where madam B.Kholbekova was tutoring as well. The collection contains the texts written paralelly in two languages: Uzbek and English;

“Whithout you: 14 ghasals by Alisher Navoiy (1441-1501) and Navoiy's Blooming Garden” [1] – this collection was translated from Uzbek into English by a prominent Uzbek poet and translator Azam Abidov and edited by Abigail Britton in mid-January 2021. The collection titled “Without You”, contain the English translations of 14 ghazals by Alisher Navoi and Tursunoy Sodiqova's treatise “Navoiy Gulshani”. The book was published to celebrate the occasion of the 580th anniversary of Navoi's birth. It's worth to mention that Azam Abidov has contributed to the promotion of Uzbek literature, both classic and modern, to the wide world. He has probably become the most successful promoter of Navoi and his rich intangible heritage in Poland, Canada, Bulgaria, Japan, the USA, and other countries. Among his efforts of introducing Navoi to the world are the followings: he translated the Uzbek film “Navoi” into English; in 2004, he staged a drama about Navoi with an American actress at a theater in Iowa City, USA; he published his anthology titled “The Language of Birds” in seven languages, with its first chapter dedicated to Navoi in 2011; 2018 witnessed his publication of the epic “Farhod and Shirin” in English in the form of souvenir book. He is well known for his efforts on dissemination of the knowledge about Navoi among such international writers and poets as Laura Whitton, Gary Dick, Janusz Krzyzowski, Maria Filipova, Mori Kei, and many others. The uniqueness of this wors constitutes in the fact that besides the translation of 14 very beautiful ghazals of Navoi “Without You” also includes the translations of commentaries on several other ghazals of Navoi by a poetess Tursunoy Sodiqova. We have met several times with A.Abidov and the impression that he creates in the minds of people is as good as he is in real life. He is positioning himself as the promoter of the Uzbek literature abroad and thus he is always ready to help both the authors, who would like to publish their own work abroad and the translators, who have decided to join his mission of disseminating Uzbek literature all over the world. In addition to this, A.Abidov has got his own web-site, where he regularly uploads his new translations, both from prose and poetry. On the same web-site one can get access to his personal poetry and translations of them into various languages;

“Divan of Alisher Navoi “Universal man”” [8] – collection of 65 translated ghazals, 7 rubaiys and a qit'a by a prominent Australian translator writer, educator and poet Paul Smith. The collection contains the texts written only in English;

“12 ghazals by Alisher Navoiy, 14 poems by Abdulhamid Cho'lpon” [9] – another collection of Uzbek translated poetry into English by a prominent English poet, writer and translator Andrew Staniland. The book combines the poets who belong to two different epochs and traditions.

Each translation follows the original text in Uzbek latin script, thus displaying source and target text parallelly. The first part of the book, provides the translations of selected twelve ghazals by Navai. This part has been created with the assistance of professor A.Bumatova, Uzbek scholar and translator, who provided Andrew Staniland with word-for-word translations and explanations of the ideas in the original. The second part of the book consists of poetic renderings of 14 poems by Cho'lpon. This part was completed with the assistance of another Uzbek translator and journalist A.Khaydarov, who provided Andrew Staniland with word-for-word translations and explanations of the ideas in the original as well;

“Alisher Navai the sultan of Uzbek poetry (biography, summary of his works, samples of verses) in English” [7] – is another unique work on the way of promoting Navoi abroad. This book consists of two parts. In the first part the author, academic Sh.Sirojiddinov, introduces the phenomenon of Alisher Navai, provides concise summary of his works and most importantly displays a new look at the life and creativity of the great poet. Moreover, the author tries to suggest the answers to several questions regarding the individuality of the poet, which have been creating some sort of ambiguous and false impression of belief system and worldwide of Navai. Approximately other half of the book is dedicated to the translations of poetic works of Alisher Navai. All the translations in this book have been done by another well-known translator and interpreter Kosimboy Mamurov. Both academic Sh.Sirojiddinov and translator and interpreter Kosimboy Mamurov are the professors of the author of this article, thus we have the honor of cooperating with these people and learning from them. The second part of this book consists of the translations of selected 40 ghazals, 8 rubaiys, 98 wise sayings or aphorisms. In general, the book consists of mostly the translations of ghazals from Alisher Navoi's collection “Wonders of childhood”, but there is a text from his

“Benefits of Old Age” as well. In addition to this, the authors provide information in the form of short articles on translation of the poetry composed in the classical Aruz prosody, the cases of team approach to poetic translation of ghazals of Navai and the importance of language and mind as mechanisms of poetic translation.

**Conclusions/Recommendations.** Translation of fine literature, especially a lyric genre of classical origin is a tremendous task for a translator. Translators of Navai that have been listed in this research have carried out this task with honor and decency. The works, of course, are not perfect and contain different numbers of mistakes. Each of these works is worth to be researched independently, so their advantages and disadvantages could be discussed in detail. This is planned to be done in our future research. The existence of such kind of variety in the translations of ghazals of Navai will open new perspective for the research in this field, which in its turn will contribute positively to the quality of the further translations. Most of the translators that have been mentioned in the research have quite connection with the academia and Translation Studies. This provided to some extent the professional attitude and decent quality for the translated texts. On the other hand, it was clear that when a poet-translator engages in the translation, in most cases the meanings are totally changed or even distorted in some cases. Thus, while translating ghazals of Navai, it is recommended to work with the professional researchers of Navai studies, who can provide with the reliable interpretations of the original texts. Moreover, skillful translator, who can keep the balance between the languages, their structural and meaning related elements is crucial for the creation of a quality translation. The last but not the list, the editor, who is responsible for the publication process, is highly recommended to be a bilingual, who understands both the original and target languages. Given that such cooperation is granted, one can anticipate having high quality renderings of the original ghazals.

#### REFERENCES

1. Abidov, A. Without you: 14 ghazals by Alisher Navoiy (1441-1501) and Navoiy's Blooming Garden. Translated into English by Azam Abidov, edited by Abigail Britton. Jasmaya production and publication, Arizona, USA – 2020;
2. Bumatova, A. “Jahon Adabiyoti” journal's rubric titled “Navoiy Saboqlari”. Issues: 02/2017, 09/2017, 10/2017, 11/2017, 12/2017; 03/2018, 04/2018, 06/2018, 07/2018, 10/2018, 11/2018;
3. Daly D. Twenty-one ghazals, Alisher Navoiy. – Servena Barva Press, Summerville, Massachusetts, 2016;
4. Navoiy, A. Ghazals: prose description, comments and explanations. Book I. Collector and publisher B.Tukhliyev. Tashkent, “Bayoz” publishing house, 2018;
5. Pearls from the ocean. Navoiy she'riyatidan inglizchaga tarjimalar to'plami / Tuzuvchi Y.Parda. – T.: Sharq nashriyot-manbaa konserni, 2000;
6. Qambarov, N. “Jahon Adabiyoti” journal's rubric titled “Navoiy Saboqlari”. Issues: 01/2016, 02/2016, 03/2016, 04/2016, 05/2016, 06/2016, 07/2016, 11/2016;
7. Sirojiddinov, Sh. Alisher Navai the sultan of Uzbek poetry (biography, summary of his works, samples of verses) in English. Translated by Kosimboy Mamurov. Sano-Standard, 2022;
8. Smith P. Divan of Alisher Navoi “Universal man”. Translation and introduction Paul Smith. – NEW HUMANITY BOOKS BOOK HEAVEN, LA, USA 2021.
9. Staniland, A. 12 ghazals by Alisher Navoiy, 14 poems by Abdulhamid Cho'lpon. Andrew Staniland's books – 2021;
10. Sultanova D.S. Selected ghazals of Navoiy. –T.: Navro'z nashriyoti, 2015;
11. Xolbekova B. Ma'nolar xazinasidan. From the Treasury of Meaning [Matn]. G'azallar tarjimalari parallel matnlari bilan. Translations of ghazals with their parallel texts. – Toshkent: «MASHHUR-PRESS» nashriyoti, 2020.



*Nodirjon G'AFUROV,*  
*O'zMU O'zbek filologiyasi fakulteti st.o'qituvchisi*  
*E-mail: nodirjong8@gmail.com*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti prof. v.b., O.Hamroyeva taqrizi asosida*

### ALISHER NAVOIY FARDLARIDA E'TIQODIY TARTIB

Annotatsiya

Alisher Navoiyning har bir asari alohida ahamiyat va e'tiborga loyiq. Undagi har bir so'z ma'lum maqsad va ma'noda ishlatiladi. Darhaqiqat, u xoh yirik, xoh kichik badiiy asar bo'lsin, bundan chetda qolmaydi. Bu maqolada uning yirik asarlari tadqiqiga emas, aksincha, hajman kichik, badiiyati yuqori, mazmuni teran bo'lgan fardlariga to'xtalindi. Bu kichik asarlarni o'rganish, ularni o'z mazmun va badiiyati bilan namoyish etish bugungi kunimizning dolzarb mavzularidandir. Tadqiqot ishini amalga oshirishda muqaddas Qur'oni Karimning ma'nolari tarjimai va uning tafsiriga tayanildi. Ishning natijasi sifatida, muallif o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. O'z davrida har bir devon tuzgan shoirlar barcha nazmiy janrlarni qamrab olishga va ularni tartib bilan joylashtirishga e'tibor qaratgan. Alisher Navoiy hazratlari ham bu an'anani yuqori saviyada davom ettirgan. Shu jihatdan, bu kichik tadqiqot uning fardlari tadqiqiga bag'ishlanadi. Bunda muallif zamon va makon nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda Navoiy fikrlarini tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Kulliyot, devon, fard, didaktika, falsafa, ishq, hamd, na't.

### ORDER OF BELIEFS IN ALISHER NAVOI'S FARDS

Annotation

Each work of Alisher Navoi deserves special importance and attention. Each word in it is used with a specific purpose and meaning. In fact, whether it is a large or small piece of art, it is not excluded from this. This article will not be about studying his major works, but, on the contrary, about his small ones, highly artistic and having deep content. The study of these small works, the presentation of their content and artistry is one of the current topics of our days. The study used translation of the meanings of the Holy Quran and its interpretation. Based on the results of the work, the author expresses his opinion. The poets who composed each divan in their time sought to cover all poetic genres and arrange them in an orderly manner. His Highness Navoi also continued this tradition at a high level. In this regard, this small study will be devoted to the study of his fards. At the same time, the author analyzes Navoi's thoughts from the point of view of time and space.

**Key words:** Kulliyat, devan, fard, didactics, philosophy, love, praise, na't.

### ПОРЯДОК ВЕРОВАНИЯ В ФАРДАХ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация

Каждое произведение Алишера Навои заслуживает особой важности и внимания. Каждое слово в нем используется с определенной целью и значением. На самом деле, будь то большое или маленькое произведение искусства, оно из этого не исключено. В данной статье речь пойдет не об изучении его крупных произведений, а, наоборот, о его малых, высокохудожественных и имеющих глубокое содержание. Изучение этих небольших произведений, представление их содержания и художественности – одна из актуальных тем наших дней. В исследовании использовался перевод смыслов Священного Корана и его толкование. По итогам работы автор высказывает свое мнение. Поэты, составлявшие каждый диван в свое время, стремились охватить все поэтические жанры и упорядоченно разместить их. Его Высочество Навои также продолжил эту традицию на высоком уровне. В связи с этим данное небольшое исследование будет посвящено изучению его фардов. При этом автор анализирует мысли Навои с точки зрения времени и пространства.

**Ключевые слова:** Куллият, деван, фард, дидактика, философия, любовь, восхваление, нат.

**Kirish.** Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda milliy madaniyatimizni, diniy-e'tiqodimizni saqlagan holda, o'zga mamlakatlar bilan har sohada raqobatlashmoqdamiz va bu jarayonda bevosita ishtirok etmoqdamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", deya bejiz ta'kidlamadi [6]. Inchunin, ulug' zotlarga munosib avlod bo'lish uchun, ularning asarlarini o'rganib, o'zlashtirib ularni hayotimizdagi o'rinni bilib olishimiz kerak. Alisher Navoiy asarlarini hayotga tatbiq etishdan maqsad va vazifa

ham uning boy merosini o'qib-o'rganish, o'zlashtirish va kelajak avlodga taqdim qilishdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Alisher Navoiy lirikasida badiiyatga boy ma'nodagi ilmiy-ma'rifiy yoki ta'limiy-irfoniy asarlar ham mavjud. Bunga uning g'azallaridan va kichik lirik janrlardagi asarlaridan ko'plab misollar keltirish mumkin. Hazratning ushbu tarzidagi asarlarida ma'rifat tushunchasi izchil mazmun-mohiyatga ega bo'lgan holda, ba'zan tadjirli tarzda bayon etiladi. Uning kichik lirik asarlaridan fardlari alohida ahamiyatlidir.

O'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos shakllanish jarayoniga ega bo'lgan lirik janrlardan biri fard hisoblanadi. "Fard" arabcha so'z bo'lib, "yakka, yolg'iz" degan ma'nolarni anglatadi. Janr atamasining lug'aviy ma'nosi uning tuzilishi jihatdan ixchamligi, ya'ni aynan mustaqil bir baytdangina iborat ekanligiga ham ishora qiladi [4].

Fardlar mazmun mundarijasiga ko'ra quyidagi guruhlar ajratiladi [8]:

Didaktik fardlar  
Falsafiy fardlar  
Ishqiy fardlar

Didaktik fardlarning mazmunidan pand-nasihat o'rin olsa, falsafiy fardlarda muallif xulosasi va diniy qarashlari mujassam bo'ladi. Ishqiy fardlar esa, zohirida majoziy ishq, botinida ilohiy – tasavvufiy ishq yashirin bo'lgan yolg'iz baytlardir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga kiruvchi "Favoyid ul-kibar" devonida fardlarga alohida o'rin ajratilgan. Bir qarashda, fardlarning hajmi kichik, biroq ular o'zida mujassam qilgan va ishora qilgan ma'nolar to'g'ridan to'g'ri insonga qaratiladi. Asosida esa, davr muhitidan ufurib turadigan qonun-qoidalar, ahkomlar ijrosi va amali uchun harakatlar bo'y ko'rsatadi.

Ulki, Haq borinda maqsud istagay har zotdin,

Mehr borinda yorug'lik ko'z tutar zarrotin [2].

Inson dunyoga kelibdiki, albatta, kimgadir ehtiyoji paydo bo'ladi. Dastlab, ota-onaga, unib-o'sishi davomida do'stlarga, ulg'aygach umr yo'ldoshga va bu ehtiyojlar insonni umri davomida tark etmaydi. Inson ehtiyojlarining cheki yo'qligini isboti tariqasida yuqoridagi fard keltirildi. Ammo inson uchun dunyo go'zal qilib ko'rsatib qo'yilgan. Paydo bo'lgan ehtiyojini "har zot"ga aytib, so'rab yurmasdan Haqdan so'rashi kerak – deydi Alisher Navoiy. Haqdan so'ramasdan, o'zga kimsadan so'rash xuddiki, mehr(quyosh) borida bir zarradan yorug'lik kutgandek bo'ladi. Kundalik turmushimizda har xil ehtiyojlar paydo bo'ladi, albatta, bularni qondirishimiz zarur. Faqat o'z harakatlarimiz, xarajatlarimiz orqali [5].

Badiiy san'atlardan tashbeh san'atini Haq va mehr, har zot va zarrot so'zlaridan payqash mumkin, tazod san'atini Haq va har zot, mehr va zarrot so'zlarini yuzaga keltirgani yaqqol ko'rinib turibdi. Yana bunda muallif nazarda tutayotgan obraz ulki so'zi, ya'ni har zotdan maqsud istovchi, so'rovchi kishi alohida e'tiborlidir.

Bayt mazmuni: Ulki Haq(Alloh) bo'la turib, o'z maqsadini har kimsadan talab qilsa(istasa, so'rasa), u xuddi quyosh borida zarradan yorug'lik kutgandek bo'ladi. Kimki Allohni borligiga imon keltirib, borligini bilib o'z istagi, xohishini duch kelgan kimsa(har zot)dan talab qilsa, bu hol xuddi quyosh borligida yorug'likni uchqun(zarrot)lardan kutgan(ko'z tutar)dek bo'ladi.

Ma'lumki, fardlar "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining "Favoyid ul-kibar"devonida "Javohiri mufradah" nomi ostida berilgan va unda yuqorida keltirilgan fard tartibi jihatidan birinchi joylashgan. Uning mazmunida Allohga hamd o'rin olgan. Alisher Navoiyning devonlarida tartib har bir janr uchun qat'iy ekanligi shundan dalolat beradi. Ushbu fard namunasi mazmun mundarijasiga ko'ra falsafiydir. Ya'ni bu turga, an'anaga muvofiq hamd, na't mavzulariga oid asar namunalari joylashtiriladi. "Ma'lumki, Islom dini ta'limotining asosiy manbalari Qur'on, Sunnat, Ijmo', Qiyosdir" [1]. Alisher Navoiy asarlarida bu yetakchi xususiyatga ega.

Yuqoridagi fardning tartib jihatidan birinchi joylashganiga e'tibor qaratsak, mazmuni hamd, Allohga hamd esa muqaddas Qur'oni Karimning "Fotiha" surasi bilan boshlanadi va ushbu sura xalq orasida "Alhamdu" nomi bilan mashhur. Bu fardning Fotiha surasi 5-oyati bilan mazmunan bog'liqligi bor ekanmi yoki yo'q?! Bu oyati karimada shunday deyiladi: "Sengagina ibodat qilamiz va Sendagina yordam so'raymiz!" [1]. Bizda "ibodat" deganda, faqat namoz o'qish, ro'za tutish, zikr, Qur'on qiroati kabi bevosita bajariladigan e'tiqodiy amallar tushuniladi. To'g'ri, bular ulkan ibodatlar, lekin, aslida Allohga manzur bo'lgan har bir ish ibodat, ya'ni bandaligidir. Demak, inson o'z hayotida Allohning aytganini

qilib yursa, ibodatda yurgan bo'ladi. Alloh halol rizq top, deb buyurganmi, demak, halol rizq topish ibodat ekan, deb boshqa farz, vojib va sunnat amallar tark qilinmaydi. Masalan, namoz va ro'zani tark etilmaydi. Xullasi kalom, yuqoridagi oyat banda tarafidan Allohga berilgan ulkan va'dadir. Bu va'daning ikkinchi qismida esa, Allohning yordam so'lash ma'nosi bor. Odatda, biror ishga qattiq urinib, kuchi yetmay qolgan taqdirda yordam so'raladi. Bu o'zimiz imkoni boricha harakat qilib, imkonini topa olmay qolganimizda, faqat sendagina yordam so'raymiz, degan ma'noni bildiradi. Harakat qilmay, dangasa bo'lib yotib olgan holda, birovdan yordam so'ralmaydi [9].

Shunday ekan muallif aytmoqchi bo'lgan ulki deb aytayotgan va atayotganlar kim yoki kimlar? Ular bu va'dalarni bilmaydigan, osiy yoki bundan bexabar kishilardir. Navoiy ularni ochiq aytmasa-da, qiyos usuli bilan sodda qilib tushuntirib qo'ya qoladi. Endi yana Fotiha surasining 7-oyatiga qaraymiz – "(u) Sen in'om (hidoyat) etganlarning yo'lidir, g'azabga uchragan va adashganlarning emas! [1]" – deyiladi. Demak, ulki so'zining izohi deb, Haqqa ishonmaydiganlar va Haq dinga e'tiqod qilmaydigan kimsalarni aytish mumkin. Bu shunday izohlanadi "(u) Sen in'om (hidoyat) etganlarning yo'lidir – Alloh in'om etgan kishilar - payg'ambar, siddiq va shahidlardir, g'azabga uchragan va adashganlarning emas! – Allohning g'azabiga uchraganlar - Muso qavmining itoatsizlaridir. Adashganlar esa - Iso qavmining, "Allohning farzandi bor" deydiganlaridir"[1]. Bir toifa buzoqqa sig'inganlari holda itoatsizlik qilishgan bo'lsa, boshqasi Iso ibn Maryamni Allohning o'g'li deb adashgan. Navoiy ularni so'z bilan ham jazosini beradi, birgina ul olmoshi orqali ularning sifatlarini yashiradi va bunga yaqqol misol keltiradi. Ul olmoshining ortiga kim yoki kimlar yashiringanini tafakkur qilishga undaydi.

Hazrat Alisher Navoiy bu fardiga Ummul Qur'on bo'lgan sura oyatlarining mazmunini mahorat bilan joylab, so'zlaridan oqilonalik bilan foydalanib, undan badiiy san'at namunasi yaratadi. Bu fard bilan tanishgan o'quvchi irodali inson yolg'iz O'ziga ishonishi kerakligini tushunib yetadi.

Inson yaralibdiki, o'zini anglashga urinadi, o'zgani tushunishga harakat qiladi. Erkini ustun qo'yadi, boshqa bir insonga bo'yin egishni istamaydi. Hayot yo'li davomida ko'p sinovlarni boshidan kechirgan tajribali odamlarning so'zlarini eshitib, xulosa qilib, o'zi ham bularni tajribasidan o'tkazib, eng to'g'ri yechim topishga harakat qiladi. Har bir kishi hayotiy masalalarni hal qilishda o'zidan oldingi yechim qoldirgan kishining fikri bilan tanishganda to'g'ri bo'lsa, unga ergashadi. O'sha to'g'ri fikrni keyingi bu masalaga duch keladiganlarga yetkazadi. Oqibatda, inson hayotida uning uchun foydali ma'lumotlar ortib boraveradi. Hazrat Alisher Navoiy ham jamiyatdagi ma'lum tartib-qoidalariga amal qilib yashashda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) shariatlariga amal qilish fikrini ilgari suradi. Navoiyning tartib jihatidan ikkinchi fardi shunday:

Nabi shar'ig'a topmoq istiqomat,

Erur solikka mushkiloq karomat [2].

Misralardagi so'zlardan "nabi" so'zi payg'ambar ma'nosini anglatishini, sha'r –shariat ahkomi ekanligini, istiqomat topmoq – to'g'ri yo'lda yashash, solik – to'g'ri yo'lga kirgan banda, mushkil – qiyin, karomat – valiylarning ilohiy yordam orqali favqulodda qilgan ishlari ekanligini tushunish mumkin. Shu bilan birga bu bayt mazmunida istiqomat karomatdan ustunligi ta'kidlanmoqda. Xo'sh, istiqomat qanday qilib karomatdan ustun bo'lishi mumkin? Istiqomat topish – ya'ni to'g'ri yo'lga kirgan banda(solik)ning Allohga bergan va'dalariga, payg'ambarning sunnatlariga amal qilib yashashi karomat ko'rsatishdan qiyin ish. Karomat har doim ham ko'rsatilmaydi, ammo hayot doimo vaqt nazoratida. Bularning orasida berilgan va'daga sadoqat saqlash karomat ko'rsatishdan mushkildir.

Fard g'oyaviy-badiiy jihatidan oddiy, mavzu jihatidan didaktik, unda tanosub san'ati ishlatilgan. Buni nabi va solik so'zlari yuzaga chiqargan. Ayni damda bular o'zaro ma'no jihatidan zidlanib tazod san'atini yuzaga keltirgan.

Tarixdan ma'lumki, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)dek ishonchli va tog'riso'z, halol va oliyanob, bandalik qilishda u zotdek yashovchi, istiqomat qiluvchi shaxsni uchratish mumkin emas. Ya'ni nabi sha'r(shariat ; yo'l-yo'riqlar, qonun-qoidalar)ga monand istiqomat qilish(yashash), umr o'tkazish uchun to'g'ri yo'l topish, solik(Haq yo'liga kirgan bandaga)ka mushkil ish(karomat)dir. U zot kabi yashash odamzod uchun juda qiyin ishdir. Ammo unga itoat etish, bo'yinsunish lozimligini MUHAMMAD surasi 33-oyatdan bilib olishimiz mumkin. Unda shunday deyiladi: "Ey, imon keltirganlar, Allohga itoat etingiz va Payg'ambarga itoat etingiz! Amallaringizni zoye qilmangiz!" [1]. Bunday deb xitob qilinishi boisi nima? Avvalo, mahbub farmonni takror eshitish mo'minlarda yangi himmat, kuch-quvvat, g'ayratga sabab bo'lsa, ikkinchidan, ba'zi musulmonlar: "Allohning va rasulning ba'zi amrlariga itoat qilsam bo'ldi, boshqalarida ko'nglimizga kelganini qilsak bo'laveradi", degan yangilish xayolga borib qolishlari mumkin. Ana o'sha tushuncha durust emasligini eslatish uchun bu amr (itoat etingiz) qayta-qayta takrorlanadi. Alloh va Uning rasuliga itoat etish ikki dunyo saodatiga sabab bo'luvchi asosiy omildir. Ushbu oyat, yana, amallarni botil qilmaslikka ham da'vat qilmoqda. "Amallaringizni zoye qilmangiz" – degan qismi quyidagicha sharhlanadi. Rivoyatlarda kelishicha "kim "Laa Ilaaha Illallohni"ni aytsa, nima qilsa ham bo'laveradi, zarari yo'q", deganlar ham bo'lgan ekan [10].

Imom Ahmad ibn al-Marvaziyan qilgan rivoyatda Abul Oliy ayadilar: Payg'ambar alayhissalomning sahobalari "Laa Ilaaha Illalloh" (aytgan bo'lsa – N.G.) bo'lsa, gunohning zarari yo'q", deb bilishardi. Xuddi shirk bo'lsa, qilgan amaldan foyda bo'lmagandek. "... va amallaringizni botil qilmangiz" oyati tushgandan so'ng gunoh amallarni botil qilishdan qo'rqadigan bo'lib qolishdi".

Imom Abdulloh ibn Muborak qilgan rivoyatda Abdulloh ibn Umar ayadilar: "Biz, Payg'ambar 1-chizma

Fard	Tashqi ma'nosi	Taqqoslash	Badiiyat
	Ichki ma'nosi	Qur'on surasi, oyati	Qur'on tafsiri (Hadis)

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, bani bashar doimo mukammallikka intilib yashaydi. Bunday asarlarni tizimli o'rganishni yo'lga qo'yish kerak. Alisher Navoiy hazratlari ham o'z hayotlarida

alayhissalomning sahobalari, qilingan yaxshi amallarning ichida qabul bo'lmaydigani yo'q, deb yurar edik. "... va amallaringizni botil qilmangiz" oyati nozil bo'lgandan so'ng, amallarni botil qiladigan narsa nima ekan, deb o'ylanib qoldik. So'ngra, katta gunohlar va fahsh ishlar, degan mulohazaga bordik".

Bu ma'noda sahoba va tobe'inlardan turli rivoyatlar keltirilgan. Misol uchun, Ibn Abbos roziyallohu anhu aytganlarki: amallarni riyo va xo'jako'rsin yoki shak va nifoqlar botil qiladi.

Qatoda roziyallohu anhu bo'lsa, "Sizdan kim yaxshi amalini yomonlik bilan botil qilmaslikka qodir bo'lsa, shuni qilsin", deganlar.

Hanafiy mazhab ulamolari ushbu oyatdan, kim o'z ixtiyori bilan biror ibodatni boshlasa, uni buzmay oxiriga yetkazmog'i vojib degan hukmni chiqarganlar. Masalan, birov o'z ixtiyori bilan ikki rak'at namoz o'qishni boshladi, demak uni oxirigacha yetkazish vojib bo'ladi. Xuddi shuningdek, birov nafl ro'za tutishni o'z ixtiyori ila boshlasa, oxiriga yetkazishi vojib bo'ladi. Mabodo, o'sha kuni biror sabab bo'lib, ro'zani ochib yuborsa, qazosini tutish vojib [10].

**Tahlil va natijalar.** Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, istiqomat karomatdan ustundir deyiladi. Bu so'zga e'tibor qaratadigan bo'lsak, nabi (s.a.v.)ning bergan ta'limotlariga asosan umrguzaronlik qilish, karomat qilishdan, mo'jiza ko'rsatishdan ustun deyilmoqda.

Barcha avliyo va shayxlar Allohning rasulini ustoz deb biladi va unga ergashadi. Ammo bu ishning uddasidin chiqish mushkildir. Sababi u zotning qilgan ishlari hikmatga to'ladir. Sunnatga amal qilish ummatga lozimdir. Aksariyat hollarda bunga amal qilinadi, ba'zan yo'q. Shu jihatdan bu fard tartib jihatidan ikkinchi bo'lib payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga maqto'v, ya'ni na't tarzida bitilgan.

Hazrat Navoiyning bu ikki fardini tahlil qilishda, avvalo, unga tartib bilan joylashgani va mazmunida hamd, na't ma'nosi sezilib turgani o'quchining diqqatini o'ziga qaratadi. Bu esa shu ikki fardning mavzumiz doirasida tadqiq qilinishiga yo'l ochadi. Buni quyidagi chizma orqali ko'rsatish mumkin.

va yozib-tuzib qoldirgan asarlarida asarlarning tartib bilan joylashtirilishiga qat'iy amal qilgan. Demak, inson hayotida tartib intizom bo'lsagina, unda ma'no-mazmun to'liq namoyon bo'la oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdulaziz Mansur, Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini. – T.: B – 483. www.ziyouz.com
2. Alisher Navoiy, "Xazoyin ul-ma'oni" "Favoyid ul-kibar", – T.: B – 403. www.ziyouz.com
3. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik, 6 – jild. – T.: Fan. 1990.B – 534.
4. Boltaboyev H., G'afurov N. Alisher Navoiy lirikasida fard janri || Образование и Наука в XXI веке, Выпуск №25 (том 2), 2022. Стр. 241-249.
5. G'afurov N. FARDLARDAN FAHMLAB... || PEDAGOGS, Volume – 7, Issue – 1, 2022. – B. 529-532.
6. Tojimatova M. "Dunyoni ma'naviy tanazzuldan qutqara oladigan mutafakkir" yoxud Navoiy asarlarini yoshlarga innovatsion usullarda o'qitish zarur... | Yangi O'zbekiston. https://yuz.uz/news/dunyoni-manaviy-tanazzuldan-qutqara-oladigan-mutafakkir-yoxud-navoiy-asarlarini-yoshlarga-innovatsion-usullarda-oqitish-zarur
7. Uludağ S. Tasavvuf terimlari sözlüğü. İstanbul. Marifet yayınlari. 1995. – B. 604.
8. M.Ойматова. Ўзбек адабиётида фард жанри поэтикаси ва тарихи. – T.: 1999. Дисс. Б - 131.
9. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф, Тафсири Хилол I tom. –T.: Шарқ. 2008.Б – 665.
10. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф, Тафсири Хилол V tom. –T.: Шарқ. 2008. Б – 672.



UDK:81'276.6:355.11:342.725

*Ma'rufjon DUSTMURODOV,*  
*TIPI dotsenti, PhD*  
*E-mail: maruf\_dust@mail.ru*

*F.f.d., professor H.Dadaboyev taqrizi asosida*

## THE REFLECTION OF THE MILITARY SYSTEM OF THE TURKIC KHAGANATE IN THE ORKHUN-YENESEI INSCRIPTIONS

Annotation

Names of weapons make up a significant part of the revolutions related to the military system of the Khaganate recorded in the ancient Turkic inscriptions. In this article, we covered the general semantic-functional and etymological analysis of the military terms reflected in the Orkhon-Yenisei inscriptions. After all, illuminating the history of the ancient Turkic language through such a study of military terms is also important in the study of the history of the statehood of the Turkic peoples.

**Key words:** Turkic khaganate, military terms, Orkhun-Yenisei inscriptions, weapons.

## ОТРАЖЕНИЕ ВОЕННОЙ СИСТЕМЫ ТЮРКСКИЙ КАГАНАТ В ОРХУНО-ЕНЕСЕЙСКИХ КАМНЯХ

Аннотация

Названия оружия составляют значительную часть революций, связанных с военной системой каганата, зафиксированных в древнетюркских надписях. В данной статье мы провели общий семантико-функциональный и этимологический анализ военных терминов, отраженных в орхуно-енесейских надписях. Ведь освещение истории древнетюркского языка посредством такого изучения военных терминов важно и при изучении истории государственности тюркских народов.

**Ключевые слова:** Тюркский каганство, военные термины, Орхуно-Енисейские вежи, вооружение.

## TURK XOQONLIGI HARBIY TUZUMINING O'RXUN-YENISEY BITIKTOSHLARIDA AKS ETISHI

Annotatsiya

Qadimgi turk bitigtoshlarida qayd etilgan xoqonlikning harbiy tizimiga doir istilohlarning salmoqli ulushini qurol-yarog' nomlarini tashkil etadi. Biz ushbu maqolada O'rxun-Yenisey bitigtoshlarida aks etgan harbiy terminlarning umumiy semantik-funksional va etimologika tahlilini yoritdik. Zero, qadimgi turkiy til tarixini harbiy terminlarning bunday tadqiqi orqali yoritish turkiy xalqlar davlatchiligi tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Turk xoqonligi, harbiy terminlar, O'rxun-Yenisey bitigtoshlari, qurol-yarog'.

**Kirish.** Turkiy el-uluslar tarixda Uzoq Sharqdagi Bohay (Sariq) dengizidan tortib, mo'jor (vengr) dashtlariga qadar keng mintaqada hukmronlik qilgan va bugungi kunda ham, deyarli ushbu arealda yashamoqda. Turk xoqonliklari (552-744) davri turkiylar davlatchiligi tarixidagi muhim bosqich bo'lib, o'z davrida mintaqada yetakchi kuch sifatida qo'shni sulolalar, qolaversa, keyingi turkiy va g'ayriturkiy sulolar tarixida muhim o'rin egallaydi. Bunda xoqonlikning harbiy ish va mudofaa jihatdan yuqori darajadagi boshqaruv tizimiga ega bo'lganligi yetakchi omillardan bo'lib xizmat qilgan. Xususan, L.Gumilevning ta'kidlashicha, "Turkutlar (Turk xoqonligi) zafarlari va dunyoning yarmiga egalik qilishi tasodifiy hodisa emas edi. Ular yuqori saviyadagi shunday bir qo'shin va idora tizimi yaratdilar, shunga munosib ravishda g'alabalarga ham erishdi, deb aytish mumkin"[24]. O'rxun-Yenisey bitigtoshlari, xitoy va boshqa tarixchilar qalamiga mansub tarixiy asarlar, solnomalar qadimgi turkiy qabila va urug'lar ko'pdan ko'p harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etganidan guvohlik beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Har qanday tadqiqotni amalga oshirishda manbalarning ahamiyati, albatta, beqiyosdir. Harbiy qurilishni o'zida aks ettirgan terminlarni chuqur o'rganishda qadimgi turkiy bitigtoshlar muhim ahamiyatga ega, chunki bular turklarning dastlabki yozma hujjatlaridir. Ko'k turk matnlari Birinchi, ayniqsa, Ikkinchi Turk xoqonligi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, alalxusus, harbiy faoliyatini ochib berishda o'ziga xos rol o'ynaydi. Zero, "Harbiy terminologiya faqat ayrim terminlarning katta qismi va ular orasidagi munosabatlar

jamlanmasi ekanligini asoslash uchun emas, balki harbiy terminologiyaning aynan tizimda qanday shakllantirilganligini aniqlashga yordam beradi"[25]. Qayd etish joizki, qadimgi turkiy harbiy terminlar tizimi Turk xoqonligi tashkil topgandan keyin emas, balki undan oldin asrlar davomida, avvalgi turkiy davlat uyushmalari negizida shakllangan. Qadimgi xunlarning harbiy ishdagi shijoati, juan-juanlar, va ayniqsa ko'k turklarning siyosiy maydonga chiqishi orqali yana qayta jonlandi hamda takomillashdi. Turkiylarning ashina urug'iga mansub qabilasi qisqa davr ichida yirik imperiyalardan birini yaratishga erishdi. Bu o'sha davrda turkiylarning eng asosiy raqiblaridan bo'lgan Suy (581-618) va Tan sulolalari (618-907), shuningdek, Sosoniylar (224-651) hamda boshqa bir qancha yirik davlat birlashmalari tomonidan e'tirof etildi. Ushbu jarayon bevosita ko'kturklarning davlat birlashmasi, undan-da oldinroqqa nazar tashlansa, juan-juanlar davriga to'g'ri keladi. Jumladan, unvon berish tartibi haqida xitoy solnomalarida bir qadar ma'lumotlar saqlangan bo'lib, ulardan "Vey shu" yilnomasida juan-juanlar bilan bog'liq quyidagi ma'lumotlar fikrni dalillaydi: "juan-juanlarda mavjud odatga ko'ra, hukmdorlar va amaldorlar bajargan ishlariga qarab unvon olishadi. Bu xuddi "O'rtaliq davlat" (Xitoy)da o'lgandan keyin beriladigan unvonlar kabi, faqat ularda vafotidan keyin faxriy unvonlar berilmaydi"[21]. Ushbu ma'lumotlardan ham anglash mumkinki, qadimgi turkiylarning davlat boshqaruvi va jamiyatdagi roli uning harbiy ishdagi jasorati, darajasiga muvofiq o'sib borgan. "Harbiy ish ko'pgina xalqlarda bo'lgani kabi ko'k turklar uchun ham umumxalq xarakteriga ega edi. Ular juda



yoshlikdan harbiy ish bilan shug'ullana boshlagan. Harbiy mashg'ulotlar har bir fuqaro uchun majburiy hisoblangan. Natijada harbiy qurilish, harbiy ish va harbiy san'at bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar tizimi qadimgi turkiy tilda mavjud kelgan va faol qo'llangan"[3]. Qolaversa, termin va unvonlar tizimining shakllanishida qo'shni g'ayriturkiy davlat va siyosiy uyushmalarning ham o'rni bor edi. Turk xoqonligi davrida mavjud iyerarxiya har jihatdan tartiblashib, yanada boyidi.

Xoqonlik davlat boshqaruvidagi harbiy termin va unvonlar tizimining ko'pgina jihatlari, shu jumladan, ularning tarixiy-etimologik, semantik-funksional xususiyatlari kabi masalalar bo'yicha muayyan darajada izlanishlar olib borilgan. Ammo aynan xoqonlik cherigida qo'llanishida bo'lgan harbiy terminologiyaning shakllanishi, bajargan vazifalari va statistikasiga doir maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Turk xoqonligi tarixining ayrim qirralarini yoritishda xitoy yilnomalarida ham qimmatli ma'lumotlar in'ikosini topgan. Yilnomalarda Turk xoqonligining markaziy hududlarida sodir bo'lgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, xoqonlikning Suy (581-618), Tan (618-907) sulolalari bilan munosabatlari qamrab olingan. Keyingi o'rinlarda sayyohlarning xoqonlik hududi bo'ylab uyushtirgan sayohatlari asosida to'plagan ma'lumotlari ham xoqonlik harbiy tizimining ayrim jihatlari yoritishga imkon beradi. Ular orasida, asosan, Markaziy Osiyoning janubiy-g'arbiy hududlari va qo'shni mamlakatlarga sayohat uyushtirgan Syuan Szan (627-644) va Xoy Chao (720-yillar)ning qaydlari ma'lum darajada ahamiyatlidir. Lingvistik manbalar harbiy istilohlar bilan ishlashda, ayniqsa, ularning kelib chiqishi va vazifalarini aniqlashda bebaho sanaladi. Qadimgi turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini tahlilga tortishda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va keyingi davrlarda yaratilgan boshqa bir qancha asarlar asosiy manbalar vazifasini o'taydi.

**Tahlil va natijalar.** Qadimgi turkiy bitigtoshlarda uchraydigan istilohlarning katta qismini harbiy terminlar tashkil etishi ushbu saltanat uyushmasining mohiyatida harbiy ish va san'at ustuvorlik qilganidan darak beradi. Bitigtoshlardagi ilk satrlardanoq harbiy ohangning ustuvorlik qilishi ham ushbu fikrimizni dalillaydi: "sü sülöpän tört buluñdaqı bodunıy qop almiş – lashkar tortib to'rt jihatdagi xalqni butunlay olgan(lar)" (KT, 2). Ushbu jumlar orqali harbiy ishdagi mahorat turklarning yirik hududlarni zabt etishdagi asosiy omil bo'lganligini bilish mumkin.

Turk cherigining qat'iy tizimli, o'z vazifasiga ega ma'muriy-hududiy qismlangani erishilgan g'alabalarni ta'minlagan omillardan biri bo'lgan. Masalan, qo'shin yolaççı – "yo'l boshlovchi (qism)", ilki sü – "avangard, ilg'or qism", atlıy sü – "otliq qo'shin, suvoriy", yaday sü – "piyoda qo'shin", äkin sü – "zaxira qo'shin" kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan va ular zaruriy vaqtda o'z vazifasini mohirona ado etganlar. Buni bitigtoshlardagi parchalardan ko'rish mumkin: "Oyuz tapa sülädim, ilki sü taşıqmış ärti, äkin sü äbdä ärti – o'g'uz tomonga lashkar tortdim, birinchi lashkar – ilg'or qism yo'lga chiqqan edi, ikkinchi lashkar qarorgohda edi" (BX, 32). "Umumiy hisobda sü dan yasalgan yoki sü bilan shakllangan harbiy istilohlar soni yuzdan ortiqligi qayd etiladi"[26]. Turk xoqonligi harbiy harakatlarda qo'shinning g'alabalarini ta'minlagan muhim omil uning jangovar shayligi va asosiy qismini atlıy sü – "otliq qo'shin"lar tashkil etganligida ham edi. Qo'shinning bu shiddatkor qismi jang paytida asosiy manevrlarni amalga oshirgan. Bitigtoshlarda hatto askarlarning qaysi otda jangga kirgani (otlarning nomi) haqida ham qaydlar uchraydi. Bu quyidagi parchalarda ko'zga tashlanadi: "Özlüki binip oplayu tägip üç ärig sänçdi – O'zlak otini minib uch jangchini o'ldirdi" (KCh, 15); "üçünc Yägän Silig bägin kädimlig torıy at binip tägdi – uchinchi (bor) Yegan Silig bekning zirhli to'riq otini minib hujum qildi"

(KT, 33). Ma'lumki, ot qadimdan turkiylarda har bir är – o'g'ilning doimiy yo'ldoshi hisoblanardi.

Harbiy harakatlarning muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan yana biri bevosita qo'shinning talablarga javob bera oladigan qurol-yarog'lar bilan jihozlanganligida edi. Bitigtoshlarda asuq – "dubulg'a", yaray – "harbiy qurol-aslah", kädim – "zirh, harbiy kiyim", oq – "o'q", kās – "o'qdon", sünüg – "nayza", sünüñlög – "nayzali", qılıç – "qilich" kabi terminlarning faol qo'llanilishi turkiy jangchilarning qurol-yarog' bilan puxta mudofaalanidan darak beradi. "sünüg batımı qaçrıy söküpän ... – nayza botimi qorni yorib ..." (KT, 35); "sünüglög qantan kalıpän süra älti – nayzali qaydan kelib, surib ketdi" (KT, 23); "Yaraqınta yalmasınta yüz artuq oqun urtı – Yarog'iga, yopinçig'i (zirhi)ga yuzdan ortiq o'q bilan urdi" (KT, 33) kabi parchalardagi harbiy terminlarning faol qo'llanilishi fikrimizni dalillaydi. Aytish lozimki, Turk xoqonligi qo'shinining mustahkam qurol-yarog' bilan ta'minlanishida temir konlari va uni qayta ishlovchi ustalarining o'rni beqiyos edi. Ashina qavmining qadimda temirchilik bilan mashg'ul bo'lgani hamda temir rudasiga boy konlar ularning hech ikkilanmasdan mustaqillik va yetakchilikni qo'lga olishdagi jasoratiga ham xizmat qilgan.

"Xitoy yilnomalarida tukiye (turk)larning qurol-yarog'lari o'q-yoy, gurzi, zirhli sovt, uzun suvoriy nayzalari va qilichlardan iborat ekani ko'rsatib o'tiladi"[9]. Aytish o'rinliki, qadimgi turkiylar og'ir anjomlar emas, balki nisbatan yengil qurol-yarog'lar bilan mudofaalanagan. Chunki ularning harbiy aslahalari keng vodiylarda va uzoq o'lkalarga yengil harakatlanishga mo'ljallangan edi. Xususan, "Oltoy o'lkasidagi Baliq-Sook degan joydagi mozor-qo'rg'on qazilganda uning qurol-aslahalari va jang kiyimlari bilan ko'milgan qadimgi turk jangchisiga tegishli ekani aniqlangan. Ahamiyatli shuki, ushbu topilmalar tiklanganda ular orasida qilich, dubulg'a (shlem), xanjar, o'q-yoy, sovt kabi jangovar buyumlar mustahkam temir va kumushdan yasalgan bo'lib, suvoriyga ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydigan darajada yengildir"[18]. Bitigtoshlarda hujum bilan bog'liq sänç – "suqmoq, nayzalamoq", ölü – "o'ldirmoq", biç – "kesmoq", ur – "urmoq, tiqmoq, sanchmoq, kesmoq" kabi istilohlar uchraydiki, bu hodisa turkiylarda hujum qurollarining turli ko'rinishlari bo'lganligidan dalolat beradi.

Bitigtoshlardagi "körüg" termini orqali qadimgi turkiylarda o'ziga xos josuslik, ayg'oqchilik xizmati ham yaxshi yo'lga qo'yilganligini anglash mumkin: "körüg sabı antay: toquz oyuz bodun üzä qayan olurtı tar ... – kuzatuvchining gaplari shunday: To'quz o'g'uz xalqi ustiga bir xoqon hukmron bo'ldi" (BX, 9). Shuningdek, bitigtoshlarda "dushman hujumidan saqlovchi post, soqchi" ma'nosidagi qarayu(n) terminining uchrashi xoqonlikda mudofaa tizimi ham yuqori darajada yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Bu borada bitigtoshlarda quyidagicha ma'lumot aks etgan: "Sälänä qodı yorıpan qarayun qislatä äbin barqın anta buzdum – Selenga (daryosiga) quyi tushib, postni bostirib, qarorgohini buzdum" (BX, 37). Xususan, bitigtoshlarda sü, çärig – "qo'shin", yizäk, är – "jangchi, jangchilar", oylan – "yosh jangchilar", sünüş – "jang", sülämäk – "urush", yayı – "dushman", körüg – "razvedkachi, josus", yärçi – "yo'l boshlovchi/yo'l ko'rsatuvchi", til – "til (asir)" kabi istilohlar faol qo'llangan.

O'rxun-Yenisey bitigtoshlari Turk xoqonligi tarixi, davlat tuzilishi va davlatchilik an'analarning turli jihatlari, jumladan, boshqaruv tizimi va unvonlar haqida muhim ma'lumotlarni olishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunga qadar kashf etilgan yozma manbalarda Turk xoqonligi va undan keyin siyosat maydonida paydo bo'lgan boshqa saltanatlarining tashqi siyosati hamda ichki hayotiga oid juda ko'p ma'lumotlar mavjud. "Qadimgi turkiylar, jumladan, xoqonlikning davlat qurilishi va u bilan bog'liq

tushunchalar haqida so'z ketganda, O'rxun-Yenisey bitigtoshlari matnida "davlat" ma'nosida al istilohining qo'llangani e'tirof etiladi"[10]. "Xoqonlikdagi qabilalar ittifoqi alga uyushgan va toru – hokimiyat/qonun tomonidan idora etib turilgan. Buni bitigtoshlardagi ushbu parchadan anglash mumkin[27]: "Turk qara qamuy bodun anca tamish: allig bodun artim, alim amti qani – Turk fuqarosi shunday debdi: Elli (davlatli) xalq edim, davlatim endi qani?" (KT, 9). Ushbu parchalardan ma'lumki, qayan oliy rahnamo sifatida al – davlat (shuningdek, xalq) va bodun – oddiy xalq, avom ustidan o'z hukmini yurgizgan. Shuningdek, davlat (al)ning nomi o'sha amaldagi xoqonning nomi bilan yuritilavergan, ya'ni xoqon nomi davlat nomi (eponim) sifatida xizmat qilgan. "Altaris qayan alintä", "Bilgä qayan alintä", "Qapyan qayan yäri" kabi. Bu jarayon keyingi turkiy sulolalar davrida ham davom etgan.

Bitigtoshlarda unvondorlar asosan o'z unvonlari nomi bilan qayd etilganini ko'rish mumkin. Masalan, "On oq oylüm Türgäs qayanta Maqarac tamyaçi ... kälti – O'n o'q o'g'lim(dan) Turgash xoqonidan Maqarach tamg'achi... keldi" (KT, 53). Bitigtoshlarga ko'ra, qadimgi turkiylarda ar – er yigitlikning ikki bosqichi haqida ma'lumotlar mavjud. Unga ko'ra yangi tug'ilgan o'g'il ulg'ayib voyaga yetgach, el, qavm oldidagi biror jasorati uchun ar (haqiqiy er) darajasiga munosib ko'rilgan. Jumladan, bitigtoshlardagi "inim kül tägin är at bolti – inim Kul Tegin voyaga yetdi (erkak bo'ldi)" (KT,

31); "oylan atim Čubuč İnäl ärtä atim Kümül Ögä – o'g'il otim Chubuch Inal, yigitlik (erlik) otim Kumul O'ga" (Y, 45/1) kabi jumlar shundan dalolat beradi. Turk xoqonligiga xos unvon-lavozimlarning o'ziga xos jihati shunda ediki, hukumat – törüga qaysi urug', sulola kelmasin o'z hokimiyatini legitimlashtirishga harakat qilgan. Bunga o'z hokimiyatini ilohiylashtirish va oddiy xalq – qara qamuy bodunni bunga ishontirish orqali erishilgan. Ya'ni, avom tomonidan Tangri qayanga uluy – rutba yoki qut – tol'e bergan hamda ushbu fazilatlar sohibiga so'zsiz itoat etish kerak deb inonilgan. Buni bitigtoshlar matnining boshidan joy olgan quyidagi jumalarda ko'rish mumkin: "Üzä Kök Tägrä asra yayüz yär qilinduqda ikin ara kişi oylı qilinmiş. Kişi oylinta üzä äcüm apam Bumın qayan, İstämä qayan oturmış – Tepada ko'k osmon, pastda qaro yer yaratilganda ikkisining orasida kishi (inson) bolalari yaratilgan. Kishi (inson) bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon, İstamiq xoqon taxtga o'tirgan" (KT, 1).

**Xulosa va takliflar.** Qadimgi turklarda qo'shin tuzilishi vazifa hamda miqdor jihatidan turlarga ajratilgan. Xoqonlik qo'shini, avvalo, harbiy amaliyotdagi vazifasiga ko'ra yo'l boshlovchi qism, avangard – ilg'or qism, otlıq qo'shin, suvoriy, piyoda qo'shin, qo'shinning ikki qanoti va zaxira kabi qismlardan iborat bo'lgan. Bu qismlar o'z ichida sanoq tizimiga asoslangan holda yuz, besh yuz, ming, tuman (o'n ming) jangchidan iborat tarkibdagi bo'linmalardan iborat bo'lgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Arat Reşit Rahmeti. Yusuf Has Hacip – Kutadgu Bilig I: Metin, 5. Baskı, – Ankara. Türk Dil Kurumu, 2007. – S. 2334.
2. Atalay B. Divanü Lugati't-Türk tercümesi. I. – Ankara: TDK Yayınları, 1998. – S. 457.
3. Dadaboyev H., Yodgorov H. O'zbek harbiy terminologiyasi. O'quv qo'llanma – T.: Sahhof, 2021. – 210 b.
4. Dankoff R. (with James Kelly) Mahmud al-Kashgari... 1985. – P. 217.
5. Erdal M. Old Turkic Word Formation. A Functional Approach to the Lexicon. Volume: I. – Wiesbaden, 1991. – P. 205.
6. Eren H. Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü. 1. Baskı. – Ankara, 1999. – S. 88.
7. Hayrettin E. Eski Türklerde Devlet Teşkilatı... – S. 228
8. Karamanlioglu Ali F. Gülistan Tercümesi. – Ankara: TDK Yay, 1978. – S. 242/121.
9. Liu Mau-Tsai. Çin kaynaklarına göre Doğu Türkleri. Çeviri E. Kayaoğlu, D. Banoğlu. – İstanbul, 2006. – 640 s.
10. Mori M. The T'u-chüeh Concept of Sovereign // Acta Asiatica. Bulletin of the Institute of Eastern culture, 41. – Tokyo, 1981. – P. 50-58
11. Şirin H. Kül Tigin yazıtı – notlar. Bilge kültür sanat. – İstanbul. 2015. – 151 s.
12. Taşağıl A. Gök-Türkler. – Ankara, 1996. – S. 97.
13. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 166 б.
14. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. I. – М.-Л., 1950. – С. 229;
15. Бобоёров Ф. Ўзбек тили тарихи. Т. – Фан. 2022. – Б.85.
16. Бобоёров Ф., Фарбий турк хоқонлигининг давлат тизими. Тарих фанлари док. дис. – Тошкент, 2012. – 380 б.
17. Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – С. 168–169.
18. Кубарев Г.В., Кубарев В.Д. Погребение знатного тюрка из Балык-Соока (Центральный Алтай) // Археология, этнография и антропология Евразии. 4 (16), 2003. – С. 64-80.
19. Кызласов И.Л. Материалы к ранней истории тюрков. I. Древнейшие свидетельства об армии. Российская археология. – Москва. 1996. – С. 71-82.
20. Марков Г. Е. Кочевники Азии. – М.: Изд-во Московского университета, 1976. – С. 47–48.
21. Материалы по истории древних кочевых народов группы дунху. Введение, перевод и комментарии В. С. Таскина. – М.: Наука, 1984. – С. 269
22. Махмуд Кошгарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. III. – Т.: Фан, 1963. – Б. 140.
23. Шевчук В.Н. Военно-терминологическая система в статике и динамике: Дис. . д-ра филол. наук. –М., 1985. – 488 с. Б. 19
24. Гумилев Л. Н. Древние тюрки. – М.: Наука, 1967. – Б. 64.
25. Курганов А. Ҳарбий терминларнинг ишлатилиши ва улардаги ўзгаришларнинг ўзига хос хусусиятлар // Ўзбекистонда хорижий тиллар, № 4 (23) 2018. – Б.77.
26. Ercilasun A. Askerlikte Onlu Systeme Türklerin Katkıları // Second International Congress on Turkic civilization. – Bishkek, October 4-6, 2004. – S.195
27. Kul Tegin bitigtoshi (Qarang. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил.... – Б. 104; Tekin T. Orhon Yazıtları. Kül Tigin, Bilge Kağan, Tunyukuk. – İstanbul: Yıldız Yayınları, 2003. – S. 41-42)

#### SHARTLI QISQARTMALAR

BX – Bilga xoqon bitiktoshi  
 DLT – Devonu lug'atit-turk  
 KCH – Kulicho'r bitiktoshi  
 KT – Kul Tegin bitiktoshi  
 To'n – Tunyuuq bitiktoshi



**Наргиза ЕСЕМУРАТОВА,**

Докторант (PhD) Каракалпакского научно-исследовательского института гуманитарных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан  
E-mail: nargiza@mail.ru

По отзыву DSc, доцент С. Зокировой

### WAYS OF USING MODIFIED PROVERBS AND SAYINGS IN THE POETRY OF IBRAHIM YUSUPOV

Annotation

This article examines proverbs and sayings used in a slightly modified form in the poetry of the people's poet of Karakalpakstan and Uzbekistan I. Yusupov. Through a number of examples, the ways in which the author uses proverbs and sayings are analyzed, making some changes to their form while maintaining their content.

**Key words:** Proverb and saying, form, ellipsis, component, rhetorical question.

### СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИДОИЗМЕНЕННЫХ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК В ПОЭЗИИ ИБРАГИМА ЮСУПОВА

Аннотация

В данной статье рассматриваются пословицы и поговорки, использованные в несколько измененном виде в поэзии народного поэта Каракалпакстана и Узбекистана И. Юсупова. Посредством ряда примеров проанализированы способы использования автором пословиц и поговорок, внося в их форму некоторые изменения, при этом сохраняя их содержание.

**Ключевые слова:** Пословица и поговорка, форма, эллипсис, компонент, риторический вопрос.

### IBROHIM YUSUPOV SHE'RLARIDA FOYDALANILGAN MAQOL VA MATALLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston va O'zbekiston xalq shoiri I. Yusupov she'riyatida o'zgartirilgan shaklda qo'llangan maqol va matallar o'rganiladi. Misollar orqali muallifning maqol va matallardan foydalanish usullari tahlil qilinadi, mazmunini saqlab qolgan holda shakliga o'zgartirish kiritilgan maqollar o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Maqol va matal, shakl, ellipsis, komponent, ritorik savol.

В стихотворениях И. Юсупова пословицы и поговорки использованы в различных формах. Также отдельной группой пословиц и поговорок, часто встречающейся в творчестве поэта, являются пословицы и поговорки, приведенные автором путем внесения определенных изменений.

Явление внесения изменений в пословицы и поговорки в произведениях И. Юсупова можно объяснить преследованием определенных художественных целей. Осуществлены же изменения различными способами. Например,

Álbette jeterseñ sen oǵan biraq  
Ol mánzil men ushin juldızday jiraq,  
Úmit, múriwbetli ómir jolında,  
Adam adam ushin ádiwli qonaq [4].

В данных стихотворных строчках пословица "Adam adamǵa miyman, jan gewdege miyman" мастерски приведена в измененном формате. Для сохранения рифмы со словами jiraq, biraq поэт меняет слово "miyman" в составе пословицы на синонимичный аналог "qonaq". А также, в целях обеспечить соотношение слогов автор приводит слово "ádiwli" в несколько расширенном виде. В ходе исследования мы убедились, что данная пословица многократно использована автором в различных измененных форматах. Например,

Toqsan beste shámbe aqdur,  
Aq júzine toymaq joqdur  
Kewil kewilge qonaqdur  
Som bilerme bul qonaq [2].

В данном стихотворении форма народной пословицы подвержена изменениям. Точно так же как и вышеприведенный пример слово "miyman" заменен на синонимичный аналог "qonaq". В стихотворении пословица приведена в более лаконичном виде, опущен второй компонент пословицы. В большинстве своих стихотворений И. Юсупов изменяет пословицы путем сокращения, опущения второго компонента. Например,

"Júrgen – dárya" desedi, shuw, jániwar [4].  
Keñ dúnyaǵa ashıp kózdi,  
"Júrgen dárya" degen sózdi [4].

В данном примере можем видеть только первую половину пословицы (júrgen – dárya, otrǵan – boyra). Однако, несмотря на то, что второй компонент "otrǵan – boyra" опущен, не наблюдается ущерба за счет содержания. Таким образом, случаи, когда опускается второй компонент пословиц и поговорок, состоящих из пары, в науке принято называть явлением эллипсиса. Во всех примерах ниже закрепившиеся в устной народной речи пословицы и поговорки приведены в измененном виде без второго компонента:

"Anali jetim – zor" degen uǵımdı,  
Bizge nárestedey nesip etti ol [2].  
Al adamni kewli qaydan?  
Kewil kewilden suw isher [3].  
"Balalı úy – bazar" degen bar maqal  
"Azamat" dep qoydı hámme aqsaqal [4].  
Zer qádirin bilip zeger,  
Sonday zaman kelgen gezde [3].  
Naqıl sóz bar "Alp – anadan" degen

Babalardıń bul aytqanı danalıq [6].

Можно заметить, в первом примере не только опущен второй компонент пословицы (ákelı jetim хог jetim), а также первая часть была сокращена. То есть, путем вычета слова “jetim” стихотворению придана лаконичность. Во втором же примере опущен второй компонент пословицы “qamis bulaqtan suw isher”. В последующих стихотворных строчках также приведена только лишь первая часть пословицы “Balalı úy bazar, balasız úy mazar”. Не смотря на это, ввиду того, что пословица хорошо знакома каждому читателю, смысл передан посредством только одного компонента вместо целой пословицы. В четвертом же примере опущен первый компонент пословицы “El qádirin er biler”. В заключительных стихотворных строчках пословица “Alp – anadan, at – biyeden” приведена без второго компонента.

Видный ученый Г.Айназарова, исследовавший двукомпонентные фразеологические сочетания каракалпакского языка, особо отмечает то, что в творчестве поэтов и писателей очень часто встречается явление опущения одного из компонентов. Ученый оценивает данный процесс как «выходящий за рамки традиционного использования прием придачи контексту особой формы и выразительности, чтобы не сразу излагать мысль автора» [1, 49]. Продолжим рассматривать примеры:

Jurt aytar: “Anasın kórip, qızın al”

Ashıq Ayaz usı sózge tán berer [6].

“Bilimli el ozar” deydi xalayıq

Bul naqılğa bárha sadıq bolayıq [6].

“İrisqıńdı sat, rawshan al” degendeı

Jaınap-jasnar mıń san qala-awıllar [4].

Ózgermeli dáwir degen

Jerge de bir náwbet keler [3].

“Qawınnıń jaqsısın saǵal jer” degen [2].

В первом примере приведен лишь первый компонент пословицы “Anasın kórip qızın al, tabaǵın kórip asın ish”. В последующих строчках опущен второй компонент “Bilimli el ozar, bilimsiz el tozar”. В третьем примере автором вольно продолжен первый компонент народной пословицы (“İrisqıńdı sat, rawshan al” degendeı): “İrisqıńdı satıp rawshan al, qalǵanına sabın al”. А в следующем примере, пословица “Elge bir náwbettur, jerge bir náwbet” в определенной степени видоизменена. Автор сокращает первую часть пословицы, а в состав второй части вносит некоторые изменения. То есть частица “de” служит для усиления смысла. В заключительных строчках использован только первый компонент пословицы “Qawınnıń jaqsısın saǵal jer, qızlardıń jaqsısın sumlı jigitler”. Во всех вышеприведенных примерах опущена какая-либо часть пословицы. Точнее, происходит явление эллипсиса. Посредством данного явления автор добивается того, что смысл излагаемой мысли накладывается только на один из компонентов вместо полного формата, также обеспечивается острота выражения и лаконичность формы.

Наряду с этим, в стихотворениях И. Юсупова можно отметить случаи упразднения определенного слова из состава пословицы:

Suw – saǵasız, ton jaǵasız bolmasın [6].

Aǵayın azarda, bezeri bolmas

Aıap kettim barıp ahwalın kórip [4].

“Házilín qansa atań menen” degen ǵoy

Bızdaǵı awılında óz tomatayıń [4]

В данных примерах пословицы и поговорки использованы не в привычном для устной народной речи форме, а в несколько измененном виде. В первом примере приведена пословица “Suw saǵasız bolmas, ton jaǵasız bolmas”. Но автор в целях избежать многократного

повтора, исключает из ряда слово “bolmas”, сокращает форму пословицы. В необычной форме приведена также пословица “Aǵayınnıń azarı bar da, bezeri bolmas” в следующем примере. Поэт убирает слово «bar», также меняет форму предыдущего слова “azarı” на “azarda”. Данное изменение деликатно внедряется в строчки стихотворения, тем самым она легко читается и в строчках отсутствует громоздкость. Несомненно, при этом, стоит особо отметить мастерство И. Юсупова. Обратим внимание на следующие видоизмененные пословицы и поговорки:

Oy, zaman-ay, kettiń-aw birden ózgerip,

Keshe esitkendi búgin kóz kórip [2].

Dúnya degishli dárya

Tınbay ózgeredi

Keshe esitkendi

Búgin kóz kóredi [4].

В данных строчках приведена пословица “Qulaq esitkendi kóz kóredi”. В построение пословицы автор вносит некоторые изменения, во-первых, заменяет слово “qulaq” на слово “keshe”. Во-вторых, в пословице появляется новое слово. Автор удаётся повысить эмоционально-экспрессивную сторону строки путем добавления слова “búgin”. Данная пословица часто встречается в произведениях И. Юсупова. Например, обратим внимание на следующие строки:

Búgin esitkendi erıen kóz kórer

Ómir jańalıqlar menen órleydi [4].

Пословица в данных строчках заметно отличается от предыдущего примера. Здесь лексический состав пословицы и изменен добавлением слов búgin-erten, тем самым усиливается острота и выразительность излагаемой мысли. И. Юсупов неоднократно использовал пословицу “Qulaq esitkendi kóz kórer” и в других формах:

Zaman barar ózgerip,

Esitkendi kóz kórip [4].

Esitkendi kóz kórdi anıq bolıp

Qarasam taw suwına qanıp bolıp [4].

В приведенных стихотворных строчках отсутствует слово «qulaq». Таким образом, автор добивается краткой и лаконичной формы пословицы. А содержание, стоит отметить, полностью сохраняется. Выше мы проанализировали лишь случаи сокращения в использовании пословиц и поговорок. В поэзии И. Юсупова, помимо этого, можно заметить и то, как к составу пословиц добавляются определенные слова, смысл разворачивается и обогащается:

Hamalı bir deser zamanı birdiń,

Sharhasañız bir at bolayın sizge [4].

Waqtı degen hikmetli táwip,

Emler deydi júrek jarasın [4].

Quday ma ya qurqultay ma, kim sheber eken? [2].

В первом примере видоизменена пословица “Hamalı birdiń zamanı bir”. Автором добавлены некоторые слова, развернут смысл и обогащен строй пословиц и поговорок. Во втором примере приведена пословица “Waqtı – táwip”. Для более выигрышного формата автор добавляет слова “degen”, “hikmetli”. А в третьем примере хотим особо отметить то, что пословица полностью подвержена изменению. Народную пословицу поэт приводит в форме риторического вопроса, тем самым добивается особой выразительности мысли: “Quday sheberme, qurqultayma?”. Подобные примеры составляют огромное количество. Безусловно, все они свидетельствуют о поэтическом мастерстве И. Юсупова:

Juwırǵanlar almas, buyırǵan alar degen naqıl bar,

Ketip qaldıń ba dedim basqaǵa bar qolayında [4].

Sirtıńnan ton piship, soǵan talasıp,

Juwırǵanlar emes, buyırǵan aldı [6].

В первой строке пословица “Juwirgandiki emes, buwirgandiki” подвержена некоему сатирическому изменению. Дополнение строения пословицы новыми словами усиливают выразительность излагаемой мысли и обозначают в данном примере противоречивость. Также во втором примере наблюдается этот случай. В ходе исследования мы убедились, что И. Юсуповым в произведениях использовано большое множество пословиц и поговорок. И в большинстве случаев автор вносит в них свои изменения. Дополним свой довод примерами:

Doshiq gúlshánine megzes bul zaman,  
Kewil kewillerden suw isher mudam [2].

В приведенном примере встречается пословица “Kewil kewilden suw isher, qamis buwinnan suw isher”. Вторая часть пословицы опущена. А также, первый компонент при этом дополнен другими словами. Хотя и автор сокращает пословицы, их содержание остается цельным. А давление авторских слов усиливают эмоционально-экспрессивную окраску стихотворения и способствуют обеспечению рифмовки. В следующих примерах поэт добавляет несколько новых слов к пословицам и поговоркам:

Endi óli arislannan  
Tiri tushqandi abzal bildi-aq [5].  
Birew basqağa gór qazsa

Ózi túsip qalar bolar [5].

Обратим внимание на первый пример. Народная пословица “Óli arislannan tiri tushqan abzal” подвергается изменениям со стороны автора. Пословица разбита на две части, и приведены по отдельности в двух строчках. Более того, структура пословицы обогащена автором новыми словами. Пословица “Atadan altaw tuwgan edik, jetew boldiq óle-óle”, очень часто встречаемая в устной народной речи, использована в стихотворных строках И. Юсупова в следующем виде:

Astarlap aytar mamanlar,  
Buniń mánisin kim anlar  
Atadan altaw tuwganlar  
Jeter bolar óle-óle?... [3].

Сама по себе пословица имеет форму I лица, а автор видоизменяет ее в III лице и, путем этого, добивается форма риторического вопроса.

Совокупив можно сказать, мастерство И.Юсупова особо бросается в глаза в том, что ему удается уместно использовать в своих стихотворениях пословицы и поговорки, меняя их форму, но сохраняя их содержание и смысл. Изучая пословицы и поговорки в его творчестве, мы еще глубже можем понять содержание его произведений, глубину и остроту мыслей в его стихотворениях.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Айназарова Г. Қарақалпақ тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлердин лексика-семантикалық хэм стиллик өзгешеликлери. –Нөкис, «Қарақалпақстан», 2015.
2. Юсупов И. Өмир, саған ашықпан...Сайланды шығармалары. –Нөкис, «Қарақалпақстан», 1999.
3. Юсупов И. Пазыйлет. –Нөкис, «Қарақалпақстан», 2014.
4. Юсупов И. Таңламалы шығармалары. Үш томлық. II том. –Нөкис, «Билим», 2018.
5. Юсупов И. Тумарис хэм басқа поэмалар (Сайланды поэмалары). –Нөкис, «Қарақалпақстан», 1974.
6. Юсупов И. Хәркимниң өз заманы бар (қосықлар хэм қысса). –Нөкис: «Қарақалпақстан», 2014.



UOK:802.45

*Xumora ZIYODULLAYEVA,*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*  
*E-mail: xumoraziyodullayeva9@gmail.com*

*O'ZJOKU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi L. Toshmuhamedova taqrizi asosida*

### YANGI MEDIA SHAROITIDA FAKE NEWSNING AUDITORIASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi media sharoitida feyk yangiliklarning auditoriyasi haqida tadqiqotchilarning fikrlari shuningdek, yosh avloddalarga xususan, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga feyk xabarlariga ishonib qolmasligi to'g'risida maslahatlar keltirilgan. Hamda mazkur mavzu doirasida xorij tadqiqotchilarining fikrlari keltirilib, muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Feyk xabar, fishing, omma, ijtimoiy tarmoq, ommaviy axborot vositalari, yoshlar.

### АУДИТОРИИ ФЕЙК-НЬОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ НОВЫХ МЕДИА

Аннотация

В данной статье представлены мнения исследователей об аудитории фейковых новостей в современной медиасреде, а также советы молодежи, особенно пользователям социальных сетей, не верить фейковым новостям. Также в рамках данной темы были представлены и обсуждены мнения зарубежных исследователей.

**Ключевые слова:** Фейковые новости, фишинг, массовка, социальная сеть, источники информации, молодежь.

### AUDIENCES OF FAKE NEWS IN NEW MEDIA CONDITIONS

Annotation

This article presents the opinions of researchers about the audience of fake news in today's media environment, as well as advice for young people, especially social network users, not to believe fake news. Also, the opinions of foreign researchers were presented and discussed within this topic.

**Key word:** Fake news, phishing, mass, social network, information sources, youth.

**Kirish.** Bugungi kunda internet inson turmush tarzining muhim qismini tashkil etadi. Gazeta va televidenie kabi an'anaviy yangiliklarning roli pasayib, yangiliklarni qabul qilishda keskin zaiflashib bormoqda. Xususan, Facebook, Instagram va Twitter kabi ijtimoiy media infratuzilmalarining kengayishi an'anaviy ommaviy axborot vositalarini buzishda muhim rol o'ynaydi. Insonlar ushbu ijtimoiy tarmoqlardan do'stlari, qarindoshlari bilan bog'lanish va dunyo bo'ylab ma'lumot va yangiliklar to'plash uchun foydalanadilar. An'anaviy ommaviy axborot vositalariga qaraganda ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklarni olish ancha tez va arzonroq hisoblanadi. Shuningdek, unda muhokamalar uchun yangiliklarni do'stlaringiz va boshqa odamlar bilan bo'lishish ancha oson.

Tan olib aytishimiz kerakki, bugungi kunda fake news qurmonlarini ko'p qismi yoshlar hisonlanadi. Boisi yosh foydalanuvchilar, o'rta yosh yoki yoshi katta foydalanuvchilarga qaraganda ijtimoiy tarqmoqlardan ko'p foydalanishadi. Fake news ijtimoiy tarmoqlarda video, audio, foto va matn ko'rtinishda uchraydi. Aksariyat maktab o'quvchilari esa bu narsalarni o'zi tushunar tushunmay ishonib qolishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda tomoshabinlarning zo'ravon munosabati aynan shu bilan bog'liq. Ko'pchilik uchun "yangilik" bo'lgan texnologiya axloqiy jihatdan ham munozaralarni keltirib chiqaradi. Feyk xabarlar yolg'on ma'lumot tarqatish, shaxsiy hayotga tajovuz qilish, jamoat shaxsining obro'siga putur yetkazish kabi tushunchalarga tushib qolishi mumkin. Kriminalistlar ushbu turdagi kiber jinoyatlarni keyingi 15 yil ichida eng xavfli deb tan olishdi. Feyk xabar tarqalishi bilan jamoat shaxslarini "obro'sizlantirish" holatlari paydo bo'ldi. Ko'pchilik texnologiyani faqat shafqatsiz hazil qilishga urinish sifatida

qabul qiladi. Afsuski, bunday idrok yulduzlar va siyosatchilarning obro'sizlanishining haqiqiy holatlaridan kelib chiqadi, ular o'zlarining imidjarini sun'iy intellekt bilan ko'pincha noo'rin videotasvirlarda qayta yaratishga ruxsat bermagan. Shu sababli, "Fake news" ni qonuniy javobgarlikka tortish usullari ko'rib chiqilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Axborot inqilobi mish-mishlarni tarqatish va tarkibning to'g'riligini tekshirmasdan jismoniy shaxslar va jamoat arboblari haqida taxminlar qilish uchun qulay zamin bo'ldi. "Soxta yangiliklar jamiyat mediatizatsiyasi bilan bog'liq holda bizning davrimizda ko'proq tarqalgan va bu juda katta asosga ega bo'lgan hodisa hisoblanadi" deb, ta'kidladi E. Shults[1]. Internetdagi noto'g'ri ma'lumotlar hayratlanarli darajada xavflidir, chunki bu noto'g'ri ma'lumotlar tarqatilganlar uchun ham, noto'g'ri ma'lumotlarni oluvchilarning o'zlari uchun ham jiddiy oqibatlariga olib keladi[2]. Bundan tashqari, A. G. Titova ta'kidlaganidek, soxta narsalar ko'plab boshqa omillar tufayli yuzaga kelishi mumkin[3]

Shunday qilib, internetda soxta ma'lumotlarni huquqiy tartibga solishning samarali va muvozanatli tizimini yaratish hozirgi davrdagi eng muhim vazifalardan biridir. V. S. Klementieva ta'kidlaganidek, kiber kosmosda huquqiy madaniyatning rivojlanishi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning majburiy elementlaridan biri bo'lgan muqarrar zarurati hisoblanadi[4]. Shu nuqta nazardan, internetda noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishini cheklash, shu bilan birga bepul ma'lumot almashish uchun asossiz cheklovlar yaratmaslik uchun huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnik chora-tadbirlar qo'llash lozim.

Soxta yangiliklar tezkorlik bilan tarqalishi hozirgi kunda butun dunyoning muammosi hisoblanadi. Onlayn kontentni yaratish, tarqatish va ularni qabul qilishi tufayli,

soxta yangiliklar haqiqiy tahdidga aylanib bormoqda. Insonlar, veb-saytlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar ma'lum darajada muammoning bir qismi hisoblanadi. Soxta yangiliklar jamoatchilik fikriga ta'sir qiladi, ularning ongini shakllantiradi. Ularni qasddan platformalar yoki foydalanuvchilar tomonidan tarqatiladi. Foydalanuvchilar soxta yangiliklarga qanchalik tez-tez duch kelishlarini anglamaydilar[5].

AQSh Kongressi vakillar palatasi spikeri Nensi Pelosi ishtirokidagi fake videosi tarqalgan edi. Videoning muallifi sun'iy intellekt yordamida Pelosining nutqini o'zgartirdi, shunda u so'zlarni noto'g'ri talaffuz qildi, so'ngi videoni tomoshga qilgan foydalanuvchilar siyosatini mast deb o'yladi. Vaziyat katta janjalga sabab bo'ldi. Bir muncha vaqt o'tgach, Pelosining nutqi SI tomonidan yaratilganligi isbotlandi[6].

Stiven Kingning "It" ya'ni "Bu" romanida yozilganidek, "qo'rquvni yengish uchun siz uning ko'ziga qarashingiz kerak". Shuning uchun, birinchi navbatda, fake nima ekanligini aniqlash kerak. Hozirgi kunda uning eng keng tarqalgan turi fotosuratlar va videolarda yuzlarni almashirish hisoblanadi. Biz fotosurat, video yoki eng yomoni, audio voqea yoki haqiqatning shubhasiz isboti ekanligiga o'rganib qolganmiz. Fake yolg'onni haqiqatga aylantirib, odamlarning obro'siga soya solib, bu tushunchani yo'q qiladi. Hatto texnologik gigantlar ham ular bilan kurasha olmaydi[7].

Chesney, D.Citron[8] va M. Vestrelund (Westerlund M.)[9] o'z asarlarida "soxta" atamasi yangi turdagi noto'g'ri ma'lumotlarni tavsiflash uchun to'liq mos kelmasligi haqidagi tezisni qayd etgan va ishlab chiqqan birinchi tadqiqotchilar bo'ldi. Tadqiqotning maqsadi dip-soxta texnologiyaning global va milliy darajadagi siyosiy muloqotga ta'sirini tavsiflash va bashorat qilishdir. Shuningdek, ish metodologiyasi nazariy ma'lumotlarni tizimlashtirish, tasniflash, omillar to'plamini tahlil qilish va bashorat qilishni o'z ichiga oladi.

**Natija va muhokamalar.** Biz axborot dunyosida yashayotganimiz sababli, bizning qarashlarimiz va reaksiyalarimiz biz iste'mol qiladigan ma'lumotlarning mazmuni bilan belgilanadi. Shuni inobatga olgan holda, soxta xabarlarining tarqalishi jamiyatning ruhiy salomatligiga zarar yetkazishi mumkin emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar ommaviy axborot vositalarida faol yoritilgan va muhokama qilinadigan mavzular va muammolarni eng muhim deb bilishadi[10]. Shuningdek, jamoatchilikka ta'sir qilish va manipulyatsiya qilishning samarali vositalaridan biri bu fotofeyklar va video ko'rinishidagi soxta xabarlar hisoblanadi. Ushbu salbiy omillarga qaramay, soxta yangiliklar tobora ommalashib bormoqda. Buning sababi shundaki, o'quvchilar ma'lumotni soxtalashtirishni darhol tanij olmaydilar, ta'riflangan faktlarning ishonchligiga so'zsiz yoki qisman ishonadilar. Zamonaviy media maydoni axborot shovqinining "to'lqinlarini" keltirib chiqaradigan aloqa jarayonlarining tezligini oshirish sharoitida ishlaydi. Shu bilan birga haqiqat va yolg'on, media-qahramonlar va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi chegaralari tobora yo'qolib bormoqda[11]. Natijada ommaviy axborot vositalari sohasida soxta yangiliklar tobora ko'payib bormoqda. O. S. Issers internetni "soxtalashtirish" uchun asosiy platforma deb ataydi [12]. Shu bilan birga, ko'pincha internet foydalanuvchilari soxta, yolg'on ma'lumotni ishonchli ma'lumotlardan ajrata olmaydilar[13].

Axborot tarqalishini nazorat qilish masalasi "global tendentsiya"ga aylanganmoqda. G'arb mamlakatlarida ular faol ravishda pul ajratadilar va "soxta" xabarlarga qarshi kurashish uchun butun davlat tashkilotlarini tuzadilar. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari "soxta" deb hisoblaydigan xabarlar nafaqat avtomatik tekshiruvdan o'tadi, balki mustaqil factcheckerlar tomonidan ham tekshiriladi. Soxta internet-kontent uchun jazoni qonuniy ravishda tayinlagan birinchi davlatlardan biri bu Germaniya hisoblanadi. 2017-yil oktyabr oyidan boshlab u yerda "ijtimoiy tarmoqlar" to'g'risidagi qonun ishlab chiqilib, ularning egalari shikoyat kelib tushgan kundan boshlab bir kun ichida noto'g'ri yangiliklarni o'chirib tashlashlari yoki blokrovlari qilishi yoki 50 million yevrogacha jarima to'lash kabi choralar ko'rdi. AQShda 2017-yil oktyabr oyida Senatda ovoz berish uchun "Adolatli reklama to'g'risida" gi qonun loyihasi taqdim etildi, unda siyosiy tashviqotni joylashtirishning yangi tartibi ko'zda tutilgan[14].

Umuman olganda soxta yangiliklar - bu uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan hodisa hisoblanadi[15]. Soxta yangiliklar tarixi haqida gapirganda, tadqiqotchilar ko'pincha turli xil yolg'on matbuot tarixini tahlil qilishga murojaat qilishadi[16]. Tadqiqotchilarning "soxta yangiliklar" atamasiga turlicha munosabat bildirishadi. Ba'zilar buni ortiqcha deb hisoblashsa, boshqalar esa, soxta yangiliklarni noto'g'ri ma'lumotlar deb hisoblashadi[17]. Ushbu hodisani "Axborot portlashi" ("Axborot pollution") yoki "Axborot buzilishi" ("Axborot buzilishi") deb, atashadi[18].

Soxta yangiliklar atayin tarqatilganda shunday bir vaziyat yuzaga keladiki, endilikda odamlar nimaga va kimga ishonish yoki ishonmasligini bilmay qolishadi. So'ngi paytlarda yolg'on, uydirma xabarlar, nafaqat ko'ngilochar nashrlar, internet yoki ijtimoiy tarmoqlarda, balki jiddiy, rasmiy nashrlar, xatto obro'li OAVda ham uchramoqda. Ma'lum bo'lishicha, ayollar erkaklarga qaraganda televizor ko'rishni avzal ko'rishadi. Erkaklar esa, internet ommaviy axborot vositalariga ayollarga qaraganda ko'proq murojaat qilishadi. Shu bilan birga, erkaklar olingan ma'lumotlarga ayollarga qaraganda e'tiborliroq bo'ladi.

**Xulosa.** Bugungi kunda soxta yangiliklar sonining ko'payishi tufayli ommaviy axborot vositalarining auditoriyasi qiyin ahvolda. Soxta yangiliklar nafaqat ijtimoiy tarmoqlarda va messenjerlarda, balki yirik federal ommaviy axborot vositalarida ham e'lon qilinadi. Noto'g'ri ma'lumotlarning ko'pligi tomoshabinlarning ommaviy axborot vositalariga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. To'plangan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, yoshlar auditoriyasi o'zlarining media savodxonligini oshirishga moyil, bundan tashqari, jurnalistik ko'nikmalarga ega bo'lmagan auditoriya axborot manbalarini va ularning potentsial ishonchligini professional jurnalistlardan farqli ravishda qabul qiladi.

Xulosa qilib aytganda, insonlar internetda shuhrat va pul topish uchun soxta yangiliklar tarqatishdi. Insonlar ko'p obunachilarga ega bo'lish orqali, foydalanuvchilarning e'tiborni o'zlariga jalb qiladi. Ular soxta yangiliklar yaratganda yoki tarqatganda, ular ko'proq obunachilar soni orttirishlari mumkin. Shuningdek, soxta yangiliklar yaratuvchilari o'zlarining reklamalarini ko'proq ko'rishlari mumkin, bu ularga ko'proq daromad keltiradi. Shu sababli, yolg'on ma'lumot evaziga odamlar o'zlari intilayotgan shon-shuhrat va pulga ega bo'lishlari mumkin va bu harakatlar tufayli soxta yangiliklar va yolg'on ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlarda omma e'tiboriga tarqaladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Шульд Э.Э. Фейковые новости в современных коммуникационных процессах // Вестник Российского университета дружбы народов.
2. Lavi M. Publish, share, re-tweet, and repeat // University of Michigan journal of law reform. - Ann Arbor, 2021. - Vol. 54, N 2. - P. 441-523.

3. Титова А.Г. Слухи и фейковые новости как фактор дестабилизации социально-политической обстановки: опыт противодействия // Журнал исторических, политологических и международных исследований. - Донецк, 2022. - N 3 (82) - С. 167-172.
4. Клементьева В.С. К вопросу об ответственности за размещение «фейковых новостей» и оскорбление государственных органов в киберпространстве // Вестник Московского университета МВД России. - Москва, 2019. - N 5. - С. 78-81.
5. <https://medium.com/innovation-machine/fake-news-a-universal-solution-22895048f5e7>
6. <https://www.sostav.ru/publication/dipfejk-poleznaya-tekhnologiya-dlya-reklamnogo-kreativa-ili-instrument-nedobrovestnogo-marketologa-60037.html>
7. [https://trashbox.ru/link/deepfakes-are-the-main-cyberthreat\\_](https://trashbox.ru/link/deepfakes-are-the-main-cyberthreat_)
8. Chesney R., Citron D. Deep Fakes: A Looming Challenge for Privacy, Democracy and National Security // California Law Review. 2019. P. 1753-1820.
9. Westerlund M. The Emergence of Deepfake Technology: A Review // Technology Innovation Management Review. 2019. Vol. 9. P. 39-52.
10. Прокопенко М. Фейк как инструмент войны / М. Прокопенко // День. — URL: <http://day.kyiv.ua/ru/article/media/feyk-kak-instrument-voynu>.
11. Ефанов А.А. Функционирование псевдо-новости в полях телевидения и Интернета: типология, практики, социальные эффекты / А.А. Ефанов // Коммуникология. — 2018. — Т. 6, № 1. — С. 155-165.
12. Иссерс О.С. Медиафейки: между правдой и мистификацией / О.С. Иссерс // Коммуникативные исследования. — 2014. — № 2. — С. 112-113.
13. Крейг Р. Интернет-журналистика. Работа журналиста і редактора у новых ЗМІ / Р. Крейг ; пер. з англ. А. Ю. Іщенко. — Кшв, 2007. — 324 с.
14. Dwoskin E. Twitter is looking for ways to let users flag fake news, offensive content / E. Dwoskin // The Washington Post. — 2017. — 29 June.
15. Самошкин Е.А. Институты борьбы с дезинформацией и мисинформацией в СМИ // Вестник Московского университета. Сер. 10: Журналистика. 2017. № 6. С. 176-190.
16. Raspopova, S. & Bogdan, E. (2019) Misinformation as Ignoring Professional Principles of Journalism. The European Proceedings of Social & Behavioural Sciences. pp. 456-461. DOI: 10.15405/epsbs.2019.08.02.53
17. Fallis, D. (2015) What is disinformation? Library Trends. 63 (3). pp. 401-426.
18. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017) Information disorder: Toward an interdisciplinary framework for research and policy making. In: Council of Europe Report DGI. Council of Europe.





*Gulchexraxon ISAMIDINOVA,*  
*Erkin tadqiqotchi, AndMI akademik litseyi o'qituvchisi*  
*E-mail: gulchehra.isamidinova@gmail.com*

*PhD, dots. D.Satimova taqrizi asosida*

## PARALINGUISTIC ANALYSIS OF FALSE COMMUNICATION IN DIFFERENT DISCOURSES

Annotation

The article examines the analysis of false discourse in literary works. It is known that discourse is closely related to the concepts of text and communication, and the article elaborates on these concepts and their differences through research and conclusions. Given that false discourse is a broad concept, its pragmatic and paralinguistic elements in literary works are analyzed with the help of examples.

**Key words:** Discourse, text, speech, communication, false discourse, paralinguistic elements.

## ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛОЖНОЙ КОММУНИКАЦИИ В РАЗНЫХ ДИСКУРСАХ

Аннотация

В статье проводится анализ ложного дискурса в литературных произведениях. Известно, что дискурс тесно связан с понятиями текста и общения, и в статье эти понятия и их различия освещены с помощью исследований и выводов. Поскольку ложный дискурс является широким понятием, его прагматические и паралингвистические элементы в литературных произведениях анализируются с помощью примеров.

**Ключевые слова:** Дискурс, текст, речь, общение, ложный дискурс, паралингвистические элементы.

## YOLG'ON MULOQOTNING TURLI DISKURLARDAGI PARALINGVISTIK TAHLII

Аннотация

Maqolada yolg'on nutqni badiiy asarlardagi tahlili olib borilgan. Ma'lumki, diskurs matn, muloqot va nutq tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir va maqolada ushbu tushunchalar tarifi va farqi izlanishlar, hulosalar yordamida yoritib borilgan. Yolg'on diskurs keng tushuncha bo'lganligi sabab uning badiiy asarlardagi pragmatik va paralingvistik elementlarini misollar yordamida tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Diskurs, matn, nutq, muloqot, yolg'on diskurs, paralingvistik elementlar.

**Kirish.** So'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda diskursning turli yo'nalishlarida izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, yolg'on diskurs tilshunoslar o'rtasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Yolg'on diskursning badiiy asarlarda tahlil qilishda paralingvistik elementlarning ahamiyati katta. So'nggi yillarda bu mavzu doirasida jaxon tilshunoslari bir qancha ilmiy izlanishlar olib borishmoqda, lekin bu mavzu doirasida o'zbek tilshunosligida tahlil talabdir.

**Metodlar.** Maqolada tasviriy metod, distributiv hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Yolg'on diskursni o'rganish pragmatik, paralingvistik va leksik-semantik izlanishlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda yolg'on diskurs tilshunoslar tomonidan keng tahlil qilingan. Yolg'on diskursni tahlil qilar ekanmiz diskursning tarifi va uning hususiyatlarga kiruvchi nutq, matn, muloqot va ularning farqlarini o'rganib tahlil qilish ham joizdir. Bunda o'zbek tilshunos olimlari Sh.Rizaev va A.Nizomovning nurq va muloqotga bergan tariflari va izlanishlari ko'rib chiqildi. Jahon tilshunoslaridan T.A Van Dijk, M.Forkalt, J.P Gee, N.Feyrkloklar izlanishlari ko'rib chiqib tahlil qilindi. Italiyalik tilshunos U. Ekoning "Umumiy semiotika traktati"da yolg'on diskursni semiotik hususiyatlarini tahlil qilgan. Rus tilshunos olimi V.Gerasimov o'zining "Semiotika va kommunikativ amaliyot" kitobida diskurs va adrasantning semiotik aspektini tahlili hamda M.Baxtinning Dostoevskiy asarlaridagi badiiy dialogik jarayonlarini tahlili ko'rib chiqildi. Shuningdek, Sh.Brontening "Jeyn Eyr" romanida yolg'on diskursning paralingvistik tahlili olib borildi.

Tahlil natijalari: Diskurs keng tarqalgan tushuncha bo'lib, hozirgi kunda bir nechta sohaning o'rganish obyektidir.

Diskurs – lotin tilidan discursus so'zidan olingan bo'lib, "harakat" yoki "suhbat" ma'nosini bildiradi. Discursus so'zi esa discurre fe'lidan olingan, bu esa "yurish", "harakat qilish" yoki "so'zlash" degan ma'nolarni bildiradi. Discurre lotincha dis- (tarqoq) va currere (yurish) qo'shimchalaridan tashkil topgan [15].

Tilshunoslar diskursga turlicha tarif berishgan. "Diskurs – bu til orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyat bo'lib, u tilning ma'lum ijtimoiy guruhlar va tuzilmalardagi roli, o'zaro munosabatlar va ideologiyalar bilan bog'liqligini ko'rsatadi", deb ta'riflaydi T.A. Van Dijk. Shuningdek, u diskursni til va ijtimoiy kontekstdagi o'zaro aloqalar nuqtai nazaridan ta'riflaydi. Van Dijk diskursni til orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyat sifatida ko'radi va u ijtimoiy ideologiyalar, kuch tuzilmalari va munosabatlarni aks ettirishi mumkinligini ta'kidlaydi [14]. M.Forkalt esa diskursni bilim, kuch, va ijtimoiy amaliyotlarning o'zaro munosabatlarini ifodalovchi til va boshqa signallar tizimi sifatida ta'riflaydi. U diskursni ma'lumotlarni qanday ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonida markaziy rol o'ynaydigan vosita sifatida ko'radi [4]. Demak, Diskurs – bu til orqali ifodalangan va ijtimoiy kontekstda amal qiladigan fikrlar, ma'lumotlar va kommunikativ faoliyatlarining to'plamidir. Diskursning asosiy jihatlaridan biri bu nutq va matndir. J.P Gee nutqni ijtimoiy identifikatsiya, bilim va qiymatlarni qurish va ifodalash uchun ishlatiladigan til va boshqa semiotik vositalar sifatida ko'rib chiqadi va quyidagicha ta'rif beradi:

"Nutq – bu til va boshqa semiotik vositalar orqali ijtimoiy identifikatsiyalarni, bilimlarni va qiymatlarni yaratish va ifodalash jarayoni." [5] Britaniyalik tilshunos olim N.Feyrklok esa nutqni til va ijtimoiy kuchning o'zaro aloqasi

sifatida ta'riflaydi. U nutqni ijtimoiy tuzilmalarni va kuch tuzilmalarini ifodalovchi vosita sifatida ko'radi. Bundan ko'rinib turibdiki nutq – bu ijtimoiy va ideologiyalarni aks ettiruvchi va shakllantiruvchi til faoliyati bo'lib, u til orqali ijtimoiy o'zgarishlarni tahlil qilish uchun asosiy vositadir [7].

Matn – bu til orqali ma'no yaratish jarayonida markaziy rol o'ynaydigan elementdir. U kontekst va ma'no o'rtasidagi o'zaro aloqani ifodalaydi, deb tariflaydi rus tilshunosi A.Kojevnikov [5] O'zbek tilshunos olimlaridan Sh.Rizaev matnni tilshunoslik va lingvistik tahlilning asosiy obyekti sifatida ko'radi va u matnni kommunikativ birlik sifatida tariflaydi: “Matn - bu til orqali ma'lum kommunikativ maqsadni amalga oshirish uchun yaratilgan va strukturaviy jihatdan birlashgan til birligidir” [13].



Tilshunoslikda diskurs turli yo'nalishlarda o'rganilib, tahlil qilinib kelinmoqda. Jumladan, yolg'on diskursi hozirgi kunda eng tahlil talab mavzulardan birilgicha qolmoqda. Yolg'on jamiyatimizning bir qismi sifatida qaraladi. U Eko o'zining “Umumiy semiotika traktati”da adolatli ravishda shunday ta'kidlaydi: "Semiotika aslida aldosh maqsadida foydalanilishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni o'rganadigan fan" [6] bu esa yolg'onni universal total semiotik jarayon sifatida ko'rishga olib keladi. U.Econing ta'rifiga ko'ra, semiotika, aslida, “aldosh maqsadida foydalanilishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni o'rganadigan fan” sifatida

Muloqot – bu samarali va aniq kommunikatsiya uchun maxsus qoida va strategiyalar asosida amalga oshiriladigan til orqali o'zaro aloqadir deb tariflaydi ingliz tilshunosi H.Paul [12]. O'zbek tilshunoslaridan A.Nizomov muloqotga quyidagicha ta'rif beradi: muloqot - bu tilshunoslikda kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish uchun yaratilgan til faoliyatidir [11].

Diskurs, matn va muloqot tushunchalari tilshunoslikda bir-biriga bog'liq bo'lsada har biri o'ziga xos yondashuv va tahlil nuqtai nazarga ega. Diskurs kengroq ijtimoiy va madaniy kontekstda til faoliyatini tahlil qilsa, matn til orqali o'z ichki ma'no va strukturani ifodalaydi, muloqot esa til va boshqa vositalar orqali aloqalarni amalga oshiradi.

qaraladi. Bu ta'rif yolg'onni nafaqat bir til xatosi yoki noto'g'ri axborot sifatida, balki semiotik tizimlarning muhim qismi sifatida ko'rishga olib keladi.

U.Ekoning fikricha, yolg'on o'ziga xos semiotik xususiyatlarga ega bo'lgan va kommunikatsiyada qabul qilinishi yoki rad qilinishi mumkin bo'lgan bir element sifatida namoyon bo'ladi. Semiotika, shuningdek, yolg'onning qanday qilib til va boshqa semiotik vositalar orqali kommunikatsiyada ishlatilishini o'rganadi. Ekoning fikricha, yolg'on universal semiotik jarayon sifatida quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilinadi:



Rus tilshunos olimi V.Gerasimov o'zining “Semiotika va kommunikativ amaliyot” kitobida [3] diskurs va adresantning semiotik aspektini ko'rib chiqadi. U yolg'onni qaysi jarayonlarda paydo bo'lishi va uning kommunikatsiyadagi ahamiyatini tahlil qiladi. V.Gerasimov adresantni kommunikatsiya jarayonida faollik ko'rsatadigan shaxs sifatida ko'radi. Adresant yolg'on yoki manipulyatsiyani amalga oshirishini, qanday kommunikativ strategiyalar va til vositalarini ishlatishini tahlil qiladi. Yolg'on ijtimoiy diskursda o'zgarishini va ijtimoiy norma yoki me'yorlarga zid kelishi mumkinligini tahlil qiladi. Yolg'on ijtimoiy muloqot va munosabatlar orqali qanday tarqalishini va uning ijtimoiy tuzilmalarga ta'sir qilishini ko'rib chiqadi. Masalan, korporativ reklamalar orqali iste'molchilarga haqiqiy sifatidagi mahsulotlarning yaxshilanishi yoki foydali ekanligini ta'kidlash, lekin aslida mahsulotning sifati yoki foydali xususiyatlari kamayishi mumkin.

Yolg'on va diskurs badiiy adabiyotlarda tilshunoslar tomonidan keng o'rganilgan mavzular hisoblanadi. Tilshunoslar, badiiy adabiyotlarda yolg'onning ifodalanishini, uning diskurs bilan bog'liq ekanligini va bu jarayonlarning tahlil qilinishini o'rganadilar. M. Baxtin o'zining “Проблемы поэтики Достоевского” asarida badiiy adabiyotdagi dialogik jarayonlarni tahlil qiladi. U badiiy diskursda yolg'on va haqiqat o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni, shuningdek, yolg'onning badiiy asarda ijtimoiy va psixologik holatlarni aks

ettirishi mumkinligini o'rganadi[1]. Masalan, Fyodor Dostoevskiyning “Jinoyat va Jazo” asarida Raskolnikov va boshqa personajlar o'rtasidagi dialoglar orqali yolg'on va haqiqatning qarama-qarshiliklari va ichki ziddiyatlar keng aks ettirilgan. Quyida ba'zi misollar orqali Raskolnikovning jinoyatini o'ziga va boshqalarga oqlashga harakat qilishi, uning ichki ruhiy holati va ijtimoiy qarashlarining shakllanishini ko'rsatilgan:

Misol: Porfiry Petrovich, politsiya inspektori, Raskolnikov bilan suhbatlashib, uning jinoyatini ochib berishga harakat qiladi. Bu dialoglarda Raskolnikov o'z jinoyatini yashirish uchun yolg'on va manipulyatsiya qiladi:

Porfiry: “Sizning so'zlaringizda bir oz noaniqlik bor. O'zingizni qanday his qilasz?”

Raskolnikov: “Men bu ishlarimni o'zimizning yaxshilanishimiz uchun qilganimni hisoblayman. O'zingiz buni tushunmasligingiz mumkin.” [4]

Bu yerda Raskolnikov Porfiryga jinoyatini oqlash uchun va o'zining haqiqiy his-tuyg'ularini yashirish uchun yolg'on gapiradi. Bu dialog orqali Raskolnikovning ichki ziddiyatlari va yolg'onlarini ko'rish mumkin.

M.Bakhtin o'zining asarida badiiy adabiyotda dialogik jarayonlarni, yolg'on va haqiqat o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni, shuningdek, bu jarayonlarning ijtimoiy va psixologik holatlarni aks ettirishini tahlil qiladi. Dostoevskiyning asarlarida, masalan, “Jinoyat va Jazo”da,

Baxtin badiiy diskursdagi yolg'on va haqiqatning ifodalanishini va bu jarayonlarning ijtimoiy va psixologik holatlarni aks ettirishini ko'rsatadi. Bu jarayonlarning badiiy adabiyotlarda tahlil qilinishi, asarlarning o'ziga xos usullarini tushunishga yordam beradi.

Yolg'on diskursning paralingvistik tahlili, yolg'onning paralingvistik omillar orqali ifodalanishini o'rganadi. Bu omillarga intonatsiya, tonal, pauza, emotsional holatlar va non-verbal harakatlar kiradi. Yolg'onning paralingvistik jihatlarini, uning qanchalik samarali bo'lishi, tushunilishi va aniqlanishi bilan bevosita bog'liq [1].

### Yolg'on diskursning pragmatik tahlili



Intonatsiya va tonal



Pauza va temp



Nonverbal imo-ishoralar

Quyida Sh.Bronte "Jeyn Eyr" asarida yolg'on diskursni pragmatik tahlil qilishda romandagi personajlarning yolg'on diskursida paralingvistik elementlardan foydalanganligini ko'rib chiqamiz:

Romanning bosh qahramonlaridan biri bo'lmish Rochesterning Jeynga o'zining haqiqiy holatini yashirib, o'ziga xos yolg'onlarni aytishi romanning asosiy voqealaridan biridir. Masalan;

Janob Rochester: "Men sizni baxtli qilish uchun barcha narsani qilaman." [2]

Bu holatda, Rochesterning ovozinin intonatsiyasi va yuz ifodalari Jeynni aldamoq uchun mo'ljallangan. U o'zining haqiqiy holatini yashiradi hamda so'zlarini ishonchli va mehribon qilib aytadi. Rochesterning ovozinin yengil va mehribonligi Jane'ni aldash uchun ishlatiladi. U yuz ifodalarni va tonini o'zgartirib, o'zining haqiqiy niyatlarini yashiradi.

Romanda Jeyn Rochesterning rafiqasi tirik ekanligini aytishidan oldin Rochesterning holatini quyidagicha tasvirlaydi:

"Uning ovozi va qo'llari qaltirardi. Uning keng burunlarining teshiklari kengayardi va ko'zlari chaqnardi" [2] – bu holatda Jon haqiqatni Jeyndan yashirishga uringan va Jeynni haqiqatdan habar topishidan qo'rqgan, lekin uning mimikalari, ovoz tembi va yuz ifodasi aksini ko'rsatadi.

Asardagi yani bir personaj Jon Rivers, Jeynni nikohga chaqirganda, o'zining haqiqiy maqsadlarini yashiradi. Bu holatda, paralingvistik tahlil orqali Jonning haqiqiy maqsadlarini yashirish uchun turl paralingvistik elementlardan foydalanayotganini ko'rish mumkin:

Jon: "Siz mening hayotimning bir qismi bo'lishingizni xohlayman." [2]

Bu holatda Jonning ovozi qat'iy va maqsadga yo'naltirilgan. U o'zining haqiqiy his-tuyg'ularini yashirib, professional va mas'uliyatli tarzda gapiradi. Jonning ovozi qat'iy va maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, Jeynga o'zining haqiqiy his-tuyg'ularini ko'rsatmaydi. Uning intonatsiyasi va yuz ifodalari Jeynni aldash uchun ishlatiladi. Yuqorida berilgan misollardan ko'rinib turibdiki, Sh.Bronte "Jeyn Eyr" romanida yolg'on diskursni ifodalash uchun turl paralingvistik elementlar orqali personajlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari, ichki kechinmalari va hissiyotlarini tasvirlash uchun keng foydalangan.

**Xulosa.** Yolg'on diskurs badiiy asarlarda hikoya rivoji va personajlarning rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaydi. Ularning haqiqiy niyatlarini yashirish va manipulyatsiya qilish orqali hikoya ziddiyatini kuchaytiradi va o'quvchilar uchun yanada qiziqarli tajriba yaratadi. Badiiy asarlarda yolg'on diskursning tahlili orqali personajlarning ichki dunyosi, ular tomonidan amalga oshirilayotgan muloqot strategiyalari va hikoyaning dramatik tuzilishi haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin.

Yolg'on diskursning badiiy asarlardagi ahamiyati va ta'siri, shuningdek, yozuvchining hikoyani yaratishi va personajlarning rivojlanishini boshqarishi haqida kengroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bu tahlil badiiy asarlarda muloqotning ishlashini va uning hikoyaning umumiy tuzilishiga ta'sir qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

### ADABIYOTLAR

1. Бактин М. Проблемы Поэтики Достоевского. Санкт-Петербург: Книжное издательство, 1929. – Сс. 24-26
2. Бронте Ш. Джен Эйр. Москва: Художественная литература, 1989. – С.384
3. Герасимов В. Семиотика и коммуникативная практика. Москва: Наука, 2001. - С.142
4. Достоевский Ф.М. Преступление и наказание. Москва: Художественная литература, 1983. – С.295
5. Кожевников А. И. Теория текста и языкознание. Москва: Наука, 2000. - Сс. 33-37.
6. Eco U. The Name of the Rose. New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1993. - P 33
7. Fairclough N. Discourse and Social Change. Cambridge: Polity Press, 1992. – pp 8-10.
8. Foucault M. The Archaeology of Knowledge. – London: Routledge, 1972. - P 23
9. Gee J.P. How to Do Discourse Analysis. - London: A Toolkit Routledge. 2014. - pp. 30-35.
10. Grice H. P. Logic and Conversation. New yok: Academic Press, 1975. - pp. 41-58.
11. Nizomov A. Kommunikativ Tilshunoslik. Toshkent: Fan, 2008. – P. 15-20
12. Paul H. Language and Communication. London: Routledge, 1997. – P. 89 aul, H.
13. Rizaev Sh. Matnshunoslik: Nazariya va Amaliyot. Toshkent: O'qituvchi, 2003. - B 15-18.
14. Van Dijk T.A. Discourse as Structure and Process. London; Sage Publications, 1997. - P 48.
15. [https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/discourse#google\\_vignett](https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/discourse#google_vignett)



UDK:801.8.1291

**Bahrom ISKANDAROV,**  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: iskandarovbahrom111@gmail.com

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti S.Yuldasheva taqrizi asosida*

### FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMADA BERILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqola frazeologik birliklarning tarjimada berilishi va tarjimadagi o'ziga xosliklarni tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolada berilgan iboralar tarjimasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari turli misollar orqali tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Frazeologiya, ibora, tarjima, asliyat, ekvivalent.

### ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные проблемы перевода фразеологических единиц. Теоретическая информация об фразеологизмы основана на примерах.

**Ключевые слова:** Фразеология, фразеологизмы, фразема, перевод, эквивалент.

### CHARACTERISTICS OF TRANSLATING OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

The point of the current paper is to show some issues of translation of phraseological units. Theoretical data about phraseological units are discussed and analyzed with reasonable examples.

**Key words:** Phraseology, phraseological unit, translation, originality, equivalent.

**Kirish.** Iboralarni o'rganish alohida bir bo'lim bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar, iboralar o'rganiladi. "Ibora" termini grekcha "pharsis" fraza, ifoda; "logos" ta'limot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi iboraning asosiy diqqat-e'tibori tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, iboralarining nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi iboralarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda iboralarning belgilarini aniqlashdir. Ko'plab tadqiqotchilar iborani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) ibora doirasiga barqaror jumlarlar, ba'zi muloqot shakllari ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni iborani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Iboraning alohida fan sifatida o'rganilishi bir necha asrlarni o'z ichiga oladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Xususan, rus tilshunosligida tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab ibora tarjimasidagi muammolarga qiziqqa boshlashgan. Jumladan M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'atini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda "xalq maqollari", "idiomatizmlar" va iboralar ham o'z ifodasini topgan bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi.

XX asrning 60-80 yillariga kelib chet el adabiyotida, jumladan, ingliz adabiyotida ham ibora sohasiga bo'lgan qiziqish tez sur'atlar bilan o'sdi G'arb hamda Amerika tilshunosligida shu vaqtga qadar iboraga bag'ishlangan alohida asar yo'q edi. Umuman "ibora" termini ilk marotaba Sharl Balli tomonidan "Precis de stylistique" asarida qo'llanilgan. Ibora ilk marotaba tilshunoslikning alohida mustaqil bo'limi sifatida rus tilshunosi Polivanov tomonidan tahlil qilingan bo'lib u iborani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas, balki mustaqil tilshunoslik bo'limi

ekanligini quyidagicha asoslab bergan edi: "Leksikologiya so'zlarning leksik ma'nolarini, morfologiya so'zlarning grammatik ma'nolarini, sintaksis esa so'z birikmalarining grammatik ma'nolarini o'rganadi. Ammo alohida olingan, ko'chma ma'noli so'z birikmalarining, individual ma'nolarini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limiga ehtiyoj sezilmoqda". U tilshunoslikda ibora ham, fonetika yoki morfologiya kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi bo'lim ekanligini ta'kidlab o'tgan tilshunoslardan biridir.

Odatda erkin birikmalarni tarjima qilish muammo tug'dirmaydi. Agar erkin birikmalardagi so'zlardan biri ko'chma ma'noda qo'llansa, uni tarjimada berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralarning bir nechta turi mavjud bo'lib, ularning har birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Turg'un birikmalarni tarjima qilish erkin birikmalarni tarjima qilishdan farq qiladi. Turg'un birikmalar tarjimasi haqida gapirishdan avval ularning o'z va ko'chma yoki obrazli turlarini farqlab olish lozim. O'z ma'nosida qo'llangan turg'un birikmalarni tarjima qilish yuqorida fikr yuritilgan prinsiplarga asoslanadi. Eng muhim prinsiplardan biri – tarjima til normalarini unutmastlik hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Tarjima nazariyasi bo'yicha nashr etilgan adabiyotlarda bunday birikmalarni tarjima qilishning to'rtta usuli borligi haqida ma'lumot beriladi. Ular quyidagilardan iborat: -obrazni qanday bo'lsa shundayligicha saqlash;

obrazni qisman o'zgartirish;  
obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish;  
tarjimada butunlay obrazni saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish.

odatda universal yoki internatsional obrazlar tarjimada to'liq saqlanadi.

Bunday iboralar tarixiy, afsonaviy, diniy, mistik, mifologik va shu kabilarga asoslangan bo'ladi. Masalan, in the seventh heaven – yettinchi osmonda. Bunday ibora asliyatning tarjima tilidagi adekvat tarjimasi deb ataladi. Tarjimada to'liq

ekvivalentga ega ibora deyarli hech qanday muammo tug'dirmaydi, chunki ular stilistik hamda pragmatik jihatlardan bir xil qiymatga, ma'noga, ifoda usuli va ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Iboraviy mos kelishlarning asosiy turlari quyidagilardir:

1. To'liq moslashish. Misol: to lose one's head – kallasini yo'qotmoq.

2. Qisman moslashish, ular obrazlilik jihatidan yaqin, lekin leksik tuzilishi, sintaktik kelishuvidan va so'zlar tartibi jihatidan farqlanadi. Misol: to get out of bed on the wrong foot – chap yoni bilan turmoq.

3. Moslashishning bo'lmasligi. Har xil tillarda ko'p iboralar moslashuvi mavjud emas. Ular realiyadir.

Shunday qilib, iboralarni tarjima qilishning qiyin muammolaridan biri, bu ularning vazifaviy va semantik tomondan ajralmas birliklar bo'lib hisoblanishidir.

Quyidagi iboralar ingliz asarlarida tez-tez ishlatilib turadigan iboralar jumlasidir: live and learn, soon learn, soon forgotten, to learn by heart, to bear in mind., to learn from mistakes, a game plan, to chop and change, all that glitters is not gold, barking dogs seldom bite, never offer to teach fish to swim, adversity is a great schoolmaster, four eyes see more than two, we shall see what we shall see, easier said than done, many men, many mind, look before you leap.

Tarjimada shaklan bir xil bo'lmasa ham mazmunan muqobil bo'la oladigan frazeologik iboralarni uchratishimiz mumkin. Masalan, quyidagi ingliz tili iboralarni tarjima qilganda mazmunan o'xshashliklarni uchratishimiz mumkin: golden opportunity - juda zo'r imkoniyat, the green light – ruxsat, green with envy - juda hasadchi, juda xavasi kelgan (have a) green thumb - qo'li gul, bog' ishlarida malakali, see red - juda jahli chiqmoq.

O'zbek tilidagi iboralarni chet tillarida va aksincha chet tillardagi iboralarni to'g'ridan to'g'ri aslyat tilidan o'zbek tilidagi tarjimada aks ettirish alohida ahamiyatga ega. Iboraning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli, iboralarda go'yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir bo'ladi.

Frazeologik birliklar (yoki idiomalar) barqaror iboralar: maqollar, matallar, aforizmlar, iboralar. Idiomaning semantikasi - bu tarjimonning ekvivalent tanlashiga ta'sir ko'rsatadigan ma'noning bir necha jihatlarining murakkab birligi, masalan, ko'chma ma'no, adabiy ma'no, hissiy xarakter, stilistik xususiyatlar va milliy bo'yoq. Ko'chma ma'no idioma semantikasining asosiy elementidir. Frazeologizmlar, qoida bo'yicha, to'liq yoki qisman majoziy ma'noga ega. Ularning asosiy xususiyati mazmun va shakl o'rtasidagi nomuvofiqlikdir.

Frazeologizmlar muloqotda muhim rol o'ynaydi [1]: ular bayonni yoki matnni yanada hissiyotli qilishlari, unga ekspressivlik berishlari va ma'lum madaniy birlashmalarni uyg'otishlari mumkin. Tarjimonning vazifasi matndagi frazeologizmlarni taniy olishdir va ularning nutq funksiyalarini (so'zma-so'z yoki ko'chma ma'no) tahlil qila olish. Tarjimon ko'pincha turli, hatto qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan tarjima qilingan iboralarning o'xshashligi sababli ikkilanishi mumkin. Bu ikki ingliz maqoli shakli o'xshash, ammo turli xil ma'nolarga ega: Every tree is know by its fruit - Daraxt mevasidan, odam esa qilmishidan tan olinadi. As the tree, so the fruit – Olmani tagiga olma tushadi. Adekvat tarjimani tanlash ba'zi qo'shimcha omillar bilan murakkablashadi. Masalan, asl tilda va tarjima qilinayotgan tilda shakl jihatdan bir xil, lekin ko'chma ma'nosi turlicha bo'lgan idiomalar bo'lishi mumkin.

Ibora – o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda bir ma'no beruvchi ixcham ibora [5]. Masalan tomdan tarasha tushganday, o'g'zinga qarab gapir. idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi.

1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish

2) asar o'girilayotgan tildan monand muqobil variant topib quyish

3) frazeologizmi aynan, sozma-so'z tarjima qilish.

Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma'nosini aks ettish bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi [3].

Tarjimada kompensatsiya - berilgan qurbonlikning o'rnini to'ldirish, tovon tulash.

Asarning asl nusxasidagi ko'chma ma'noli birlikmalarni ularning ekvivalentlari va muqobil variantlari bilan almashtirish uncha qiyin emas. Ammo, ko'p hollarda shunday maqol, matal va idiomatik birlikmalar uchraydiki, ular faqat ayni tilning o'zigagina xos bo'lib, boshqa tilga ko'chirish juda qiyinchilik tugdiradi. Bunday holda o'sha frazeologizm o'rniga boshqa birlikma keltirib quyiladi va bu bilan originalning o'rnini tuldiriladi [4].

Masalan: o'zbekcha nima eksang shuni o'rsan. Birovga chuqur qazisang o'zing yiqilasang maqollari kontekst mazmuni va muallif uslubini berolmaydi.

Demak, inglizcha to lead somebody by the nose idiomasi so'zma-so'z tarjimada kimnidir burnidan olib bormoqdeb beriladi, ammo uning asl ma'nosi butunlay boshqacha ya'ni kimnidir musiqasiga o'ynamoq, burnidan ip o'tkazib olmoq ma'nosini anglatadi.

Tarjimonlar frazeologik birliklarni tarjima qilishda quyidagi qoidalarni bilishlari kerak:

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda tarjimonning optimal yechimi ko'rilayotgan tilda ma'noning barcha besh jihati bo'yicha aslyatiga mos keladigan bir xil frazeologik birlikni izlashdir, masalan. :to pull chestnuts out of the fire for smb - kimgadir olovdan kashtan olib bermoq (ya'ni birovning ishini qilmoq, birovning qo'lida asbob bo'lmoq). Ammo ingliz tili bilan boshqa tillar o'rtasidagi bunday to'g'ridan-to'g'ri muvofiqliklar soni juda cheklangan. To'g'ridan – to'g'ri frazeologik ekvivalentlar orasida yunon yoki lotin tillarida shakllangan va keyinchalik manba til va ko'rsatuvchi til tomonidan o'zlashtirilgan xalqaro idiomalar mavjud: Achilles' heel - Axillesning tovon; the game is not worth the candle- o'yin shamga arzimaydi.

To'g'ridan-to'g'ri muvofiqlik bo'lmaganda asl frazeologik birlik tarjima qilinayotgan ibora bilan umumiy ma'noga ega bo'lgan, lekin boshqa og'zaki-majoziy asosda qurilgan o'xshash frazeologik birlik yordamida tarjima qilinishi mumkin: Make hay while the sun shines - Temirni qizig'ida bosq; to get out of bed on the wrong side - chap yoni bilan turmoq.

Shu bilan birga, shuni hisobga olish kerakki, ko'pincha ma'no jihatidan o'xshash, lekin asl tilda va tarjima qilinayotgan tilda shakl jihatidan farq qiladigan frazeologik birliklar turli xil emotsional va assotsiativ ma'nolarga ega va shuning uchun har doim ham bir-birini almashtirib bo'lmaydi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda unchalik samarali bo'lmagan, lekin ba'zan maqbul usul bu kalkalash (so'zma-so'z tarjima): People in glass houses should not throw stones - Shisha uyda yashaydigan insonlar tosh otmasligi kerak.

Tarjima qilinayotgan tilda bir xil yoki o'xshash frazeologik birlik mavjud bo'lmagan hollarda so'zma-so'z tarjimadan tashqari, frazeologik birlikning ko'chma ma'nosini tarjima qilish-tushuntirish, ya'ni turg'un iborani erkin ifodalash qo'llaniladi. Bunday tarjima bilan frazeologik birlikning obrazli va assotsiativ xususiyatlari yo'qoladi. Tarjima qilinayotgan iborani o'quvchiga tushuntirishning yagona usuli - tarjimaga izoh berish. Tarjima-tushuntirish frazeologik birlikning ma'nosini boshqa yo'l bilan yetkazishning iloji bo'lmaganda qo'llaniladi (boshqa muqobillar mavjud

bo'lmaganda); to cut off with a shilling-merosdan mahrum qilish.

Demak, frazeologik birliklarning to'liq tarjimasi asosan chet tili va ona tili birliklarining shakl va ma'no nisbatiga bog'liq [6].

So'zning to'g'ri va ko'chma ma'nolari ko'pincha boshqa so'zlarning kombinatsiyasi bilan birga keladi. Masalan: the door to the house, sour fruits. Ko'chma ma'no: happiness, sour-nonsense. Frazeologizmlarni tilning bezaklari deb hisoblash mumkin va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib

turadi. Shuningdek, ingliz tili frazeologiyaga boy hamda o'z tarixiga ega. Frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolari doimo olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan.

Xulosa. O'zbek va ingliz badiiy matnlarida, nutqda berilgan va qo'llanilayotgan har bir iboraning qo'llanish o'rniga ko'ra, o'ziga xos ekanligi bilan birga, o'sha xalqning o'tmishdagi hayoti, voqea-hodisalari, xalqning ijtimoiy milliy madaniy hayoti haqida gapiradi. Matnlarda, nutqda qo'llanilgan iboralar kitobxonni asar voqeligini to'liq tushunib olishini ta'minlaydi, ularga estetik zavq bag'ishlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бархударов Л. С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода / Л. С. Бархударов. М. : Междунар. отношения. 1975. 240 с.
2. Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы) / В. С. Виноградов. М. : Изд-во ин-та общ. сред. образования РАО, 2001. 224 с.
3. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent., 1966. 274 b.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. O'qituvchi., 1983. 177 bet.
5. ФЕДОРОВ А. В. Основы общей теории перевода (ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ) Для институтов и факультетов иностранных языков Москва Издательский Дом «ФИЛОЛОГИЯ ТРИ» Санкт-Петербург Филологический факультет СПбГУ 2002.
6. Илюшкина М. Ю. теория перевода: основные понятия и проблемы. Екатеринбург Издательство Уральского университета 2015.
7. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода: учеб. пособие / В. Н. Комиссаров. М. : Че Ро, 1999. 136 с.



*Nodirbek KARIMOV,*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: nodirbekkarimov@mail.ru*

*DSc, professor U.Saydazimova taqrizi asosida*

### THE EXPRESSION OF THE AUTHOR'S ARTISTIC INTENTION IN THE STORY "OUR TWISTED HERO" OF YEE MUN-YEOL

Annotation

This article highlights the expression of the author's artistic intention in the story "Our Twisted Hero" written by one of the famous authors in Korean literature, Yee Mun-yeol. Ideological division and its terrible consequences are explained through this story of the writer, while at the same time, the emergence of different thinking in the cultural layer is skillfully shown. The depth of the differences between rural and urban life is reflected in the eyes of a child. Yee Mun-yeol relates the unrest in society to school life.

**Key words:** Korean literature, Yee Mun-yeol, "Our Twisted Hero", artistic intention, ideological division, cultural layer, diversity of opinion, urban and rural life, disturbances in society, school life.

### ВЫРАЖЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ЗАМЫСЛА АВТОРА В ПОВЕСТИ "НАШ ИСПОРЧЕННЫЙ ГЕРОЙ" ЛИ МУНЁЛЯ

Аннотация

В данной статье освещается выражение художественного замысла автора в повести "Наш испорченный герой", написанной одним из известных авторов корейской литературы Ли Мунёлем. Идеологический раскол и его страшные последствия объясняются в этом рассказе писателя, в то же время умело показано зарождение иного мышления в культурном слое. Глубина различий между сельской и городской жизнью отражается в глазах ребенка. Ли Мунёль связывает волнения в обществе со школьной жизнью.

**Ключевые слова:** Корейская литература, Ли Мунёль, "Наш испорченный герой", художественный замысел, идеологическое разделение, культурный слой, многообразие мнений, городская и сельская жизнь, волнения в обществе, школьная жизнь.

### LI MUNYOLNING "QADDI BUKIK QAHRAMONIMIZ" HIKOYASIDA MUALLIF BADIY NIYATI IFODASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada koreys adabiyotida mashhur ijodkorlardan biri Li Munyol qalamiga mansub "Qaddi bukik qahramonlarimiz" hikoyasida muallif badiiy niyati ifodasi yoritib beriladi. Mafkuraviy bo'linish va uning mudhish oqibatlari adibning mazkur hikoyasi orqali bayon qilinadi ekan, shu bilan birga madaniy qatlamda turfa fikrlilikning paydo bo'lishini mohirona ko'rsatiladi. Qishloq va shahar hayoti o'rtasidagi tafovutlarning chuqurligi bola nigohida aks ettiriladi. Li Munyol jamiyatdagi tartibsizliklarni maktab hayoti bilan bog'lab ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Koreys adabiyoti, Li Munyol, "Qaddi bukik qahramonimiz", badiiy niyat, mafkuraviy bo'linish, madaniy qatlam, turfa fikrlilik, shahar va qishloq hayoti, jamiyatdagi tartibsizliklar, maktab hayoti.

**Kirish.** So'nggi yillarda koreys adabiyoti ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonda taraqqiyot bosqichiga kirdi. Koreya tarixida o'chmas iz qoldirgan turli tashqi tazyiq hamda ichki to'qnashuvlar adabiy jarayonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Koreys adabiyotshunosligida mustaqillikdan keyingi (1945-yillar) davrda adabiyot uch bosqichga bo'lib o'rganiladi. 1970-yillardan boshlangan uchinchi bosqich bugungi kunni ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu davr koreys jamiyatining barcha ijtimoiy sohalarida sodir bo'lgan qayta qurish, mamlakatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish, shahar hududlarining kengaytirilishi, ishlab chiqarishning rivojlantirilishi milliy qadriyat va azaliy madaniyatning an'anaviy ildizlariga bolta urdi. Shuningdek, bu vaqtga kelib xalq kuchli harbiy boshqaruv hamda demokratiya uchun kurashlar jarayonini ham boshdan kechirdi. Mafkuraviy kurashlardan keyin mamlakatda yuzaga kelgan bo'shliq (xaos) hamda harbiy boshqaruv davrida koreys adabiyoti chuqur ma'naviy inqirozga uchradi. Bu vaqtga kelib adabiy jarayonlarda milliy adabiyotning nazariy asoslari qaysi o'zanda kechishi kerak, degan haqli savol tug'ildi. Shu bilan birga ikkiga ajragan millat haqidagi tushunchalar adabiyotda

qanday o'z aksini topadi, kabi bahs-munozaralar kuchaydi. Ommaviy madaniyat fenomeni ta'sirida oddiy kitobxon uchun mo'ljallangan asarlar yaratila boshlandi. Bu asarlarning asosiy mazmun-mohiyati ijtimoiy tengsizlik va uni hal qilish yo'llarini izlashdan iborat edi. Bu mavzu koreys xalqi uchun yangilik emas. Chunki uzoq feodal tuzumni boshidan kechirgan koreys adabiyotining mumtoz qissalari "Xon Kil Don haqida qissa" da ijtimoiy mavqe, "Chxunxyan haqida qissa" da kisenlikdan qutilish, "Xinbu va Nolbu haqida qissa" da kambag'allikka qarshi kurash motivlari yangraydi. Koreya urushi, 1960 yil aprel oyida bo'lib o'tgan namoyishlar, 1961 yil may oyidagi to'ntarishlar oqibatida mafkuraviy bo'linishning xalq ongiga ta'siri muammosi mamlakatda kambag'allik, ochlik va o'limning ko'payishida yanada chuqurlashdi. Mafkuraviy bo'linish fojiasi hamda uning mudhish oqibatlarini boshidan kechirgan mohir nasrnavis Li Munyol o'zining "Qaddi bukik qahramon" hikoyasida madaniy qatlamda turfa fikrlilikning paydo bo'lishini [1] mohirona ko'rsata oldi.

Adibning mazkur hikoyalarida uni yillar davomida bezovta qilib kelgan ijtimoiy-siyosiy, shaxsiy hayotidagi ruhiy

iztiroblari, qiyinchiliklari tarixiy saboq kabi yangraydi. Hikoyada Li Munyol xotiralarida qolgan qaydlar–hayotning achchiq haqiqatlari real bayon qilingan.

“Qaddi bukik qahramon” hikoyasi 1987 yili Janubiy Koreyada demokratiya uchun harakatlar ayni avj nuqtasiga chiqqan paytda nashr qilindi. Yil mamlakatda harbiy boshqaruvga qarshi xalq kurashi bilan tarixda o'chmas iz qoldirdi, xalq orzulari ushaldi: u istagan islohotlar o'tkazildi.

“O'sha yili, mart oylarining o'rtalarida, Liberal partiya tomonidan ta'sis etilgan hukumat, hokimiyat tepasida so'nggi nafasini olmoqda edi” [2].

Muallif 1987 yil iyun voqealari boshlanishidan oldin hokimiyat yuritayotgan siyosatning umri tugab borayotganini olis qishloq maktab hayoti tasvirida ko'rsatadi. Bir qarashda, hikoya–maktab o'quvchilari va o'qituvchilar, o'quvchilarning o'zaro munosabatlari haqidagi oddiy tarixiy voqeaga o'xshaydi. Aslida bu voqea zamiriga gohida inson aqli yetmaydigan, aql bovar qilmaydigan fikr joylashtirilgan.

Xan Pyon Te–“hayotda ko'pni ko'rmagan” quyi maktab o'quvchisi haqiqat uchun kurashadi, aynan bosh qahramonning bu xarakteri muallif uchun muhimlik kasb etadi. Bosh qahramonning bolalarcha samimiy va haqiqatni tiklash uchun sabotli ishonchi kitobxonni befarq qoldirmaydi. U yangi maktabda, yangi sinfdoshlar orasida o'z o'rnini topa olmaydi, ammo bir vaqtning o'zida maktabda o'rnatilgan tartib hamda loqaydlikka toqat qila olmaydi.

“...Men faxrlanib qatnab yurgan Seulda eng zo'r maktabni tashlab, provinsiyaning kichik shaharchasida joylashgan bechorahol maktabga o'tishimga to'g'ri keldi. Davlat xizmatida ishlaydigan otam ishxonasida fitnalarga aralashib qolgani bois oilamiz u yerga ko'chib o'tish majbur bo'ldi” [3].

Hikoyadan keltirilgan parchada muallifning bolalik xotiralarini bo'y ko'rsatadi: fuqarolar urushi davrida otasi siyosiy fitnalarga sabab yashash joyini janubdan shimolga ko'chirishga majbur bo'lgan edi. Otasi shimolda bo'lgan muallif juda ham ko'p to'siqlardan o'tishga, hatto atrofdagilarning nafratli munosabatini yengishga, og'ir turmush tarzini kechirishga mahkum edi. Shuning uchun ham Li Munyol badiiy niyatini o'z ixtiyorisiz yangi, notanish hamda ko'ngilsiz o'rtaga tushib qolgan o'n ikki yoshli bola obrazida ko'rsata oldi, uning hissiyotlarini ishonchli tasvirladi.

Hikoya davr ijtimoiy–siyosiy hayotining eng murakkab–demokratiya uchun kurash yillarida yozilgan bo'lsa–da, bola qahramon tafakkuridagi yangilik, mazkur davr fojiasiga aylanayotgan qishloq va shahar hayoti o'rtasidagi tafovutlarning chuqurligini bayon qilishda yuksak badiiy saviyasi bilan ajralib turadi. Bola qahramon ko'zi bilan jamiyatdagi jiddiy muammolar aks ettirilgan asar kitobxon va tanqidchilar tomonidan yuqori ko'tarinki ruhda kutib olindi.

Yangi maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlab bosh qahramon Xan Pyon Te o'zi uchun kutilmagan vaziyat bilan to'qnashdi: barcha sinfdoshlari, hatto sinf rahbari–ustoz ham Om Sok De ismli shaxsga sig'inishar edi.

“Ilk bor–Om Sok De ismini eshitganimga, u mening xotiramga mahkam o'rnashib qoldi, balki u bola talaffuzidagi (ism) g'alati ton sababdir. U shunday aytdiki, xuddi bu qandaydir qirolning ismi edi, o'z–o'zidan itoat qilish va ehtirom ko'rsatish lozimdek. Va bu meni yanada g'ujanak bo'lishga majbur qildi, men o'zimni boshqara olmay qoldim” [4].

Bosh qahramon Xan Pyon Te maktabda boshiga tushgan ko'rguliklar sabab boshqa sinfdoshlari kabi Om Sok Dening boshqaruviga ko'nika boshladi. Bolaning otasi maktabdagi vaziyat bo'yicha unga maslahatlar bera boshladi. Ammo Om Sok De–sinfda lider bo'lib, bunga u kuch ishlatish va zo'rvonlik yo'li bilan erishdi, shu bilan birga u sinfda tartibni ushlab turishga muvaffaq bo'ldi. Ko'zga ko'ringan

lider sifatida u sinf va maktabda xohlagan ishini qiladi, xohlagan narsasiga erishadi, boshqalarga bo'ysunmaydi.

Om Sok De sinfdoshlaridan ikki–uch yosh katta bo'lib, ularga nisbatan bemalol kuch ishlatilardi: savdo–sotiq bilan shug'ullanadigan oilalarning farzandlari unga har hafta ma'lum summani uzatishsa, fermerlarning farzandlari meva va sabzavotlar tashishar edi. Sinfda biror bir mas'uliyatli ishni kimgadir beradigan bo'lsa, u bola yoki qiz 100 xvan berishi kerak edi.

Hikoya Chon Sang Guk qalamiga mansub “Butning ko'zyoshi” hikoyasini yodga soladi. Har ikki muallif qalamiga mansub asarlarda bosh qahramonlar Om Sok De hamda Chve Kipy obrazlarida mazkur davr mamlakat hokimiyati–harbiy boshqaruv tanqid ostiga olinadi. Kuch va zo'rvonlikka asoslangan jamiyat uzoq yashay olmaydi. To'g'ri, mamlakatda harbiy boshqaruv o'nyillikka cho'zildi, ammo demokratik harakatlar buning ildiziga bolta urishga muvaffaq bo'ldi.

Sinf rahbari Om Sok Dega ishonardi, chunki u sinf tozaligi uchun mas'ul bo'lib, turli tadbirlarni o'tkazishni qoyilmaqom qilib bajarardi. Xan Pyon Te bu haqida sinf rahbariga gapirganida o'zi tushgan holatni shunday tasvirlaydi:

“...Xayolimda xuddi tubsiz quduqqa qulab tushayotgandek bo'ldim, yo'q, naq burnim tagida meni hammadan ajratib turuvchi baland devor paydo bo'ldi, endi men bunday vaziyatdan qutula olmayman” [5].

O'qituvchi Xan Pyon Teni urishib, urmasa–da, u tomonidan aytilgan nasihatimiz so'zlar bosh qahramon uchun zo'rvonlik kabi yangradi:

“Bu Seul emas, bu yerda boshqacha yashashadi. Shunday yashash qabul qilingan. Seulda, balki barcha o'quvchilar aqllidir, u yerda balki shu tariqa ishlash mumkindir. Ammo bu yerda bizning o'z qonunlarimiz bor, sen ham bu qonunga bo'ysunishing kerak” [6].

O'qituvchi Xan Pyon Tega butun sinf bolalari Om Sok Dedan qo'rqishlarini, shu sababli unga qarshi so'z aytalmasliklarini tushuntirishga harakat qildi. Shu bilan birga Om Sok De boshqaruvi ostida sinfning “maktabda eng namunal sinfga aylanganini” alohida ta'kidladi.

Hikoyada Om Sok De nazorati ostida sinfning daraxt o'tqazish ishlarida faolligi sabab yuqori ko'rsatkichlarga erishgan aytiladi. Shuningdek, sinf devorlaridagi qimmatbaho ramkalar ham Om Sok De harakatlari natijasidir, shu sababli sinf boshqa sinflardan ajralib turadi, bu esa o'z navbatida sinf rahbarini qoniqtiradi.

Hikoyadagi bu tasvirlar mamlakat hayotini o'zida to'liq aks ettiradi. Mamlakatni kuch va zo'rvonlik bilan boshqarayotgan harbiy hokimiyat olib borayotgan siyosat kichik shaharcha maktabini boshqarayotgan Om Sok De obrazida ko'rsatiladi. Harbiy boshqaruv davrida mamlakat iqtisodiyotida sanoatning jadal rivoji kuzatiladi, bu esa maktab hayotida daraxt o'tqazish ishlarida ko'zga tashlanadi. Xan Pyon Te bu ishlar kimlarning mehnatlari evaziga amalga oshirilayotganiga guvoh bo'lgani kabi, xalq ham mamlakatda iqtisodiyotning o'sishida o'zining oz ish haqiga rozi bo'lib ishlayotganini angelaydi.

Sinf qo'lga kiritayotgan yutuqlar faqat Om Sok De ismi bilan bog'lanadi, boshqa o'quvchilarning qilayotgan mehnatlari haqida lom–lim deyilmaydi, hatto bolalar buni tabiiy hol kabi qabul qilishadi. Sinfdoshlarining bu holatini ko'rgan Xan Pyon Te bu nohaqliklarga chiday olmaydi, yozuvchi esa bosh qahramonga ulkan vazifa yuklagan holda uning ko'zlarida xalqining kelajagiga baho beradi.

Om Sok De o'z sinfdoshlarining boshqalar tomonidan kaltaklanishiga yo'l qo'ymaydi, o'zining jismoniy kuchi va mushti bilan nafaqat sinfini, balki maktabini boshqaradi. Shu sababli butun sinf, maktab, jamoa undan ham “minnatdor”, ham unga “tobe”. Yozuvchi Om Sok Dening yoshi sinfdoshlaridan ancha katta ekanligiga urg'u beradi. Bu bilan u



qadimdan koreys jamiyatida amal qilingan an'ana "iyerarxiya"ni eslatib o'tadi.

Koreys jamiyati siyosiy sohalarida o'z qarashlariga ega, davlat arbobi, esseist Li Kyu Te bunga shunday boho beradi:

"Iyerarxiya (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi)-koreys xalqining mavjudlik belgisi, ierarxik tuzumdan chiqish esa koreys jamiyatidan chiqishga tenglashtiriladi" [7].

Hikoyada nafaqat siyosiy jarayon, ijtimoiy muhit, balki asar uchun tanlangan makon ham muallif uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Seul demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan shahar, provinsiyada joylashgan shaharcha esa bir tomondan mamlakatning qoloq hududi bo'lsa, ikkinchi tomondan muallifning otasi ketishga majbur bo'lgan Shimoliy Koreya haqidagi tasavvurlaridir. Hikoyada bu shunday tasvirlanadi:

"...Bu yerda esa anneksiya davrida yapon uslubida qurilgan, oldi suvalgan hamda sinf yozuv taxtalari smola bilan yopishtirilgan eski, to'kilib turgan uy. Bularning barchasi meni qandaydir ta'sirli hayratlar olamiga giriftor qildi, men o'zimni quvilgan shahzoda kabi his qildim" [8].

Li Munyol olis provinsiya shaharchasidagi taraqqiyotdan uzilib qolgan hayotni ishonchli tasvirlash uchun poytaxt shahardan kelgan o'n ikki yoshli bolaning ilk bor o'qituvchilar xonasiga ko'zi tushgani tasvirida yanada jonlantiradi. Bexosdan bola xonadagi har bir detalga diqqatini qaratar ekan, shahar maktabi bilan parallel o'tkazadi:

"O'qituvchilar xonasiga ko'zim tushganda kayfiyatim batamom tushib ketdi. Seuldagi eng yaxshi mening eski maktabimda o'qituvchilar xonasi keng, yorug' bo'lib, o'qituvchilarning barchasi yaxshi kiyingan va hayotdan mamnun edilar. Bu yerda esa xona bir sinf xonasidek bo'lib, o'qituvchilarning o'rniga bu yerda parovoz kabi tutunlarga ko'milgan darmonsiz, horg'in qishloq amakilari o'tirardi" [9].

Yangi maktab ostonasiga qadam qo'yish asnosida bosh qahramon hayot haqiqati bilan yuzma-yuz keldi. Aslida bu muallifning bir vaqtlar otasi sabab o'zi duch kelgan holatlardan biri edi. Xan Pyon Te bu yerda hayot oqimiga tushib nafaqat yashab qolishi, balki, o'zining mavjudligi uchun kurashishi, o'zi uchun notanish jamiyatda o'z o'rmini topa olishi kerak.

Xan Pyon Te obraziga singdirilgan o'zlikni anglash hamda erkin hayot uchun kurash masalalari ijtimoiy ziddiyatlar to'foniga uchradi. Bu muallifning badiiy niyati bo'lib, hikoyada bu ziddiyat bo'rtib namoyon bo'ladi. Adib o'zining harbiy boshqaruvga bo'lgan munosabatini maktab hayoti tasvirida, quyi sinf o'quvchisi obrazida mohirona ko'rsata oldi. Quyi sinflardagi jismoniy va ma'naviy zo'rliqsh maktab o'quvchilari va o'smirlar o'rtasidagi ziddiyatning chuqurlashuviga sabab bo'ldi. Bu bilan muallif harbiy boshqaruv hokimiyati olib borayotgan noto'g'ri siyosatning ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgani, nafaqat ongli va savodxon insonlar, hatto, oddiy xalq ham bunga qarshi kurashga tayyor ekanligiga ishora qiladi.

"Maktabni tamomlaganimga ham o'ttiz yil vaqt o'tdi, ammo har safar men yarim yil davomida o'quvchi sifatida yolg'iz o'zim kurashgan holatni eslar ekanman, meni xuddi bolaligidagi kabi noxush tushkunlik holat chulg'ab oladi. Gohida menda butun umr bo'yi shunday kurashlar og'ushida yashayotgandek tuyg'u paydo bo'ladi-loaqaq, men uchun u hali tugamagandek" [10].

Xan Pyon Te avval sinfda o'rnatilgan tartibga qarshi kurashdi, boshqalar uchun namuna bo'lgan liderga qarshi o'z fikrini bildirdi, ammo oxir oqibat sinfdagi "bir maromda kechayotgan" hamda "o'z tinch hayotidan mamnun" ayrim sinfdoshlari undan yuz o'girishdi, hatto unga qarshi ko'rsatmalar berishdi, imkon qadar yomonlik qilishga harakat

qilishdi. O'quvchilarning o'qituvchiga qilgan arzlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Muallif harbiy boshqaruv hokimiyati yuritayotgan siyosatga xayrixoh kishilarning loqaydligi, xalq hayotini yaxshilash uchun harakat qilish o'rniga "sen menga tegma, men senga tegmayman" qabilada ish tutayotgan, mamlakat prezidenti atrofidagi ayrim nopok insonlar haqida fikr yuritadi.

Natijasiz kurashlardan charchagan, Om Sok Dening haqiqiy qiyofasini ko'rsatishga intilayotgan bosh qahramon qalbida maktab, sinfdoshlari, o'qituvchisiga bo'lgan nafrat kundan-kunga kuchaya bordi. Kurash maydonida yolg'iz qahramon uchun o'qituvchining nohaqliklarga befarqligi yanada qo'rqinchli edi.

Va nihoyat intiqib kutilgan kun yetib keldi: "sinfda inqilob yuz berdi, temirdek mustahkam boshqaruvchi oddiy jinoyatchi deb e'lon qilindi va u izzis yo'qoldi". Yangi sinf rahbar ishini yangi tartibda boshladi: "sinfdagi barcha o'rnatilgan tartiblar o'zgardi. Endi barcha masalalar munozara va ovoza qo'yish yo'li bilan hal qilinardi". To'g'ri, qattiq boshqaruvga o'rganib qolgan sinf avval qoloq sinfga aylandi, ammo ular yangi hayotga o'rganishlari uchun vaqt yetarli edi.

Muallifning badiiy niyati: mamlakatda muttasil o'tkazilgan namoyishlar, xalq noroziligining kuchayishi, yoshlar o'rtasida o'zini halok qilish evaziga demokratik harakatni kuchaytirishga bo'lgan intilishlar evaziga harbiy boshqaruvga barham berildi (bosh qahramonning yarim yil davomidagi kurashi), harbiy boshqaruv hokimiyati mamlakatda o'tkazilgan islohotlardan keyin jamoatchilik fikridan qochib, ibodatxonada yashashga ketdi (Om Sok Dening izzis yo'qolishi).

Mutoz davr koreys nasrida katta hajmli asar-roman asoschisi Kim Manjunning "Sa xonimning janub bo'ylab sargardonliklari" romanida birinchi bo'lib badiiy nasrda-"kam ahamiyatli asar" da davlatdagi tartibsizliklar bilan bog'liq oilaviy konfliktni tasvirladi, insonda faqat uning o'zigagina tegishli shaxsiy ishlar bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatib berdi. Insonning har bir qilmishi albatta muhitga ta'sir ko'rsatadi va butun davlat miqyosida og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Romanda o'qimishli va iste'dodli erkak-davlat xizmatidagi sodiq mulozim obrazi riyokor odamlarning kirdikorlaridan azob chekadi, ammo ularni fosh qilish va o'zining aybsizligini isbotlash uchun o'zi hech narsa qilmaydi. Voqea-hodisalar jarayonida u o'zining tozaligini-szyun-szi yuksak axloqiy fazilatlarini saqlaydi. Shu sababli uni musibatlardan ikkinchi darajali personajlar qutqaradi. Qahramonlarga dushmanlik qiluvchi odamlar ayni vaqtda davlatga qarshi jinoyatchilar ham bo'lganlari bois, oxir-oqibat asar qahramoni ularni alohida shaxs sifatida emas, balki qonunni buzuvchilarni jazolash va burchini bajarmagan davlat mulozimi sifatida jazolaydi. Bunda roman qahramonlarining shaxslari tarixiy solnoma personajlarining obrazlari bilan ayni bir tamoyiliga ko'ra tavsiflanadi: inson faoliyati oldindan belgilangan fazilat yoki nuqson ifodasi sifatida bayon etiladi.

**Xulosa.** Muallifning asosiy xizmati shundaki, u oilaviy konfliktni davlatdagi tartibsizliklar bilan bog'laydi va shu tariqa insonning shaxsiy ishlari bo'lishi mumkin emasligiga urg'u beradi. Romanda inson har bir shaxsiy qilmishi bilan uni qurshagan muhitga ta'sir ko'rsatishi va butun davlat miqyosida salbiy oqibatlariga olib kelishi keng miqyosda badiiy talqin qilinadi [11].

Li Munyol hikoyasida esa jamiyatdagi tartibsizliklar tarbiya o'chog'i-maktab hayoti bilan bog'lab ko'rsatiladi. Kim Manjun romanidagi qahramonlardan farqli ravishda Li Munyol bosh qahramoni harakatchan, faol va kurashchi. Oxirgi daqiqalarga qadar uning umidlari so'nmadi, unga yordamga kelgan yangi ustoz maktab, xususan, sinfdagi tartibsizliklarni to'xtatdi, bolalarni yangi tartib asosida yashashga, o'z haq-huquqlarini bilishga o'rgatdi.

**ADABIYOTLAR**

1. Камилова С.Э. XX аср охири–XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикасининг ривож. филол. фанл. докт. дисс. автореф. – Б. 14.
2. Ли Мунёль. Наш сломленный герой. – СПб.: Гиперион, 2014. – С. 2–39.
3. Ли Мунёль. Наш сломленный герой. – СПб.: Гиперион, 2014.
4. Ли Мунёль. Наш сломленный герой. – СПб.: Гиперион, 2014. – С.4.
5. Ли Мунёль. Наш сломленный герой. – СПб.: Гиперион, 2014.
6. Ли Мунёль. Наш сломленный герой. – СПб.: Гиперион, 2014.
7. Жирар Рене. Козел отпущения. – СПб.: Изд-во Ивана Лимбаха, 2010. – С. 336.
8. Ли Мунёль. Наш сломленный герой. – СПб.: Гиперион, 2014.
9. Ли Мунёль. Наш сломленный герой. – СПб.: Гиперион, 2014. – С.5.
10. Ли Мунёль. Наш сломленный герой. – СПб.: Гиперион, 2014.
11. Сайдазимова У.Т. XVII–XVIII асрлар корейс насрининг маънавий–эстетик концепциялари. филол. фанл. докт. дисс. – Б. 169–170.



*Gulmera KUCHIMOVA,*  
*Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti*  
*E-mail: kuchimovagulmera@gmail.com*

*DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

## ABOUT THE STUDY OF ASEMANANTIC UNITS IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation

At the morpheme level of the language, it is said that sometimes there are semantic units at the root of the morphological changes and semantic shifts or blurring that have occurred in language development. Although such asemanant units participate in the morpheme structure of words, they are not characterized as independent morphemes. Therefore, studying such elements at the morpheme level of the language based on modern research is one of the interesting issues in today's linguistics. This article provides detailed information about semantic units. Opinions of scientists who researched asemanant units are commented on and explained with examples.

**Key words:** Asemanant unit, linguistic sign, semantic units, submorphs, path of analogy, morphemic units, interfix, affixal component.

## ОБ ИЗУЧЕНИИ АСЕМАНАТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

На морфемном уровне языка иногда в развитии языка, говорится о морфологических изменениях происходящих в языковых единицах, а также о наличии асемантических единиц лежащих в основе семантических сдвигов или размываний. Хотя такие асемантические единицы участвуют в морфемной структуре слов, они не описываются как самостоятельные морфемы. Поэтому изучение таких элементов морфемного уровня языка на основе современных исследований является одним из интересных вопросов в современной лингвистике. В этой статье даётся подробная информация об асемантических единицах. Выражаются мнения к мыслям учёных, проводивших исследования над асемантическими единицами и объясняются на примерах.

**Ключевые слова:** Асемантическая единица, лингвистический символ, семантические единицы, субморфы, путь аналогии, морфемные единицы, интерфикс, аффиксальный компонент.

## O‘ZBEK TILIDA ASEMANANTIK BIRLIKLARNI O‘RGANISH HAQIDA

Annotation

Tilning morfem sathida ba'zan til taraqqiyotida, til birliklarida yuz bergan morfonologik o'zgarishlar hamda semantik siljish yoki xiralashuvlar zamirida ba'zida asemanantik birliklar bo'lishi haqida aytiladi. Bunday asemanantik birliklar so'zlarning morfem tarkibida ishtirok etsa-da, ular mustaqil morfema sifatida tavsif etilmaydi. Shuning uchun tilning morfem sathidagi bunday elementlarni zamonaviy tadqiqotlar asosida o'rganish bugungi kun tilshunosligida qiziqarli masalalardan biridir. Ushbu maqolada asemanantik birliklar haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Asemanantik birliklar ustida tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlariga munosabat bildiriladi va misollar bilan izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** Asemanantik birlik, lingvistik belgi, semantik birliklar, submorflar, analogiya yo'li, morfemasimon birliklar, interfiks, affiksial component.

**Introduction.** The concept of content and form in language is a highly and complexly interpreted concept. The form is subject to the content because the content requires its realization, realization in one form or another. According to Leonard Bloomfield, a leader in descriptive linguistics, forms are divided into simple and complex, as well as "free" and "bound" groups. The association and sequence of morphemes are defined as a "meaningful arrangement of forms". (1.123-127) p

Some linguists consider content to be a general concept, and meaning to be a specific concept. The content of a linguistic sign is multifaceted, lexical, semantic, or grammatical meaning is considered as one of its aspects. Another aspect of the matter is the sound or graphic indications of the sign. In other words, the content is considered as a unity of the signifier and signified, and the meaning is connected only with its form.

As a result of examining the morpheme composition of the word based on these approaches, it is known that some words contain elements known as "asemanant units" (proportionately, the term "semantic units" refers to typical

affix morphemes that have a certain meaning). We study the opinions of several linguists about asemanant units (perhaps it would be more correct to say asemanant element).

**Methods.** The linguist T.Mirzakulov was the first to elaborate on this issue in his research, including in his article published in 1987. It is known that in the Uzbek language, affixes are added to the base in a certain order. Some elements of the word structure undergo certain qualitative changes during the development of the language. It is observed that some of them have lost their meaning and function, and come close to or join the affix after it, ensuring its connection. These elements are recognized as "asemanant units". They are also called "submorphs" under the common name (pages 2.20-25).

In "Uzbek language morpheme dictionary" (Gulomov A., Tikhonov A., Kongurov R. Uzbek language morpheme dictionary. Tashkent: Fan, 1977 B.461) idiot(ahmoq/gar/chi/lik), man(odam/gar/chi/lik), rain(yomg'ir/gar/chi/lik), wet(nam/gar/chi/lik), shame(gar/chi/lik), mud(gar/chi/lik), and similar words are given separated into morphemic units. The element -gar in

them was probably evaluated as a formative suffix - an independent morpheme.

However, in Appendix 2, which explains the types of affixes at the end of the dictionary, it is noted that *Агрлик* is a single composite affix. It is not correct to divide these words into meaningful parts in this way. This situation may correspond to the above principle of division into morphemes, but in Uzbek, the form made in the pattern of root morpheme + affix morpheme, such as "man" and rain/"yoginar" cannot give a complete meaning in this case. It is known that when each morpheme part is separated from the word, the remaining part should be able to be used independently. The existence of the above situation shows that the principle of division into meaningful parts presented in the dictionary is not logical. Consequently, these words contain the aforementioned asemantic elements, which are part of the word structure. -chilik cannot be directly added to these words. Even if it is added to this root morpheme, it does not have a certain

lexical-semantic meaning, it performs the function of connecting to the affix that follows it. (Except, even if -gar is dropped in the word stupidity, it does not spoil the meaning. But the part of gar is added to this word by analogy).

This case also proves that the element gar is a submorph T. Mirzakulov writes about this: "In the Uzbek language, gar performs the function of a connector without losing its morphological essence. It is also added to Uzbek bases by analogy as a component of a joint affix" (p. 2.20-25) Currently, words with such a morpheme content are divided into

**Result and Discussion.** As a result of studies, it became known that in "Uzbek language morpheme dictionary" (Gulomov A., Tikhonov A., Kongurov R. Uzbek language morpheme dictionary. Tashkent: Fan, 1977 B.461 ) similar to the above words, belonging to the noun group and other similar chilik Words formed with the suffix 'are also divided into morphemes.

Word	The separation of words into morphemes In the "Uzbek language morpheme dictionary"	Asemantic units within a word	Source Manbasi Uzbek language morpheme dictionary" (Gulomov A., Tikhonov A., Kongurov R. Uzbek language morpheme dictionary. Tashkent: Fan, 1977 p.461 )
kosibchilik,	kosib/chi/lik,	chi	P 132
ko'pchilik,	ko'p/chi/lik,	chi	P 137
qahatchilik,	qahat/chi/lik,	chi	P 334
yog'ingarchilik,	yog'/in/gar/chi/lik,	gar	P 91
loygarchilik,	loy/gar/chi/lik,	gar	P 142
dehqonchilik,	dehqon/chi/lik,	chi	P 79
ahmoqchilik	ahmoq/chi/lik	chi	P 35
aldoqchilik	aldo/q/chi/lik	q	P 24
anglashilmovchilik	ang/la/sh/il/mo'/v/chi/lik	v	P 26
xarobagarchilik	xarob/a/gar/chi/lik	gar	P 278
xunobgarchilik	xun/ob/gar/chi/lik	gar	P 282
xursandchilik	xursand/chi/lik	chi	P 233
xafagarchilik	xafa/gar/chi/lik	gar	P 278
xumorigarchilik	xumori/v/gar/chi/lik	gar	P 282
sharmandagarchilik	sharm/anda/gar/chi/lik	gar	P 299
bemazagarchilik	be/maza/gar/chi/lik	gar	P 43
beadabchilik	be/adab/chi/lik	chi	P 40
odamgarchilik	odam/gar/chi/lik	gar	P 176
ovoragarchilik	ovora/gar/chi/lik	gar	P 176
oliftagarchilik	olifta/gar/chi/lik	gar	P 179
musulmonchilik	musulmon/chi/lik	chi	P 163
muttahamgarchilik	muttaham/gar/chi/lik	gar	P 163
muttahamchilik	muttaham/chi/lik	chi	P 163
sarsongarchilik	sarson/gar/chi/lik	gar	P 212
serobgarchilik	ser/ob/gar/chi/lik	gar	P 216

These words also contain asemantic elements, which was emphasized by the linguist A. Berdialiyev in his article, and the scientist called them "morpheme-like units", "interfix", "submorph". The scientist says that the element chi and gar in the above words is such a unit. (pp. 4.14-18) In fact, in these places, chi has lost its ability to form a personal noun. It has become an important tool for combining two morphemes. In many subsequent textbooks, even now, it is known that these words are divided into meaningful parts in the manner of farmer/chik, kosib/chik. The chi element also has this feature in the words mentioned above. In the composition of all the words cited, this element joins the suffix after it and serves for morpheme integrity. In conclusion, A. Berdialiyev emphasizes that the status of "morpheme-likeness" of the affix chi and gar should be recognized in addition to the constituent morpheme (pp. 4.14-18).

It is known that in our language there are many commonly used nouns such as teacher, builder, leader, voter, maker, fighter, sender, etc. These words can be found in "Uzbek language morpheme dictionary" (Gulomov A., Tikhonov A., Kongurov R. Uzbek language morpheme dictionary. Tashkent: Fan, 1977 B.461) read/t/uv/ morphemes are divided into components in the order of chi, qur/uv/chi, bosh/lo/v/chi, saylo/v/chi, yaso/v/chi, qir/uv/chi, jo'nat/uv/chi. The element (u)v in these words is probably isolated as a suffix that forms the form of the noun of the action T.

Mirzakulov admits that this element is also an asemantic element.

The scientist writes about this element in his research: "As a result of the reduction of the first consonant in this affix and its variants, vowels are lengthened. Then the consonant v is increased to compensate for it. This situation shows that morphonological changes blur word structure. For this reason, in the scientific literature, the (u)v component of the (u)vchi affix is indicated as the form of the name of the action"(p. 2.20-25)

The (u)v component in these words acts as a kind of conjunction by combining with the suffix chi. This is because the suffix chi is not usually added to words belonging to the verb group. It is added to more nouns and nouns. Since the root morpheme of the above words is a verb, the (u)v component should be added to them. Given this situation, it can also be assumed that this component is a noun form of action. Because the noun form of the action characterizes the verb as a noun. It can be assumed that the (u)v component was added to the above words by analogy.

It is known that our language also contains asemantic, morpheme-like units in some repeated words. In this regard, A. Berdialiyev emphasizes in his research (p. 4.14-18) that Such words include house-by-house, field-by-field, door-by-door, successively, face-to-face, step-by-step, and color-including words like barang. The elements ma and ba in these

words also appear as submorphs. Because they also provide the relationship of repeated words without meaning. These words cannot connect without them. In "Uzbek language morpheme dictionary" (Gulomov A., Tikhonov A., Kongurov R. Uzbek language morpheme dictionary. Tashkent: Fan, 1977 B.461) such words house by house (uy/ma-uy), given in the form of field by field (dala/ma-dala), colour (rang-ba/rang), step by step (qadam-ba/qadam) in the form of morphemes divided into meaningful parts. But we can read the following definition about the essence of this part: "It comes from the Tajik language in the first component of ravishes in the form of ma; it serves to indicate the state and the sign of action." (page 5.318) T. Mirzakulov ma speaking about suffixes, shows that they do not have a meaning, but the existence of a binding function, and he called them "chameleon morphemes" (p. 6.35-40). So, in modern studies, there are new ideas about the meaning and function of the adverbs in the word structure, which correctly express the essence of the linguistic element.

In "Uzbek language morpheme dictionary" (Gulomov A., Tikhonov A., Kongurov R. Uzbek language morpheme dictionary. Tashkent: Fan, 1977 B.461) these words are chak/im/chi, ich We see that morphemes are divided into components such ich /im/lik, sev/im/li, yoq/im/li, yoq/im/siz, sev/ik/li, bor/gu/day. (p. 5.301) cannot be said to be true

Among the words with asemanic elements in the morpheme are

Word	The separation of words into morphemes In the "Uzbek language morpheme dictionary"	Asemanic units within a word	Source Uzbek language morpheme dictionary" (Gulomov A., Tikhonov A., Kongurov R. Uzbek language morpheme dictionary. Tashkent: Fan, 1977 p.461 )
ichkilik	kosib/chi/lik,		P 104
Isiriq	is/ir/iq	ir	P 111
ko'rgilik	ko'r/gi/lik	gi	P 137
kechinma	kech/in/ma	in	P 126
og'irchilik	og'ir/chi/lik	chi	P 185
yo'qchilik	yo'q/chi/lik	chi	P 118
bangidevona	bang/i/devona	i	P 37
baxtiyorlik	baxti/i/yor/lik	i	P 39
bekami-ko'stlik	be/kam/i-ko'st/lik	i	P 42
mahmadonagarchilik	mahmadona/gar/chi/lik	gar	P 152
yuvuvchi,	yuv/uv/chi	uv	P 314
poyloqchi	poylo/q/chi	q	P 195
arzigudek	arzi/gu/dek	gu	P 29
arzigunday,	arzi/gun/day	gun	P 29
Arzirli	arzi/r/li	r	P 29
qavaringi	qavar/in/qi	in	P 327

Because in the "Etymological dictionary of the Uzbek language" the elements -q in the word atoqli, -m in the word aldanchi deceitful, and -gi in the word kurgilik were originally nouns, -ir in the word isiriq.

There is information that the in elements in the word "experience" were originally suffixes of the relative form. Even in the given words, the event of word formation required the storage of intermediate forms left over from consumption in certain places. They are submorphs that act as connectors in today's terms. The elements we highlighted in them are not combined with the affix that follows them. With these morphemes, All did not form a compound affix. But these words, as mentioned above, are in the "Morpheme dictionary

either. Because im in these words; ik; gu; it is clear that its elements are not separate morphemes. They are submorphs as mentioned above. Between these words, the word borgudai can be divided into two meaningful parts. However, it is necessary to evaluate the rest as words that cannot be divided into synchronistically meaningful parts. Or conditionally, it should be divided into morphemes. The reason is that the stem can be easily separated from these words, but the rest of it cannot be evaluated as a formative compound affix. And what about them; body; -li; it is also noticeable that the meaning of the formative affixes is slightly blurred. They can be divided into historically or conditionally meaningful parts. After all, without referring to the history of these words, it is impossible to give an accurate assessment of their content. Sh. Rakhmatullayev, while analyzing the trends, noted in one place: "-cha;

Affix has often become a permanent part of Ochricha lexemes. In the current Uzbek language, the words kopin and ogrin are not used separately" (p. 9.193). Judging from this idea, it can be said that the same situation happened in the above words. So, these words are not divided into morphemes. But there are other opinions about such words. In particular, A. Berdaliyev defines such words as "words whose content is divided into morpheme parts" (pp. 4.14-18).

of the Uzbek language" (Gulomov A., Tikhonov A., Kongurov R. The morpheme dictionary of the Uzbek language. Tashkent: Fan, 1977 B.461) alda/m/chi, aldo/q/chi, at/o/q/li, ich/ki/lik, is/ir/iq, ko'r/gu/lik, kech/in/ma, yoq/im/li we see that the morpheme is divided into components like you, ko'r/im/siz, o't/im/siz.

**Conclusion.** In conclusion, it can be said that at the morpheme level of the language, asemanic units sometimes appear as a result of morphonological changes in language units and semantic shifts or blurring. Although such asemanic units participate in the morpheme structure of words, they are not characterized as independent morphemes.

#### REFERENCES

1. Bloomfield L. Yazyk. - M.: Progress, 1968.
2. Mirzakulov T. Relationship of semantic and asemanic elements in word structure // Uzbek language and literature. - T., 1987. 2 numbers.
3. Mengliyev B., Bahriddinova B. Vocabulary of the Uzbek language. T.: Uzbekistan, 2007.p.100
4. Berdaliev A. Morpheme distribution of the word // Uzbek language and literature. T., 2014. 4 issues.
5. Gulomov A., Tikhonov A., Kongurov R. Uzbek language morpheme dictionary. Tashkent: Science, 1977.p.461
6. Mirzaqulov T. About the object and units of morphemics of the Uzbek language// Uzbek language and literature. T., 4 issues
7. Rakhmatullaev Sh. Etymological dictionary of the Uzbek language. I. (Turkish words) Tashkent, University, 2000. p.600.
8. Mirzakulov T. About morphological re-division // Uzbek language and literature. - T., 1985. 3 numbers.
9. Rakhmatullayev Sh. Modern literary Uzbek language. Tashkent, Science, 2006. p.200.



*Maxbuba MARDIYEVA,*  
*SamDChTI assistent o'qituvchisi*  
*E-mail:mardiyevamaxbuba@mail.ru*

*PhD, dotsent I.Achilova taqrizi asosida*

**CORRESPONDENCE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN TRANSLATION (BASED ON TRANSLATIONS OF G. GHULAM'S WORKS)**

Annotation

Today, the study of phraseological units is considered as an important area of linguistics, and linguistic scientists are interested in the study of phraseologisms, as well as its translation into other languages. This article discusses the study of phraseological compounds and its methods and methods of translation analysis.

**Key words:** Phraseologism, phraseological unit, phraseological combination, word, phrase, syntactic construction, semantic meaning, adequate translation.

**СООТВЕТСТВИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПЕРЕВОДЕ (НА ОСНОВЕ ПЕРЕВОДОВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ Г. ГУЛАМА)**

Аннотация

Сегодня изучение фразеологизмов рассматривается как важное направление лингвистики, и ученые-лингвисты интересуются не только изучением фразеологизмов, но и их переводом на другие языки. В данной статье подробно рассматривается изучение фразеологических сочетаний, а также методы и приемы их переводческого анализа.

**Ключевые слова:** Фразеологизм, фразеологизм, фразеологическое сочетание, слово, словосочетание, синтаксическое построение, смысловое значение, адекватный перевод.

**TARJIMADA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING MOS KELISHI (G'G'ULOM ASARLARI TARJIMALARI ASOSIDA)**

Аннотация

Bugungi kunda frazeologik birliklarni o'rganish tilshunoslikning muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda va tilshunos olimlar frazeologizmlarni o'rganish bilan bir qatorda uning boshqa tillarga tarjimasi haqida ham qiziqmoqdalar. Mazkur maqolada frazeologik birikmalarning o'rganilishi hamda uning tarjima tahlil metodlari va uslublari haqida atroflicha mushohada yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Frazeologizm, frazeologik birlik, frazeologik kombinatsiya, so'z, ibora, sintaktik qurilish, semantik ma'no, adekvat tarjima.

**Kirish.** Ma'lumki frazeologik birliklarni bir tildan bir tilga tarjima qilinganda hamisha ham ularning ekvivalenti topilavermaydi va so'zma-so'z mutanosib bo'lmaydi. I.G'ofurov fikriga ko'ra, frazeologik birliklarning tarjimada moslashishining quyidagi 3 turi mavjudligi aytilgan [9].

1.To'liq moslashish. Misol: qushday yengil tortdik – as light as a feather; Mollarni tamoman sotib, qushday yengil tortdik (10, 25) – We sold all the goods and felt as light as feathers.

2.Qisman moslashish. Bunda iboralar obrazlilik jihatdan mutanosib ammo, leksik-stilistik va so'zlar tarkibi jihatdan farqlanadi. Misol: ko'kka qarab qo'l ochdi - to lift hand up. Ko'sa maddoh ko'zining g'o'lagini oqartirib ko'kka qarab qo'l ochdi (Shum bola, 170-bet) – Kusa Boodlicker lifted his hand and spoke to the people in a hoarse voice.

3. Moslashishning bo'lmasligi. Ko'pchilik tillarda frazeologik birliklarning to'liq moslashishi mavjud emas. Bunda vaziyatlarda iboralarni so'zma-so'z, analogiya yoki tasviriy ifoda orqali tarjima qilgan maqsadga muvofiqdir. Misol: As the apple of one's eye- ko'zining qorachig'iday. Bu qushlarning har bittasini u ko'zining qorachig'iday ko'rar ediku – He held these birds dear, as the apple of his eye, did he not?

Shunday qilib, frazeologik birliklarni tarjima qilishning qiyin jihatlari ularga mos ekvivalent bo'la oladigan so'zlarni va leksik birliklarni topishdir. Aytganimizdek, frazeologik birliklarning aynan yaxlit ma'nosi bor va nutqda

tayyor birlik sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklar milliy madaniy xarakterga ega bo'ladi, bu esa tarjima jarayonida murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Frazeologik birliklar bir tildan boshqa tilga to'rt yo'l orqali tarjima qilinadi [9]:

Grammatik, semantik va uslubiy moslashishlar orqali;  
Semantik ekvivalentlar orqali;  
Kalka orqali;

Tasviriy (bayon) tarjima orqali.

Ba'zi bir frazeologik birliklarning moslashishi ko'p hollarda ikkkala tilda ham bir xil mos bo'lishi mumkin: Qushday yengil light as a bird. Endi men pok-pokiza, qushday yengil, ko'nglim tongday tiniq- Now I was pure, light as a bird and my heart was as clear as morning. Toileim juda ham sho'r – Born under a bad sign. Tong azonda turib, o'tov egalari, er-xotin bilan xayrlashib, «Sariog'och qaydasan», deb yo'lga tushdim. O'sha kezlarda mening toleim juda ham sho'r edi.(Shum bola 87-bet) – In the morning, I got up, said goodbye to the owners of the house, and then I was going to Sariogoch. At that time, with everything going wrong, it felt like I was born under a bad sign.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida funksional-semantik ma'noga ega bo'lgan leksik birliklarni topish juda muhim hisoblanadi. Bu prinsiplar esa til elementlarini o'xshashlik va mos kelishi orqali ifoda qilinadi. Ko'pchilik holatlarda frazeologik birliklarni tarjima qilish

jarayonida so'zlar mos kelishi mumkin lekin: Open handed – ochiq qo'l, open hearted – ochiq ko'ngil.

Ko'p hollarda mos kelmaydi bunday vaziyatda frazeologik birliklar biroz kamchiliklari bilan taqdim etiladi. Frazeologik birliklarning tarjimada qisman mos kelishi obrazlilik jihatdan mos, ammo so'z tarkibi jihatidan farq qilishi mumkin: Ko'rpachaga cho'zildim – lay on the bed; Domla chiqarib bergan ko'rpachaga cho'zildim (54-b) – Then I lied on my bed which had been brought out by the master.

Ingliz tilidagi ko'plab frazeologik birliklarning boshqa o'zbek yoki rus tillarida ekvivalentlari mavjud emas, bunday hollarda iboralar analogik yoki tasviriy, obrazlilik orqali tarjima qilish mumkin. Ish bermaq - come in; "O'qigan ilming shu yerda ish berdi", deb qo'ydim - I said, "Your knowledge came in here". Ammo "Shum bola" asaridan olingan ushbu parcha I.To'xtasinovning tarjima variantida quyidagicha tarjima qilingan: At that time I was surprised by the teacher's knowledge and thought that his knowledge worked out here very well. Ya'ni tarjimon analogik tarjima usulidan foydalangan.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ibora komponentlarining shakli o'zgarishi, ba'zi bir so'zlarni alamshtirish yoki tushirib qoldirishga to'g'ri keladi. Bunday vaziyatda quyidagi ikki holat kelib chiqishi mumkin: Tarjimada ikki tilning asl holatini ya'ni Grammatik strukturasi saqlab qolish muhimdir, aks holda iboraning ma'nosi butunlay o'zgarib ketishi mumkin va ma'noviy va uslubiy jihatdan adekvat bo'lmasligi mumkin: Qo'zg'aldim-make tracks. Men machitdan qo'zg'almadim. Men machitdan qo'zg'aldim (51-b) - I didn't make tracks from the mosque

Frazeologik birliklar to'liq moslashishda leksik-grammatik yoki komponentlar jihatidan farqlansa-da ammo semantik jihatdan bir-biriga mos bo'ladi: Seni qaysi shamol uchirdi (14-bet) - What wind blew you in?!

Demak, frazeologik birliklarni tarjima qilishda leksik-semantik, grammatik hamda komponentlar jihatdan mosini topib qo'llash joiz bo'ladi. Frazeologik birliklar tarjima

mobaynida bir jihatdan ya'ni komponentlar mosligiga ko'ra va so'zlarning shakliga ko'ra mos bo'lmasada ular albatta ma'noviy jihatdan mos bo'lishiga e'tibor qaratiladi: Qovog'im uchib turgan edi- Talk of the devil. Akam tirilib keldimi, haligina qovog'im uchib turgan edi, - dedi ammam – My aunt said, Come, my pride and joy. What wind blew you in today? Talk of the devil, you arrived just as my brother would come alive (14-b).

Ko'p hollarda na ekvivalent, na mos ekvivalentlar yordam bera oladi, bunday hollarda tarjimon tasviriy tarjima usuliga yondoshib ish ko'radi. Kiroyi ish - stellar performance. Ha, mana bu kiroyi ish bo'пти, - deb o'yladim. - Yarim qorong'i uyda hadeb qo'nib o'tira berish ham kishini zeriktiradi (16-b) – I thought it was a stellar performance. Sitting for a long time in a dimly lit room can be boring.

**Xulosa.** Tilning lug'at tarkibi, grammatik qurilishi hamda fonetik strukturasi barcha kishilar uchun umumiy bo'lsa-da, har bir shaxs fikrini o'ziga xos tarzda ifoda etishi bilan ajralib turadi. Ammo bu hol umumiy til qoidasidan yiroqlashib ketish hisobiga yuz bermaydi. Aks holda kishilar bir-birlarining nutqini tushunmagan bo'lar edilar. Tilning umumiy qoidasi bilan alohida shaxslar nutqiga xos individual xususiyatlar orasida dialektik birlik mavjud bo'lib, badiiy ijod tarkibiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ayni munosabat personajlar xarakteridagi tipik va individual xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Badiiy so'z san'atkori bir asarni tarjima qilar ekan, o'z qahramoni xarakterini yaratishda tipik xususiyatlar bilan birga individual xislatlar ham baxsh etadi. Chunki realistlik ijod tarkibidagi "har bir kishi-tipdir. Shuning bilan birga muayyan shaxs hamdir". Tipik obrazga (shaxsga) individual xususiyat baxsh etish yozuvchi zimmasiga yuklanadigan murakkab vazifa bo'lib, uning hal etilishi asosan personaj nutqi tasvirini yaratish bilan bog'liqdir. Bu yo'lda tarjimonga so'zlar bilan bir qatorda frazeologik birliklar, paremiologik birliklarning ham mohiyatini anglash va tarjima qilish talab etiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abjalova M., Rashidova U., Abdumuminov B. Matnlarni qayta ishlash manbalari //computer linguistics: problems, solutions, prospects. – 2022. – T. 1. – №. 1.
2. Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD). 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.
3. Berdiyev H, Rasulov R, Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasidan materiallar. – Samarqand, 1978.
4. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa, 2022. -636b.
5. Rafiyev A. Iboralar nutqimiz ko'rki . -T: Fan, 1968.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. -T.:Qomuslar yosh tahririyati. -T: 1992.
7. Rashidova U. M. Multi-meaning somatic phraseology in the uzbek language and their stylistic coloring //Thematics Journal of Social Sciences. – 2021. – T. 7. – №. 5.
8. Rashidova U. M. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili //Fil. fan. diss. avtoreferati, Samarqand. – 2018.
9. Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. 5-kitob. – Toshkent: G'.G'ulom, 1980. 302 b.
10. G'.G'ulom. Shum bola. –Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2018. - 192 b.
11. Mardiyeva M.Sh. G'afur g'ulomning individual frazeologizmlar qo'llash mahorati.// zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar-2023.-7-21. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3282>
12. Mardiyeva M Sh. Анализ теоретических рассмотрений стабильных соединений и их типов// til,ta'lim,tarjima, 2023. - 99 b. <https://tdqiqot.uz/index.php/language/article/view/9353>



*Mohinur NIZOMOVA,*  
*Qarshi davlat universiteti kafedra mudiri, (PhD), dotsent*

*DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

### DISCURSE CHARACTERISTICS OF PEDAGOGICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEKI

Annotation

The discursive features of the terms related to pedagogy are a text that is harmonious with extralinguistic factors, considered from the point of view of reality, a speech that is considered as a component of the interaction of people and their conscious mechanisms (cognitive processes) as a purposeful action.

**Key words:** Pedagogic terms, development of pedagogic terms, socialization of pedagogic terms, discursive features of pedagogic terms, comparative classification.

### ДИСКУРСНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Дискурсивными особенностями терминов, относящихся к педагогике, являются текст, гармоничный с экстралингвистическими факторами, рассматриваемый с точки зрения действительности, речь, рассматриваемая как компонент взаимодействия людей и их сознательных механизмов (познавательных процессов) как компонента взаимодействия людей и их сознательных механизмов (познавательных процессов). целенаправленное действие.

**Ключевые слова:** Педагогические термины, развитие педагогических терминов, социализация педагогических терминов, дискурсивные особенности педагогических терминов, сравнительная классификация.

### INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PEDAGOGIKAGA OID TERMINLARNING DISKURSIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Pedagogikaga oid terminlarning diskursiv xususiyatlari – ekstralingvistik omillar bilan birgalikda uyg'un, voqelik nuqtai nazaridan qaralayotgan matn, maqsadli harakat sifatida odamlarning o'zaro munosabati va ularning ongli mexanizmlari (kognitiv jarayonlari)ning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladigan nutqdir.

**Kalit so'zlar:** pedagogikaga oid terminlar, pedagogikaga oid terminlar taraqqiyoti, pedagogikaga oid terminlar ijtimoiylashuvi, pedagogik terminlarning diskursiv xususiyatlari, qiyosiy tasnif.

**Kirish.** Dunyo tilshunosligida pedagogika sohasiga oid terminlarni tartibga solish ishlari turli tizimli tillar doirasida amalga oshirilgan bo'lsa-da, shu kungacha bu soha terminlari milliy tilimiz – o'zbek tili asosida jahon tillaridan biri bo'lgan ingliz tili manbasi bilan qiyosiy-chog'ishtirma yo'sinda ularning struktur-semantik, leksikografik va tarjima muammolari hamon yetarlicha hal etilmagan. Jumladan, pedagogika sohasiga oid terminlarni tartibga solish mezonlari ishlab chiqilmagan. Shu ma'noda, terminlarning strukturaviy va semantik modellarini aniqlash, baynalmilal va o'zlashma qatlam birliklarining milliy tillarda barqarorlashuv jarayonlarini tahlil va tadqiq etish, tarjima qilish uslublarini takomillashtirish, mazkur terminlardagi sinonimlik (variantlilik), polisemik va omonimlik holatlarini tartibga solish hamda me'yorlashtirish yuzasidan takliflar berilmoqda.

Aql – dunyoni aks ettiruvchi, shaxsning voqelikga boshqaradigan inson miyasi;

Axloq – insonning sifati bo'lib, bir-biriga, oilaga bo'lgan xulq-atvori, odobi majmuasidir;

Tushunchalarning "aniqligi va qat'iy qilinishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Atamalarining rivojlanishi, tartibga solinishi fanning qator sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq bo'ladi. Bu taraqqiyot uzluksiz bo'lganligi sababli, yangi atamalarining kelib chiqishi doimiy tartibda amalga oshiriladi. Umuman, pedagogika sohasida atamalarining puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Atamalarining ishlanmaganligi va tartibga

**Adabiyotlar tahlili.** S. Usmonov, M. Mirhamidov, S.

Hasanovlarning fikricha, ".... atama so'zining ma'nosi termin so'zining ma'nosiga nisbatan keng bo'lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir tor sohada qo'llanuvchi rasmiylashgan so'zdir. Shu ma'noda, "termin" tushunchasi "atama" tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lug'aviy birlikdir"[1].

Arastu axloqni davlat hayoti uchun dolzarb deb hisoblaydi. "Borliq inson qo'lga qurol — ya'ni, aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin: shuning uchun axloqiy tayanchlari bo'lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o'zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo'lib qoladi", — deydi u.

The mind is the human brain that reflects the world and directs the individual to reality;

Morality is a quality of a person, a set of attitudes and manners towards each other and the family;

solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi"[2], — deb fikr bildiradi Mamajonov.

Suqrot hunarmand, ya'ni haykaltarosh oilasida voyaga yetgan. Suqrotning fikr va g'oyalariidan guvohi bo'lishimiz mumkinki, u nafaqat falsafiy, balki pedagogikaga oid bilimlar egasi bo'lgan. Suqrot narsa-predmetlarning holatini bilish mumkin emas, xatti-harakat odobini shakllantirishi lozim, deb ta'kidlagan. U ajoyib nutq so'zlar, ta'lim-tarbiya, xatti-harakat odobini shakllantirish haqida musobaqalar tashkil etardi hamda ishtirokchilar bilan o'zaro savol berish va javob olish



tarzida suhbatlashar, bilimni shu tariqa berish va yangi ma'lumotlarni tushuntirishga undar edi. Bu o'z-o'zidan uning metodi, ya'ni "Suqrot metodi" deb yuritilgan.

Aristotel fikricha, Suqrot pedagogika sohasida o'sha davrda mavjud bo'lgan umumiy tushunchalarga induktiv ta'limotni kiritgan hamda har bir hodisaning mohiyatini bilishga sharoit yaratib beruvchi qarashlarni anglash haqida ta'limotni ochib bergan. Suqrotning ta'kidlashicha, aql va axloq orasida akslik bo'lmasligi kerak. U tarbiyada xatti-harakat odobi, estetika talablariga mos keladigan, sog'liqni mustahkamlashni nazarda tutgan tarbiya modelini ilgari surdi. Ammo, shuni ta'kidlash mumkinki, Suqrot, asosan, axloqiy tarbiyaga fikran nazar tashlagan. Uning ta'kidlashicha, axloqiy tarbiya "yetuk"largagina xos, "yetuklik" kishilarni haqiqiy tarbiyaning yagona egalari aylantirganliklari sababli, boshqaruvni ular olib borishlari shart deb hisoblaydi.

Pedagogikaga oid atamalarni tilshunoslikda o'rganishni ta'kidlab, unga samarali hissa qo'shgan, Yunonistonning dunyoqarashga oid ilmlari bilan shug'ullanuvchi olimi Platon bo'lgan. U pedagogika sohasida "g'oyalar dunyosi", "tarbiya" kabi muhim terminlarni fanga kiritgan va ularga ta'rif bergan. U, tarbiya hukumat tarafidan nazoratga olinishi hamda bilim egalari, faylasuflar va ta'lim beruvchilar himoyaga olinmog'i lozim, deb hisoblagan.

Arastu pedagogik terminologiya sohasida "tarbiya turlari"ni fanga kiritdi. U tarbiyani uch turga – jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiy kabi ko'rinishlarga ajratgan. Uning fikriga ko'ra, tarbiyaning maqsadi insonning aqliy jihatlari, ya'ni aql va idrokini shakllantiruvchi vosita bo'lishi kerak. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bo'lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarining ibtidosinigina beradi, xolos. Insondagi mavjud xususiyatlarni kamol toptirish imkoniyati tabiatda mavjud bo'lib, ular tarbiya vositasida ro'yobga chiqariladi, deb hisoblanadi. Tabiatan, insoning yuqorida sanab o'tilgan uch turdagi qobiliyatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shunga asoslangan holda biz ham tarbiyaning ushbu tabiiy xususiyatini hisobga olib, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya va aqliy tarbiya turlarini bir-biri bilan chambarchas bog'lab o'rganishimiz mumkin.

Keyinchalik Yunonistonda pedagogik atamalarining quyudagi shakllari fanga kirib kela boshlagan:

"academic retardation" — academic delay;

"emotional / behavioral disorders" — emotional and behavioral disorders;

"special education disability" is the inability to learn;

"separate children" — children with outstanding intellectual or creative abilities;

"discourse" -is the ability to think, to continue a conversation, and to express one's point of view on a particular topic of conversation;

"pre-season demic skills" — the skills and abilities that a child has before entering school;

"mutual learning"- is mutual study;

Tilshunoslikda u, dastlab, gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda. Pedagogikaga oid terminlarning pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarda diskurs atamasi turli xil ma'noda qo'llangan: 1) Pedagogikaga oid terminlar muqobili; 2) pedagogik nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta'siri; 4) suhbatda ,

Who ever has a son or daughter, he will mourn for him. If the father deprives the child of his childhood, there is no sin in the child, all suffering is in the father. If a son or daughter has bad behavior, then the father is to blame, and nothing else.

"Oila pedagogikasi" atamali (oila muhiti, a'zolari, sharoiti, ta'lim tarbiyasining umumiy masalalarida foydalanilgan);

"Kasb pedagogikasi" terminlari (ishlab chiqarish, turli kasblarni o'rganishning umumiy masalalaridagi aloqa vositasi hisoblangan);

o'zaro taqqoslanadigan atamalar (fikrlarni solishtirib, mulohazaning mantiqiy natijasini taqqoslash);

millat pedagogikasi atamali (elat ta'lim-tarbiyasi, ta'lim-tarbiya maskanlari, madaniy-marifiy xatti-harakat odobi kabi tushunchalarda alohida ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik atamalar majmui);

jamoat pedagogikasi atamali (jamiyatga taalluqli yoshi farqlanmagan holatda, kundalik holat uchun ehtiyojni ifodalovchi terminlar)"[3];

tibbiyot pedagogikasi atamali;

harbiy pedagogik atamalar";

rahbarlik pedagogikasi tushunchalari;

mehnat pedagogikasi terminlari singari tarmoqlari bo'lgan.

Barcha sohaning maqsadi, vazifasi bo'lgani kabi pedagogika sohasining ham aniq maqsad va vazifalari mavjud. Shu asosda turli tadqiqotlar olib borish mazkur sohaning o'ziga xos terminlarini o'rganishni nazarda tutadi. Pedagogika sohasiga oid terminlar, asosan, yosh avlod tarbiyasida, uning yosh va individual xususiyatlarini ifodalashda qo'llaniladi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar yechimi, uning samaradorligi uchun xizmat qilishini nazorat qilish va pedagogika sohasiga oid atamalarni chuqur o'rganishni taqozo etadi. Shunga ko'ra, pedagogik atamalar pedagogika fani bilan tabiiy bog'liq hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi zamonaviy tilshunoslik sohasida "Diskurs" atamasi juda keng qo'llanilmoqda va "Pedagogikaga oid terminlarning diskursiv xususiyatlari – bu ekstralingvistik-pragmatik, sotsial-madaniy, psixologik omillar bilan birgalikdagi izchil matn hisoblanib maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq, odamlarning o'zaro ta'siri va ularning ongi mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da ishtirok etuvchi komponent sifatida qaraladi.

"akademik retardatsiya" — akademik faoliyatning kechikishi;

"xulq-atvor buzilishlari" – tarbiya harakatlarni yomonlashuvi;

"maxsus ta'lim nogironligi" — o'rganishga qodir emaslik;

"aktiv o'quvchilar" – bilim salohiyatga moyil o'rganuvchilar;

"diskurs" — mulohaza yuritish, suhbatni davom ettirish va suhbatning muayyan mavzusi bo'yicha o'z nuqtai nazarini bildirish qobiliyati;

"mavsumoldi demik ko'nikmalar" — bola maktabga kirishdan oldin ega bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlar;

"o'zaro ta'lim" – o'zaro o'rganish;

pedagogik terminlarda so'zlovchi pozitsiyasi; 6) pedagogik termin birliklardan foydalanish;

Pedagogik terminlarning lug'at boyligidagi mavjud so'zlarning ma'no va mazmunini baholash deganda, so'zlarning leksik maydonda qay daraja ekanligini ko'rsatish nazarda tutiladi. Eng avvalo "baholash" tushunchasini tavsiflab olish maqsadga muvofiqdir.

"Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa, unga shu kishining o'zi munгли bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligidan bebosh qilib qo'ysa, bolada gunoh yo'q, barcha jaf o'taning o'zida. O'g'il-qizning xulqi-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi, undan boshqa emas"[5]

“Baho” pedagogik termini lug'atlarda berilishiga ko'ra, “kimmidir yoki biror narsaning qiymati, darajasi yoki ahamiyati to'g'risidagi fikr”ni taqozo etadi va ingliz tilida esa price, rating, cost, value, valuation, appreciation, esteem, mark, worth kabi terminlar vaziyatga qarab ishlatiladi.

Kognitiv tilshunoslik yondashuvining terminologiya faniga ta'siri natijasida, terminning xususiyatlari, uning mohiyati, kasbiy jarayondagi roli, kasbiy ta'limni va bilimlarni qabul qilishdagi tutgan o'rni aniqlashtirilmoqda. Biz L.A.Manerko fikriga ko'ra, haqiqatdan ham “terminlarni o'rganishda foydalanilgan kognitiv yondashuv terminologiya doirasida bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining sifatini ko'tarib, kognitsiya va diskurs hodisalarini o'rganish uchun va diskurs jarayonida ishlatiladigan terminlarni tushunish va Ritsarlik tarbiyasi – G'arbiy Yevropada ham dunyoviy feodallar muhitida ritsar fazilatlariga ega bo'lgan tajribali, mohir va mard jangchi, shuningdek, olijanob, nazokatli, odobli, xushmuomala, vijdonli, fidokor va sodiq inson tarbiyasi bilan bog'liq alohida tarbiya tizimi hisoblangan;

Shuni aytish lozimki, Yevropada XII asrning ikkinchi yarmida “universitet” atamasi paydo bo'lgan. Sababi, o'sha davrda universitetlar tashkil topa boshlagan.

Universitet – tabiiy, ijtimoiy va gumanitar yo'nalishda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan ko'p tarmoqli oliy o'quv-ilmiy muassasa;

Izlanishlarimizda shuni kuzatdikki, qadimda kitob yaratish ishini qo'lda bajarilgan davrlarda bu jarayonlarni majmuasini kitobat yoki kitobat fani deb atalgan. Vaqtlar o'tib kitob yaratish XVII-XVIII asrlarda toshga o'yib tushirilgan bosma qoliplar yordamida ya'ni toshbosma yoki litografiya usulida amalga oshirila boshladi. Ushbu jarayonlar yig'indisiga maktabchilik terminlarining qo'llanilishi tabiiydir. Ko'rib turganimizdek ijtimoiy hayotda sekin astalik bilan pedagogikaga oid terminlar qo'llanila boshladi. Qadimda kitob so'zi bilan o'zakdosh bo'lgan kitoba hamda kitobat so'zlari ma'nolariga ko'ra, qo'llanilish vaziyatiga ko'ra bir biridan farqlanadi. Xususan, kitoba so'zi “yozuv yozilgan, bitilgan; qabr toshiga o'yib yozilgan bitik; bino peshdoqoga ziyatli qilib bitilgan yozuv;” kabi ma'nolarda ifodalansa “Sulton Abu Said Mirzo oq saroyini yasaganda iboratning kitobasi uchun she'r buyurdilar”[7], “O'qug'on elni halok aylag'ay kitobasida, Ichimdagini ayon qilsa qamrim uzra toshim”[8].

Aytish mumkinmi XV-XVI asrlarda kitobat terminining o'zi ham bir necha ma'nolarni ifodalab kelganligini kuzatdik va ular quyudagilar:

ko'chirib yozish, ko'chirmachilik, qoziga murojaat, asar yozish: “Kitobatni shug'ledurur bas nafis, Birov istasa o'zni mushafnavis. Kitobatqa sa'iy etsa to joni bor, Qalamzan bo'lurning ne imkoni bor?”; “Mirzo uchun, Alisherbek uchun qalin kitobatlar qildi. Har kunda o'ttiz bayt mirzo uchun va yigirma bayt Alisherbek uchun bitir edi”;

noma, maktub: “Bu ikkinchi nisbat Samarqandni olg'onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim,...”;

yozuv, yozishmalar: “Odina kuni oyining o'n to'rtida xat kitobatlar tayyor bo'lib, Bayonshayxqa topshurib, ruxsat berildi”;

talqin qilish uchun imkon yaratadi”[6]. Biz bu fikrga to'liq qo'shilamiz.

Terminlarning mohiyatini ifodalashda kognitiv nuqtai nazardan yuzlanmoq samaradorlik kasb etadi. Bu esa kognitiv yondashuv terminologik nominatsiyalash jarayonining dinamikasi va mexanizmlarini aniqlashga ko'maklashadi. Chunki terminlar tizimidagi tarixiy jarayonlarni tushunish, aniq bilimlarni til birliklar vositalari orqali yetkazish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Ko'pgina kognitolog olimlarning fikriga ko'ra, “kognitiv yondashuv nafaqat terminning tashqi, balki ichki tuzilishini ham tavsiflab beradi va terminshunoslarni terminning aniq xususiyatlarini ichki qonuniyatlarini tadqiq etishga chorlaydi”[7].

Knightly upbringing — in Western Europe, too, in the environment of secular feudal lords, an experienced, skilled and brave warrior with knightly qualities, as well as a noble, gentle, polite, courteous, conscientious, selfless and loyal man — is a separate educational system ;

University — a multidisciplinary higher education institution aimed at training highly qualified specialists in the natural, social and humanitarian fields;

yozuv, xat: “...bir hindistoniy: “Sulton Ibrohimning elchidurmen”- deb ketdi. Agarchi xat va kitobati yo'q edi, bizdan bir kishi elchilikka istid'o qilibdur”.

“Darvoqe, Anvarga ko'p mehnatim singgan, dedi maxdum mahtang'ansimon, bir qarish yoshidan boshlab, kaminaning talimida o'sdi, o'z qo'limda tarbiya topqan necha yuz, balki minglab shogirtlarim ichida qo'b tavajjuhimi shu bolag'a bo'ldi. Ushbu sababdan ham munchalik mustaid bo'lg'an bo'lsa ajab emas deb o'ylayman...” tavajjuhime'tibor, fikr-xayol; mustaid- qobilyatli, istidotli ma'nolarida ifodalaniyapti.

“O'z hunarimda yaxshi tajriba ham ortirdim, shuning bilan nasfsilarmni iqroretishka majburmankim shogirdingiz mirzo Anvardan qo'b daraja quyilaman: tahrirda, taqirirda va faroizda Anvaringizning yordamig'a muhtojman” tahrirda-yozuvda, taqirirda- matnning mazmunini tushuntirish nazarda tutilyapti.

“Boya peshin asnosida, - dedi,- qavmlar kaminadan istifors qilishdilar, “og'lingiz Anvar munshiy ta'yinlanar emush, ushbu axbor to'g'rimi?” deb...” munshiy- kotib lavozimi; axbor- xabar ma'nosida; istifors- so'ramoq ma'nolarini ifodalaydi.

**Xulosa.** qilib aytganda, ingliz va o'zbek tili pedagogik terminologiyasining paydo bo'lishi va kamol topishi uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir va ushbu xolat asarlarda ham o'z aksini topgan. Chunki ta'lim-tarbiya ishi inson o'z insonligini taniganidan, keyin boshlangan va davrlar o'tishi bilan mustahkamlanib borgan. Shunga muvofiq ravishda, ona tilimizda ham maxsus terminologik sistema-pedagogika terminologiyasi shakllangan va rivojlana boshlagan. Fikrimizni yozma yodgorliklar, o'tmishdosh shoirlarning she'rlari, yozuvchilarimizning asarlari to'la tasdiqlay oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Peter Robinson and Nick C. Ellis, Handbook of cognitive linguistics and second language acquisition: Handbook. – Taylor & Francis e-Library, 2008. – 566 p.
2. Shozamonov, S. I., Nazarova, S. A., & Djuraev, B. B. (2021). Problems of Development of the Uzbek Language in Current Society. Open Journal of Modern Linguistics, 11(4), 613-620.
3. Nizomova M. B. Ingliz va o'zbek tillarida integratsiya sharoitida pedagogik terminologiya, ta'limdagi jarayonlar va pedagogika fanida atamalarni rivojlantirishning yetakchi tendentsiyalari. // Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон

---

миллий университети Илмий журналиб O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022, [1/3/1] ISSN 2181-7324. – 247-251 betlar (10.00.00 N:15)

4. Nizomova M. B. Polysemantic features of pedagogical terms in English and Uzbek translation. // Current research journal of philological sciences 2(12): 21-25, December 2021 .DOI: <https://doi.org/10.37547/Philological-crjps-02-12-05> ISSN 2767-3758, – 2021. Master Journals. 21-25 pages.
5. Nizomova M. B. Problems of systematization of pedagogical terms and concepts in the scientific and pedagogical theory of comparable languages.// American Journal Of Philological Sciences (ISSN – 2771-2273) Volume 2, issue 3, pages: 01-06 sjif impact factor (2022: 5. 445) oclc – 1121105677 metadata if – 5.963, – 1-6 pages.
6. Nizomova M. B. Pedagogical terms as an object of linguistic research. // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal //Volume: 8, Issue: 3, March, 2022, Journal DOI: 10.36713/epra2013, SJIF Impact Factor 2022: 8.205, 284-290 pages



UDK: 39(575.1)08

*Nasim OCHILOV,*  
*Qarshi davlat universiteti dotsenti, f.f.d*  
*E-mail: nasim.ochilov@mail.ru*

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent F. Mo‘minov taqrizi asosida*

### BAXSHICHILIK SAN’ATIDA ZAMONAVIYLIK VA MATN TALQINI MUAMMOSI

Аннотация

Maqolada baxshichilik san’atining bugungi jonli og‘zaki an’analarda davom etishi, baxshilarning zamonaviy ijrosi, terma ijodkorligi va badiiy talqin, termalarning lirik qo‘shiqlar shaklida ijro etilish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Baxshi, epik ijro, zamonaviylik, sahnaviy talqin, terma, janr, lirik qo‘shiq, an’ana, badiha, matn, talqin.

### ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕКСТА В ИСКУССТВЕ ЖИВОПИСИ

Аннотация

В статье с научно-теоретической точки зрения анализируется продолжение искусства бахши в сегодняшних живых устных традициях, современное исполнение бахши, творчество и художественная интерпретация терминов, исполнение терминов в виде лирических песен.

**Ключевые слова:** Бахши, эпическое исполнение, современность, сценическая интерпретация, терма, жанр, лирическая песня, традиция, бадиха, текст, интерпретация.

### THE PROBLEM OF MODERNITY AND TEXT INTERPRETATION IN THE ART OF PAINTING

Annotation

The article analyzes the continuation of the art of bakhshi in today's living oral traditions, the modern performance of bakhshi, the creativity and artistic interpretation of terms, the performance of terms in the form of lyrical songs from a scientific and theoretical point of view.

**Key words:** Bakhshi, epic performance, modernity, stage interpretation, terma, genre, lyrical song, tradition, badiha, text, interpretation.

**Kirish.** Bugungi ijtimoiy-madaniy hayotimizga zamonaviy san’at turlarining kirib kelishi baxshi-shoirilar ijrosiga bo‘lgan e’tiborning keskin susayishi, yoxud ustozshogirdlik munosabatlari davom etmayotganligi baxshichilik san’atida terma ijodkorligining kuchayib borayotganligidan dalolat bermoqda. Buning bir qator ijtimoiy-maishiy sabablari mavjud. Baxshilar ijodi auditoriyaning dunyoqarashi bilan moslashdi. Mavjud auditoriyaning doston tinglashga, baxshini eshitishga, uning ijodidan zavqlanib, tanqidiy yondashuv tuyg‘usi sustlashganligidandir. Baxshilar endilikda yangicha talqinda dostonlardan parcha, yoxud termalar kuylab, to‘ylar, tadbir va sayllarda tinglovchilar talabiga mos sho‘x va ohangdor zamonaviy ijro shakliga o‘tmoqda. Epik makon va vaqtning tinglovchilar dunyoqarashida aks etishi, matnga voqelik ruhidan kelib chiqqan holda yondashuv terma ijodkorligini kuchayib borishini tezlashtirmoqda. Baxshining epik xotira va bilimi yozma manbalar ta’sirida uyg‘unlashdi. Kitobiy unsurlarning og‘zaki ijroga ta’siri an’anaviy matnning ma’lum ma’noda o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Shu boisdan dostonlar kabi terma matnlariga nisbatan individual ijodkorlik tuyg‘usi shakllana bordi. Jonli jarayonda yuzaga kelgan o‘zgarishlar termalarni erkin mavzularda aytish, ijod qilish malakalarini shakllantirmoqda. Baxshilar terma ijrosiga ma’lum mavzular asosida emas, balki voqelik nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ijod qilish ko‘nikmasini shakllantirmoqda. Ularda anonimlik va variantlilik xususiyatlariga nisbatan muallifli termalarning kuchayishi ommalashdi.

Ustozshogirdlik an’analardagi uzilishlar mustaqil termachi baxshilar avlodini shakllantirdiki, ular an’analarga o‘zi bilmagan holda o‘zgartirishlar kiritib termalar mavzusini

ijtimoiylashtirdi. Bugungi kunda dostonchi baxshilarga nisbatan termachi baxshilarning ko‘payayotganligi termalarni mustaqil ijrosini kuchayishi doston ijro qilishga nisbatan terma ijro etishga imkon yaratmoqda. Epik ijrodagi uzilish holatlari nafaqat doston matnlarida, balki terma kuylari va ijro shakllarida balki matnda ham zamonaviy talqinlarni va mavzularni ommalashtirmoqda. Demak, baxshilar repertuari barqaror jonli an’analar asosida yashasagina kuy va ohang, an’ana va badiha mutanosibligi saqlanadi.

Hozirgi baxshilar ijrosidagi termalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ular lirik qo‘shiq ijrochiligiga uyg‘unlashib borayotganligi, termalarning kuylari va ohangini tashkil etuvchi vazn, qofiya, naqarotlar an’anaviy ijroga nisbatan zamonaviy talqinlarga mos xizmat qilmoqda. Bunday xatti-harakatlar terma matnda badiiylik muammosini yuzaga chiqarib, baxshining individual ijro qilishga harakat qildirmoqda. An’anaviy ijro etilgan, ustozdan shogirdlarga og‘zaki o‘zlashib ijroda mukamallashgan termalarda folklorga xos ruh yetakchilik qilsa, ikkinchidan, ular ma’lum mavzularda ijroga moslashgan hamda badiiylik darajasi muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda improvizatsiya va ijodiy mahoratning o‘rni an’analar doirasida takomillashgan.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Epik kuychi va uning doston ijrosi, dostonlarning tasnifi, epik syujetlar genezisi, obrazlar tarkibi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, shuningdek, epos ijrochiligining jonli og‘zaki an’analarda yashashi, so‘nish holati va matn talqini masalalariga doir jahon va turkiy xalqlar folklorshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan[1]. Epik repertuarining asosiy janri hisoblangan terma borasida T.Mirzayev, A. Musaqulov[2] larning ilmiy qarashlarida fikr-mulohazalar yuritilgan bo‘lsa-

da, baxshichilik san'atining hozirgi holati va zamonaviy baxshi ijrosida ularning ijtimoiylashib borish masalalari yaxlit tizimli asosda tadqiqot obyekti vazifasini o'tamagan.

**Tahlil va natijalar.** Baxshilarning ijodkorlik qobiliyatlaridan foydalangan holda turli mavzularda termalar yaratishga intilishi, folklorga xos an'ana va variantlashuv jarayonlarining individuallashuvi, an'anaviy ijro va matnning baxshi iqtidoridan kelib chiqqan holda o'zgartirilayotganligi jonli ijrodagi o'zgarishlar bilan bog'lanadi. Bular ma'lum davr, ya'ni baxshichilik san'atining so'nish jarayonidagi o'zgarishlar bo'lib, baxshilarning o'zlaricha ijodkorligini kuchaytirishga intilishi bilan baholanadi. Bu kabi holatlar baxshi repertuarida termalarning an'anaviy ijrosiga nisbatan zamonaviy mavzu va talqinlarini kuchaytirmoqda. Ba'zan ustoz ko'rgan doston ijro etish usul va yo'llarini og'zaki o'rgangan talantli baxshilar ijrosidagi termalarda ham kitobiylik unsurlari, epik dunyoqarashning zamonaviylashgan tasviri ko'zga tashlanadi. Misol uchun Qora va Chori Umirovlar, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Qahhor va Abdumurod Rahimovlar, Shodmon Xo'jamberdiyev kabi baxshilar ijrosida mana shunday xususiyatlar mavjud. Ustoz-shogird munosabatlarining jonli og'zaki ijroda davom etishi, shogird baxshilarning ustozlar an'anasini davom ettirishda epik qonuniyatlarni saqlashi va boyitib borishi muhim omillardan hisoblanadi, ammo tashqi muhitning baxshi epik bilimi va xotirasiga ta'siri u ijro etgan termalarda ko'zga tashlanadi. Umuman aytganda, yozib olingan variantlarni o'zaro qiyoslash, ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish epik ijro va mahoratning barqaror an'analarda davom etishi va baxshilar ijro repertuarining o'ziga xos tomonlarini belgilashda, qolaversa, bugungi tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasidagi o'zgarishlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni holatlarni Umir shoir Safarov repertuaridan yozib olingan "Ayrilsa" terminini Qora Umirov, Qodir va Qahhor Rahimovlar, Shodmon Xo'jamberdiyevlar variantlarini qiyoslash asosida ko'rib chiqish mumkin.

Folklorshunos S. M. Sat tuva qahramonlik eposi "Bo'raday Mergan"[3] asosida ustoz-shogird o'rtasidagi ijro mahoratini ko'rsatish maqsadida asarning badiiy-tasviriy vositalarini qiyosiy o'rganib, ularning o'zaro farqli tomonlarini tahlil qilarkan, har ikki variantning afzalliklari, ustoz-shogirdning individual-ijodiy yondashuvi matndagi muhim xususiyatlarni ko'rsatishda ahamiyatli ekanligi ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham, ustoz-shogird matni tahlilidagi olimning kuzatuvlari epik mahorat va an'ananing shogirdlar tomonidan o'zlashtirilishida qanday farqlar mavjud, ularning epos jonli og'zaki ijro va usullaridagi o'rni masalalarini tahlil qilishda asosli omil bo'la oladi.

Ma'lumki, Qora va Qodir baxshilar Umir shoir Safarovdan doston ijro etish usul va yo'llarini og'zaki o'zlashtirganlar. Qahhor va Abdumurod Rahimov, Shodmon baxshilar esa Qodir Rahimovning shogirdlaridir. Bir matnning uch avlod baxshilari repertuarida ijro etilishi, ularning o'xshash va farqli tomonlarini qiyoslash epik mahorat va uning jonli an'analardagi o'rni belgilashda, ularning avlodlar tomonidan qanday davom ettirilayotganligini ko'rsatishda ahamiyatlidir. Umir shoiring didaktik mavzuga bag'ishlangan "Ayrilsa" [4]terminasida xalqona uslub, an'anaviy ijro yo'llari saqlangan. Chunki baxshi yashagan va ijro etgan davrda hali dostonchilik an'analari davom etayotganligi, qolaversa, baxshi xotirasida saqlangan terma kuylari va so'z ijrosi an'analari zahirida uyg'unlashgan. Ikkinchidan, baxshining epik bilimi, xotirasida mavjud ijro uslubi o'zgarmagan. Bu kabi xususiyatlarni "Ayrilsa" an'anaviy terminini misolida ko'rib chiqish mumkin.

Baland tog'ning boshi qorayib qolar,

Bag'ridagi bo'ktar qordan ayrilsa.

Savdogarning yuki qalanib qolar,

Qatordagi qora nordan ayrilsa (169-bet).

Umir shoir repertuaridan yozib olingan ushbu termada an'anaviy shakl va mazmun saqlangan. Shoir termada tabiat va jamiyatdagi har bir jonli va jonsiz narsalar o'zining jufti, sirdoshi bilan aziz, qadri ekanligini tasvirlashga harakat qilgan. Termada xalq dostonlari matnida an'anaviy qo'llanuvchi epik formula kirish vazifasini o'tab voqealar rivojiga, qahramonlarning xatti-harakatini tasvirlashda muhim o'rin tutib, vazn va qofiyaning ma'lum tartib asosida shakllanishida yetakchilik qilmoqda. Hatto, ayrilsa radif holatida mavzu darajasiga ko'tarilgan.

Terma didaktik xarakterga ega. Unda ayriliq motivining o'zak ramzi ma'no jihatidan saqlangan va an'anaga mos tarzda tasvirlangan. Keyingi bandlarda ruhiy jarayon yanada kuchaytiriladi. Ayriliq motivi an'anada mavjud epik bilimning takrori asosida sayqallashib, baxshining kuzatuvlari va chiqqan xulosalariga hamohanglik bag'ishlaydi. Bunda inson va tabiatdagi narsa-hodisaning dialektik bog'liqligi, har bir jonli uchun ayriliq ayanchli iztiroblardan biri ekanligi zanjirbandlik hosil qilib, osudaligi, xalqning farovon hayot kechirishi va kamolot sari intilishi podshohning aqli va olib borayotgan siyosati hamda hukmining adolat bilan boshqarilishiga bog'liq. Podshoh uchun mamlakat boshqaruvi va uning boyligi har narsadan ustun hisoblanadi. Agar davlatni dushman o'z iskanjasiga olsa-yu, xalqiga azob bersa podshoh uchun ayanchli holat, yo'qotishdir. Baxshi "ayriliq" motivining hayot va jamiyatdagi muhim qirralariga e'tibor qaratadi. Misralardagi so'z va ijro mana shunday ruhiy vaziyatni an'analari qobig'ida qamrab oladi. Buni baxshi dastlab tog', savdogar misolida tasvirlasa, keyingi misralarda podshoh, mard o'g'lon timsolida davom ettiradi.

"Ayrilsa" so'zi shakl va mazmun birligi uchun asosiy motiv vazifasini bajarmoqda. Ta'kidni kuchaytirish maqsadida qofiyadan so'ng kelib, tinglovchini hayotiy muammolarni anglashga, o'tkinchi umrni behudaga o'tkazmaslikka da'vat etmoqda. Ushbu terma yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, Umir shoir ustozlari kuylab kelgan matn repertuarida o'zlashtirgan va mahorat bilan ijro etib kelgan. Qora va Chori Umirovlar, Qodir Rahimov kabi baxshilar repertuarida ham ijro etilgan, shuningdek, Qahhor va Abdumurod Rahimovlar, Shodmon Xo'jamberdiyev kabi Qodir baxshi shogirdlari ijrosida bugungi kunda kuylanmoqda. Ammo bir mavzuning mazmun va ijrosida, an'ana va mahorat masalalarida farqlar seziladi. Dastlab Qodir baxshi repertuaridan yozib olingan "Ayrilsa" terminini va uning an'anasidagi o'rni masalasiga to'xtalib o'tsak. Qodir baxshi repertuaridan yozib olingan termalar tarkibida an'anaviy va zamonaviy mavzudagi namunalar ijro etilgan bo'lib, "Ayrilsa" terminini ustoz Umir shoirdan o'rgangan. Shunday bo'lsa-da, uning ijrosida shakliy tafovutlar mavjud. Qodir baxshida termaning umumiy hajmi olti band to'rtlik va alohida ikki misradan tashkil topgan. Bandlar shakllantirilishi murabba' shaklida bo'lib, baxshi mumtoz she'r nazariyasi qoidalari asosida ijro qilishga harakat qilgan. Birinchi bandning barcha misralari a-a-a-a ko'rinishida qofiyalansa:

Turnalar ucholmas xildan ayrilsa,

Bedovlar yurolmas yo'ldan ayrilsa,

Tog'lar bukchayadi beldan ayrilsa,

Bulbullar sayramas guldan ayrilsa (40-bet).

Bandlarning qolgan qismi a-a-a-b tarzida davom etadi.

Bandning oxirgi misrasi umumiy o'zgarishlar asosida "Bulbullar sayramas guldan ayrilsa", "Agar havo bilan qordan ayrilsa", "Sevib olgan sanam yordan ayrilsa" kabi refren bilan takrorlanadi. Baxshi birinchi bandda turaning-xildan, bedovning-yo'ldan, tog'ning-beldan, bulbulning-guldan ayrilish tasvirini chizishga harakat qilib, har bir holatga alohida izoh beradi. Ularning bir-biri bilan bog'liqligi, aloqadorligi, bu kabi uzviylikning ayriliqqa, judolik sari yuz

tutishiga undaydi. Termaning g'oyaviy mazmuni ayni mana shu kabi maqsadni ifodalashdan iborat.

Umir shoir variantida ayriqliq motivi bir qator misollarda umumiylik holatida tasvirlanib boradi. Ammo unda voqea, voqeaga sabab bo'luvchi holat an'ana qobig'ida tasvirlanganligi bois mazmun bilan umumiy xulosa mantiqan izchil bog'langan. Ikkinchidan, ushbu terma an'anaviy uslubda, epik xotira va bilim doirasida yaratilgan. Qodir baxshida bu holat xususiyatlashadi, individual xarakter kasb etadi. Bandning ikki misrasida havoning (yomg'irning) to'kilishi, bedovning qoqilishi birikmalari mantiqan bir-biriga bog'lanmagan. Ko'kdan havoning to'kilishi rizq, baraka, bedovning qoqilishi yaxshilik alomati emas, albatta. Baxshi esa ushbu holatni qofiyaga uyg'undoshlik asosida keltirsa-da, umumiy mantiq buni talab etmaydi. Bandning qolgan ikki misrasida Umir shoir aytgan mard o'g'ilning sevgan yordan ayrilishi epizodi Qodir baxshida odamzodning erka uldan ayrilish tasviriga o'xshatish sifatida tasvirlangan. Termada ayriqliqning iztirobi kechinmalari ruhiy jarayonga bog'langan holda davom etadi. Ammo tasvirda umumiylikka nisbatan individuallik yetakchilik qilib, voqeaga erkin ijodkorona tus berish tuyg'usi kuchli ekanligi ko'zga tashlanadi. Qodir baxshi ham ustoz an'anasini davom ettirishga harakat qilgan. Ammo uning epik bilimi tashqi omillar ta'sirida o'zgaragan. Bir qator tasvir vositalari yozma adabiyot namunalarini shaklida qat'iyilashib boradi.

Qora baxshi repertuaridan yozib olingan ushbu mavzudagi termada bu kabi holat yanada aniqlashadi. To'g'ri, Qora baxshi voqealarni dastlab Umir shoir tasviriga yaqinlashtirgan. Dastlabki bandlarda Umir shoir ijrosidagi voqealar aynan takrorlansa-da, ammo "tog'" va "tog'lar" so'zlarining birida umumiy tog' tasviri yetakchilik qilsa, ikkinchisida ko'plab tog'larning bukchayib qolish mazmuni mavjud. Umir shoirida ushbu tasvir quyidagicha:

Baland tog'ning boshi qorayib qolar,

Bag'ridagi bo'ktar qordan ayrilsa, - mazmunida ifodalansa, Qora baxshida esa:

Baland tog'lar boshi qolar qorayib,

Bag'ridagi buktar qordan ayrilsa [5].

Voqeaning bir tasviri ikkala baxshida mazmun jihatidan bir xil bo'lsa-da, Umir shoir "baland tog'" deb ta'rif berib an'anani saqlagan, Qora baxshi "baland tog'lar" birikmasini ko'plik shaklda qo'llab, umumiy tus bergan. Albatta, mantiq bu yerda baland tog'ni talab etib, voqelik yakka jarayonni ifodalashga harakat qilgan. Qora baxshi esa vazn talabi nuqtai nazaridan baland tog'lar birikmasini qo'llashni maqsad qilib olgan. Uch baxshi repertuaridan yozib olingan terma mazmuni umumiy jihatdan o'xshash bo'lsa-da,

uning ijro shakli, an'anadagi o'rni va badiiylik mezonlari farqlanadi. Umir shoir variantida an'anaviy poetik ifodalalar, mazmun va shakldagi mutanosiblik va xalqona ruh ustunlikka ega. Bunday xususiyatlarni semantik jihatdan tahlilga tortganda quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi. Umir shoir variantida voqea-muammo sakkiz o'rinda keltirilgan. Qolaversa, "ayrilsa" fe'li ham sakkiz marotaba takrorlanib, ta'kidni kuchaytirgan.

Qodir baxshida esa ayriqliq va uni izohlab keluvchi voqea-muammo jami yigirma ikki o'rinda alohida mazmuni ifodalab takrorlangan. Voqealar ba'zi o'rindalarda alohida-alohida mustaqil mazmuni bildirib kelsa-da, yakuniy xulosada birlashadi. Bandlarning shakliy-kompozitsion sathi tezis, tezis-antitezis va sintez-xulosa bilan yakunlangan. Bandlarning birinchi va ikkinchi misralari o'zaro birikib, bir tezisini ifodalasa, uchinchi va to'rtinchi misralar sintez ko'rinishida xulosalanadi. Shuningdek, ayriqliq so'zi o'n marotaba takrorlangan.

Ikkinchidan, Qodir va Qora baxshilar variantida yozma adabiyot unsurlarining baxshi dunyoqarashi bilan uyg'unlashish holatlarini ko'rish mumkin. Bu esa baxshining savodxonligi, yozma adabiyot namunalaridan xabardorligi, qolaversa, o'zak motivda umumiy qoidalarning individual ijod negizida ifodalanyotgani ko'zga tashlanadi. Ushbu terma matnini Qodir baxshining shogirdlari Qahhor va Shodmon baxshilar repertuaridan yozib olingan namunalariga qiyoslasak, unda butunlay tasvir yanada boshqacha tus oladi. Qahhor va Shodmon baxshilar terma va doston ijro etish usullarini Qodir baxshi Rahimovdan o'rganganlar. Qodir baxshi savodxonligi, doston ijro etish usullarini og'zaki o'zlashtirgan bo'lsa-da, uning repertuarida voqealarga ijodiy baho berish va tasvirda murakkablashtirish holatlari yetakchilik qiladi. Shogirdlari repertuarida bunday xususiyatlar yanada kuchayib boradi. Demak, baxshilarning yozma adabiyot namunalarini bilan tanishuvlari, epik xotira va bilimning tinglovchi dunyoqarashi asosida zamonaviylashib borishi, uning o'rgangan an'analarga qanchalik rioya qilish yoki qilmasligidan qat'iy nazar o'zi bilmagan holda matnga ijodkorlik, shoirlik mahoratidan kelib chiqqan holda yondashayotganligidan dalolat beradi.

**Xulosa va takliflar.** Baxshilar ijrosida terma ijro etish an'anasi kuchayib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, terma ijodkorligiga xos xususiyatlarni professional san'atga olib chiqish harakati yetakchilik qilmoqda. Og'zaki asosda shakllangan, ma'lum an'anaviy usullarda qat'iyilashgan terma ijodkorligi yangicha talqinlarda yoshlar o'rtasida ommalashib, uning zamonaviy matni va shunga mos ijro xususiyatlari keng tus olib, yangicha talqinlarda ijro etilishini kuchaytirmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Лорд А. Сказитель. – М.: Восточная литература, 1994; Чичеров В.И. Школа сказителей Заонежья. – М, 1982; Путилов Б. Эпическое сказительство. – М.: Восточная литература, 1997; Новиков Ю.А. Сказитель и билинная традиция. –СПб, 2000; Райхл К. Тюркский эпос: традиция, формы, поэтическая структура. –М.: Восточная литература, 2008; Zarifov H. Fozil shoir-mashhur dostonchi // Fozil shoir. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 3-kitob. -Toshkent: Fan, 1974; Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. -Toshkent: Fan, 1979.
2. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Ташкент: Фан, 2008; Musaqulov A. Terma // O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik 1-tom. – Tashkent: Fan, 1988. – B.262.
3. Сат. С.М. Текст учителя и текст ученика (Опыт сопоставления художественно– определительных констант тувинского сказания) // Фольклор: Поэтика и традиция. – М.: Наука, 1982. – С.50-70.
4. Kelinoy qo'shiqlari. Yozib oluvchi va to'plab nashrga tayyorlovchi O.Sobirov. –Toshkent: G'afur G'ulom, 1981. –B. 161.
5. Qora baxshi Umirov. Suluv ko'rsatar. Termalar. – Qarshi: Nasaf, 2002.
6. Ochilov. N. Baxshichilik san'ati va epik repertuar. –Toshkent: Fan, 2020.
7. Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. –Toshkent: Mehnat, 1999.
8. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. –Toshkent: Fan, 1978.
9. Mustafaqulov R. Xalq og'zaki ijodida terma va dostonlar talqini. –Termiz, 2023.
10. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. –Toshkent: Aloqachi, 2010.



*Umida RASHIDOVA,*  
Samarqand davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida dotsenti.  
E-mail: [umida\\_rashidova@bk.ru](mailto:umida_rashidova@bk.ru)

SamChTI dotsenti D. Mamirova taqrizi asosida

### SAYFI SAROYI G‘AZALLARIDA QO‘LLANGAN MA‘NODOSH FRAZEMALARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada Sayfi Saroyi ijodida qo‘llangan iboralarning bugungi kundagi frazemalar bilan sinonimlik xususiyati, ular o‘rtasidagi farqlar va o‘xshash jihatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shuningdek, qisman variantlilik va antonimlik xususiyatlari haqida fikrlar bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Sinonimiya, frazeologik sinonimiya, “Guliston bit-turkiy”, variantlilik, antonimlik.

### СИНОНИМИЧНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ГАЗЕЛЯХ ПОЭТА САЙФИ САРАИ, И ИХ СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

В этой статье рассматривается синонимичность современными фразами использованных в творчестве Сайфи Сарай, а также различия и сходства между ними. Также высказываются мнения о свойствах частичной вариативности и антонимичности.

**Ключевые слова:** Синонимия, фразеологическая синонимия, “Гулистан бит-туркский”, вариативность, антонимичность.

### SYNONYMOUS PHRASEOLOGICAL UNITS USED IN THE GHAZALS OF THE POET SAIFI SARAI, AND THEIR SEMANTIC AND PRAGMATIC FEATURES

Annotation

This article examines the synonymy of modern phrases used in Saifi Sarai's work, as well as the differences and similarities between them. Opinions are also expressed on the properties of partial variability and antonymy.

**Key words:** Synonymy, phraseological synonymy, “Gulistan bit-Turkic”, variability, antonymy.

**Kirish.** Tilshunosligimizning eng muhim birliklaridan biri hisoblangan iboralar xuddi so‘zlar kabi sinonimlik, antonimlik, omonimlik, variantlilik kabi xususiyatlarga ega. Sinonimlar to‘g‘risida ba‘zi tilshunoslikka oid adabiyotlarda “bir xil ma‘noli so‘zlar”, ba‘zilarida esa “bir-biriga yaqin ma‘noli so‘zlar” kabi xulosalar keltirilgan. Shuningdek, ayrim mutaxassislar ikki yoki undan ortiq so‘zning sinonimligini belgilashda ma‘no emas, balki ular ifodalaydigan tushuncha asosga olinishi kerakligini ta‘kidlaydilar va sinonimlarni “bir xil yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar” deb baholaydilar[2]. Bu fikrlar faqatgina so‘zga emas, balki boshqa til birliklari, jumladan frazemalarga ham xos bo‘lgan xulosalardir. Sinonimlar ko‘proq ma‘no qirralari bilan bir-biridan farq qiladi.

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo‘lib, iboralar orasida ham keng tarqalgan. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma‘noni anglatishi shart, busiz sinonimiya haqida gapirib bo‘lmaydi. Ayni bir ma‘nolilikni teng ma‘nolik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma‘no o‘zanidan tashqari, o‘ziga xos ma‘no qirrasiga ega bo‘ladi[9].

Sinonimik iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so‘z bilan ifodalangan bo‘lishi mumkin. Ammo bunda iboralardagi tarkibidagi boshqa-boshqa so‘z bilan ifodalangan komponentlar sinonim bo‘lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo‘ladi[10]. Shu fikrning isboti sifatida Amir Temur davrida yashab, ijod etgan S.Saroyning “Guliston bit – turkiy” asarida keltirilgan misollarni tahlilga

tortamiz: Mahbub muhabbati bilan giriftor bo‘lub, ko‘p turli javrlar chekib, farovon jafolarg‘a tahammul qilur edi. Bo‘lusalur ul yaqinda elga muhtoj, Chekib iflos alindan ko‘b mashaqqat. Ey ota, bali, ranj chekmayin ganj hosil bo‘lmas. Faqir yostuqi ustuna kelib aytti: «...men yayog‘ yurub, zahmat chekib o‘lmadin; dag‘i sen teva ustunda o‘turub o‘ldung». Javr chekmoq, mashaqqat chekmoq, ranj chekmoq, zahmat chekmoq frazemalari bugungi kunda faol qo‘llanayotgan azob chekmoq iborasining ma‘nodoshlari hisoblanadi: Ko‘zlarimiz xira tortib, tizzalarimiz og‘riqdan azob chekardi. [Tog‘lar ham sado berdi, 2021]. O‘TSO‘Lda azob, jabr, ranj, zahmat so‘zlari o‘zaro sinonim ekanligi ko‘rsatilgan. Mashaqqat so‘zi esa O‘TILda qattiq qiyinchilik, og‘irchilik, zahmat ma‘nolarini anglatishi ifodalangan. Demak, bu so‘z ham yuqoridagi so‘zlar sinonimlari qatoriga kiradi.

Tilimizdagi har bir so‘z o‘zining tarixiga ega. Xuddi so‘zlar kabi iboralar ham bundan mustasno emas. Oldindan qo‘llanilib, ma‘lum bir o‘zgarishlarni boshidan kechirib, hozirgi kunda qo‘llanilayotgan iboralarning sinonimiga aylanib qolgan yoki deyarli o‘zgarishsiz yetib kelib, tilimizda faol ishlatilayotgan iboralar ham mavjud. Sayfi Saroyi Sad‘iy Sheroziyning “Guliston” asarining tarjima qilgan va bu asardan ilhomlanib o‘zining “Guliston bit-turkiy” nomli asarini yozgan. 2022-yilda chop etilgan “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da ushbu asardan ko‘plab tarixiy misollar keltirilgan. Masalan shunday misollardan biri qiynalmoq ma‘nosini beruvchi Sayfi Saroyi “Guliston bit-turkiy” asarida keltirilgan iboralar: Yomon qiliqli kishi bir dushman alinda giriftor bo‘lub tururkim, aning javrindan bag‘ri qon bilan

to'lub turar. Aning uchunkim, bu ev ne'mati bilan beslanib tururman dag'i oz javr ko'rub, ko'b yilg'i ne'mat haqin unutup, vafosizlik etmak muruvvat degul. Keltirilgan bu iboralar hozirgi kunda tilimizda qo'llanilayotgan jigari suv bo'lmoq iborasi bilan sinonim hisoblanadi: Paxta deb jigarim suv bo'ldi-yu, makkajo'xoriga nima bor. [Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli]. Misollardan ko'rinib turibdiki, jigari qon bo'lmoq va bag'ri qon bilan to'lmoq frazemalarining ta'siri javr ko'rmoq frazemasini ifodalagan ta'sirdan kuchliroq taassurot uyg'otadi.

Hozirda badiiy asarlar tilida va so'zlashuvda keng qo'llanilayotgan joni halqumiga kelmoq iborasiga O'TFLda quyidagicha ta'rif berilgan: 1) o'lar holatga yetmoq; 2) chidami tugab yashashdan bezor bo'lmoq. Aslida bu ibora ancha qadimiyroq. S.Saroyi "Gulistoni bit-turkiy" asarida joni burnina kelmoq frazemasini keltirilgan: Bir kun bir kecha suv ichinda joni burnina yetib yoqag'a chiqdi. Ayni damda biz qo'llayotgan joni halqumiga kelmoq iborasi shu iboraning davrlar o'tishi natijasida o'zgargan shakli bo'lishi ham mumkin. Ammo o'sha davrda qo'llangan joni burnina yetmoq iborasi hozirgi shaklidan ko'ra ancha ta'sirliroq bo'lgan, yan'i joni burniga yetmoq tarzida kelishi balki o'sha davrdagi zamona qiyinchiliklari natijasida shunday ko'rinishda qo'llangandir. Joni halqumiga kelmoq esa yashashdan bezor bo'lish darajasini joni burnina yetmoq iborasidan ko'ra kamroq ifodalaydi. Bundan tashqari Xorazmiy ijodida jona kelmoq iborasi ham mavjud bo'lib, uning ma'nosi O'TFLda quyidagicha izohlangan: azobning haddan oshishi natijasida xunob bo'lmoq, o'lar holatga kelmoq. Umr mehnat bila poyona keldi, Ko'ngul javrung alindin jona keldi [Muhabbatnoma].

Hayratlanmoq ma'nosini anglatuvchi yoqasini ushlamoq iborasi tilimizda faol ishlatiladigan frazema hisoblanadi. — Bolangga taqib qo'y, hamma yoqasini ushlab, hayron bo'lib maqtaydi, ilohim ko'z tegmasin! — dedi. (Avlodlar dovoni 2008). Ayni shunday ma'noni bildiruvchi ko'z - ko'r, quloq - kar iborasi S.Saroyi "Suhayl va Guldursun" asarida uchraydi. Temur Urganja tortib keldi lashkar, Ko'rub ko'z - ko'r, bo'lib qoldi quloq - kar.

O'TFLda "xasis, ziqna, ochko'z, qurumsaq" ma'nolarini anglatuvchi tilimizda qo'llanilayotgan bir tiyin ustida ming yumaloq frazemasini keltirilgan. Bu iboraning ma'nosini iboraning o'zidan sezish qiyin emas: Ammo xalq hamma narsaga ishonishi mumkin edi-yu, lekin bir tiyin ustida ming yumalaydigan boydan bunday gap chiqishiga ishonmas edi [M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha]. Bu ibora S.Saroyi ijodida uchraydigan sufrasin ochuq ko'rmaslik iborasiga sinonim hisoblanadi: Filjumla, kim ersa eshikin dag'i sufrasin ochuq ko'rmaslik. Sufra so'zi supra so'zining varianti sanaladi. Supra - [a. safar ozuqasi; tushlik, dasturxon, supra] xamir yoyish uchun mo'ljallangan, odatda oshlangan teridan qilinadigan dasturxonsimon ro'zg'or buyumi [O'TIL]. Sufra ochiq bo'lmaslik bu unni ishlatib qo'yishdan qo'rqish, ya'ni unni tejash uchun deyarli juda kam ochadigan insonga nisbatan qo'llanilmoqda. Bu holat esa o'z-o'zidan xasis degan ma'noni bildiradi.

S.Saroyi "Gulistoni bit-turkiy" asarida ma'lum-mashhur bo'lmoq ma'nosiga teng bo'lgan jahonda doston bo'lmoq, oti tilda yurmoq iboralarini qo'llangan hamda ular hozirda faol iste'molda bo'lgan nomi chiqmoq, dong'i ketmoq frazemalariga sinonim hisoblanadi. Shom elinda fitna qo'btu bir zamon, Uylakim, bo'ldi jahonda doston. Eygu oti doimo tilda yurur. Biz yaxshi bilamizki, doston barcha xalqlar og'zaki ijodida keng tarqalgan bo'lib, uni butun dunyo ahli bilishadi. Jahonda doston bo'lmoq shu asosdan paydo bo'lgan. Jahonni oting tutmoq esa qaysi mamalakatda bo'lishidan qat'iy nazar ismini hamma bilishadi, olti tilda yurmoq o'zga til vakillari orasida ham ma'lum-mashhur bo'lmoq.

Joni halak iborasi badiiy asarlarda, balki nutqimizda ham unumli foydalaniladigan halovati yo'q ma'nosini ifodalashda foydalaniladigan frazema hisoblanadi. Halovatsizlik ayni damda paydo bo'lgan tuyg'u emas. XIV asrda halovati yoqlik, halovatsizlik ma'nosi beruvchi ne kunduz sabri bor edi, ne kecha qarori iborasi ishlatilgan. S.Saroyi ijodidan dalil keltiramiz: Og'zi taomdan, ko'zi uyqudan kesilib, ne kunduz sabri bor edi, ne kecha qarori. Bu yerda fe'l ibora va sifat ibora yonma-yon kelishi natijasida ma'no yanada kuchaygan. Biri fe'l yana biri sifat ibora bo'lishiga qaramasdan ularni umumiy ma'no halovatsizlik birlashtirib turibdi. Ko'zi uyqudan kesilmoq - halovatsiz bo'lmoq, ne kunduz sabri bor edi, ne kecha qarori esa halovati yo'q ma'nosini ifodalamoqda. Ayni shu ma'noni beruvchi frazemani S.Saroyi zamondoshi bo'lgan Mavlono Is'hoq ijodida ham uchratishimiz mumkin: Maningtek necha oshiqqlar sening husning xayolinda Boshi yostuqqa tegmagay, to'shak ham ko'rmaslik yoni. Yoni ham to'shak ko'rmaslik bu uyqusi kelmaydigan insonlarga ishlatiladigan. Uyqusizlik esa ko'proq huzur-halovati yo'qolgan insonlarda bo'ladi.

Kibrga berilgan, ko'rib ko'rmaslikka oladigan kishilarga nisbatan ko'zini yog' bosmoq, ko'zini shira bosmoq kabi frazemalarning nutqimizda va ijodkor yozuvchi, shoirlarimiz asarlarida ishlatilganligining guvohi bo'lamiz. S.Saroyi "Gulistoni bit-turkiy" asarida qo'llangan ko'zina kibr yo'l bog'lamoq iborasi o'z tarkibida ko'z komponenti qatnashganligi jihatidan bugungi kundagi sinonimiga o'xshasa, yog', shira komponenti kibr so'zi bilan o'z o'rnini o'zgartirganligi jihatidan farq qiladi. Ijodkor asarida qo'llangan bu ibora ko'ziga tog'ridan to'g'ri kibr to'lgan shaklida ifodalangani sababli bu iboraning ma'nosini tushunishda qiyinchilikka duch kelmaymiz: O'zindan mudda'i g'ayrin ko'ra olmas, Ko'zina kibr chun bog'lab turur yo'l. Hozirgi kundagi sinonimiga misol: E, ko'rishmaymizmi mundaq! Ko'zingizni yog' bosibdi-da. [P. Qodirov. Uch ildiz].

Ko'z komponentli iboralar haqida gap ketganligi tufayli fikrimizni S.Saroyi ijodida qo'llangan yana bir shunday komponentli frazema bilan davom ettiramiz: 1. Ul ayyomda Hind iqlimindan bir hoziq hakim kelib, iloj qilib, ko'zsuzlar ko'zun ochar edi; 2. Chekib yo, otting o'q dushman yuzina, Ko'zung och, o'qina qarshi o'turdung. "Gulistoni bit-turkiy" asarida qo'llangan ushbu misollardan ko'rishimiz mumkinki, ko'zun ochmoq frazemasini omonimlik xususiyatga ega. O'TFLda keltirilishicha, bu iboralarining birinchi ma'nosi ko'z nurini qaytarmoq, ikkinchisi hushyor bo'lmoq degan ma'noni anglatishi keltirilgan. Hozirda ham ko'zun ochmoq iborasiga shakl jihatdan o'shaydigan ko'zini ochmoq iborasi mavjud. Ko'zun ochmoq iborasi yillar o'tishi natijasida tarkibidagi otning egalik-kelishik kategoriyalari o'zgarishi natijasida ma'nosi va shakli bir-biriga juda yaqin bo'lgan ko'zini ochmoq iborasiga aylanib qolgan: Ayni shu voqea nemis jamiyatining ko'zini ochdi, desak xato bo'lmas. [OAB (02.01.2024)]. Bunda qo'llangan iboraning izohi O'TFLda hushyoq qilmoq, yaxshi-yomonni tushunadigan qilmoq shaklida berilgan. Ko'zun ochmoq iborasi hozirda faol qo'llanishda bo'lgan ko'zini ochmoq iborasining tarixiy varianti desak ham bo'laveradi. Bundan tashqari, ko'z qo'yib, quloq qo'yimoq iborasi ham ijodkor asarida qo'llangan va yuqorida qo'llangan iboraning ikkinchi ma'nosiga sinonim bo'la oladi. O'TFLda bu iboraga astoydil, kirishmoq, hushyor bo'lmoq deb izoh berilgan. Qo'llanish hajmi va ma'no jihatdan ham olib qaraydigan bo'lsak, bu frazemaning ta'sir kuchi ko'proq: ..xizmatka mulozim dag'i farmonga ko'z tikib, quloq qo'yub turur. Bunday sinonimlarning qo'llanilganligi S.Saroyi ijodida iboralar keng o'rin tutganligidan dalolat beradi.

Sinonimlik xususiyati bilan birgalikda S.Saroyi "Gulistoni bit-turkiy" asarida frazemalar o'rtasida antonimlik xususiyati ham ko'zga tashlanadi. Masalan, qoniqmoq va



qoniqmaslik ma'nolarini beruvchi shukrin qilmoq va ko'zi to'lmaslik frazemalarini uchratishimiz mumkin: Ne'mat shukrin qilib, xizmat yerin o'pub, Xasorat uzrin tilab, ketar vaqtin aytti; Agar eshikda aning uchun qo'yub tururlarkim, tilanchilar alindan jonina yetib tururlar dag'i muholi aql erurkim, agar yozidag'i barcha qumlar inju bo'lsa, tilanchilarning ko'zi to'lmag'ay. Hozirda ham uslubiy betaraf bo'lgan shukur qilmoq iborasi keng ishlatiladi. Qanoat hosil qilmoq iborasi ham shu ma'noni beradi, faqat unda badiiylik bo'yog'i ustunlik qiladi.

**Xulosa.** XIV asrda yaratilgan bo'lishiga qaramasdan S.Saroyi ijodidagi ba'zi bir iboralar hozirgi kunda

qo'llanilayotgan frazemalarga shaklan o'xshash, ba'zi birlari esa umuman bir-biridan farqlanadi. O'sha davrda ishlatilgan bir iboraning sinonimlari hozir ishlatilayotgan sinonimlardan ham ko'proq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari ijodkor asarlarida antonimlik, variantlilik va omonimlik xususiyati ham o'z aksini topgan. Biz baz'i bir iboralar misolida ijodkor asarlaridagi va o'sha davrdagi frazeologik birliklar xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik. Albatta, kelgusi ishlarimizda mazkur mavzuni chuqurroq ochib berishga harakat qilamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Abjalova M. A., Rashidova U.M. Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari // O'zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. –Samarqand, 2023. 50-54-b.
2. H. Dadaboyev., M. Abjalova., U.Rashidova. O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug'ati. – Toshkent: 2023. Bookmany print. –810 b.
3. O'zbek tili izohli lug'ati. II tom. – Toshkent: 2006.
4. Rashidova U. M. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili //Fil. fan. diss. avtoreferati, Samarqand. – 2018.
5. Rashidova U. M. Semantic-pragmatic analysis of somatic expressions in English (in the case of eye, hand and heart-shaped expressions). Abstarct for the PhD. science. – 2018.
6. Rashidova U., Suyunova D. Comparative analysis of somatic phraseological units in russian and uzbek languages. <https://cyberleninka.ru/article/n/comparative-analysis-of-somatic-phraseological-units-in-russian-and-uzbek-languages>
7. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. – Toshkent: 1986. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –164 b.
8. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.
9. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tili izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978.– 407 b.
10. Sh. Rahmatullayev., N.Mahmudov., Z.Xolmanova., I. O'razova., K.Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: 2022. –636 b.
11. Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси. Монография. -Тошкент, 2016.



UDK 811.11

*Nigora TASHLANOVA,*  
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali dotsenti v.b*  
*E-mail: nigoratashlanova7@gmail.com*

*“O‘zbek tili va gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti Sh. Xolmatov taqrizi asosida*

**RANGLI LUG‘ATLARDAGI TOPONOMIK TERMINLARNING O‘XSHASHLIKLARI VA FARQLARI TAHLILI  
(INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)**

Annotatsiya

Toponomik terminlar yoki joy nomlari geografik, madaniy va tarixiy kontekstlarda muhim ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardir. Ular odatda asosiy geografik ob’ektlar yoki madaniy joylar uchun ishlatiladi. Ushbu maqolada, mashhur joy nomlari misolidagi tarjimalar va ularning lingvistik jihatdan o‘xshashliklari va farqlari tahlil qilindi va Rangli lug‘at da ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi joy nomlariga alohida e’tibor qaralib, toponimik atamalar (joy nomlari) o‘rganilib, undagi nomlarning til tuzilmalari, etimologiyasi va madaniy ahamiyatining o‘xshashligi va farqlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Toponimlar, ingliz, o‘zbek, rus tillari, semantika, lug‘at, nomlari, qiyosiy tilshunoslik, etimologiya, rangli lug‘at, joy nomlari.

**ANALYSIS OF SIMILARITIES AND DIFFERENCES IN TOPONYMIC TERMS IN THE “COLORFUL  
DICTIONARY”**

**(A CASE STUDY OF ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES)**

Annotation

Toponymic terms or place names are words that carry significant meaning in geographical, cultural, and historical contexts. They are typically used to denote primary geographical features or cultural landmarks. This article analyzes translations of well-known place names and examines their linguistic similarities and differences. Special attention is given to place names in English, Uzbek, and Russian languages found in the “Colorful dictionary”, exploring toponymic designations (place names), studying the linguistic structures, etymology, and cultural significance similarities and differences.

**Key words:** Toponyms, english, uzbek, russian languages, semantics, dictionary, names, comparative linguistics, etymology, rangli lug‘at, place names.

**РАССМОТРЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ И РАЗЛИЧИЙ ТОПОНИМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В СЛОВАРЯХ (НА  
ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО, УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ)**

Аннотация

Топонимические термины или названия мест представляют собой слова, обладающие значимым смыслом в географическом, культурном и историческом контекстах. Они часто используются для обозначения основных географических объектов или культурных мест. В данной статье проанализированы переводы известных топонимов и изучены их лингвистические сходства и различия. Особое внимание уделено топонимическим обозначениям на английском, узбекском и русском языках в “цветной словарь”, исследованы топонимические ассоциации (названия мест), изучены структуры названий, их этимология и культурная значимость.

**Ключевые слова:** Топонимы, английский, узбекский, русский языки, семантика, словарь, названия, сравнительная лингвистика, этимология, рангли лугат, названия мест.

**Kirish.** Tadqiqotning dolzarbligi asosan, lingvistik tipologiya muammolarini hal qilishda qulay imkoniyat yaratishida ko‘rinadi. Jumladan, “Madaniy o‘zgaruvchanlik”, “semantik diapazon va o‘ziga xoslik, tarjima muammolari (Joylar nomi bilan atalgan ranglarning boshqa tillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlari bo‘lmasligi mumkin, bu esa tarjimada madaniy va semantik boylikni yo‘qotishiga olib keladi)”, “tarixiy evolyutsiya (tildagi rang atamalarining vaqt o‘tishi bilan evolyutsiyasi madaniy ta’sirlar va jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi)”, “leksik bo‘shliqlar va o‘zlashtirishlar”, “idrokdagi farqlar (ushbu pertseptiv farqlarni tushunish rang nomlarini to‘g‘ri talqin qilish va tarjima qilish imkoniyatini yaratadi)”, “standartlashtirish va zamonaviy foydalanish”, “lingvistik tipologiya (qiyosiy lingvistik tadqiqotlar tillarni qanday turkumlash”, “ranglarni nomlashda tipologik farqlarni aniqlash yoki ayrim tillarda, ranglarni madaniy va kognitiv omillarga qarab turlicha tasniflash masalalarining mavjudligi).

Umuman olganda, toponimlar yoki joy nomlari geografik, tarixiy va ijtimoiy, yozma manbalarni o‘zida jamlagan til va madaniy merosning boy gobelenini ifodalaydi. Tadqiqot “rangli lug‘at” tomonidan taqdim etilgan tushunchalardan foydalanadi, bu toponimlar tarkibiga kiritilgan leksik o‘xshashliklar va madaniy merosni o‘rganish uchun keng qamrovli manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nomlarni qiyosiy ob’ektivlik orqali ko‘rib chiqish orqali biz ularning til tuzilishi, etimologiyasi va madaniy ahamiyatini belgilaydigan o‘xshashlik, farqlar va asosiy o‘ziga xosliklarni ochish maqsadi ilgari surilgan [1].

Kishilar oq-qoranii tanib tirikchilik qila boshlashibdiki, tevarak atroflaridagi yerlarni, daryo-ko‘llarni, tog‘lar-u, qiradirlarni, o‘tloq-yaylovlarni ma’lum bir nom bilan atab kelganlar. Dastlabki toponimlar oddiy turdosh otlardan farq qilmaydigan sodda nomlar edi. Atrof tabiiy muhiti haqidagi tasavvur kengayib, bir buloqni ikkinchisidan, bir o‘tloqni boshqasidan, yaqindagi tepalikni narigisidan farqlash ehtiyoji tug‘ila boshladi [3]. Masalan, “Kattabuloq — Kichikbuloq”

(Toshkent viloyatidagi tuman), “Qiziltepa — Ko'ktepa” (Navoiy viloyatining kichik tumanida joylashgan arxeologik obyekt sifatida taniladi (III—IV dan VI—VIII asrlar oralig'ida mavjud bo'lgan), “Tuyayaylov — Echkiyaylov” (Farg'ona viloyati va Qirg'iziston oralig'ida joylashgan noyob tog'li va ziyoratgoh maskani) singari murakkabroq joy nomlari paydo bo'lgan. Ijtimoiy ong rivojlangan sari tushunchalar soni ortib geografik nomlar grammatik va semantik jihatdan murakkablasha brogan [12]. Hali yozuv paydo bo'lmagani sababli ibtidoiy zamondagi geografik nomlar bizgacha yetib kelmagan. O'rta Osiyoning, jumladan O'zbekistonning Xorazmiy, Sug'diy, qadimgi turkiy yozuvlarda yetib kelgan toponimlari ko'p emas [1]. Yunon manbalarida tilga olingan geografik nomlarimiz ham sanoqli [13]. Milodning birinchi ming yilligi oxiri — ikkinchi ming yilligi boshlari mintaqamiz uchun yozma manbalarda ko'hna toponimlar ko'plab qayd qilingan davr edi.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, joy nomlari hududning o'tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o'simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari kabilar haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari, etnotoponimlar tarkibida ishtirok etgan etnonimlar orqali ma'lum bir hududda qaysi qabila, urug' vakillari yashaganligi, ularning turmush tarzi haqida ma'lumotga ega bo'lish ham mumkin. Toponimning ma'nosini bilib olish orqali muayyan hudud haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish uchun toponimik tadqiqotlar olib borish va joy nomlari lug'atini tuzish kerak bo'ladi. Bugungi kunda bunday lug'atlarga ehtiyoj nihoyatda katta [3].

Joy nomlari tarixini o'rganishda toponim uchun asos bo'lgan so'zning tarixiy-genetik nuqtai nazardan qaysi tilga mansubligini aniqlash va uning ma'nosini ochib berish muhim ahamiyatga ega. Joy nomlari aniq bir tarixiy davrda paydo bo'lib, kelib chiqishi, jamiyat hayoti, ma'lum bir hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili bilan chambarchas bog'liq [5]. Dunyoning ko'plab nuqtalarida toponimlarning o'rganilishi vujudga kelishi o'z tarixiga egadir. Misol uchun, Buyuk Britaniyaning toponimiyasi ko'p asrlar davomida rivojlanib kelgan. Mamlakat bo'ylab mintaqaviy xilma-xillik saqlanib qolmoqda va ko'plab joy nomlari muhim tarixiy va ijtimoiy-madaniy ma'lumotlarga ega. A. D. Mills Britaniya orollaridagi joy nomlari haqida gapirganda, ularning ajoyib lingvistik boyligi va xilma-xilligini ta'kidlaydi. Eng qadimgi ingliz joy nomlari neolit davrida orollarda yashagan xalqlar gapiradigan hind-Evropa tiliga borib taqaladi [2].

Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq saqlangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi [1].

Toponimika shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko'llar, tog'lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o'rganar ekan, bu fan tilshunoslarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi. Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Albatta, so'zni tilshunoslik — lingvistik fani o'rganishi kerak. Demak, toponimika atqali otlarni o'rganadigan onomastika fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Ikkinchi tomondan, geografik nomlar xaritaning eng muhim elementi sifatida

biron mamlakat yoki olka tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Ana shu nuqtai nazardan toponimikani geografik fanlar jumlasiga kiritish mumkin. Shu bilan birgalikda, joy nomlari jamiyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Joylarga qanday nom berish avvalo jamiyatning muayyan bosqichdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi [2].

**Adabiyotlar tahlili.** So'nggi 40—45-yil ichida Toponimlarning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi, Toponimlarning sohasida bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi. Bunda rus olimlaridan V. A. Nikonov, A. V. Superanskaya, A. P. Dulzon, E. M. Murzayev, V. N. Toporov, O. N. Trubachev, o'zbek nomshunoslaridan H. Hasanov, E. Begmatov, T. Nafasov, S. Qorayev, Do'simov va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. O'zbekiston toponimiyasi 20-asrning 60-yillaridan ilmiy asosda o'rganila boshlandi: Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo, Samarqand, Margilon, Qo'qon, Buxoro, Bo'sun, Mirzach'o'l, Shahrisabz, Nurota hududlaridagi joy nomlari tadqiq etildi, Toponimlarga oid bir necha lug'atlar, risola va monografiyalar nashr etildi. H. Hasanovning “Yer tili” (1977), S. Qorayevning “Geografik nomlar ma'nosi” (1978), 3. Do'simovning “Xorazm toponimlari” (1985), T. Nafasovning “O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati” (1988), N. Oxunovning “Joy nomlari ta'biri” (1994) shu va shu kabi bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan.

Toponimiya xalqlarning tarixiy o'tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tillarning o'tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yo'llari va shu kabi geografiyasini tavsiflashga yordam beradi. Toponimlarning amaliy transkripsiyasi, ularning dastlabki asosga ko'ra hamda bir xil yozilishi, boshqa tillarda berilishi toponimiyaning ning amaliy jihati hisoblanadi. Toponimlar yirik yoki mayda ob'yektlarning nomlari ekanligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga ajratiladi: makrotoponimlar — keng hududlar, katta ob'yektlar (materiklar, okeanlar, tog'lar, cho'llar, daryolar, shaharlar, qishloqlar va shu kabi)ning atqali otlari; mikrotoponimlar — kichik ob'yektlar (jarliklar, tepaliklar, quduqlar, ko'chalar, qo'rg'onlar va shu kabi) ning atqali otlar o'rganilgan [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Toponimlarni o'rganish avvalo terminlarni o'rganishdan boshlanishi lozim, chunki har bir joy nomi asosida geografik terminlar yotadi. Lekin toponimlarni bunday tasnif qilish shartli, chunki ko'pincha makrotoponim bilan mikrotoponimni farqlash qiyin. Turli xil geografik ob'yektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariga muvofiq ravishda toponimlarning quyidagi bo'limlari ajratiladi:

- gidronimika — suv havzalari;
- daryo, kanal, soy, ariq, buloq, ko'l kabilar nomlarini o'rganuvchi soha;
- oykonimika — aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, ko'cha, ovul, qo'rg'on nomlarini o'rganuvchi soha;
- oronimika — yer yuzasining relyef shakllari: tog', cho'qqi, qoya, qir, tepa, qiya nomlarni tekshiradigan soha;
- urbanonimika — shahar ichidagi har qanday ob'yektlar nomlarini o'rganuvchi soha;
- kosmonimika — Yerdan tashqaridagi ob'yektlar (osmon jismlari) nomlarini o'rganuvchi soha va boshqalar.

**Tahlil va natijalar.** Toponimika shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko'llar, tog'lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o'rganar ekan, bu fan tilshunoslarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi. Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Albatta, so'zni tilshunoslik — lingvistik fani o'rganishi kerak [1]. Demak, toponimika atqali otlarni o'rganadigan onomastika fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Ikkinchi tomondan,

geografik nomlar xaritaning eng muhim elementi sifatida biron mamlakat yoki oila tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Geografik terminlar toponimlar (joy nomlari) tarkibida ishtirok etadi va uning (ob'yektning) turini belgilab beradi. Bunday terminlar toponimik terminlar (topoterminlar) deb yuritiladi [4].

Dunyodagi ko'p joy nomlari tarkibida ma'nosi jihatdan bir xil bo'lgan terminlar ishlatiladi, faqat turli tillarda turlicha jaranglaydi [2].

Masalan, reka, missi, rio, river, hammasi "daryo" degan ma'noni beradi.

Toponimik terminlar, yani joy nomlari, Ingliz, O'zbek va Rus tillarida va ularning rangli lug'atlarida o'xshash va farqli bo'lishi mumkin. Bunga 1-jadvaldagi turli joy nomlari misolida ko'rib chiqamiz [10].

## 1-jadval

Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi joy nomlarining o'xshashliklari va farqlari

#	Uzbek	English	Russian	Color Quality
1	Qizil maydon	Red River	Красная река	Red
2	Qora tog'	Black Mountain	Черная гора	Black
3	Kumush tog'	Silver Mountain	Серебряная гора	Silver
4	Ko'k chashma	Blue Waterfall	Голубой водопад	Blue
5	Qora o'rmon	Black Forest	Черный лес	Black
6	Qizil Qala	Red Fort	Красный форт	Red
7	Oltin Darvoza	Golden Gate Bridge	Золотые ворота	Golden
8	Oq uy	White House	Белый дом	White
9	Binafsha tog'i	Violet Hill	Фиолетовый холм	Violet
10	Firuz ko'l	Turquoise Lake	Бирюзовое озеро	Turquoise
11	Moviy tog'	Purple Mountain	Пурпурная гора	Purple
12	Jigach daryo	Brown River	Коричневая река	Brown
13	Sulton Ahmad ota masjidi	Blue Mosque (Istanbul, Turkey)	Синяя мечеть	Blue
14	Oq tog'	Silver Mountain	Серебряная гора	Silver
15	Zog'ona urug'	Emerald Forest	Изумрудный лес	Emerald

## 1. Ingliz tilidagi toponomik terminlar:

Ingliz tilida daryolar nomlari, masalan, "Thames River" (Tamiza daryosi) ko'p o'qilgan nom. Bu nom qisqartirilgan "River Thames" (Tamiza daryosi) dan ajralib turadi. Ingliz tilida ko'p joy nomlari shuningdek aks etadigan mavhum bo'lsa-da, ularning kelib chiqishi, o'zlarini anglashadi.

## 2. O'zbek tilidagi toponomik terminlar:

O'zbek tilida daryo nomlari odatda "daryo" degan so'z bilan qo'shiladi, masalan, "Amudaryo" yoki "Sherobod Daryosi". O'zbek tilidagi joy nomlari odamlar uchun eng ma'qul va ma'naviy bo'lmagan, ammo ularning aks etish usullarida rus va ingliz tillari bilan bir vaqtning o'zida turibdi.

## 3. Rus tilidagi toponomik terminlar:

Rus tilida daryo nomlari odatda "reka" so'zining o'rni ishlatiladi, masalan, "Volga Reka" (Volga daryosi). Rangli lug'atlarda rus tilida joy nomlari turli xil tarzda joylashgan bo'lishi mumkin.

Toponimik terminlar o'z navbatida tili, madaniyati, geografik sharoitlari va tarixiy o'zgarishlari e'tiborida o'zgarishi mumkinligi sababli har bir tilda farqliliklar ko'rinadi. Joyni nomlashning eng muhim tomoni, yo'l nomlaridagi o'zgarishlar bo'lishi, chunki ular ob-havo va tabiiy joylardek ko'p yuzlab odamlar tomonidan ishlatiladi [7].

Toponimik terminlar yoki joy nomlari, xalq adabiyotida joy ichidagi joylarga yoki geografik joylarga ishlatiluvchi nomlar bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu nomlar do'stlik, shahar, chorva, daryo, tog', tepa, qishloq, vodiy, ko'l, o'rmon, tuman, viloyat kabi geografik joylarni ifodalashda foydalaniladi.

## 1. O'xshashliklar:

O'xshashliklar topografiyada joyning turini, ko'rinishini yoki geografik manzarasini ko'rsatishi mumkin.

Misol uchun "Shokhriston" va "Shahrison" nomlari turli davlatlarda bo'lajak joylar uchun foydalanilishi mumkin [3].

Yana, o'xshashlik joy nomining qo'llaniluvchilarga ko'rsatishga qaratilgan markazi, avtomobil, metro, elektr, railway da yo'l nomini ko'rsatish mumkin. Misol uchun "Kvartal 5", "Ploschad Lenina" yoki "Metro Station" nomlarida ko'rinish mumkin.

Quyidagi misollar joy nomlari uchun quyidagi lug'atlari keltiradi:

## 1. Ingliz tilidagi rangli lug'at:

Oxford English Dictionary (OED)

Collins English Dictionary

Merriam-Webster Dictionary

## 2. O'zbek tilidagi rangli lug'at:

O'zbek tilidagi lug'atlar, masalan, Ibrohim Yunusovning "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining qiziq idiomalari" va boshqa mobil ilovalar.

**Xulosa.** Bu lug'atlar joy nomi to'g'risidagi tarixiy, madaniy, geografik ma'lumotlarni o'rganish uchun aynan shu muqobil bo'lib vosita va shuningdek, har bir lug'atning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi joy nomlari o'xshashlik va farqlari turli geografik, tipografik va madaniy o'zgarishlar ta'sirida o'zgaradi. Joy nomlari ko'p ma'noda bo'lsa-da, ularning ifoda qilish, joyi aks etish usullari bir qancha farqlanish bo'lishi mumkin. Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi daryo nomlarining qiyosiy lingvistik tahlili tilning geografik ob'ektlarga oid madaniy tasavvurlarni qanday aks ettirishi va shakllantirishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tarjima amaliyotlari, fonologik moslashuvlar va madaniy ahamiyatlarni o'rganish orqali ushbu tadqiqot til, madaniyat va geografik jarayonlar o'rtasidagi dinamik aloqalarni ta'minlaydi va shuningdek, tillar xilma-xilligini qadirlashni, butun dunyo bo'ylab toponimlar tarkibiga kiritilgan madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilishga hissa qo'shadi.

## ADABIYOTLAR

1. Isakova, Z. Z. (2022). Comparative study of expressing value as a semantic category in english and Uzbek languages by grammatical means. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(6), 84-88.
2. Статейнов, А. Топонимика.
3. Akhmadovna, R. M. The classification of phraseological units with onomastic components. *Scientific reports of Bukhara State University-2020*.
4. Akhmedovna, I. J., & Sodikovna, G. K. (2021). Problems of linguo-cultural analysis of phraseological units in the French and Uzbek languages. *Linguistics and culture review*, 5(S2), 1291-1307.

5. Pangereyev, A. S., Umatova, Z. M., Azamatova, A. K., Ibrayeva, Z. K., Karagoishiyeva, D. A., Umarova, G. S., & Kenbayeva, A. Z. (2023). Ethnocultural Originality of Color Toponyms in Turkic Folklore. *Eurasian Journal of Applied Linguistics*, 9(3), 216-225.
6. Makhmudovuch, K. A., Amirovich, K. S., Fayzulla, B., Rakhmatullaevich, K. G. R., & Marguba, K. (2019). Aspects of Research the Connotation in Compounds with Color Component (on the Example of Uzbek Place Names). *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 4619-4624.
7. Yashnarbekova, S. R. (2022). THE NOTION AND THE STRUCTURE OF THE ONOMASTIC SCOPE OF THE UZBEK LANGUAGE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 46-50.
8. MEIRBEKOV, A. (2022). PHONOSEMANTIC CHARACTERISTICS OF KAZAKH TOPONYMS. *Liberty Publisher*.
9. Ibragimovna, G. T., & Jaxonova, N. Natural Language Modeling Issue.
10. Pangereyev, A. S., Kabylov, A. D., Aldashev, N. M., Umatova, Z. M., Suleimenova, Z. Y., & Shuriyeva, A. B. (2023). Epic toponyms as carriers of a linguocultural code. *Eurasian Journal of Applied Linguistics*, 9(1), 13-23.
11. Kambarova, M. M. (2021). Semantic and functional features of lexical units in the field of architecture and construction in English and Uzbek. *Linguistics and Culture Review*, 5(1), 64-74.
12. Исмагова, Н. (2024). Топонимик so'zlarning o'zbek tili lug'atlarida ifodalanishi. *Общество и инновации*, 5(5/S), 144-148: Выражение топонимических слов в словарях узбекского языка | Общество и инновации (inscience.uz)
13. Madina, M., Muhlisa, M., & Zohid, A. (2024). TOPONIMIKANING ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 5(1), 235-239.



**Gulruh TILLABAYEVA,**  
*Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*  
*E-mail: gulruh@mail.ru*

*DSc, dotsent D.Madumarova taqrizi asosida*

### “CLOTHES/CLOTHES” CATEGORY

Annotation

This article discusses the concept of category, etymological, semantic and stylistic features specific to the clothing category.

**Key words:** Category, classification, categorization, stimulus, concept, conceptsphere, clothing, dress, figurative meaning.

### КАТЕГОРИЯ «ОДЕЖДА/ОДЕЖДА»

Аннотация

В статье рассматривается понятие категории, этимологические, семантические и стилистические особенности, характерные для категории одежды.

**Ключевые слова:** Категория, классификация, категоризация, стимул, концепт, концептосфера, одежда, платье, переносное значение.

### “KIYIM/LIBOS” KATEGORIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kategoriya tushunchasi, kiyim/libos kategoriyasiga xos etimologik, semantik va uslubiy xususiyatlar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Kategoriya, tasnif, kategoriyalashtirish, stimull, konsept, konseptosfera, kiyim, libos, majoziy ma’no.

**Kirish.** Kiyim va libos insoniyat tarixida juda muhim o‘rin egallagan madaniy va ijtimoiy hodisalardan biridir. Ular faqatgina insonning ehtiyojlarini qondirish vositasi emas, balki turli davrlar va jamiyatlarning madaniyati, an‘analari va ijtimoiy tuzilmalari bilan bog‘liq murakkab ramzlar tizimini ham aks ettiradi. Ushbu maqola kiyim va liboslar kategoriyasini lingvistik, madaniy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan.

Insoniyatning rivojlanish tarixi davomida kiyimlar va liboslar nafaqat himoya vositasi, balki ijtimoiy mavqe, diniy e‘tiqod va madaniy identifikatsiyaning ramzi sifatida ham xizmat qilgan. Misol uchun, qadimgi Misrda kiyimlar insonning ijtimoiy statusini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, faraonlarning liboslari esa xudolar bilan bog‘liq ramzlarni o‘zida aks ettirgan.

Kiyim va liboslar kategoriyasi turli tillarda o‘ziga xos leksik birliklarni shakllantirgan. Bu leksik birliklar har bir xalqning madaniyati, an‘analari va hayot tarziga bog‘liq holda shakllangan. Masalan, o‘zbek tilida "kaltaba" yoki "chopon" kabi so‘zlar milliy kiyimlarni ifodalaydi va ularning lingvistik o‘rni milliy o‘ziga xoslikni aks ettiradi.

Turli madaniyatlarda kiyimlar va liboslar turlicha talqin qilinadi. Bu talqinlar jamiyatning an‘analari va madaniy qadriyatlarini bilan bog‘liqdir. Masalan, Yaponiyada kimono kiyimi an‘anaviy kiyim bo‘lib, u o‘zining rang-barangligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. O‘zbekistonda esa milliy kiyimlar, masalan, atlas va adras, milliy bayramlarda va marosimlarda keng qo‘llaniladi.

Kiyim insonning ijtimoiy statusini, jinsini, yoshini va kasbini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy jamiyatlarda kiyimlar orqali insonning ijtimoiy holati yoki yashash tarzini bilib olish mumkin. Misol uchun, korporativ kiyimlar ofis muhitida professional imijni yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, kategoriya tushunchasi o‘ta keng ma’nodan talqin qilinadi va unda voqelik predmet-hodisalarning eng

umumiy hamda muhim sifatlari, xususiyatlari, aloqalari va munosabatlari o‘z aksini topadi. Predmet-hodisalarni kategoriyalarga ajratish va ularni guruhlar bo‘yicha tasniflash amaliyoti qadimdan mavjud. Ammo tasnifiy belgilarni topish va ular asosida kategoriyalarni ajratish ko‘pincha oddiygina, shaxsiy tajribaga asoslangan holda, sodda uslubda, odmiyona ko‘rinishda bajarilib kelingan.

L.V.Barsalou[1] ta’kidlaganidek, kategoriyalashtirish – murakkab aqliy mental va lisoniy jarayondir. Ushbu jarayon ma’lum turdagi harakat bosqichlarini qamrab oladi:

a) stimull (qo‘zg‘atuvchi sabab) tanlovi. Sezgi tizimiga kiruvchi (ko‘rish, eshitish, hid bilish kabi) stimullardan faqatgina diqqatni jalb qiladiganlari tanlanadi;

b) ajratish va tasniflash. Bu harakat tanlangan stimullni xotiradagi bilim bilan qiyoslash, moslashtirish yo‘li bilan bajariladi;

v) nomlash. Hosil bo‘lgan kognitiv kategoriya (konsept) nom oladi.

Voqelikdagi barcha ob’ektlar tartibli strukturaga ega. Shunga asosan kam kognitiv harakat sarf qilib, ko‘proq axborotga ega bo‘lish maqsadi idrok etilayotgan voqelik bo‘lagining tuzilishini aniq aks ettiruvchi kategoriya tizimi vositasida erishiladi. Jumladan, lisondagi libos, kiyim-kechak kategoriyasiga ham ana shunday yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kiyim kishining tanasi va boshini qisman berkitib turuvchi ust-boshdir. U yumshoq, badanga qattiq botmaydigan, teri yoki o‘simlikning ishlangan va ishlanmagan materialidan tayyorlanadi. Uning shakli kishining tana tuzilishiga muvofiq bo‘ladi. “O‘z vazifasiga ko‘ra kiyim – odamning o‘z tanasini atrof-muhitning ko‘ngilsiz ta’siridan himoya qilish zaruriyati natijasida kelib chiqqan. Uning boshqa narsalardan prinsipial farqi shakl va materialida emas, balki doimo biror ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq holda qo‘llanish xarakteridadir”[2].

Kiyim so'zi ma'nosining tarixiy rivoji shuni ko'rsatadiki, bu nom hozirgi ma'noda, ammo boshqacha fonetik shakllarda O'rxun-Yenisey yozma yodgorliklaridan boshlab XIII - XIV asrlargacha kädim/käzim, kädgu/käzgu tarzida, umuman, ustga kiyiladigan libos ma'nosida va turli ma'no nozikliklarida uchraydi. Misollar: ынчып ыпанытым ash tön kädim orın tışhak at jaңa kanly kölu apdini-jangy (taom va kiyim, libos, qulay turar joy hamda ot, fil, arava va yuk hayvonlari uchun) (Malov, 21); közgy — kiyiladigan har bir narsa (DLT, I, 405); ayursan kädim ton sharob osh kerak (Maxmudov, 63); ayaq, chanaq kätim tonlarni Shirin terdi (Fäzyllov. 1, 575); kidyk – pardan qilingan bosh kiyim (DLT, I, 371); kizyk – yomg'irda kiyiladigan yopinchiq (DLT, I, 371); kejuk – namat va kigizdan qilingan yomg'ir yopinchiq'ı (DLT, III, 182) [3].

XII-XIII asr yozma yodgorligi "Tafsir"da kätz, kätzar (r. odevat) fe'l shakllari bilan birga kiy o'zagidan kyuk, kyur, kaj fe'l o'zagidan kajib, kajmak formalari ham mavjudligi aniqlangan (144, 178).

Eski o'zbek tilida kädim/käzim variantining kayim, kiyim talaffuziga o'tishi prof. S.E.Malov tomonidan to'g'ri aniqlangan. Alisher Navoiy asarlari tilida (XV asr) kädim // kätim shakllari uchramaydi. Navoiy o'z asarlarida bu nomning o'zagini kiy, kiyim nomini kiyguluk, masdar formasini kiymak tarzida ishlatgan: Er kishiga zebu ziyat hikmatu donishdur. Yaxshi kiymak birla xotunlarga oroyishdur (Navoiy, MQ).

XIX - XX asr tilida kiyim-kechak uchun kiyim, kiyim-kechak, ust-bosh, engil, engil-bosh, bosh-oyoq kiyim, joma, kisvat so'zlari qo'llanila boshlangan.

Kiyim va libos o'zaro ma'nodosh so'zlaridir. Kiyim tushunchasi libosda standartlashgan bo'ladi. Shuning uchun kiyimning libosga qaraganda ma'no doirasi kengroq tuyulsa-da, aslida libosning konseptosferasini istalgancha kengaytirish mumkin.

Libos arabcha so'z (ko'pligi libosot)[4, 336] bo'lib, adabiy tilning yuqori uslubiga xosdir. Ust-bosh, engil ma'nosida libos so'zi kiyim so'ziga sinonim bo'la oladi. Kiyim so'zi umumxalq tili leksikasida keng tarqalgan neytral so'z bo'lib, adabiy va so'zlashuv tilida ham qo'llanaveradi. Libos so'zi esa ko'proq yozma badiiy nutqqa xosdir. Libos turkiy tilga oid eng qadimiy yozma yodgorliklarda uchramaydi. Bu so'z XII asr yozma yodgorligi hisoblanmish "Hibat ul-haqoyiq"da qo'llangan: Tanabbur libasym kayip az salin(Ahmad Yugnakiy).

"Gulistoni bit turkiy" asarida libos so'zi ust kiyim ma'nosida ishlatilgan: Necha kim dalq erur orif libosy, muborakdur, xaloyiqqa duosi (Sayfi Saroiy).

XV asrga kelib kiyim so'zi o'rnida uslubiy maqsadlarda libos so'zi adabiy asarlarda keng ko'lamda qo'llana boshlangan. O'q ignasidan tikay libosin, xanjar so'yidin ezay xinosin (Navoiy). Yana: Turfa oyedur uzoring, ko'k anga moviy libos, Anjum oning tanga-tanga bosma qilgon zarhali (Navoiy, FS); Desang, taoming zoe' bo'lmag'ay yedur, Tilasang, libosing eskirmay, kiydur (Navoiy, MQ).

Libos so'zi Navoiy asarlarida aniqlovchi so'z bilan birikib, ma'no doirasi kengayib, o'xshatish yo'li bilan turlicha

ma'no nozikliklarini kasb etgan. Chunonchi: zebo libos — chiroyli, yarashimli libos: O'zingni zebo libosi xayolidan qaytar, libos zeboligin istasang, bir yalang'och libosin bitkar (Navoiy, MQ).

Nutqda kiyim so'zining libosga nisbatan semantik maydoni kengroq. Chunki libos so'zi xalq tafakkurida, til xotirasida milliy, falsafiy, diniy jihatdan turli majoziy ma'nolarda talqin etiladi. Jumladan, Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning adabiy til taraqqiyoti borasidagi buyuk xizmatlarini e'tirof etar ekan: "Turkiy tilning o'lgan jasadig'a Maseh nafasi bila ruh kiyurdi va ul ruh topqonlarga turkiy alfaz toru pudidin to'qulg'an hulla va harir kiyurdi". Ushbu e'tirofdan Alisher Navoiy turkiy tilga yangi jon va mumtoz ruh baxsh etdi, degan mazmun kelib chiqadi, chunki Maseh o'lgan tanaga yangi jon, mumtoz ruh baxsh etuvchidir. Shoir bu yangi ruhga turkiy tilning o'rish-arqog'idan to'qilgan go'zal harir kiyimlar kiygazdi. Navoiygacha hech kim "bokira ma'nolar" tanasiga bunchalik go'zal turkona liboslar kiydira olmagan edi[5], deydi. Aslida ham Husayn Boyqaro tomonidan shoirona tarzda ifoda etilgan bu fikrlarda hech bir mubolag'a yo'q. Turkiy tilning o'rish-arqog'idan to'qilgan go'zal va harir kiyimlarni mumtoz ruhning bokira ma'nolariga kiydirish biz tahlil qilayotgan badiiy til muammolariga bevosita aloqadordir.

Libos so'zining bu kabi majoziy ma'nolari Qur'onning "Baqara" surasida er va xotin bir-birlari uchun libos ekanligi bayonida ham kuzatiladi: "...Ular sizga libosdir, siz ularga libosdirsiz" (187-oyat). "Naba'" surasida esa libos so'zi tunga nisbat berilib 'orom', 'huzur' tushunchalarini ifodalaydi: "Va uyqularingizni rohat qilib qo'ydik (9-oyat); Va tunni libos qildik (10-oyat)". Rumiy deydi, "Aziz va Jalil bo'lgan Tangrining hikmat, ma'rifat va karomat kiyimlarini kiydirib qo'ygan qullari bordir. Xalqning bularni ko'ra oladigan o'tkir ko'zlari yo'q bo'lsa ham, Olloh Taolo ularni qizg'anadi. Ular ham o'zlarini xuddi Mutanabbining: "Xotinlar ipak kiyimlarni bezanmoq uchun emas, balki o'z go'zalliklarini qo'rimoq uchun kiydilar", deganidek (hikmat, ma'rifat va karomat kiyimlari bilan) o'raydilar"[6].

Libos tushunchasi nafaqat badiiy uslubda, balki ilmiy uslubda ham majoziy ma'noda qo'llanishini, xususan, tafakkurga ham nisbat berilganligini kuzatish mumkin: "Tafakkurni 'yalang'ochlab" bo'lmaydi. Bu muqaddas hodisa doimo libosda bo'lishi kerak. Shu sababli biz mental tuzilmalar tarkibini va hatto ularning mazmun-mundarijasini ham tasavvur qilishda beixtiyor lisonga, uning belgili vositalariga murojaat qilamiz"[7].

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi inson ongida kechadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog'liq holda o'rganishdir. Shunga nisbatan ushbu fanning erishgan asosiy yutuqlaridan biri insonning bilish faoliyati natijasida xotirada hosil bo'ladigan oldingi tajribaning "iz"lari[7], ya'ni kategorial tushuncha hamda turli ko'rinishdagi yuqori darajadagi tarkibli tuzilmalarning mantiqiy va lisoniy tizimlari haqidagi ma'lumotlar majmuasining to'planishidir. Bu ikki tizim o'rtasidagi aloqaning uzviyligi kategoriyalashtirish hodisasida yaqqol o'z aksini topadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Barsalou L.W. Context – independent and context – dependent information in concepts. In: Concepts and conceptual factors in categorization. – Cambridge: Cambr.Univ., 1987. – P.102.
2. Gorbacheva N.P.K voprosu o proisxojdennii odejdy // Sovetskaya ensiklopediya, 1950, № 3. – S.14.
3. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: FAN, 1981. – B.16.
4. Navoiy asarlari lug'ati / Tuzuvchilar: P.Shamsiev, S.Ibrohimov. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1973. – 336 b.
5. Qodirov P. Mumtozlik cho'qqisiga eltuvchi yo'llar / Til va el. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – B.122.
6. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadur / U.Hamdani tarjimai. Hikmat, ma'rifat va karomat. – B.12.
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2016. – B.44.



*Elyor TOSHTEMIROV,*  
*Andijon davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: elyor75@mail.ru*

*University of Economics and Pedagogy, "Filologiya" kafedrasida dotsenti A.I.Matkarimova tarizi ostida*

### FRAZELOGIYA SOHASIDA ANTONIMIK MUNOSABATLARNING IFODALANISHI

Аннотация

Maqolada tilshunoslikda muhim o'rin tutgan frazeologizmlarning antonimik munosabatlar orqali ifodalanishi haqida fikr-mulohazalar berilgan. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning qarama-qarshi ma'noda qo'llanishi ko'p uchraydi. Antonimiya frazeologik birliklar biror hodisa, harakatlar va boshqa tushunchalarning qarama-qarshi tomonlarini ko'rsatadi. Antonimik munosabatlar ob'ektiv jihatdan bir xil ob'ektlar, qarama-qarshi ma'noli hodisalarni bildiruvchi frazeologik birliklardan iborat. Agar frazeologik birliklar bir xil leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lsa, gapning bir jinsli a'zolariga nisbatan antonim paydo bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Frazeologik birliklar, antonimiya, antonimik frazeologizmlar, grammatik-morfologik tushunchalar.

### EXPRESSION OF ANTONYMIC RELATIONS IN THE FIELD OF PHRASEOLOGY

Annotation

The article provides an opinion on the expression of phraseologisms, which have an important place in linguistics, through antonymic relations. In linguistics, the use of phraseological units in the opposite sense is common. Antonyms phraseological units show the opposite sides of an event, actions and other concepts. Antonymous relations consist of phraseological units that denote objectively identical objects and events with opposite meanings. If phraseological units have the same lexical and grammatical features, an antonym can appear in relation to the same type of members of the sentence.

**Key words:** Phraseological units, antonymy, antonymic phraseology, grammatical-morphological concepts.

### ВЫРАЖЕНИЕ ANTONИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СФЕРЕ ФРАЗЕОЛОГИИ

Аннотация

В статье изложено мнение о выражении фразеологизмов, занимающих важное место в языкознании, через антонимические отношения. В лингвистике распространено употребление фразеологизмов в противоположном смысле. Фразеологизмы-антонимы показывают противоположные стороны события, действия и других понятий. Антонимические отношения состоят из фразеологизмов, обозначающих объективно тождественные предметы и события с противоположным значением. Если фразеологизмы имеют одинаковые лексические и грамматические особенности, антоним может появиться по отношению к однотипным членам предложения.

**Ключевые слова:** Фразеологизмы, антонимия, антонимическая фразеология, граммато-морфологические понятия.

**Kirish.** Frazeologik birlik bu insonlar orasida shakllangan madaniy bilimlarning tilda aks etishi hisoblanadi, uning bilishga xoz "xotirasi" xalq mentalitetining madaniy an'analarini saqlaydi, bu dunyoni ko'rish uchun vaqt hodisasi sifatida frazeologizmlarning ko'payishi faoliyatini belgilaydi. Frazeologik birlik deganda "nutqda to'liq yoki qisman qayta fikriy ma'noga ega bo'lgan so'zlarning barqaror birikmasi" tushuniladi.

Frazeologik birliklarning shakllanishi semantik soddalashtirishga, ya'ni frazeologik birliklarning tarkibiy qismiga aylangan so'zlarning ma'nosini cheklashga asoslanadi. Frazeologik birlikda uni yasovchi so'zlar bir frazeologik ma'no oladi: yulduz sanamoq – bekor yurmoq, qovog'idan qor yog'moq – mayus bo'lmoq va hokazo. Ko'rinib turibdiki, frazeologik birlik ma'nosi ham alohida so'zlarning ma'nolarini qo'shishdan kelib chiqmaganidek, uning tashqi shakl elementlariga mos bo'laklarga bo'linmaydi.

Frazeologik birlik semantik va funksional jihatdan ahamiyatli so'zga ekvivalent bo'ladi, ya'ni so'z kabi tushunchani ifodalaydi, predmet yoki hodisani bildiradi, gap yasashda qatnashadi. Frazeologik birlikning formal bo'linishi bilan ifodalangan ma'no birligi o'rtasidagi nomuvofiqlik frazeologik birlikni tashkil etuvchi iboraning barqarorligiga olib keladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy tilshunoslikda frazeologiyaning ob'ekti va tildagi frazeologik birliklarni aniqlash mezonlari to'g'risidagi masala to'liq hal etilmagan, shuning uchun talqin qilishda ikkita yondashuv mavjud - keng va tor. Frazeologiyaga keng yondashish bilan u kontekstdan mustaqil doimiy ma'noga ega bo'lgan barcha, tayyor til birliklarini o'z ichiga oladi: aforizmlar, maqol va matallar, qo'shma iboralar, qo'shma terminologik nomlar. Frazeologiyaga tor yondashuv bilan yuqorida sanab o'tilgan birliklar frazeologik birliklar tarkibiga kirmaydi, frazeologiya esa so'zlarning faqat bog'langan ma'nolarini o'rganadi.

Demak, antonimik munosabatlar nafaqat leksik birliklarga, balki frazeologik birliklarga ham xosdir. Antonimiyaning mohiyati nominativ birliklarning semantik qarama-qarshiligiga asoslangan qarama-qarshilikning tilda ifodalanishidir. Frazeologik antonimlar bir grammatik sinfga mansub, leksik tarkibida qisman mos keladigan yoki butunlay mos kelmaydigan, qarama-qarshi ma'nolar ishtirokida umumiy semantik komponentga ega bo'lgan va stilistik jihatdan farq qiluvchi yoki bir-biriga mos keladigan asosiy frazeologik birliklardir [4].

Frazeologiya sohasidagi antonimiya quyidagilarni talab qiladi: muammoning tarixini ko'rib chiqish, frazeologik antonimiya tushunchasi va tilshunoslik tarixida uni yuzaga kelish mezonlarini aniqlash, frazeologik antonimlarning turli



tipologiyalari, frazeologik birliklar uchun antonimik asoslarni belgilash, frazeologik antonimlarning nutqda ob'ektiv mavjudligi va hokazo.

Frazeologik antonimiya hodisalari faqat 60-yillarning oxiridan boshlab ko'rib chiqila boshlandi. Sidorenko M.I., Amxina A.I., Miller E.N.ning tadqiqotlarida birinchi marta frazeologiyadagi antonimiyani, uning lug'at tarkibidagi o'xshash munosabatlardan farqini nazariy tushunishga harakat qilindi.

Ushbu asarlarda tahlil qilish uchun materiallar turli tillardan olingan ma'lumotlar tashkil etdi, M.I.Sidorenko rus frazeologiyasida antonimiyani, E.N. Miller - nemis, A.I. Amkhina – ingliz frazeologiyasidagi antonimik munosabatlarni ko'rib chiqdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Frazeologik antonimlar leksik tarkibiga ko'ra qisman mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Bunday frazeologik antonimlar bir xil uslubda bo'lib, ekspressiv xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qilmaydi. Bunday holda, ular erkin foydalanish jihatidan antonim bo'lgan komponentlarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan: as heavy as lead - as light as feather, weak as water - as strong as a horse, a heart of gold - a heart of stone, stone heart; in hot blood - in cold blood va hokazo.

Har xil uslubdagi frazeologik antonimlar turli funksional uslublarga xos bo'lishi mumkin. Ular frazeologik birliklar tarkibida umumiy tarkibiy qismlarga ega emas. Frazeologik birliklarning ma'nosini kontekst bo'yicha yoki frazeologik iboralar lug'atidan foydalanib tushunish mumkin.

Antonimik frazeologizmlarni tuzilishiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Birinchi guruh umumiy komponentga ega bo'lmagan va boshqa tuzilishga ega bo'lgan frazeologik antonimlardan iborat: "beyond praise" (maqtashga arziguulik) - "in a tin-pot way" (yaxshi emas, juda yomon).

2. Ikkinchi guruhga qisman bir-biriga mos keladigan va bir xil sintaktik modelni ifodalovchi antonim frazeologik birliklar kiradi: in a good/ happy hour ("o'z vaqtida") - in an ill / evil hour ("vaqtdan o'tkazib") va hokazo.

3. Uchinchi guruh lug'aviy tarkibi jihatidan farq qiluvchi, lekin grammatik tuzilishi o'xshash bo'lgan frazeologik antonimlardan iborat: as drunk as a lord - g'irt mast, as sober as a judge – mutlaqo xushyor.

Bundan tashqari ingliz tilida frazeologik antonimlarning leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarini ajratish mumkin:

Fe'lli antonimik fraeologizmlar: to miss the bus – to explore every avenue, come up with the world – come down in the world.

Otli antonimik fraeologizmlar: a bed of roses – a bed of thorns, low tea – high tea, a hard nut to crack – child's play.

Sifatli antonimik fraeologizmlar: as weak as water – as strong as a horse, as welcome as flowers in May – as welcome as a storm, off the point – to the point. Ravishli antonimik fraeologizmlar: under the weather – up to the mark, to one's teeth – behind one's back, out of pocket – in full feather.

Ingliz tilidagi frazeologik antonimlarni qarama-qarshi ma'no ifodalash usuliga ko'ra ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin: lug'aviy tarkibiga ko'ra ko'p tuzilishga ega bo'lgan va lug'aviy tarkibiga ko'ra bir tuzilishga ega bo'lgan antonimik frazeologizmlar. Lug'aviy tarkibiga ko'ra turli hil tuzilishga ega frazeologik antonimlarni ikkita kichik guruhlarga ajratish mumkin:

a) lug'aviy tarkibiga ko'ra butunlay farq qiluvchi bir xil tuzilishli antonimlar, masalan: at a low abb – on the crest of the wave, call a spade – beat about (around) the bush;

b) lug'aviy tarkibiga ko'ra qisman mos keladigan turli tuzilmalarning antonimlari, masalan: be flush of money – be hard pressed for money, play fast and loose – play fair.

Ma'lumki, antonimik munosabatlar ma'nosi tushunchalarning mantiqiy qarama-qarshiligi mavjudligini nazarda tutadi. Demak, take time by the forelock – foydalanib qolmoq; hang fire – susaytrimoq; lay on the table – keying surmoq; behind the time – o'z vaqtda bajarmaslik kabi frazeologizmlar ish-harakatlarning kechikishida ro'y beradigan hodisalarni ifodlab keladi.

Daraja-o'lchov, masofa va kenglikni ifodalab keladigan qarama-qarshi ma'noli quyidagi frazeologik birliklar ham nutqda qo'llanadi: at arm's length – uzoqroq masofada; at close quarters – yaqin masofada; ready to one's grasp – qo'l cho'zsa yetadigan; beyond one's grasp – qo'l yetmas joyda.

Moddiy olam, narsa va hodisalar, farovonlik, mashaqqatni ifodalab keluvchi turli tushunchalar o'z ifodasini quyidagi antonimik frazeologik birliklar orqali ifodalanishi mumkin: bed of roses – oson hayot; bed of thorns – qiyin vaziyat.

Frazeologik birliklar, ularning ma'nosi odamning aqliy faoliyatini turli jihatlardan farqli ravishda xarakterlab keladi: diqqat e'tibor: to have an eye on – ko'zdan qochirmaslik; e'tiborsizlik: close one's ears, to shut one's ears to – e'tibor bermaslik; nodonlik: play the fool (goat, monkey) – ahmoq qilmoq, to lose one's senses – jinnilik qilmoq; haqiqat: make a clean breast of smth – samimiy qabul qilmoq; yolg'on: play a double game – ikkiyuzlamachilik qilmoq, to beat about the bush – gapni aylantirmoq.

Frazeologik antonimiya, ayniqsa, iroda, insoniy histuyg'u, holat, xohish-istakni bildiruvchi frazeologik birliklar orasida ham keng tarqalgan. Bular jumlasiga istak tushunchasini ifodalovchi frazeologik antonimlar kirishi mumkin: with a good grace – chin ko'ngildan hohlab; with a bad grace – hohlamaygina; good faith – insoflik; bad faith – insofsizlik; take heart – qo'rqmaslik; look blue – mayus ko'rinmoq; carry one's head high – boshini baland ko'tarmoq, assume airs – gerdaymoq; sing small – o'zini xotirjam tutmoq; eat dirt – tahqirlanmoq, xo'rlanmoq.

**Tahlil va natijalar.** Leksik antonimlar badiiy, publitsistik va ilmiy adabiyotlarda juda keng tarqalgan. Adabiy nasrda ko'chma ma'noli antonim so'zlar ko'pincha qarama-qarshi qo'yiladi. Matbuotda bunday qarama-qarshi ma'noli frazeologizmlarning soni sezilarli ko'p. Dolzarb qo'llanadigan frazeologik antonimlar asosan badiiy adabiyot va matbuotda keng uchraydi. Boshqa nutq uslublarida frazeologik antonimiya ishlatilmaydi.

Antonimik bog'lanishlar frazeologik birlik-so'z birikmalariga xos bo'lib, ularning ma'nosi tushunchalarning mantiqiy qarama-qarshiligi mavjudligini nazarda tutadi. Boshqa holatlarda na so'zlarda, na frazeologik birliklarda antonimiya kuzatilmaydi. Quyidagi holatlarda antonimik munosabatlar qo'llanmadi: a) ayrim alohida predmetlarni, tabiat hodisalarini, tevarak-atrofdagi voqelikni bildiruvchi frazeologik birliklar; b) ma'lum joyning o'ziga xos nomlarini bildiruvchi frazeologik birliklar; c) terminologik xususiyatga ega bo'lgan ko'plab frazeologik birliklar – ilm-fan, ishlab chiqarish, kasb-hunar sohalarining nomlari.

Leksik antonimlar va antonimik frazeologizmlarning ham o'xshash, ham noo'xshash tomonlari mavjud, bu so'zlar va frazeologik birliklar o'zaro bog'liq bo'lgan strukturaviy-semantik shakllanishlarga ega bo'lsa-da, butunlay farqlanishi bilan ajralib turadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, frazeologik antonimlar bir uslubli yoki ko'p uslubli bo'lishi bilan xarakterlanadi. Birinchi holda, frazeologik antonimlarda erkin foydalanishda antonim bo'lgan komponentlar kiradi, Ikkinchi holda, ular umumiy tarkibiy qismlarga ega emas va turli funksional uslublarga tegishli. Frazeologik antonimlar leksik tarkibiga ko'ra qisman mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Frazeologik antonimlarning leksik tarkibi bir-

biriga to'g'ri kelmasa, ularning lug'at tarkibida antonimik elementlar (ham so'zlar, ham o'zgaruvchan iboralar) ularning antonimligining formal ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Алехина А.И. Фразеологическая антонимия в современном английском языке: автореф. дис. канд. филол. наук. - М., 1968. - 23 с.
2. Кунин, А. В. Курс фразеологии современного английского языка : учебник для ин-тов и фак. иностр. яз. / А. В. Кунин. — М. : Высшая школа, 1986. — 336с.
3. Марданова Г.Б. Сопоставительный анализ фразеологических антонимов в английском и татарском языках: автореф. дис.... канд. филол. наук / Марданова Г.Б.; [Казан. гос. пед. ун-т]. - Казань, 1998. - 21 с. - Библиогр.: с. 20-21.
4. Matkarimova, A., Toshtemirov, E., & Hamidov, B. (2019). VERBALIZATION OF THE CONCEPT OF FAITH/BELIEF BY MEANS OF LEXEMES AND PHRASEOLOGICAL UNITS IN MODERN ENGLISH AND UZBEK. *Интернаука*, (45-2), 69-71.
5. Тоштемиров, Э. Н., & Абдужабборов, Ш. А. (2017). Phraseologisms expressing intellectual abilities of the man in English, Russian and Uzbek languages. *Филология и лингвистика*, (2), 80-81.
6. Nuraliyevich, T. E., & Ergashevna, T. E. (2024). SOME REFLECTIONS ON THE PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING MENTAL ABILITIES OF THE MAN IN THE SYSTEM OF LANGUAGES. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(1), 214-216.
7. Nuraliyevich, T. E. (2022). SEMANTIC ORGANIZATION OF UZBEK AND ENGLISH ANTONYMIC PHRASEOLOGICAL UNITS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 485-489.
8. Nuraliyevich, T. E., Ismoilovna, M. A., Abdurahimovna, Z. H., & Ergashevna, T. E. (2023). Some Peculiarities Of Semantic Organization Of Phraseological Antonyms In The English And Uzbek Languages. *Journal of Positive School Psychology*, 307-311.
9. Toshtemirov, E. (2023). THE PROBLEM OF THE RELATIONSHIP OF PHRASEOLOGISMS AND PROVERBS IN THE LANGUAGE. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 285-287.
10. Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. Volume 2: Phrase, Clause & Sentence Idioms. A.P. Cowell. R. Mackin & I.R. McCaig. Oxford University Press, 1984.



UDK: 811.512

*Dilafroz TURAKULOVA,*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: dilimturakulova1309@gmail.com,*

*Renessans ta'lim universiteti professori, filologiya fanlari doktori L. Raupova taqrizi asosida*

### LINGVOMADANIY KONSEPT TURLARI: ULARNING KENG QAMROVLI LINGVISTIK ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqola lingvomadaniy tushunchalarning turli xil turlarini keng qamrovli o'rganishni taqdim etadi, ular til va madaniyatning inson tafakkuri, kommunikatsiyasi va xulq-atvorini shakllantirishda qanday o'zaro ta'sir qilishini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Lingvomadaniy tushunchalar madaniy qadriyatlar, e'tiqodlar va dunyoqarashlar qanday qilib til ifodalarida aks ettirilganini ochib berishda kalit hisoblanadi, bu esa shaxslar va jamoalarning dunyoni qanday qabul qilishlari va o'zaro munosabatda bo'lishlariga ta'sir qiladi. Ushbu lingvomadaniy tushunchalarni batafsil o'rganish orqali maqola til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq tushunishga hissa qo'shadi. U lingvomadaniy tushunchalarni nafaqat lingvistik va madaniy tadqiqotlar, balki xalqaro biznes, diplomatiya va ta'lim kabi amaliy sohalar uchun ham o'rganishning muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot natijalari til va madaniyat dinamikasiga qiziqqan tadqiqotchilar, o'qituvchilar, tarjimonlar va boshqa barcha kishilar uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** Tilshunoslik, konsept, lingvistik ifodalar, kommunikatsiya, lingvomadaniyat, madaniyatshunoslik.

### ТИПЫ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ КОНЦЕПТОВ: ВСЕСТОРОННЕЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация

Эта статья представляет собой всестороннее исследование различных типов лингвокультурных концептов, которые играют важную роль в понимании того, как язык и культура пересекаются, формируя человеческое мышление, коммуникацию и поведение. Лингвокультурные концепты являются ключом к расшифровке того, как культурные ценности, убеждения и мировоззрения воплощаются в языковых выражениях, влияя на то, как люди и сообщества воспринимают и взаимодействуют с миром. Подробное рассмотрение этих лингвокультурных концептов в статье способствует более глубокому пониманию сложных взаимосвязей между языком и культурой. Статья подчеркивает важность изучения лингвокультурных концептов не только для лингвистических и культурных исследований, но и для практического применения в таких областях, как международный бизнес, дипломатия и образование. Результаты этого исследования предлагают ценные инсайты для исследователей, педагогов, переводчиков и всех, кто интересуется динамикой языка и культуры.

**Ключевые слова:** Концепт, типы концептов, языковые выражения, коммуникация, лингвокультурология, культурология.

### TYPES OF LINGUACULTURAL CONCEPTS: A COMPREHENSIVE EXPLORATION

Annotation

This article provides a comprehensive exploration of the various types of linguacultural concepts, which are integral to understanding how language and culture intersect to shape human thought, communication, and behavior. Linguacultural concepts are the key to decoding the ways in which cultural values, beliefs, and worldviews are embedded in linguistic expressions, influencing how individuals and communities perceive and interact with the world. By providing a detailed examination of these linguacultural concepts, the article contributes to a deeper understanding of the intricate relationship between language and culture. It underscores the importance of studying linguacultural concepts not only for linguistic and cultural research but also for practical applications in areas such as international business, diplomacy, and education. The findings of this study offer valuable insights for researchers, educators, translators, and anyone interested in the dynamics of language and culture.

**Key words:** Concept, concept types, linguistic expressions, communication, linguaculturology, cultural studies.

**Introduction.** In the intricate tapestry of human communication, language serves not only as a medium for expressing thoughts and emotions but also as a repository of cultural values, beliefs, and worldviews. Linguacultural concepts—those unique intersections of language and culture—play a crucial role in shaping how individuals and communities perceive, interpret, and interact with the world around them. These concepts are embedded in the very words and expressions we use, carrying with them layers of cultural significance that often go unnoticed but profoundly influence communication and understanding across different linguistic and cultural contexts. Understanding linguacultural concepts is essential for anyone involved in cross-cultural communication,

translation, or language education. These concepts reveal the underlying cultural frameworks that shape linguistic expressions, offering insights into how different societies construct and convey meaning. For instance, the concept of “time” can vary significantly between cultures, influencing not only how people talk about time but also how they experience and value it in their daily lives. Similarly, concepts like “family,” “friendship,” and “justice” may appear universal, but their cultural interpretations and expressions can differ widely, reflecting the diverse ways in which human societies organize their social and moral worlds. This article aims to explore the various types of linguacultural concepts, categorizing them into universal and culture-specific concepts.

By examining these categories, the article will shed light on how different cultures encode their values and beliefs in language, and how these linguacultural concepts can either facilitate or hinder communication across cultural boundaries. The study of linguacultural concepts is not merely an academic exercise but a practical necessity in our increasingly globalized world, where effective communication often depends on a deep understanding of the cultural nuances embedded in language.

**Literature review.** V.A. Maslova defines a concept as a semantic formation characterized by linguacultural specificity, which in some way describes the representatives of a particular ethnic culture. V.A. Maslova highlights the following features of a concept:

A concept is the minimal unit of an ideal representation of human experience, expressed through words, and it possesses a unique field structure.

A concept is the primary unit for processing, storing, and transmitting knowledge.

A concept has dynamic boundaries and specific functions.

A concept is the fundamental cell of culture.

Thus, concepts form a conceptual system in the human mind, and human language encodes this system in words. According to V.A. Maslova, a concept "has a complex, multidimensional structure, encompassing not only the conceptual foundation but also the socio-psychological and cultural components."

From S.X. Lyapin's perspective, a concept is a self-organizing, integrated, functional, systematic, multifaceted, and idealized form based on an idea and dependent on the content of a sign. For example, everyday words or phrases, scientific terms, complex lexical-grammatical, and semantic structures, or subjective depictions can serve as examples. A. Wierzbicka describes a concept as an object of the ideal world present in our psyche, identified by a name and defined using a collection of semantic information, reflecting cultural ideas about reality. A. Wierzbicka acknowledges that certain native speakers may face difficulties in assimilating various specific words, referring to this as "concept-minimum." Conversely, she describes the full assimilation of meaning by a native speaker as "concept-maximum." Furthermore, she believes that the "reality" world of a person reflects culturally defined concepts, and truth is not only directly presented but also given for thinking through language. According to V.G. Zusman, "A concept is always a part of a whole, carrying the general trace of the system. A concept is a micro-model of culture, and culture is a macro-model of the concept. A concept creates culture and is created by culture." V.G. Zusman's definition suggests that the relationship between concept and culture is akin to the relationship between the microcosm and the cosmos in human existence.

**Analysis and results.** Linguacultural concepts can be broadly categorized into universal and culture-specific types. Universal linguacultural concepts, such as "family" or "time," are present across various cultures but may carry different meanings and expressions depending on the cultural context. On the other hand, culture-specific linguacultural concepts, like the Portuguese "saudade" or the Japanese "wa," are deeply rooted in the unique experiences and values of a particular culture, often lacking direct equivalents in other languages. Anthropocentric linguacultural concepts are related to the position of humans in the world, as well as their relationship with the environment and other living beings. These concepts reflect unique cultural perspectives on humans as the central beings in the world and the lifestyles based on these perspectives.

Examples of anthropocentric linguacultural concepts:

"Manifest Destiny" in American culture: This concept reflects the idea that the American people were destined by God to occupy the entire territory of North America, which influenced their interactions with indigenous peoples and their lands.

"Buen Vivir" in Latin American Indigenous cultures: Buen Vivir is a philosophy that emphasizes living in harmony with nature and other beings as a fundamental aspect of a good life.

"Humanism" in Western culture: This concept emphasizes the importance of humans, their potential, and dignity, and calls for the development of intellectual, cultural, and moral qualities.

"Ahimsa" in Indian culture: This concept represents non-violence and respect for all living beings, which is a fundamental aspect of Indian religious and philosophical traditions.

Anthropocentric linguacultural concepts reflect the unique characteristics of individuals' attitudes toward the environment and moral principles in various cultural contexts. They play an important role in shaping values, social norms, and relationships between humans and nature.

**Social Linguacultural Concepts.** Social linguacultural concepts reflect social relations, structures, and norms in different cultures. These concepts are related to interactions between people, social roles, customs, expectations, and values that define behavior and communication methods within a specific cultural environment. Below are examples of social linguacultural concepts:

Respect for elders in Asian cultures: This concept reflects the importance of respecting and submitting to elders, treating them with reverence as figures of authority.

Democracy and freedom of speech in Western culture: This concept reflects the emphasis on individual rights, equality, and the ability to freely express one's opinions and views.

Community solidarity in African cultures: This concept emphasizes mutual assistance, cooperation, and responsibility among community members.

Family ties in many cultures: This concept highlights the importance of the family as the foundation of social structure and a source of support.

Gender roles in various cultures: This concept describes the expectations and functions associated with men and women in society.

Adherence to tradition and rituals in many cultures: This concept emphasizes the importance of following rituals, religious practices, and historical traditions.

Social mobility across cultures: This concept describes the opportunities or limitations associated with moving up the social ladder.

Social linguacultural concepts play an important role in shaping social relations, personal identity, and worldview in different cultural environments. They also influence how people communicate and interact within social contexts.

**Emotional Linguacultural Concepts.** Emotional linguacultural concepts are related to the expression and interpretation of emotions, feelings, and moods through language and cultural perception. These concepts describe the ways people from different cultures express and perceive emotions, as well as which emotional aspects are particularly significant in a specific culture.

Examples of emotional linguacultural concepts:

"Savvat" in Arab culture: This concept expresses the feeling of joy or happiness derived from someone else's success or happiness. This emotion holds special significance in Arab culture and is related to moral and ethical values.

"Gemütlichkeit" in German culture: This concept describes comfort, coziness, and a pleasant atmosphere

associated with spending time with loved ones and good company.

“Natsukashii” in Japanese culture: This concept expresses a sense of nostalgia or longing for the past, which may be connected to childhood, past times, or happy moments.

“Saudade” in Portuguese and Brazilian culture: This concept describes a deep longing and nostalgia for something that is gone or unattainable.

Emotional linguacultural concepts help researchers understand how emotions are expressed, interpreted, and valued in different cultural environments. They also play an important role in intercultural communication and understanding, as different cultures may assign different meanings and significance to various emotional expressions.

**Religious and Mystical Linguacultural Concepts.** Religious and mystical linguacultural concepts are related to spiritual and religious beliefs, practices, symbols, and worldviews in different cultures. These concepts describe the ways in which religious and mystical ideas are expressed and interpreted through language and modes of thought. Examples of religious and mystical linguacultural concepts:

“Nirvana” in Buddhism: This concept describes the ideal state of blissful liberation from suffering and the cycle of rebirth, which followers of Buddhism seek to attain.

“Sacred” in various religions: This concept describes things that are considered holy, inaccessible to ordinary people, or capable of conveying spiritual meaning.

“Enlightenment” in various spiritual traditions: This concept describes spiritual understanding or realization of the essence of reality that can be achieved through spiritual practice and the comprehension of profound truths.

“The Holy Trinity” in Christianity: This concept describes the Christian doctrine that God exists simultaneously as the Father, the Son, and the Holy Spirit.

Religious and mystical linguacultural concepts play an important role in the formation of spiritual concepts, values, and beliefs in different cultural environments. They can also influence the linguistic expressions, rituals, symbols, and metaphors used in religious practices and communication among believers.

**Conclusion.** The exploration of linguacultural concepts reveals the profound connection between language and culture, illustrating how cultural values, beliefs, and worldviews are intricately woven into linguistic expressions. By categorizing these concepts into universal and culture-specific types, we gain a deeper understanding of how different cultures conceptualize and communicate fundamental aspects of human experience. Universal concepts, while shared across cultures, often carry distinct meanings shaped by cultural contexts. In contrast, culture-specific concepts provide unique insights into the particularities of a culture's worldview, reflecting its history, social norms, and philosophical traditions. Understanding these linguacultural concepts is essential not only for linguistic and cultural research but also for practical applications in areas such as cross-cultural communication, translation, and global education. As our world becomes increasingly interconnected, the ability to navigate these cultural nuances is crucial for fostering effective communication, mutual understanding, and respect across diverse cultural landscapes. This study underscores the importance of recognizing and appreciating the richness of linguacultural diversity in both academic and everyday contexts.

#### LITERATURE

1. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику: учеб. пособие / В.А. Маслова. 3-е изд., испр. М.: Флинта: Наука, 2007. С. 46-47.
2. Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты. Вып 1. – Архангельск, 1997. - С. 32-45.kr5n
3. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. М.: Языки русской культуры, 1999. 780 с
4. Зусман В.Г. Концепт в культурологическом аспекте // Межкультурная коммуникация: Учеб. пособие. - Нижний Новгород: Деком, 2001. С. 38-53.
5. Khamidovna N. L. Expression of the Harmony of Language and Culture in World and Uzbek Lexicography //resmilitaris. – 2023. – Т. 13. – №. 1. – С. 233-244.
6. Cuestas-Caza J. Sumak kawsay is not buen vivir //Alternautas. – 2018. – Т. 5. – №. 1.
7. Rachman A. H. Different perspectives in defining culture //Indonesian Journal of Social Sciences. – 2021. – Т. 13. – №. 2. – С. 84.
8. Moslund S. P. Postcolonialism, the Anthropocene, and new nonhuman theory: A postanthropocentric reading of Robinson Crusoe //ariel: A Review of International English Literature. – 2021. – Т. 52. – №. 2. – С. 1-38.
9. Wang N. A Study of the Differences between Chinese and Western Addressing Terms in Sociolinguistics //Scientific and Social Research. – 2021. – Т. 3. – №. 2. – С. 55-58.



*Akmaljon TURSUNOV,*  
*NamDCHTI dotsenti, PhD*  
*E-mail: tursunov\_ajon@mail.ru*

*Namangan davlat universiteti dotsenti PhD. M.Abduraxmanovning taqrizi asosida*

## INTERPRETATION OF GREAT FIGURES OF CENTRAL ASIA IN GERMAN LANGUAGE LITERATURE

Annotation

In this article, the interpretation of the great figures of Central Asia and their scientific heritage in German-language literature, especially in Germany, German works published in Germany and some of their opinions and the interpretation of the philosophy of our scholars Abu Ali Ibn Sina and Abu Rayhan al-Biruni to Western science. It is said about the secret.

**Key words:** Philosophy, Central Asia, encyclopedist, recognition, influence, scientific research, translation, explanation, analysis.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЕЛИКИХ ДЕЯТЕЛЕЙ СРЕДНЕЙ АЗИИ В НЕМЕЦЯЗЫЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается интерпретация великих деятелей Центральной Азии и их научного наследия в немецкоязычной литературе, особенно в Германии, немецких произведений, изданных в Германии, и некоторых их мнений, а также интерпретация философии наших учёных Абу Али Ибн Сина и Абу Райхан аль-Бируни к западной науке. Сказано о тайне.

**Ключевые слова:** Философия, Центральная Азия, энциклопедист, признание, влияние, научные исследования, перевод, объяснение, анализ.

## NEMISZABON ADABIYOTDA MARKAZIY OSIYONING BUYUK SIYMOLARI TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada nemiszabon adabiyotlarda xususan, Germaniyada Markaziy Osiyoning buyuk siymolari talqini va ularning ilmiy meroslarini o‘rganilishi, Germaniyada chop etilgan nemischa asarlar va ulardagi ayrim fikrlar va allomalarimiz Abu Ali Ibn Sino va Abu Rayhon al Beruniy falasafasining G‘arb ilm-faniga ta‘siri xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Falsafa, Markaziy Osiyo, qomusiy olim, e’tirof, ta‘sir, ilmiy tadqiqot, tarjima, izoh, tahlil.

**Kirish.** Ma’lum bir millat qo‘lga kiritgan madaniy boylik shu millatning o‘z hududida qolib ketmasdan, balki turli vositalar, sharoitlar, munosabatlar taqozasiga ko‘ra boshqa bir millat madaniy mulki yoki merosiga ham aylanishi mumkin. Madaniy-adabiy aloqalar tufayli dunyo xalqlari g‘oyaviy jihatdan bo‘shliqlarni to‘ldiradi va milliy muhitga, milliy ehtiyojga moslab qayta yaratadi. Xuddi shu jarayonda milliy madaniyatlar orasida o‘xshashlik yuzaga keladi. O‘zaro ma’naviy, g‘oyaviy, adabiy, madaniy aloqalar va adabiy ayriboshlash jahon xalqlari orasida qadimdan bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalarga bog‘liq.

Tadqiqotlardan ma’lumki, G‘arbda XIX asrning oxirlariga qadar Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini islom fani, islom madaniyati, islom olami deb atashgan. Keyingi olib borilgan tadqiqotlar natijasida turkiy tillar, turkiy xalqlar madaniyati degan tushunchalar paydo bo‘la boshladi.

Evropa mamlakatlarida, xususan, nemiszabon xalqlarda Markaziy Osiyoning Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk shaxslari va ular yaratgan bebaho asarlarni o‘rganish XV asrlardan boshlanadi. Bu jarayon ilk bor Italiya va Fransiya namoyon bo‘ldi. Ular salb yurishlari natijasida arablar ixtiyorida o‘lkalarni zabt etdilar va bu o‘lkalardan moddiy boyliklar qatorida ko‘plab ma’naviy boyliklarni ham olib ketdilar. Ushbu ma’naviy boyliklar ichida buyuk allomalarimiz tomonidan yozilgan fanning ko‘plab sohalariga tegishli asarlari ham bo‘lgan.

O‘rta Osiyo uyg‘onish davrining qomusiy olimi, faylasuf, tib ilmining sultoni Abu Ali Husayn ibn Abdulloh

ibn Sino (980-1037) o‘zining boy va sirqirra ilmiy merosi bilan nafaqat Sharq ilm-fani va madaniyati, balki butun insoniyat madaniyati, dunyo fani xazinasiga katta hissa qo‘shgan. Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o‘z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug‘ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Olim o‘z asarlarini o‘sha vaqtdagi Yaqin va O‘rta Sharqning ilmiy tili bo‘lgan arab tilida, she‘rlari va badiiy asarlarini esa fors tilida yaratgan. Ibn Sinoni Sharqda “Shayxur-ra‘is”, G‘arbda esa “Avisenna” deb atashgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Fanda isbotlanishicha, “Qonun” XII asrdayoq Toledoda Derardo tomonidan arab tilidan lotinchaga qisqartirilib tarjima etilgan. Derardo “Ash-shifo”ni ham lotin tiliga o‘g‘irgan. 1279 yili Natan Meati Rimda “Qonun”ning to‘liq nusxasini yahudiy tiliga tarjima qiladi. Yahudiy tarjimon “Ibn Sino” nomini yahudiy variantida “Aben Sena” deb bergan. U bora-bora og‘zaki tilda “Aven Sina”ga, bu variant lotin transkripsiyasida “Avisenna”ga aylangan. Olim asrlar davomida butun Ovrupo mamlakatlarida shu nom bilan mashhur bo‘lgan[1].

Nemiszabon adabiyotlarda Ibn Sino ilmiy merosi yuzasidan tadqiqotlar olib borish, asosan, XIX asrning oxirlaridan boshlandi va XX asrda keng qamrovda o‘rganildi. Bu borada A.Myuller, M.Xorton, K.Zauter, X.Sheder, E.Blox, X.Ley, M.Mutrayx, A.Ditrix kabi olimlar samarali ishlar olib bordilar.

1906 yili nemis olimi Maks Xorton tomonidan Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo” asari ingliz tilidan nemis tiliga tarjima qilindi[6]. Mazkur ilmiy asar tarjimasi orqali Germaniyada Ibn Sino haqida tasavvur paydo bo‘la boshladi

va shundan so'ng nemis adabiyotida olimning merosini o'rganish keng tus oldi.

Germaniyada chop etilgan islom ensiklopediyasida Ibn Sinoga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ibn Sino o'z davrining mashhur shaxslari sirasiga kirib, o'zining falsafiy asarlari va she'rlari orqali ayrim so'fizm tarafdorlari tomonidan so'fiy deb tan olingan bo'lsa-da, u G'arb olamida mashhur islomshunos olim sifatida e'tirof etiladi" [2].

Beruniy asarlarini o'rganish ham XIX asr oxirlariga to'g'ri keladi. Nemis olimi E.Zahau Beruniyning "Sharq xalqlari xronologiyasi" deb nomlangan kitobini 1869 yili ingliz tiliga o'giradi va bu asar Londonda chop etiladi. Olimning yozishicha, u asarni arab tilidan inglizchaga o'g'irishda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi, chunki Beruniyning mazkur asari ham filologik, ham astronomik ahamiyatga molik edi. E.Zaxau 1923 yili mazkur asarni nemis tilida "Chronologie orientalischer Voelker von Al Biruni" (Beruniyning Sharq xalqlari xronologiyasi). [8] nomi ostida Leypsigda chop ettiradi. Olim asar so'zbohisida shunday deydi: "Qo'lingizdagi kitob minginchi yillarda Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarida joylashgan Xiva xonligi yoki Xorazmda tug'ilgan Abu Rayhon Muhammad bin Ahmad al Beruniyning "Yo'qolib borayotgan avlodlardan qolgan yodgorliklar" nomli kitobidir. Bu kitob qadimgi va O'rta asr sharq xalqlari madaniyati va tarixini o'z ichiga oladi"[8].

Germaniyada Beruniy ilmiy merosi X.Ritter, Y.Fuk, K.Garbers, M.Shrum, X.Ro'omer, B.Peter, G.Shtromayer kabi olimlar olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Ular allomalarimiz asarlarini ayrimlarini tarjima qilganlar, ayrimlari yuzasidan ilmiy maqolalar, sharhlar yozganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nemis olimlari va adiblari tomonidan Markaziy Osiyoning buyuk siymolari Abu Ali Ibn Sino va Abu Rayhon Muhammad bin Ahmad al Beruniy asarlarini o'rganish va Evropa tillariga tarjima qilish an'anasi XIX asr oxirlaridan boshlandi. Mazkur davrda har ikki buyuk siymo haqida turli ilmiy asarlar va ularning asarlariga bag'ishlangan sharhlar paydo bo'la boshladi.

Ular o'z asarlarida Ibn Sino va Beruniy yaratgan ilmiy merosning dunyo fani rivoji uchun naqadar ulkan manba ekanini anglab yetishdi va olimlar ilmiy merosini Evropa xalqiga yetkazish uchun turli asarlar yaratishdi. Xususan, nemis sharqshunos olimi Xerman Sheder (1928) Ibn Sino haqida shunday fikrlarni bildirdi: "Ibn Sino atoqli davlat arbobi, qomusiy olim, amaliyotchi tabib sifatida, falsafa va tib ilmiga oid ko'plab ensiklopediyalar, qo'llanmalar, hikmatlar, she'rlar va so'fiylikka oid sharhlar yaratgan. Uning falsafasi o'zining ajablanarli darajada mantiqiy aniqligi va asoslanganligi bilan ajralib turadi"[9].

**Tahlil va natijalar.** Ibn Sinoning ruh va tana uyg'unligi haqidagi fikrlari va bu boradagi falsafiy qarashlari nemis olimlari tomonidan yuksak e'tirof ega. "Ibn Sino ruh va tana munosabatini aniqlab, musiqa bemorning jismoniy va ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Ibn Sino O'rta asrlardagi ruhiy tahlil va ruhiy muolaja asoschilaridan sanaladi. Uning bemor tomir urishiga qarab tashxis qo'yishi bunga yaqqol misol bo'la oladi"[3].

G'arbda Ibn Sino falsafasiga turli davrlarda turlicha yondashuvlar bo'lgan. Evropasentriзм vakillari Ibn Sinoni Aristotelning davomchisi, uning ta'limotini o'zlashtirgan va hech qanday yangicha alohida qarashlarga ega bo'lmagan olim sifatida e'tirof etishgan. 1525 yillarda G'arbda olimning asarlari Paraselsus (1493-1541. nemis tibbiyot olimi va faylasufi) tomonidan qora ro'yxatga kiritiladi. Nemis olimi N.Xassening fikricha, Ibn Sino barcha sohalarida Averois (Averois - Ibn Ro'shd, Ibn Sinoning shogirdi, uning ishlarini davomchisi va rivojlantirgan olim, faylasuf - A.T)ning lotin tilidagi ishlarini takrorlagan. U barcha sohalarida adashgan, hech narsani o'zi boshlamagan, balki Aristotelga ergashgan[6]. Albatta, bunday noxolis fikrlarni ko'plab G'arb,

xususan, nemis olimlari ham inkor etishgan. XX asrning taniqli falsafa tarixchisi A.Guashonning fikricha, Evropa O'rta asrlar falsafasida Ibn Sino ta'limotiga o'z munosabatini bildirmagan biron-bir faylasufni topish amri mahol. Ibn Sino qarashlarining ta'siri shu qadar keng ediki, hech kim u kabi O'rta asrlar G'arb falsafiy qarashlar g'oyasini qanday bo'lishini aytib bera olmas edi.

L.Gudmanning fikricha, "Ibn Sino metafizikasi mantiq olamiga yondashuvda muhim manba sanaladi. Uning qarashlari qalb erkinligi va abadiyligi, zamonga bog'liq va bog'liq emaslik kabi falsafiy masalalarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi" (Avicennas Metaphysik bleibt eine beständige Quelle der Einsicht in die Logik von Notwendigkeit und Kontingenzen und in die immerwährenden philosophischen Probleme von Freiheit und Unsterblichkeit, Zeitlichkeit und Zeitlosigkeit) [9].

G'arb ilm olamida Ibn Sinoning ilg'or fikrlaridan nafaqat falasafa, tib olami vakillari, balki adabiyot sohasi vakillari ham foydalanganlar, ular o'z ijodlarida uning nomini hukmat bilan tilga olganlar, xususan, buyuk italyan adibi Dante Aligeri (1265-1321) ijodida ham buni kuzatishimiz mumkin. Uning mashhur "Ilohiy komediya" asarida Ibn Sino nomi bir necha bor tilga olinadi.

Ko'zimni uzoqqa yugurtdim shunda:

Hisobdon Evklid, Batlimus, Galen,

Gippokrat, Ibn Sino, Ibn Rushd paydo —

Yangi g'oyalarni targ'ib etgan chin.

("Do'zax", IV, 142. Abdulla Oripov tarjimasida)

Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish va olim haqida risolalar yozish an'anasi XXI asr zamonaviy nemis adabiyotida ham davom etmoqda. Xususan, prof. Gotxard Shtromayerning 2006-yil ikkinchi bor nashrdan chiqqan "Avisenna" [9] nomli ilmiy-ommabop risolasi fikrimizning yorqin dalilidir. Muallif o'z asarida Ibn Sino hayoti va faoliyati, uning asarlari va ularning G'arb ilm-fani va falsafasiga ko'rsatgan ta'siri va ahamiyati haqida qimmatli fikrlar va ma'lumotlarni yoritib bergan.

Mazkur asar quyidagi qimmatli fikrlar bilan boshlanadi: "O'rta asrlarning biron bir musulmon olimi Ibn Sinochalik G'arb falsafasining bir qismi bo'la olmagan. Uning izlanishlari orqali Aristotelning ishleri G'arbiy Evropaga qaytdi. Olimning qomusiy "Kitob ash-shifo" asari Buyuk Albert va Tomas Akvuinlar ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi" [9].

G.Shtromayer ushbu risolada Ibn Sinoning sarguzashtlarga boy hayotini tasvirlaydi, uning asarlari tadqiqiga zamonaviy yondashadi va Ibn Sino ilmiy merosini G'arb falsafasi va tibbiyoti uchun ahamiyatli bo'lganligini ko'rsatadi. Risolada O'rta asrlar arab ilm fani, Buxoro, Isfahon saroyi, Sharqda yunonlar falsafasi, Aristotel qarashlari, Qur'oni karim mazmun-mohiyati, she'riyat, xatlar, ruh va tananing sog'lomligi, kasalliklar, kasalliklarni davolash, tabiiy fanlar, tibbiyotga oid fanlar, aniq fanlar, geodeziya, geologiya, mineralogiya va boshqa fanlar haqidagi Ibn Sino qarashlari va ularning ahamiyati haqida mushohadalar yuritadi va kerakli o'rinlarda sharhlar keltiradi.

XI asrda Yunon ilm-fanining islom olamida qo'llanishi Vizantiyadagi kabi odatiy holga aylanib qolgandi. Bog'dodda iml-fan shu darajada gullab yashnadiki, u erda islom olimlari boshqa din vakillari (nasroniylar kabi) bilan birga xushmuomalalik bilan birgalikda ijod qilardilar. Bunday pluralistik jamiyatning yorqin vakili bu, albatta, Ibn Sino bo'lib, uning bu jamiyatdagi o'rni beqiyos edi. Grek olimlari Aristotel va Platon haqida gap ketganda bir narsaga e'tibor qaratareb lozim. Ibn Sino grek ilmining davomchisi sifatida o'z falsafiy qarashlari va g'oyalari bilan Platonga shu darajada yaqinlikka erishdiki, o'z davrida Platon Aristotelga bu darajada yaqinlikka erishmagan edi [9].

Beruniy ilmiy merosini Evropaga tanitishda Berlin universiteti professori Eduard Zaxauning (1845-1930)

xizmatlari beqiyosdir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, olim Beruniyning "Sharq xalqlari xronologiyasi ("Chronologie orientalischer Voelker von Al Biruni")" [8] asarini nemis tiliga tarjima qiladi. E.Zaxau asarning kirish qismida Beruniy haqida ko'plab ijobiy fikrlarni bildiradi. Jumladan, "Uning uslubi murakkab edi, ma'lumotlari alohida mavzuga oid bo'lib, qisqa, lo'nda, aniq va tiniq. Uning asarlari boshlang'ich bilimga ega bo'lganlar uchun emas, balki shu sohaning mutaxassislari uchun mo'ljallangandir. Uning maqsadi o'quvchiga tushunishni qiyinlashtirish emas, aksincha, o'quvchi o'z aql-idroki va bilim saviyasiga tayangan holda asar mazmun-mohiyatiga yo'l topishga chorlaydi. Nafaqat uning uslubi, balki asar predmeti ham o'quvchidan turli sohalardagi bilimlarni talab qiladi (Jedoch sein Stil war - und ist - ausserordentlich schwer; er schreibt absichtlich — nicht dunkel, aber kurz, praegnant und stets nur zur Sache; er schreibt nach eigenem Geständniss nicht für Anfänger, sondern für Gelehrte; es liegt nicht in seiner Absicht, dem Leser die Arbeit leicht zu machen, sondern er verlangt, dass dieser mit eigener Anstrengung und mit dem ganzen Aufwand seines eigenen Wissens sich durch sprode Form den Weg zu dem schwer faßlichen Inhalt bahne)" [8].

E.Zaxau umrining oxirigacha Beruniy ilmiy asarlarini katta qiziqish bilan o'rgandi va Beruniy ilmiy merosi yuzasidan tadqiqotlar olib bordi

Germaniyada E.Zaxau qatorida yana ko'plab olimlar Beruniy asarlarini tadqiq qilishga kirishdilar, ulardan biri erlangiyalik fizika professori Aylxard Videman (1852-1928)dir. U asosan Beruniyning tabiatshunoslikka oid asarlarini tadqiq etadi va ulardan bir qismini nemis tiliga tarjima qiladi, bir qismiga ilmiy sharhlar yozadi. Videman o'z ishlarini muntazam ravishda hamkasblari va talabalari bilan muhokama qilib boradi. Uning bir necha maqolalari Erlangen fizika-tibbiyot kengashining ilmiy axborotida e'lon qilinadi [7] Bundan tashqari uning ilmiy izlanishlari natijasi vaqtli matbuotda ham e'lon qilinib turadi, shundan so'ng Beruniy ilmiy merosiga o'sha davr ilm ahlining qiziqishi yanada ortadi. Ayniqsa, Beruniyning geografiya (er tuzilishi, er o'lchash, er harakati), mineralogiya, astronomiya (oy, quyosh tutilishi) va trigonometriya sohasidagi qo'lyozmalari o'sha davr olimlarida katta qiziqish uyg'otgan.

Videman 1920-21 yillarda shveysariyalik matematik olim X.Zuter bilan birgalikda "Beruniy va uning asarlari haqida" nomli kitobini nashr qildiradi. Videman o'z tadqiqotlari davomida Beruniyning "Mas'ud qonuni" asariga ham murojaat qiladi. U bu asardagi "Fors astronomlarining trigonometrik ilmlari" nomli bobiga o'z e'tiborini qaratadi, lekin o'z fikrlari va sharhlarini e'lon qila olmaydi. Videman o'limidan so'ng uning ishlarini Yu.Ruska va H.Vilayterlar [7] davom ettirishadi.

1930 yillarda prof. Paul Kale (1875-1964) tashabbusi bilan Bonnda Beruniy ilmiy merosini o'rganadigan "Beruniy" tadqiqot markazi ochiladi. P.Kalening shaxsan o'zi Beruniyning "Mineralogiya" asaridan joy olgan tog' jinslari, oyna va chinnilar (Xitoy chinnilarida sharq manbalari) haqidagi bo'limlarni chuqur tadqiq qiladi. Mazkur markazda ko'plab olimlar, xususan, prof. Ahmad Zaki, Muhammad Yahyo Hoshimi, Toqi al-Hiloli va boshqa olimlar Beruniy ilmiy merosini tadqiq qilish bilan shug'ullanganlar.

XX asr oxirlarida ham Beruniy ilmiy merosi nemis olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilgan. Nemis olimi V.Xalbfass "Hindiston va Evropa" kitobida Beruniyning "Hindiston" asari haqida to'xtalar ekan, uni mazmun va mohiyat jihatidan zamonaviy hindshunoslikdagi muhim manba sifatida yuqori baholanishini e'tirof etadi [4].

G.Shtromayer Beruniy ilmiy merosi bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan nemis olimlaridan biridir. U Beruniyning ko'plab asarlarini o'rganib, ulardan ayrimlarini tarjima qilgan, tadqiqotlari yuzasidan maqolalar yozgan. U o'zining "Al-Beruniy – G'arbda e'tibordan chetda qolgan olim" nomli maqolasida Beruniy ilmi merosiga atroflicha yondashib, alloma haqida iliq fikrlarni bildiradi. Chunonchi, "O'rta asrlar Sharq ilm-fanning etuk olimi Al-Beruniy G'arbdagi rivojlanishlarni bir necha asr oldin bilgan. Agar ming yillar oldin Nobel mukofoti bo'lganda edi, u, shubhasiz, musulmon olimlariga berilar edi. Evropaliklar rimliklar ilmiy merosi ta'siri ostida yurgan vaqtlarida, Sharqda islom hukmronligi ostida o'zgacha iqlim hukm surardi. Ular tabiat hodisalari, matematika, tibbiyot sohalarini o'rganishardi, ba'zilar esa maxsus fanlar bilan shug'ullanardilar" [10] – deydi.

G.Shtromayer Beruniy ilmiy merosi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari natijasi o'laroq, 1991 yil o'zining "Al-Biruni. In den Gaerten der Wissenschaft" [11] nomli risolasini chop ettirdi.

Mazkur asar Beruniy ilmiy merosining zamonaviy nemis adabiyotida o'rganilishiga yana bir yorqin misol bo'ldi. Kitob mutarjimning kirish so'zi bilan boshlanadi. Unda muallif Sharq va G'arb o'rtasidagi ilmiy hamkorlik tarixi, Sharq olamining yirik daholari xususida qimmatli ma'lumotlar berarkan, Beruniy siymosi hamda uning G'arb ilm-fani rivoji ta'siriga alohida to'xtaladi. Xususan, Beruniyning "Hindiston" kitobini yozilish tarixi, uning ilmiy va amaliy ahamiyati haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirgan.

Muallif o'zining kirish so'zida Beruniyning so'nggi asari "Dorishunoslik" haqida ham to'xtalib, uning amaliy ahamiyati, asarda berilgan dorivor o'simliklar, hayvonlar, oziq-ovqatlar hamda anorganik moddalarning alfavit shaklidagi ro'yxatini, Beruniy ushbu asarida tegishli modda va unsurlarning turli til va shevalarda qay tarzda nomlanishini ko'rsatib berganligini hamda bu asar o'sha davrda xalqaro tartibdagi farmasevtik nomenklaturani yaratilishi soha rivojida katta ahamiyat kasb etganini e'tirof etadi.

G.Shtromayer Beruniy dahosiga chuqur hurmat bilan qaraydi. Buni uning quyidagi fikridan ham bilib olish mumkin. "Beruniy o'z qiziqishlari doirasining kengligi, qarshilarining teranligi, aniq va lo'nda asosga ega tadqiqotlari bilan Sharq o'rta asrlar ilm-fanining etuk allomasidir (Al-Biruni, den man nach der Weite seiner Interessen, der Fuelle seiner neuen Denksaetze und der Exaktheit seines Messens und Rechnens sicher zu Recht als den bedeutendsten Wissenschaftler des ganzen islamischen Mittelalters ansieht, ...)" [11]

**Xulosa va takliflar.** Fikrimizcha, Ibn Sinoning hayoti va ijodi, qolaversa, keyingi hayotini madaniy-tarixiy aspektda yoritish hozirgi zamon G'arb sharqshunoslari va evropasentriзм vakillari o'rtasidagi tortishuvli mavzuga aylanib qoldi. Zero, buxorolik faylasuf o'z vaqtida turli millat va elatlar urf-odatini va madaniyatidan tashkil topgan islom madaniyatining etuk vakili sifatida G'arbiga Evropa merosining bir qismiga aylangan Yunon ilm-fanini dunyo miqyosidagi o'rnini va greklar ilmiy merosi faqatgina g'arblilarga tegishli emasligini tushunishga turtki berdi.

Nemiszabon adabiyotlarda Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy dahosi hamda uning ilmiy merosi ijobiy tasvirlangani va yuksak e'tirofga ega ekanligini ular haqida yaratilgan tarixiy, ilmiy-ommabop asarlar isbotlab beradi hamda mazkur asarlar soha mutahassislari keyingi tadqiqotlarga undaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сулаймонова Ф. Шарк ва Фарб. – Б. 231.
2. Avicenna. Ibn Sina. – Enzyklopaedie des Islam. Pdf. 2009



3. Bloch E. Avicenna und die aristotelische Linke. Leipzig, 1949. – 72 S.
4. Halbfass W. Indien und Europa. – Stuttgart: Basel, 1981. – 120 S.
5. Hasse N. Avicenna. Pdf. 2006
6. Horten Max. Das Buch von der Genesung der Seele. Eine philosophische Enzyklopädie Avicennas. Übers. und erläutert von. – Bonn: 1906.
7. Roemer R. – Hannover: 1927. XII und 108 Seiten
8. Sachau E. Chronologie orientalischer Voelker von Albiruni. – Leipzig: Otto Harrasowitz, 1923. – S. 490.
9. Strohmaier G. Avicenna. – Muenchen: Beck, 2006. – 210 S.
10. Stohmaier G. Al-Biruni ein Gelehrter, den das Abendland uebersah. Spektrum der Wissenschaft, 5/2001. – 102 S.
11. Strohmaier G. Al-Biruni. In den Gaerten der Wissenschaft. – Leipzig: Reclam-Verlag, 1991. – 320 S.



*Islomjon UMRZAQOV,*  
*Namangan davlat chet tillari instituti kafedrasida mudiri, PhD*  
*E-mail: islom.umrzakov@mail.ru*

*Namangan davlat universiteti professori, f.f.d Z.Sadiqov taqrizi asosida*

### THE INFLUENCE OF THE "SOUTHERN RENAISSANCE" ON THE WORK OF WILLIAM FAULKNER

Annotation

When we study the literature of the United States of America, we observe the uniqueness of the literature of the southern regions of this country. It is this uniqueness that always attracts the attention of literary critics of the world. The Southern Renaissance can be characterized as an unprecedented event in American history. In this article, the influence of the Southern Renaissance on the work of William Faulkner is revealed through an artistic analysis of the writer's stories.

**Key words:** Southern Renaissance, artistic space, dramatic nature of the work, image, theme, novel, social and ethical issues

### ВЛИЯНИЕ «ЮЖНОГО РЕНЕССАНСА» НА ТВОРЧЕСТВО УИЛЬЯМА ФОЛКНЕРА

Аннотация

Когда мы изучаем литературу Соединённых Штатов Америки, мы наблюдаем уникальность литературы южных регионов этой страны. Именно эта уникальность всегда привлекает внимание литературных критиков мира. Южное Возрождение можно охарактеризовать как беспрецедентное событие в американской истории. В данной статье влияние Южного Возрождения на творчество Уильяма Фолкнера раскрывается через художественный анализ рассказов писателя.

**Ключевые слова:** Южное Возрождение, художественное пространство, драматизм произведения, образ, тема, роман, социально-этические проблемы.

### UILYAM FOLKNER IJODIGA “JANUB RENESSANSI” TA’SIRI

Annotatsiya

Amerika Qo’shma Shtatlari adabiyotini o’rganar ekanmiz, uning janubiy o’lkalari adabiyotidagi o’ziga xoslikni kuzatamiz. Aynan ana shu o’ziga xoslik hamisha dunyo adabiyotshunoslari e’tiborini tortib keladi. Janub Renessansini Amerika tarixida o’xshashi yo’q hodisa deb ta’riflash mumkin. Ushbu maqolada Janub Renessansining Uilyam Folkner ijodiga ta’siri adib hikoyalarning badiiy tahlili orqali ochib beriladi.

**Kalit so’zlar:** Janub renessansi, badiiy makon, asar drammatizmi, obraz, tematika, roman, ijtimoiy-axloqiy muammolar.

**Kirish.** Badiiy adabiyotdagi ramziy naturalizmning yangi an’anasi Buyuk Tushkinlik davrida Uilyam Folkner va “Qochqinlar” guruhi tomonidan to’g’ri ochib berilgan. Folkner va “Qochqinlar” o’rtasida o’zaro adabiy ta’sir qay darajada bo’lganini aytish mushkul. Vaholangki, J. K. Rensom, A. Teyt va D. Devidsonlar ham, Folkner ham Yangi Orleandagi “The Double Dealer” jurnalida o’z she’rlarini chop ettirishardi. Bu insonlarning hammasi bir paytda o’zlariga tegishli bo’lgan Janubning o’tmish merosini qaytadan o’rganib chiqishni boshlagan edilar.

Yozuvchi ijodiy faoliyatida Shervud Andersonning ta’siri juda katta bo’lgan. Shervud Anderson unga o’ziga tanish bo’lgan o’lka va uning odamlari haqida yozishni maslahat beradi. Ushbu maslahatga amal qilgan Folkner o’zi bilgan odamlar haqida yoza boshlaydi. Aksariyat asarlaridagi voqealar sodir bo’ladigan Yoknapatofa okrugini yaratadi va ana shu o’lka odamlari hayoti, taqdirini qog’ozga tushira boshlaydi. Bu haqda yozuvchining o’zi ham bergan intervyusida tasdiqlaydi: “Sartoris (Sartoris)”dan boshlab, men ona yurtimning pochta markasi katalogidagi bir bo’lagi yozishga arziydigan va loyiq ekanini hamda bu mavzu hech qachon tugamasligini xis qildim... Bu menga oltin konini ochib berdi, men o’z koinotimni yaratdim”[1]. Eng muhim, u sirli Mississipi o’lkasining tabiati va insonlari obrazini yaratadiki, bu uning ishlari asosini tashkil etardi. Zero, uning qalamiga mansub o’n to’qqiz asardan o’n to’rttasi o’zi o’ylab topgan va Amerika Janubida joylashgan Yoknapatofa okrugi odamlari va madaniyatini tasvirlashga yo’naltirilgan edi [2].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Uilyam Folknerning tinimsiz izlanishlari va mehnati natijasida Amerikaning Janubi haqidagi uchta o’lmas va nodir asari dunyoga keldiki, bular “Shovqin va g’azab (The sound and the Fury)”, “Avgustdagi yorug’lik (Light in August)” va “Absalom, Absalom! (Absalom, Absalom)” romanlari edi. Bu romanlar silsilasida Folkner dunyoga keyinchalik mashhur bo’lgan yettita monumental xarakterini – Tomas Satpen, Jou Kristmas, Dilsni Gibson, Benji, Jeyson, Kendeys hamda Kventin obrazlarini yaratadi.

Yozuvchi ijodiyotining maxsul bo’lmish badiiy makon – Yoknapatofa adibga tanish odamlar bilan gavjum bo’lib, go’yoki muallif o’zi yaratgan obrazlarga aloqador emasdek, bu insonlar o’z hayotiy muammolari bilan band edilar. Folkner endi nima qilishyapti ekan, nimalar haqida o’ylashyapti ekan degandek vaqti-vaqti bilan avvalgi asarida yaratilgan obrazlarga murojaat qiladiki, ba’zan o’zi ham ko’rgan va kuzatgan narsalaridan xayratga tushadi. Adib har bir personajiga quloq tutadi, ulami jon dili bilan tinglaydi, qahramonlari ham unga boriki narsani aytib berishadi.

Adabiy tanqidchi Ibrohim G’afurov ta’kidlaganidek, ijodkor shaxsi va uning qarashlarining jami – u yozgan asarlarining qavatlariga singib ketadi, uning nuqtayi nazarini tasvirlagan hayot voqealarining zamirida aks etadi, u hayotdan yozilajak narsani ham ma’lum bir nuqtayi nazar bilan ajratib, saralab oladi, ma’lum bir nuqtayi nazardan turib ajratadi, yondashadi, mazmun beradi, ma’no chiqaradi[3]. Folkner ham Amerika Qo’shma Shtatlari janubidan bitta okrug va unda

istiqomat qilvchi ma'lum bir insonlar guruhini ajratib oldiki, bu insonlar obrazlari uning deyarli barcha asarlarida takror va takror, qayta va qayta gavdalaniriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Folkner personajlarini ijobiy yoki salbiy qahramonlarga bo'lishga urinish noto'g'ri. Uning asarlaridagi obrazlar hayotdan boricha olingan tipik vakillardir. Ulkan hayot haqiqati, boyligi, rang-barangligi, xilma-xil personajlar orqaligina adabiyotda to'laroq namoyon bo'ladi; hayot haqiqatini, yetakchi tendensiyalarini ziddiyatli, murakkab, kurashchanlikdan xoli hattoki salbiy, satirik personajlar orqali ham ifoda etaverish mumkinligi, bunday hollarda butun gap yozuvchining pozitsiyasiga bog'lik [4].

Shervud Anderssoning Folkner ijodi tematikasiga ta'siri katta bo'lganini rad etish qiyin, biroq yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, Folknerga ta'sir o'tkazgan boshqa omillar ham mavjud edi. Bu omillar bevosita o'sha davr yozuvchilari ijodi tematikasi, asarlarda ko'tarilgan g'oyalar, Shimol va Janub o'rtasida bir asr oldin kechgan Fuqarolar urushi va uning natijalari, Shimol va Janub odamlari ijtimoiy hayotidagi farqlar, ma'naviy qarashlar, e'tiqod va an'analar bilan bevosita bog'liq edi.

Folkner ijodi maxsuli bo'lmish romanlari va hikoyalarning deyarli barchasi, bir-ikkita asarini hisobga olmaganda, Amerika Janubidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar, janubliklarning turmush tarzlariyu xis-tuyg'ulari va kechinmalari, baxtli va baxtsiz kunlari, ayniqsa, Janub jamiyatining inqiroziga bag'ishlangandir[5].

Zamondosh yozuvchilar qatori Uilyam Folkner ham tarixiy mavzudagi asar yaratgan. 1938-yilda uning "Yengilmaslar (The Unvanquished)" romani dunyo yuzini ko'radi. Folknerning deyarli barcha asarlarida Fuqarolar urushi yoki Qayta tiklanish davri voqealari haqida hikoya qilinadi, biroq "Yengilmaslar (The Unvanquished)" asarida bu mavzu markaziy o'rin egallaydi. Roman "Pistirma (Ambuscade)", "Chekinish (Retreat)", "Yurish (Raid)", "Yengilmaslar (The Unvanquished)", "Vandeya (Vendée)", "Drusilla (Drusilla)" hamda "Verbena bo'yi (An Odor of Verbena)" kabi hikoyalari asosida yozilgan.

Faktlar, faktlardan chiqariladigan xulosalarga, faktlar sodir bo'lishining jonli tafsilotlariga kelganda, saxiy tarix g'oyat xasislik qiladi. Tarix fakt sifatida Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Fuqarolar urushida Shimol Janub ustidan g'alaba qozondi, deb qayd etib o'tadi. Lekin buning barcha jonli, hayotiy, psixologik tomonlarini batafsil yoritib bermaydi. Biroq yuksak iqtidorli, kuchli mushohada va tasavvur qobiliyatiga ega bo'lgan adibga shu faktning o'zi ulug' bir asar yaratish uchun tugun bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Janublik zamondoshlari qatori Folkner ham romanga Fuqarolar urushi davrida yashagan oila tarixini asos qilib oladi. Garchi zamondoshlari kabi tarixiy mavzuga murojaat qilgan bo'lsada, "Yengilmaslar (The Unvanquished)" romani g'oyaviy jihatdan Kerolayn Gordon, Stark Yanglarning asarlaridan katta farq qilardi. I.B.Arhangelskayaning fikricha, boshqa "janub" romanlaridan farqli ravishda "Yengilmaslar (The Unvanquished)"da urushgacha bo'lgan baxtli, tinch va osuda kunlar tasviri yo'q. Janub va Shimol o'rtasidagi urush tasvirlari yo'q. To'g'ri, shimolliklar armiyasi tomonidan front ortida amalga oshirilgan talonchiliklar romanda o'z ifodasini topgan. Biroq boshqa tarixiy asarlardagi kabi, "Yengilmaslar (The Unvanquished)"da hamma janubliklar ham mard va olijanob kishilar sifatida tasvirlanmagan. "Yangi janub"ning qo'rqinchli tomonlari ham adib tomonidan ko'rsatib berilgan. Zero, qariya Milard xonimni ham aynan "yangi janubliklar" – Eb Snoups va Granbilar o'ldirishadi [6].

Zo'ravonlik, shafqatsizlik va o'ch olish "Yengilmaslar (The Unvanquished)" romani syujetini tashkil etuvchi motivlardirki, bu Folknerga xos uslub edi. Garchi romanda qotilliklar, qasos olish kabi syujet liniyalari katta o'rin

egallasada, muallifning asosiy nuqtayi nazari voqealarning o'zi emas, balki inson psixologiyasi, ayrim janubliklarning ana shu voqealarga munosabatiga qaratilgan edi. Xususan, bosh qahramon – Bayard Sartorisning ichki kechinmalari butun asar drammatizmi asosini tashkil etadi. O'sha davr janublik yozuvchilarning asarlari bosh qahramonlari kabi Bayard Sartoris ham "eski Janub" urf-odatlarini, an'analarini asosida tarbiya topgan. Asardagi ko'plab o'rinlarda insonlar xarakteridagi ijobiy xislatlarni tasvirlovchi epizodlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Bayard Sartorisning buvisi – miss Roza taqvodor ayol sifatida gavdalaniriladiki, bu yosh Bayardning tarbiya topishida alohida o'rin tutganidan dalolatdir: ...She got out of the chair, holding to us. We didn't know what she was trying to do. We just stood there while she held to us and to the chair and let herself down to her knees beside it. It was Ringo that knelt first. Then I knelt too while she asked the Lord to forgive her for telling the lie. Then she rose; we didn't have time to help her. "Go to the kitchen and get a pan of water and the soap," she said. "Get the new soap" [7].

Tarjimasi: "... Bizning yordamimiz bilan o'rnidan turdi. Nimagaligi aniqmasdi. Bizga, kresloga suyandi, keyin tiz cho'kdi. Birinchi bo'lib Ringo ham uning yoniga tiz cho'kdi. Keyin men ham, keyin uning xudodan o'z yolg'onlari uchun kechirim so'rab iltijo qilayotganini eshitdik. So'ngra o'rnidan turdi; biz unga yordam berishganda ulgurmadik.

Oxshonaga borib, bir tog'ora suv olib chiqinglar, tunuka idish va sovunni ham olvolinglar, - dedi u. – Yangisini".

Mazkur parchada bosqinchi shimolliklarga miltiqdan o'q uzgan nevarasini uyda yo'qligini aytib yolg'on gapirgan ayolning xudodan o'z yolg'onlari uchun kechirim so'rab iltijo qilgani to'g'risidagi epizod keltirilgan.

Roman nomidan ham ko'rinib turibdiki, "Yengilmaslar"da yozuvchi qaysidir darajada janubliklar tomonida ekani sezilib turadi va tarixiy voqealarni talqin etishda xolislik yo'lini tutmaydi. Janub jamiyatidagi ayrim an'analar talqinida ham noxolislik kuzatiladi.

Ko'rib turganingizdek, Folknerda ham Fuqarolar urushigacha bo'lgan davrni ideallashtirish, oq tanlilar va negrlar o'zaro ittifoqlikda yashaganliklariga urg'u berish xohlatlari uchraydi. Albatta, bu xolat uning hamma asarlariga ham xos emas. Biroq "Yengilmaslar"da bu yaqqol ko'rinadi.

Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamondosh yozuvchilardan farqli o'laroq Folkner Janubning Shimoldan yengilishi natijasida yuzaga kelgan yangi davrga nisbatan o'zgacha qarashlarga ega edi. U ko'plab asarlarida voqealarga obyektiv nuqtayi nazardan qarashga, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar muqarrar ekani va ortga yo'l bo'lishi mumkin ham emasligi, yangi avlodning yangicha qarashlari oldida eskicha an'analar chirkin tus olayotganini tasvirlab beradi.

Fikrimizcha, Folkner "Yengilmaslar"da an'anaviy jamiyatning halokatga mahkum ekanini ko'rsatib beradi. Asar qahramonlarining harakatlarida ham buni yaqqol kuzatish mumkin.

Asarning yutug'i shundaki, Folkner tasvirlagan har qanday fakt, har qanday voqea davrning o'zidan saylab olingan, tarixda haqiqatan sodir bo'lgan voqealar bilan "o'ylab topilgan", "uydirma" voqealar bir-biridan uzib qo'yilmagan.

Adabiyotda bir mavzuning har xil yozuvchilar tomonidan qayta-qayta takrorlanganligini ko'rsatuvchi faktlarni ko'plab keltirsa bo'ladi. Bir mavzuda ko'plab badiiy asarlar yaratilishi mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlari tarixidagi Fuqarolar urushiga bag'ishlangan badiiy asarlar ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Lekin takrorlangan mavzuda yozuvchi yangi gap ayta olishi kerak. Aks holda muallifning yaratgan asari yangilikdan mahrum bo'lib qoladi. Bizning

fikrimizcha, Folkner Fuqarolar urushi haqida yaratgan bu asarida zamondoshlaridan farqli o'laroq yangi gap aytgan.

Garchi asar qotilliklar, qasos olish kabi syujetlarga boy bo'lsa-da, yozuvchini ro'y bergan voqealilar emas, balki inson psixologiyasi ko'proq qiziqtiradi. Aynan bosh qahramon Bayard Sartorisning ichki kechinmalari asar dramatismini markazini tashkil etadi. Bayard otasi, buvisi va o'gay onasidan farqli o'laroq voqealilarga boshqacha ko'z bilan qaraydi. U garchi Janub an'analariiga ayrim hollarda amal qilsa-da, shimolliklarga nisbatan ko'r-ko'rona nafrat xis qilmaydi. O'z sha'ni va g'ururini saqlagani holda, Bayard otasi uchun qasos olishdan bosh tortadiki, bu janub adabiyotiga xos bo'lmagan yangi an'ana edi.

“Emili uchun atirgul (A Rose for Emily)” hikoyasida Folkner Janubning eski va yangi tuzumlarini o'rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Hikoya 1930-yilda chop etilgan bo'lib, undagi voqea-hodisalar Mississippida, o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan Janubda ro'y beradi. Hikoya Emili xonimning o'limi voqealari bilan boshlanadi va shu yerning o'zida adib uni “qulagan ma'bud”ga mengzaydi. Mana shu ta'rifning o'zi ham Emili xonim Janubning o'tmishi ramzi ekanidan yaqqol dalolat beradi. Keyingi o'rinlarda ham Janubning o'tmishi hamisha kitobxonga eslatib boriladi. Masalan: And now Miss Emily had gone to join the representatives of those august names where they lay in the cedar-bemused cemetery among the ranked and anonymous graves of Union and Confederate soldiers who fell at the battle of Jefferson [8].

Tarjimasi: Mana endi qazo soati yetib miss Emili ham qarag'ay butalari o'sib yotgan shahar mozoridagi o'z joyiga ravona bo'ldi, bu mozorlikda hamon Jefferson yaqinidagi jangda halok bo'lgan federal qo'shinlar va konfederat soldatlarining (ular ichida nomsiz qabrlar ham ko'p) so'nggi oromgohlari saqlanib kelar edi [9].

Yuqoridagi misolda adib Janubning turmush tarzi uchun kurashganlar qatoriga eski jamiyatning eng so'nggi vakilasi ham jo'natilganiga, endi yangi davr boshlanishiga ishora etmoqda. Asardagi keyingi jumla ham ayni hozirgi fikrning davomi kabi jaranglaydi: Alive, Miss Emily had been a tradition, a duty, and a care [8].

Tarjimasi: Miss Emili hayot ekan, shahar o'z ustiga olgan qadim an'ana, qarzdorlik va o'ziga xos ma'naviy burchning mujassam timsoli edi [9].

Asarning deyarli har bir satridan eskilik va yangilik o'rtasidagi kontrastlarni ilg'ab olish mumkin: When the next generation, with its more modern ideas, became mayors and aldermen, this arrangement created some little dissatisfaction [8].

Tarjimasi: ...shahar munitsipalitetiga boshqa bir davrda tarbiyalangan, zamonaviyroq g'oyalar egasi bo'lmish yangi odamlar nasllari kelishganda... [9].

Yuqoridagi parchadan ko'rinib turibdiki, endi shahar yangicha davr odamlari boshqaruvida. Ular yangi jamiyat, yangicha tartib-qoidalar asosida hayot kechirishadi. Biroq hali-hanuz o'z qobig'iga berkinib olgan, yangilikni qabul qilishni istamaydigan, o'jar va qaysar odamlar ham borki, ular o'tmishdagi voqealarga, an'analarga mahkam yopishib olishgan.

Hikoyada Shimol va Janub o'rtasidagi qarama-qarshilik asar boshidan to oxirigacha markaziy muammo

sifatida ko'tariladi. Janubning qaysar, eskicha yashash tarafdori Emili xonimga yangi jamiyat bilan bir qatorda, Shimoldan kelgan yanki – Gomer Berron obrazi ham qarshi qo'yiladi. Janubliklarning o'sha paytlarda shimolliklarni mensimaganini, ulardan nafratlanganini ayrim parchalar mazmunidan ham bilib olish mumkin. Masalan: ...”Of course a Grierson would not think seriously of a Northerner, a day laborer [8]”.

Tarjimasi: ...E, qo'yinglar, axir shu Griersonlar shimoldan kelgan va buning ustiga yollanib ishlaydigan odamni nazar-pisand qilisharmidi?”, deganlari degan edi [9].

Hikoyaning asosiy g'oyasi Emili Griersonning yangiliklarni qabul qila olmasligi, o'zgarishlarga ko'nika olmasligi masalasidir. Emili xonim o'zining eskicha qarashlari bilan o'tgan zamonda tiqilib qolgan, o'zining xayolot dunyosida yashar, yangicha qarashlarni tan olgisi kelmasdi:

— Biz shunday qildik, miss. Biz shahar idorasidanmiz. Nahot siz sherif imzo chekkan xatimizni olmagan bo'lsangiz?

— Ha, bir nima kelganday bo'luvdi, — dedi miss Emili. — Demak, u o'zini sherif deb hisoblar ekan-da... Lekin men Jeffersonda soliq to'lamayman [9].

Parchadan ko'rinib turibdiki, Emili xonim hatto qonun himoyachisi – sherifni ham tan olmasligini va shu bilan birga shahar munitsipalitetidan kelgan vakillarni ham nazar-pisand etmasligini namoyish etadi. U yangi jamiyat qonunlarini pisand etmagan holda soliq to'lashdan ham bosh tortadi.

Biroq bu bilan Folkner eskicha qarashlarni tamomila rad qilgan deb aytish noo'rin bo'lardi. Zero, asar nomidan ham ko'rinib turibdiki, adib Janubning an'analariiga sodiq qolgan, o'z qarashlari, aqidalaridan voz kechmagan Emili Grierson oldida qaysidir ma'noda bosh egadi. Yozuvchining ta'kidlashicha, hikoya nomi majoziy ma'noda. “Qarshimizda – ayol taqdiri fojeasi, oqibatini o'zgartirib bo'lmaydigan, to'g'rilab bo'lmas fojea; biroq men bu ayolga achinaman, shuning uchun hikoya nomi orqali, xuddi qo'limni chakkamga qo'yib harbiylaracha salom berganday, go'yoki unga hurmatimni bajo keltiraman; ayollarga bunday xolatlarda atirgul taqdim etishadi...” [1].

Adabiyot ilmidan ma'lumki, har qanday kundalik hayotiy hodisalarni, odamlar orasida bo'lib o'tgan turli voqea-hodisalarni oq qog'ozga tushirish bilan roman paydo bo'lib qolavermaydi. Haqiqiy asar jamiyat tarixidagi, xalqning ma'naviy hayotidagi burilish pallalarini o'zida aks ettirishi lozim. Folkner asarlarida, u qanday janrda yozilgan bo'lmasin, biz ana shunday adabiy hodisani kuzatamiz. Shuning uchun ham uning asarlari o'zining badiiy qiymatini hali-hanuz yo'qotgani yo'q.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asrning 20-30-yillarida Amerika Janubida yashab ijod qilgan adiblarning asarlarida ma'lum bir umumiylikni kuzatish mumkin. Bu umumiylik Janubning urushga qadar ideal hayoti, eski davrlarni sog'inish, janublik olijanob aristokrat, janublik go'zal qiz, yaramas yanki, sadoqatli qullar obrazlarida namoyon bo'ladi. Biroq, Uilyam Folkner asarlarida (bir-ikkita asarlaridan tashqari) zamondosh yozuvchilardan farqli ravishda, Fuqarolar urushidan oldingi davr, urush payti va urushdan keyingi jarayonlar bo'rttirishlarsiz, boricha va xolisana tasvirlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Фолкнер У. Статьи, речи, интервью, письма / Пер. с англ.; Сост. и общ.ред. А.Н. Николоюкина. – М., 1985. с.244.
2. Williamson, Joel. William Faulkner and southern history. Oxford university press. New York, 1993. P.6.
3. Фафуров И. Ям-яшил дарахт. Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент – 1976. 40-бет.
4. Норматов У. Етуклик. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. 43-бет.
5. <https://old.mgpu.ru/materials/directions/1019/programfle.pdf>, 45.03.01. Филология АРКИ.pdf.
6. Архангельская И.Б. Концепт “Американский Юг” в романе Уильяма Фолкнера “Непобеждённые” // Вестник Нижегородского университета имени Н.И.Лобачевского, 2014. №2. Стр.99.
7. Faulkner, William. The unvanquished. First Vintage International Edition, October 1991, ISBN 0-679-73652-2, p 34-35.

8. Faulkner W. Collected stories of William Faulkner // New York : Random House, 1950
9. Фолкнер У. Эмили учун атиргул. И.Фафуров таржимаси // Ёшлик журналы, 1986. №6.
10. Isroilovich U. I. A Special Interpretation Of South-North Relations In The Works Of William Faulkner //European journal of literature and linguistics. – 2023. – №. 1. – С. 16-19.



UDK:82/81

Saodatxon URINBOYEVA,  
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: muslimagolibqizi@gmail.com

f.f.f.d., dots. D.N.Satimova taqrizi asosida

## COMPARATIVE ANALYSIS OF PHONE COMMUNICATION AND ADJACENT COMMUNICATIONS

Аннотация

This article is dedicated to research of isomorphic and allomorphic aspects of telephone communication and parallel communications. The article summarizes the theoretical opinions of world linguists and Western and Uzbek linguists and gives general conclusion. Different aspects of telephone communication from other forms of communication are presented with the help of examples.

**Key words:** Communication, pragmalinguistics, television, radio, nonverbal means of communication.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕЛЕФОННОЙ СВЯЗИ И ДРУГИХ СВЯЗЕЙ

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию изоморфных и алломорфных аспектов телефонной связи и параллельных коммуникаций. В статье обобщаются теоретические мнения мировых лингвистов, западных и узбекских лингвистов и даются общие выводы. На примерах представлены отличия телефонного общения от других форм общения.

**Ключевые слова:** Коммуникация, прагмалингвистика, телевидение, радио, невербальные средства коммуникации.

## TELEFON KOMMUNIKATSIYASI VA YONDOSH KOMMUNIKATSIYALAR QIYOSIY TADQIQI

Аннотация

Ushbu maqola telefon kommunikatsiyasi va unga parallel kommunikatsiyalarning umumiy va xususiy jihatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Maqolada dunyo tilshunoslarining hamda yaqin g'arb va o'zbek tilshunoslarining nazariy fikrlari jamlanib umumiy xulosalar berilgan. Telefon kommunikatsiyasining boshqa yondosh kommunikatsiyalardan farqli jihatlarini misollar yordamida ifodangan.

**Kalit so'zlar:** Kommunikatsiya, pragmalingvistika, televideniya, radio, noverbal muloqot vositalari.

**Kirish.** Globallashib borayotgan zamonaviy dunyoda bugungi kunda kommunikatsiya tushunchasi nafaqat axborot almashinuvi, shuningdek ko'plab boshqa tushunchalar va his tuyg'ular almashinuvi ham anglatadi. O'tmish bilan solishtirganda bugungi kunda masofaviy muloqot qilish alohida tadbir yoki tayyorgarlik ko'rib amalga oshiriladigan jarayon emas. Birgina telefon aloqasining vujudga kelishi insoniyat turmushini yengillashtiribgina qolmay, ilm-fan sohasida ham turli yo'nalishlar paydo bo'lishiga turtki bo'lgan deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Telefon orqali muloqot qilish boshqa turdagi kommunikatsiyalardan bir necha afzalliklari bilan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyatlari boshqa yondosh kommunikatsiyalar bilan qiyosiy tadqiq qilishga imkoniyat yaratib beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dastlabki telefon apparatlarining vujudga kelishi ko'plab sohalarida katta ahamiyatga ega fenomen bo'lganligi bugungi kunda hech kimga sir emas, shu jumladan tilshunoslik paradigmasida ham telefon tarmog'i rivoji bilan parallel ravishda turli xil tadqiqod yo'nalishlari paydo bo'lib bordi. Aynan mobil vosita orqali muloqot qilishning ierarxiyasida lingvapragsmatik va kognitiv jihatlariga ko'ra tadqiq qilish borasida dastlabki qadamlar g'arb olimlari tomonidan tashlandi. Jumladan, Syuzan Gerrings, Steyn Diyet, Tuji Vertanen [1] hammuallifligida telefon kommunikatsiyasi mavzusida amalga oshirilgan tadqiqodlarni yig'ilib, "Pragmatics of Computer-Mediated Communication" sarlavhasi ostidagi ilmiy asar ommaga namoyish etildi. A. Adrian, A. Richard, K. An Farmer, M. Robertning "Linguistics: An Introduction to Language and Communication" [1] tilshunoslik yo'nalishida til va muloqotning izomorfik allomorfik jihatlarini tadqiq qilishga

bag'ishlangan ilmiy asari kommunikatsiya va tilning o'zaro bir-birini taqozo etuvchi ajralmas tizimlar ekanini misollar orqali ko'rsatib berishga bag'ishlangan ilmiy asardir. "How to do things with words" nomli Ostin Jonning [3] ma'ruzalaridan iborat to'plami telefoniya kommunikatsiyasi tadqiqidagi dastlabki qadamlardan biri xisoblanadi. Bu kabi ishlar boshqa ko'plab tilshunoslar tomonidan ham ko'rib chiqilgan. Y. Zaki [23], J. Urry [22], kabi jahon olimlari qatori rus tilshunoslari ham qator ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, Ye.V. Tixonovaning "Формирование английской терминологии мобильных средств связи и её лингвистические особенности" [21] mavzusidagi dissertatsiyasi rus tilshunosligidagi dastlabki qadamlardan xisoblanadi. E'tirof etish joizgi rus tilshunosligida bu kabi ilmiy ishlar talaygina, A.G. Xodakova [24], A.V. Ivkina [8], T.I. Orel [16], N.G. Asmus [2] shular jumlasidandir.

O'zbek tilshunosligida ham kommunikatsiyaning umumiy va xususiy jihatlarini axborot texnologiyalari terminologiyasini tadqiq qilishga qaratilgan qator ishlar D. Kadirbekova [10], D. Saidqodirova [19], N. Mahmudova [13], I. Mahammadov [12] kabi qator olimlar tomonidan olib borilgan lekin aynan telefon kommunikatsiyasi borasidagi ilmiy izlanishlar hali hanzur to'laligicha tadqiq etilmagan. O'z o'rnida bu holat joriy mavzuning dolzarbligini oshiribgina qolmasdan, telefon kommunikatsiyasini boshqa yondosh kommunikatsiyalar bilan bir vaqtning o'zida qiyosiy hamda parallel tadqiq etishni talab qiladi.

**Tadqiqod metodologiyasi.** Ushbu ishni o'rganib chiqishda zamonaviy tilshunoslik metodlarining ayrimlariga murojaat qilingan bo'lishiga qaramay asosan qiyosiy tahlil metodi hamda korpus tahlil metodlaridan ko'proq

foydalanilgan. Telefon orqali muloqot qilish imkoniyati paydo bo'lgunga qadar ham insonlar o'zaro va jamiyatlararo axborot almashuvining boshqa muqobil turlaridan foydalanishgan. Dastlab, radio uzatuvning vujudga kelishi axborot uzatuv jarayonini bir necha barobar osonlashtirdi, qolaversa boshqa aloqa turlariga nisbatan tezroq va arzonroq muqobil sifatida hayotning ko'plab sohalarida faol qo'llanilgan bu kashfiyot yaratilgan paytda fan taraqqiyoti sifatida butun jahon e'tiboriga tushgan [14]. Keyinchalik televideniya orqali axborot uzatuvining kashf qilinishi kommunikatsiyaning visuallashtirishiga katta turtki bo'ldi [4]. Axborot televideniya orqali uzatilganda qabul qiluvchilarning bir vaqtning o'zida ko'p sonli bo'lish imkonining mavjudligi hamda axborotni faqat audiomatn tarzida emas balki tasvirli tarzda uzatish, ma'lumotlar qabuli samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, axborot uzatuv jarayonining lisoniy va psixologik jihatlarini tadqiq qilishni ham taqozo etdi.

Tilshunoslik sohasida nisbatan keyinroq paydo bo'lgan metodlardan biri bu korpus tahlil metodidir. Korpus tahlil metodi tilshunoslikda boshqa metodlardan farqli o'laroq kontekstdagi so'z va iboralarni alohida-alohida emas balki, gap tarkibidagi o'zaro aloqasi orqali tahlil qilish imkonini beradi [17].

**Tahlil va natijalar.** Aynan qiyosiy tarixiy tahlil metodning dominant usul sifatida tanlanishiga sabab radio hamda televideniya ixtirolari bilan ketma-ket telefon apparaturalarining vujudga kelishidir. Inson tafakkurining jadal rivoji o'laroq vujudga kelgan yana bir muhim kashfiyotlardan biri bu Aleksandr Graham Bel tomonidan ommaga taqdim etilgan dastlabki telefon apparaturasi [18]. Ilk telefonlar ixtiro qilingan vaqtda insonlar telefon orqali faqatgina qisqa muddatli axborot almashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lganlar xolos. Bundan tashqari telefon tarmog'i orqali faqat individual tarzda muloqot qilish, axborot uzatuvning tor doirada amalga oshirish imkoniyatiga bera olgan.

Vaqt o'tishi bilan texnika rivojlanib telefon kommunikatsiya bir necha turlarga ajraldi, bular: yozma xabarlar, videoqo'ng'iroqlar, audio hamda video xabarlar va hokazo. E'tirof etish joizki telefon apparaturalari yordamida muloqot qilishning boshqa ko'plab turlari butunjahon internet tarmog'i kashf qilingandan so'ng yuzaga keldi. O'zining "Future mobile communication: LTE optimization and mobile network virtualization" nomli ilmiy asarida olim Zaki Yasir telefon hamda internet tarmoqlari orqali amalga oshirish mumkin bo'lgan barcha muloqot turlarini tavsivlab chiqqan. Unga ko'ra "videostreaming" (bir vaqtning o'zida bir nechta ishtirokchilar yordamida amalga oshiriladigan videosuhbat) aloqa vositasining avzalliklarini izohlab o'tgan. Ya'ni videostreaming aloqa turining qulayligi sifatida suhbat ishtirokchilaridan alohida o'rin va tayyorgarlik talab etilmasligi, suhbat formatining moliyaviy jihatdan yengilligi, auditoriya miqdorining chegaralanmaganligi va bunday suhbatni bevosita yozib olish imkonining mavjudligini qator afzalliklar sifatida ta'kidlab o'tilgan [23].

Radio, televideniya va telefon kommunikatsiyalarining qiyosiy tahlil qilish uchun dastlab ular tilning aynan qaysi xususiyatlariga ko'ra tahlil qilinsa mazkur aloqa turlarining o'ziga xos jihatlarini kengroq yoritib berish mumkin. Aynan shu maqsadda yondosh kommunikatsiyalarning lingvopragmatik, paralingvistik hamda uslubiy bo'yoqdorlik kabi xususiyatlarini quyida keltirilgan misollar talqinida ko'rib chiqishimiz mumkin. Lingvopragmatik tahlillar, ushbu atama 1970-yilda Dordrext shahrida o'tkazilgan konferensiyada tilshunoslik faniga kiritilgandan buyon mavzu borasida ko'plab ishlar olib borildi. Shunga qaramay tilshunoslikning bu yo'nalishi o'zining dolzarbligini hamon namoyish etib kelmoqda. O'zbek tilshunosligining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Sh. Safarov o'zining

"Pragmalingvistika" nomli monografiyasida shunday ta'riflarni keltirgan: "Muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan "hamkor"ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishonirish, bo'ysundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi. Bundan tashqari semiotiklarning o'zlari e'tirof etganlaridek, aloqa vositasi bo'lmish belgilar so'zlovchi tomonidan o'z maylini, birovni yoki biror narsani yoqtirishini, noroziligini, xayratini va boshqa ruxiy tuyg'ularini izhor etish uchun ham qo'llanilishini bilamiz. Lisoniy muloqotning xuddi shu jihatlarini e'tiborga olingandagina semiotic tizimning o'zaro qismlari dinamik, xarakatchan munosabatda bo'lishini tasavvur qilish mumkin bo'ladi" [20].

Turli kommunikatsiyalarning o'ziga xos jihatlaridan biri bu muloqot jarayonida noverbal vositalarning ishlatilishi hamda ularning muloqot samaradorligiga ta'siridir. Aynan bu borada ko'plab tilshunoslar ilmiy tadqiqodlar olib borganlar. Jumladan sotsiopsixolog, tilshunos olim Fernando Poyatosning fikriga ko'ra noverbal muloqot vositalarisiz inson nutqi faqat ma'lumot almashinuvdan iborat bo'lib axborot qabuli samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [6]. Bundan tashqari o'zbek tilshunosligida bu borada tadqiqodlar olib borgan olim Abdulhamid Nurmonov o'zining "O'zbek tilining paralingvistik vositalari" ilmiy asarida noverbal vositalarning tasniflanishi va ularning muloqot aktida tutgan o'rni va ahamiyatini yoritib berishga harakat qilgan [15].

Kommunikatsiya jarayonining yana bir muhim jihati bu uslubiy bo'yoqdorlik va stilistik vositalarning ishtirokiga ko'ra xilma-xillikdir. Masalan televideniya va radio kommunikatsiyalari uchun alohida uslub mavjud bo'lib u "publitsistik" uslub deya nomlanadi. Biroq telefon kommunikatsiyasi bu borada tubdan farq qiladi. Vaziyat taqozisiga ko'ra turli uslubda namoyon bo'lishi mumkin bo'lsada, asosan so'zlashuv uslubini dominant xisoblanadi. Aynan muloqot jarayoni uslubiyati borasida ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos Oqilxon Dadaboyev stilistika va matn tahlili borasida shunday fikrlarni ilgari surgan: "Tilshunoslikda, til va nutqning farqlanishi stilistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga olib keldi" [5]. Bundan tashqari u uslublar klassifikatsiyasi bilan ham shug'ullunaib uslubiy bo'yoqdor so'zlar tasnifiga ham e'tibor qaratgan.

Na'munalar va natijalar:

1. "Subhidam bilan qoling" sarlavhasi ostidagi radio eshittiruvdan parcha:

B1: Yana bir bora assalomu alaykum, hamma hammaga ko'tarinkilik hamroh bo'lsin! Tongning fayzli va yoqimli daqiqalarida, yoqimli to'loqida siz bilan yana birgamiz.

B2: Assalomu alaykum deymiz yana bir bor bizni tinglab borayotgan tinglovchilarimizga va eslatib o'tamiz Jizzah radiokanalida Subhidam dasturi davom etmoqda, soatimiz millari 8:14ni ko'rsatyapti, demak bizda mehmon bor. Nuriddin, bilasiz o'zbek xalqi mehmondo'st xalq xisoblanadi, shu sabab mehmon uchun alohida tayyorgarlik ko'riladi, biror bir tansiq taom tayyorlansa ham mehmon kelsa edi deb kutiladi, to'g'rimi?

B1: Albatta mehmonimizga qanday taomni tavsiya etamiz?

B2: (samimiy kulgu) .... Albatta mehmonimizga atalgan ajoyib sovg'amiz ham bor, chunki mehmonimiz bugun tinglovchilarimiz bilan jonli muloqotga kirishishi mumkin.....[27]

2. "Davri" information dasturidan parcha:

Assalomu alaykum, xabarlar, yangiliklar tavsiloti bilan e'firda "Davri" information dasturi. Studiyada Sherali Qo'chqorov, bugun dasturimizda: Mamlakatimiz mustaqilligining 25 yilligi arafasida Surxandaryoda xarbiy xizmatchilar uchun yangi turar joylar firdalanishga topshirildi; "Ishbilarmon ayol-2016" tanlovining Toshkent viloyat

bosqichidan reportaj; Poytaxtimizda “Siz qonunni bilasizmi” tanlovining respublika bosqichi bo‘lib o‘tyapti;.....[26]

3.1 Telefon suhbatidan na‘muna (badiiy asardan olingan):

.....Anavi qaqajon singlisi dastakni ko‘tarib qolsa, yana boshni qotiradi. Xayriyat, Shahnozaning o‘zi oldi.

Labbay?

Yuragim gursillab ketdi. Ikki yil kutgandim bu ovozni. Ikki yil! Sovuq qish kechalari zastavadagi “uycha”da yotganimda, karvonni kuzatib qaytayotib, olis yo‘l azobidan toliqib, tank ichida mudrab qolganimda, mana shu ovoz bexosdan qulog‘imga chalinib, cho‘chib uyg‘ongan paytlarim ko‘p bo‘lgan.....

Shahnoza - tovushim bo‘g‘iq, ishonchsiz chiqdi. Simning u tomonida bir lahza sukut cho‘kdi-yu, hayrat aralash quvonchli xitob eshitildi.

Voy! – Shahnoza entikib qoldi. -Voy!

Bugun soat uchda, o‘sha joyda... - dedimda dastakni ilib qo‘ydim.....[25]

3.2 Telefon suhbat (Ingliz serialidan olingan)

- Hello. (Salom)

- Hello? (Salom)

- Nick Jessop? (Nik Jesop)

- Yeah. (Huddi o‘zi)

- I have an executive from “Warner Brothers” on the line for you. (Uorner Brozers vakili siz bilan suhbatlashmoqchi)

- Right. (Shundaymi?)

- Hello Nick. (Salom Nik)

- You are very “big” in England. What are you working on now? (Siz Angliyada juda mashxur ekansiz. Xozirda nima bilan bandsiz?)

- Hi. Well, it’s something that all of England watches. It’s the erm..... (Salom, xo‘sh, bu dastur butun Angliya aholisini befarq qoldirmaydigan shunday bir ko‘rsatuvki.....)[28]

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan fikr va mulohazalarga tayangan holda telefon kommunikatsiyasi va yondosh kommunikatsiyalarning izomorfik va allomorfik jihatlari tahlil qilindi:

Kommunikatsiya turlari	Pragmatik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi	Paralingvistik vositalarning ishtiroki	Stilistik uslub va bo‘yoqdorlik
Televideaniya orqali	Qisman	+	Statik
Radio orqali	Qisman	+	Statik
Telefon orqali	To‘liq	+	Dinamik

Noverbal vositalarning turli kommunikatsiyalarda qo‘llanilishiga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

	Televizion kommunikatsiya	Radiokommunikatsiya	Telefon kommunikatsiyasi
Faol noverbal vositalar	Vokalika (ovozning akustik harakati) Tabiiy xususiyatlar (gavda, sochning tabiiy rangi) Xronomika (muloqot vaqti) Artefakt (kiyinish nadaniyati va parдоз) Estetika (musiqa rang rasm) Ekstralingvistika (yig‘i, kulgu, yo‘tal, xo‘rsinish Tovush belgilari (undov so‘zlar) Pauza (to‘xtash muloqotdan saqlanish	Vokalika (ovozning akustik harakati) Xronomika (muloqot vaqti) -Estetika (musiqa rang rasm) Ekstralingvistika (yig‘i, kulgu, yo‘tal, xo‘rsinish Tovush belgilari (undov so‘zlar) Pauza (to‘xtash muloqotdan saqlanish	Vokalika (ovozning akustik harakati) Xronomika(muloqot vaqti) Ekstralingvistika(yig‘i, kulgu, yo‘tal, xo‘rsinish Tovush belgilari( undov so‘zlar) Pauza (to‘xtash muloqotdan saqlanish Videomuloqotda: Kinesika(imo-ishora) Okuleksika(ko‘z harakati) -Mimika(Yuz harakatlari)

**Xulosa.** Olib borilgan tahlillar natijasi o‘laroq shu anglashiladiki, telefon kommunikatsiyasi va yondosh kommunikatsiyalar rivoji ketma-ket bo‘lishiga qaramay, bir biri bilan uzviy bog‘liq emas, biri ikkinchisidan o‘ziga xos jihatlarga ko‘ra farq qiladi. Aynan shunday xususiyatlari ularni qiyoslagan xolda tadqiq qilishning dolzarbligini oshiribgina qolmay, mavzuning o‘ziga xos jozibasini va

aktualligini oshirgan. Tadqiqodlar va ular asosida olib borilgan tahlillarga ko‘ra bir qarashda radio, televideaniya hamda telefon kommunikatsiyalarining umumiylik jihatlari yuqoriroqdek tuyulsada, mavzu doirasida chuqurroq mulohaza yuritilsa ularning bir biridan tubdan farq qiluvchi jihatlari ko‘proq ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

#### ADABIYOTLAR

- Adrian A. Richard A. Demers Ann K. Farmer Robert M. Harnish Linguistics: An Introduction to Language and Communication. London, The MIT Press Cambridge. 2010. – 628 p.
- Асмус Н.Г. Лингвистические особенности виртуального коммуникативного пространства. Дис. канд. филол. наук. – Челябинск, 2005. – с 24.
- Austin John L. How to do things with words. - Oxford: Oxford university press, 1975. – 184 p.
- Burns R. Television an international history of the formative years. Institution of electrical engineers, London, Bookcraft, 1998, - 640p.
- Dadaboyev O. Ingliz tili stilistikasi va matn tahlili (o‘quv uslubiy qo‘llanma) Namangan, 2020. - 105b.
- Fernando Poyatos Nonverbal Communication across Disciplines: Volume II: Paralanguage, kinesics, silence, personal and environmental interaction. Amsterdam, Philadelphia, John Benjamins Publishing Company, 1984. - 478p
- Herring, Susan, Stein, Dieter and Virtanen, Tuija. Pragmatics of Computer-Mediated Communication, Berlin, Boston: De Gruyter Mouton, 2013.- 447p.
- Ивкина А.В. Особенности образования и перевода терминов в английском, французском и русском языках (на материале предметной области «Телекоммуникация» и под области «Телефония»): Дис. канд. филол. наук. – Санкт - Петербург, 2004. – с 28
- Jurayeva Sh. Paralingvistik vositalarning verbal tasviri, //Science and education scientific journal, 2023.- 1657-1661b.
- Kadirbekova D. Ingliz va o‘zbek tillarida axborot texnologiyalari terminologiyasining lingvistik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – B.128;
- Keith Allan. Linguistics and communication. // Intercultural Pragmatics 2020; 17(3): - P. 293–313,
- Mahammadov B. Android mobil operatsion tizimi ilovalari terminlarining o‘zbek, rus, ingliz tilida berilishi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) dis. avtoref.- Andijon, 2023



13. Mahmudova N. O'zbek tilidagi telekommunikatsiya terminlarining semantik, struktur va derivatsion xususiyatlari (telefoniya terminlari misolida): Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri(PhD) dis. avtoref..- Qo'qon, 2022;
14. Manning T. Microwave transmission design guide (second edition) Norwood, Artech house, 2009.- 217p
15. Nurmonov A. O'zbek tilining paralingvistik vositalari. – Andijon. 1980
16. Орел Т.И. Структура и номинативно-образовательные характеристики английской ерминосистемы телекоммуникации: Дис. канд. филол. наук. – Москва., 2005.
17. Pantaleon, Ariane. A corpus-based analysis of “for example” and “for instance”. // The Asian ESP Journal 14(7.2), 2018, - Pp151-175.
18. Rosling A. The telephone systems of the continent of Europe. New York, Arno press, 1974.- 544p
19. Saidqodirova D Ingliz va O'zbek tillarida internet terminlarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri(PhD) dis. avtoref..- Toshkent, 2018
20. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya, Toshkent, 2008.- 318b
21. Тихонова Е.В. Формирование английской терминологии мобильных средств связи и её лингвистические особенности. Дис. канд. ... филол. наук. – Омск, 2003.
22. Urry J. Sociology beyond Sociaties: mobilities for the twenty-first century. Roulledge, 2012.
23. Zaki Y. Future mobile communication: LTE optimization and mobile network virtualization.- Spinger Science & Business media: 2012.- 171p
24. Ходакова А.Г - Системная семантика термина на материале англоязычных терминов Интернета. Дис. канд. ... филол. наук. – Белгород, 2010;
25. Xoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2018.- 271b.
26. <https://youtu.be/qbJ1CPMiy5Y?si=TQmXMN5rKc8Jssh1>
27. <https://youtu.be/qDch2bVCayU?si=WokAks3suIC5yVBf>
28. <https://youtu.be/brdfBsFknow?si=n1TWmqdjaTdfUJ55>



UDK: 811.512

*Shaxnozaxon O'TANOVA,*  
*Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: utanovashahnoza1411@gmail.com*

*Andijon davlat universiteti professori Sh.Shahobiddinova taqrizi asosida*

## IMPLICATURE AND COMMUNICATIVE STRATEGY AT THE ANTHROPOCENTRIC LEVEL

Annotation

The article analyzes the description of the speech system at the anthropocentric stage, the content of the linguistic unit of implication and the understanding of information that can be contained on the basis of explication. The author points out that in linguistics, which is not expressed by the form of the word, but through the knowledge of the background of cognitive information in its internal content, it is still carried by a lot of information, the most of which is carried out with a lot of additions. marriage, implicit content, implicit meaning, implicit information acquisition tries to justify.

**Key words:** Anthropocentric linguistics, system-structural linguistics, grammatical meaning, personal insecurity, pragmatic flour, communicative strategy.

## ИМПЛИКАТУРА И КОММУНИКАТИВНАЯ СТРАТЕГИЯ НА АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОМ УРОВНЕ

Аннотация

В статье анализируется описание речевой системы на антропоцентрическом этапе, содержание языковой единицы импликации и понимание информации, которая может содержаться на основе экспликации. Автор указывает, что в языкознании, выражающемся не через форму слова, а через познание основы познавательной информации, в ее внутреннем содержании, все же несет много информации, большая часть которой переносится вышел с большим количеством дополнений. брак, имплицитное содержание, имплицитный смысл, неявное получение информации пытается оправдать.

**Ключевые слова:** Антропоцентрическая лингвистика, системно-структурная лингвистика, грамматическое значение, личностная неуверенность, прагматическая мука, коммуникативная стратегия.

## ANTROPOSENTRIK BOSQICHDA IMPLIKATURA VA KOMMUNIKATIV STRATEGIYA

Annotatsiya

Maqolada antroposentrik bosqichda nutq sistemasi tavsifi, implikasiyaning lisoniy birlik mazmuni va eksplikatsiya orqali nazarda tutiladigan axborotni anglashtirilishi haqidagi fikrlar tahlil etiladi. Muallif so'zning tashqi shakli bilan ifodalanmaydigan, ammo uning ichki mazmunidagi kognitiv axborot fondagi bilimlar orqali idrok qilinadigan lisoniy birliklar tilshunoslikda haligacha ko'plab atamalar bilan yuritilib keliniyatganligini, ular ichida eng ko'p qo'llaniladiganlari implikasiya, implitsit mazmun, implitsit ma'no, implitsit axborot tushunchalari ekanligini asoslashga harakat qiladi.

**Kalit so'zlar:** antroposentrik tilshunoslik, sistem-struktur tilshunoslik, grammatik ma'no, shaxs unsuri, pragmatik unsur, kommunikativ strategiya.

**Kirish.** Antroposentrik bosqichda nutq sistema sifatida tadqiq etilib, inson bu sistemaning tarkibiy qismi, asosiy unsuri sifatida baholanadi. Boshqacha aytganda, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik lisoniy imkoniyatlarning shakllanishini, sistem-struktur tilshunoslik lisoniy imkoniyatlarning xususiyatlarini, antroposentrik tilshunoslik esa insonning lisoniy imkoniyatlardan foydalanish xususiyatlarini tadqiq qilishga ustuvorlik beradi. Antroposentrik bosqichda grammatik ma'no talqini yangicha tus oladi. Sistem-struktur bosqichda tiklangan umumiy grammatik ma'noning nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi masalasi talqiniga asosiy e'tibor qaratiladi.

O'tgan davr tilshunosligida nutqning sistemaviyligi haqida ma'lum fikrlar mavjud bo'lsa-da, ularda asosan lisoniy birliklarning nutqiy birlik – sistema (gap va matn)larni hosil qilish xususiyatlari nazarda tutiladi. Ko'pincha nutq murakkab butunlik sifatida qaralganda, tarkibiy qismlari sifatida gap, abzas va matn ajratiladi. Morfologik shakl umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida leksik va sintaktik omillar hamkorligi masalasi tilshunosligimizda ma'lum darajada o'rganilgan. Grammatik ma'noning yuzaga chiqishi faqat lisoniy omillar bilangina cheklamaydi. Chunki insoniy

muloqot sistemasi lisoniy va nolisoniy omillar yaxlitligidan iborat.

So'zlovchi va tinglovchi shaxs, nutqiy vaziyat va sharoit har qanday lisoniy birlikning nutqiy reallashuvida muhim rol o'ynaydi. Bu grammatik ma'no voqelanishiga ham birday tegishli. Shuning uchun nutqiy sistemadagi nolisoniy unsurlarni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

- a) shaxs unsuri;
- b) pragmatik unsurlar.

Shu asosda nutqiy sistemaning unsurlari uch xil – lisoniy, shaxsiy va pragmatik tabiatli bo'lishi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

Grammatik ma'no odatda lisoniy tabiatli unsurlarga tegishli sifatida qaralsada, uning mohiyatida lisoniy va nolisoniy (shaxsiy, pragmatik) unsurlar uzviy aloqadorlikda ko'riladi.

“O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da pragmatika tushunchasiga olimlarimiz A.Madvaliyev, Y.Solijonovlar quyidagicha tavsif beradi: «Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvidagi

o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi». Pragmatikada bevosita nutq bilan bog'liq qator ko'p tarmoqli hodisalar ham diqqat markazida bo'ladi: «Bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va b.); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadi; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq holda ham ko'plab masalalar o'rganiladi. Bugungi kunda pragmatika g'oyalari evristik (yo'naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimai, informasion-qidiruv tizimlarida faol qo'llanilmoqda».

XXI asrning dastlabki yillarida o'zbek tilshunosligida ham pragmalingsvistika sohasida tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. M.Hakimovning «O'zbek tilida matnning pragmatik talqini» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektda tadqiq etildi. Mazkur tadqiqot ishida lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, pragmatikaning tilshunoslikning unga yondosh bo'lgan boshqa yo'nalishlari bilan munosabati, lingvistik pragmatika bilan o'zbek tili sahlari orasidagi o'zaro aloqasi haqida bahs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o'zbek tilidagi matnlar misolida o'rganilgan. Prof. Sh.Safarovning 2008 yilda nashr qilingan «Pragmalingsvistika» nomli monografiyasi tilshunoslik fanining nisbatan yangi sohasi bo'lgan pragmalingsvistika fanining bugunga qadar erishgan yutuqlarini umumlashtirish, uning istiqboli haqidagi nazariy qarashlarni ilmiy tahlil etishga bag'ishlangan. Bu tadqiqot pragmalingsvistikaning «zurriyodlari» bo'lmish etnopragsmatika, sosiopragsmatika, qiyosiy pragsmatika va boshqa qator ilmiy yo'nalishlarning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyati to'g'risida keng ko'lamdagi ilmiy materiallarni jamlagan dastlabki tajribalardandir.

Shunday qilib, pragsmatika tilshunoslikning yangi amaliy tarmog'i sifatida tilning nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador muammolarini o'rganuvchi soha sifatida shakllanmoqda.

Pragsmatika insonning kommunikativ faoliyati, uning mahsuli bo'lgan muloqot jarayoni va muloqot vaziyati vositasida yuzaga chiqadi. Pragsmatika ob'yekti aniq forma va qiyofadan xoli, uni adresant va adresat tabiati hamda ularning muloqot jarayonidagi o'zaro munosabatini kommunikativ vaziyat bilan bog'laydigan muammolar majmui tashkil qiladi. Masalan, adresant tabiati bilan bog'liq bo'lgan hamda muloqot sifati va samarasini belgilaydigan kommunikativ intensiya; muloqot strategiyasi hamda taktikasi; mulozamat va muloqot odobi; kommunikantlarning lisoniy kompetensiyasi, qarashlari, qiziqishlari, makon va zamon kabilar muloqot vaziyatining tarkibiy uzvlari sanaladi. Ular asosida lisoniy birliklardan birining tanlanishi e'tiborga olinadi. Buning uchun esa lisoniy birliklarning ma'noviy xususiyatlari, sintaktik imkoniyatlari, funksional qiymati, muqobillik darajasi o'rganiladi. Nutqiy aktning yo'nalishligini ta'minlovchi intensiyaning bu xususiyati nutqning tartiblilik asosida yuz berishini ta'minlaydi. Professor L.R.Raupova tilshunos A.Arutyunova qarashlariga tayangan holda[1] jonli nutqdagi intensiyaning murakkabligi va dinamikligini nazarda tutib, quyidagi shakllarda bo'lishini ta'kidlaydi:

“1.1. Minnatdorchilik mazmunidagi intensiya.

1.2. Uzr mazmunidagi intensiya.

1.3. Va'da mazmunidagi intensiya.

2.1. Tazyiq mazmunidagi intensiya.

2.2. Bahsga tortish mazmunidagi intensiya.

3.1. Muayyanlashtirish mazmunidagi intensiya.

3.2. Tavsiflash mazmunidagi intensiya”[2].

Intensiyaning mazkur turlari nutqiy sistemadagi tartibning turli-tuman shakl va darajalarda bo'lishini ta'minlaydi. Jonli nutqda adresant-adresat almashinuvi yuz berib turganligi bois ishtirokchilarning har biri ichki qiziqishlari asosida intensiyalarini namoyon qiladi va u nutq oqimining xaotik ravishdagi kechimini yuzaga keltiradi. Bunday ayrim intensiyalarning keyingi holatini mo'ljallash mumkin bo'ladi.

Shu ma'noda tilshunos Sh.Safarov «Pragmalingsvistika» monografiyasida pragmatik lingvisti-kaning o'rganish ob'yekti va tahlil metodologiyasi tahlili jarayonida pragmalingsvistik tadqiq doirasini toraytirish sifatida baholagan J.Katzning «Grammatika gap turlari strukturasi haqidagi ta'limotdir, pragsmatika esa, aksincha, lisoniy tuzilmalarning qurilishi, ularning grammatik xususiyat va munosabatlari yoritish bilan shug'ullanmaydi. Pragsmatik nazariyalar gap belgisi va propozitsiyaning matndagi muvofiqligining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan oqilona ta'minlanishini o'rganadilar. Shunga ko'ra, pragsmatik nazariya nutqiy faollik (performatsiya) nazariyasining ma'lum bir qismidir» degan fikrini lingvistik pragsmatika ob'yekti nuqtai nazaridan turib oqlash imkoniyatlari borligini ta'kidlash lozim. Zero, pragsmatika faoliyat nazariyasi ekan, uning turi sifatida lingvopragsmatika emas, balki pragmalingsvistika bo'lishi maqsadga muvofiq. Ustoz Sh.Safarov S.Levinsonning lisoniy hodisani birinchi o'ringa chiqarib bildirgan «pragsmatika tildan foydalanuvchilarning gaplarining kontekstda o'rinli qo'llanilayotganligini o'rganuvchi sohadir» degan fikrini «tor doirada tasavvur qilinishi» sifatida bo'lsa-da, qo'llab-quvvatlashi, birinchidan, an'anaviy pragmalingsvistikani lingvopragsmatik mazmunda tushunishga moyilligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, pragmalingsvistikaning tadqiq tamoyili sifatida «til – pragsmatika» va «pragsmatika – til» juftligini olayotganligidan dalolat beradi[3]. Uning mazkur asarning 69-sahifasida bayon etgan «lingvopragsmatik tahlil ob'yekti esa har qanday holda ham lison va uning faoliyat jarayonida voqelanadigan xususiyatlari va, umuman, kommunikatsiya kategoriyasidir» degan fikrining birinchi qismi («har qanday holda ham lison») ham bizning nuqtai nazarimizning ishonchlilik darajasini ko'rsatadi. Ishning «umuman, kommunikatsiya kategoriyasi» qismi esa lingvopragsmatikaning o'rganish ob'yekti masalasini ma'lum darajada mavhumlashtirishini istihola bilan ta'kidlashni istardik. Zero, «pragmalingsvistika funksional uslubning maxsus bo'limi sifatida endigina oyoqqa turayotgan va faqat o'zining kategoriyasi, tadqiqiy usullarini aniqlashga kirishayotgan sohadir».

Tilshunos I.M.Kobozeva pragsmatik komponentni tavsiflab, pragsmatikaning so'z ma'nosi qatlamida mavjud bo'lib, ushbu so'zni qo'llovchining u orqali ifodalagan obyektga yoki ma'lumotni qabul qiluvchiga munosabatini o'z ichiga olishiga urg'u beradi[4]. Leksik birlikning pragsmatik ma'nosi uzualdek ko'rinib, ayni paytda uning ma'ruzachi munosabatini aks ettirishi kuzatiladi. Pragsmatik ma'no umumiy ensiklopedik ma'lumotlarga qo'shilgan konnotativ ma'nolar yordamida uzual ma'noni kengaytiradi.

Muammoni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning haddan tashqari ko'pligiga qaramay, implikatsiya, uning fikrni formal strukturalarida voqelanishi, biri tilda ifodalangan implitsitlik turlari va ularning boshqa tillarda tarjima jarayonida qayta tiklanishi kabi masalalarda olimlarning hamon yagona fikrga kelmaganliklari kuzatiladi. Tilshunoslikda uzoq paytlargacha implitsitlik tushunchasi bir ma'noda qo'llaniladigan fikrning nazarda tutilgan ma'nosi, so'z birikmasi komponentlari orasida mazmuniy bog'liqlikning mavjud emasligi yoki so'zning, vaziyat

belgilarining doimiy komponentlar orqali ifodalanmasligi kabi talqinlarda berilgan. Ushbu tushuncha kognitiv tilshunoslikda subfreymalar yoki freymalarning terminallari, lingvistik semantikada esa ma'noning implikatsionalligi sifatida o'rganiladi. N. Paninining asosli fikricha, implitsit ifodalanadigan fikr tushunchasi lisoniy birlikning nutq jarayonida qo'shimcha, nazarda tutilgan ma'noda qo'llanilish imkoniyati va undan bu qo'shimcha axborotni ilg'ab olish jarayonini ifodalaydi. Masalan, Сегодня утром с Сашей Мальцевым шайбу побросали, pretsedent nom bilan kelayotgan bu jumladagi implitsit axborot, ya'ni qo'shimcha ma'no Я знаком с известным хоккеистом hisoblanadi. Lisoniy birlikning tashqi shakli bilan ifodalanmagan, ammo bir til doirasida kechadigan verbal muloqot jarayonida anglashiladigan bunday yashirin ma'no axborot ko'plab tadqiqotlarda implikatura atamasi bilan ham yuritilib kelinmoqda[5] va bu tushunchalarning qo'llanishi borasida aniqlik kiritish zarurati paydo bo'lmoqda. I. Arnoldning ta'kidlashicha, "implikatsiya, bu – mikrokontekstda yoki muloqot vaziyatida vujudga keladigan va til birligi orqali bilvosita ifodalanmaydigan qo'shimcha ma'nodir. Implikatura esa, ushbu jarayonning nomidir"[6].

Shunday qilib, implikatsiya tushunchasi ifodalanmagan ma'no (axborot), ifodalanmagan fikrdan vujudga keladigan xulosa, ikki yoki undan ortiq lisoniy birliklarning nutq jarayonidagi mantiqiy-ma'noviy bog'liqligini ifodalaydi. Ayni paytda, turli tadqiqotlarda implikatsiya tushunchasi orqali ko'plab yangi atamalar va ta'riflar ham vujudga kelayotganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, E. Starikova implitsit predikatsiya atamasini qo'llab, uni nazarda tutilgan yashirin ma'no, shuningdek, mantiqiy bog'liqliklari tushirib qoldirilgan fikr, vaziyatga bog'liq ravishda bilvosita ifodalangan qo'shimcha axborot belgilari, deb ta'riflaydi. V. Kuxarenko "implikatsiya" mazmuniga "matn birliklari orasidagi bilvosita bog'liqliklar tufayli vujudga keladigan qo'shimcha ma'no yoki emotsional mazmun" tushunchasini kiritib, ular matn va tagma'no (podtekst), alohida so'zlar orqali ifodalanadigan implitsional qo'shimcha mazmun orqali ifodalanishini ta'kidlaydi. Bunday qo'shimcha ma'no yaxlit kontekst orqali, birgina gap yoki asarning butun syujeti orqali ham ifodalanishi mumkin. Yashirin ifodalanadigan qo'shimcha ma'no, asosan, muallifning badiiy mahorati va matn materialining rasmiylashtirilishi, ya'ni artikllar, so'z tartibi, mantiqiy bayon qoidalaridan chekinish, so'zlarning stilistik maqsadda qo'llanilishi orqali vujudga keltiriladi[7].

Bu o'rinda mashhur fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan o'z asarini "Hayot" deb nomlashida qanchalik implitsit axborot jamlanganini tasavvur qilish mumkin.

K. Dolinin esa bunday qo'shimcha ma'noni umumiy ma'no anglatuvchi fikrning implitsit mazmuni atamasi bilan

yuritishni taklif qiladi. Fikrning implitsit mazmuni deyilganida, u birinchi navbatda lisoniy birlikning asosiy ma'nosi orqali ifodalanmagan, ammo nutq jarayonida anglanadigan mazmunni nazarda tutadi.

G. Pochevovning fikricha, muloqot jarayonida voqelanadigan "nazarda tutilgan fikr"ning lisoniy mazmuni boshqa ma'nodagi axborotga (bizning tushunchamizdagi implikaturaga) aylanadi. "Bunday axborot lisoniy birlikning xususiy mazmuniga emas, undan anglashiladigan, talaffuz qilinmaydigan qo'shimcha ma'noni ifodalaydi". Masalan, olima keltirgan rus tilidagi matnda: Duet – implikatura, implitsit mazmuni: Закройте окно (talaffuz qilinmaydigan, ammo vaziyat orqali anglashiladigan axborot).

Ayrim mualliflar implikatsiya deyilganda, lisoniy birlik mazmunini va eksplikatsiya orqali nazarda tutiladigan axborotni anglashni ham tushunadilar va nutq jarayonida ma'nosi implikatsiya qilinadigan lisoniy vositalar sirasiga nutq birliklarini, stilistik vositalarni ham kiritadilar. Natijada implikatsiya atamasining "implikat" (G. Molchanova, 1991), "implekatsional", "implekatsionnost" (M. Oborina, 1993) singari yasama atamalar ham vujudga kelgan. So'zning tashqi shakli bilan ifodalanmaydigan, ammo uning ichki mazmunidagi kognitiv axborot fondagi bilimlar orqali idrok qilinadigan bunday lisoniy birliklar tilshunoslikda haligacha ko'plab atamalar bilan yuritilib kelinmoqda. Ular ichida eng ko'p qo'llaniladiganlari implikatsiya, implitsit mazmun, implitsit ma'no, implitsit axborot tushunchalari deyish mumkin. Lisoniy ongda shakllanadigan bunday birliklar ko'pincha semantik murakkabliklar,[8] nutqdan oldin ifodalangan fikr, qo'shimcha axborot, nutqdan anglashiladigan qo'shimcha ma'no, semantik kompressiya, semantik ellipsis, yashirin fikr, ikkilamchi ma'no, ataylab qoldirib ketilgan fikr kontekstni rivojlantiruvchi, perefrazani talab qiluvchi birlik, ma'noviy topishmoq singari ko'plab atamalar bilan yuritilib kelinmoqdadiki, bu o'rinda implikatsiyaning metonimiyasi, metafora, sinekdoxa (umuman, ko'chirma ma'no) kabi stilistik vositalar, realiya, konnotativ va kognitiv ma'no, pragmatik ma'no, pretsedent nom singari tushunchalarga o'xshash va farqli jihatlarini, ularni tarjima tillarida qayta yaratish jarayonini o'rganish alohida tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin. Masalan, semantik kompressiya yoki semantik ellipsis xos implitsitlikni ifodalovchi quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

**Xulosa.** Bugun "Venetsiya"ga borib, bir mazza qilib tushlik qilib kelsak, nima deysan? – Birgina tushlik qilib kelish uchun Venetsiyaga borish shartmi? Birinchi suhbatdosh o'z gapida "Venetsiya" restoranini nazarda tutmoqda. Ikkinchi suhbatdosh esa semantik kompressiya qilingan ellipsli implikatsiyani tushunmasdan, Venetsiya mamlakatini nazarda tutmoqda. Demak, implikatsiyani tushinishda kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlarning fondagi, kognitiv bilimlari hamda pragmatik axborot ishtirok etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д. Человеческий фактор в языке: Коммуникация, модальность, дейксис. – М.: Наука, 1992. – С.56.
2. Раупова Л.Р. Диалогик дискурсадаги полипредикатив birliklarining социопрагматик tadqiqi: Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2012. – Б.196.
3. Levinson S. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. – P.24. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б.69.
4. Кобозева И.М. "Смысл" и "значение" в наивной семиотике. // Логический анализ языка: культурные концепты. – М.: Наука, 1991. – С. 183-186.
5. Панина А.Ф. Текст: его единицы и глобальные категории. – М.: Эдиториал УРСС, 2002.– 368 с.
6. Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. 1983. – № 6. – С. 37–47
7. Кухаренко В.А. Типы и средства выражения импликации в английской художественной речи (на материале прозы Э.Хемингуэя) // НДВШ. Филол. науки. 1974. – №1. – С. 69–74.
8. Арнольд И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания. 1983. – №4. – С. 83–91.



**Maxfuzaxon XOMIDOVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b.*  
**Madinabonu ABDULLAYEVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*  
*E-mail:bakirovkurbanali18@gmail.com*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya unversiteti katta o'qituvchisi, PhD SH.S.Xudayqulova taqrizi asosida*

## MEDIATEXT AND INTERTEXTUALITY

### Annotation

Currently, various fields of modern linguistics are developing. We can learn the main messages quickly and easily through media texts. Media texts have become a part of our life, i.e. the Internet, newspapers and magazines, social networks are examples of these. This article provides information about media text and its types. The role of media texts in linguistics and their methods are revealed. In addition, the use of intertextual units in media texts and their types are explained through examples.

**Key words:** Media text, intertextuality, allusion, quotation, title, epigraph, discourse, teletext, inter text, scientific text, artistic text, philosophical text, religious text, radio text.

## МЕДИАТЕКСТ И ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ

### Аннотация

В настоящее время развиваются различные области современной лингвистики. Мы можем быстро и легко выучить основные сообщения через медиатексты. Медиатексты прочно вошли в нашу жизнь, примерами тому являются Интернет, газеты и журналы, социальные сети. В данной статье представлена информация о медиатексте и его видах. Раскрывается роль медиатекстов в лингвистике и их методы. Кроме того, на примерах поясняется употребление интертекстуальных единиц в медиатекстах и их виды.

**Ключевые слова:** Медиатекст, интертекстуальность, аллюзия, цитата, заголовок, эпиграф, дискурс, телетекст, интертекст, научный текст, художественный текст, философский текст, религиозный текст, радиотекст.

## MEDIAMATN VA INTERTEKSTUALLIK

### Annotatsiya

Hozirgi vaqtda zamonaviy tilshunoslikning turli sohalari rivojlanmoqda. Asosiy xabarlarini mediamatnlar orqali tez va oson bilib olamiz. Mediamatnlar hayotimizning bir qismiga aylangan, ya'ni bularga: Internet, gazeta va jurnallar, ijtimoiy tarmoqlar misol bo'la oladi. Ushbu maqola mediamatn va uning turlari haqida ma'lumot beradi. Mediamatnlarning tilshunoslikdagi o'rni va ularning uslublari ochib berilgan. Bundan tashqari, mediamatnlarda intertekstual birliklarning qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Mediamatn, intertekstuallik, allyuziya, iqtibos, sarlavha, epigraf, diskurs, telematn, inter matn, ilmiy matn, badiiy matn, falsafiy matn, diniy matn, radiomatn.

**Kirish.** Tilshunoslikning zamonaviy sohalarida yangi ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Buni psixolingvistika, pragmalolingvistika, lingvokulturologiya, matn lingvistikasi va medialolingvistika kabi sohalarda amalga oshirilgan tadqiqotlarning soni ortib borayotganini ko'rish mumkin.

“Medialolingvistika” atamasi nisbatan yaqinda 2000-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, dastlab, rus tilshunosligida T.G.Dobrosklonskayaning medialolingvistikasi nazariyasi va usullari doktorlik dissertatsiyasida qo'llanilganligi haqida ma'lumotlar mavjud[14]. Medialolingvistikaning asosi ommaviy axborot vositalari matnlari hisoblanadi. Mediamatn turli media ko'rinishidagi va janrdagi matndir. Bu tushuncha XX asrda ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida an'anaviy bosma matnning o'rniga kinomatografiya, radio, televideniya, telefonlar bilan bog'liq bo'lgan matnning yangi turlari sifatida kirib keldi. “Mediamatn” tushunchasi asosan OAV sohasida keng ishlatildi. Bunday matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish turli til birliklarini qamrab oladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** Mediamatnlar va ommaviy axborot vositalari diskursi tadqiqi borasida xorijda olib borilgan ilmiy izlanishlarning sirasiga ukrain olimi Y.V.Litkovichning zamonaviy mediadiskursida pleonazmlar tahliliga oid ishini, G.A.Grigoryanning zamonaviy ingliz tilidagi ijtimoiy

tarmoqlarda egalik va o'zlik olmoshlarning pragmatik ahamiyatiga oid qarashlarini kiritish mumkin[14]. Qolaversa, mediamatnlarning asosiy kategoriyalari, mediamatn tuzish tamoyillari, ommaviy axborot vositalari tili va uslubini o'rgangan qator xorijiy va yurtimiz olimlari sirasiga T.G.Dobrosklonskaya, M.N.Volodina, T.V.Chernishova, Y.N.Zasurskiy, A.N.Baranov, A.Abdusaidov, G.X. Bakiyeva, D.M.Teshabayeva kabilarni kiritish mumkin[15]. S.I.Smetanina “Медиатекст в системе культуры” nomli monografiyasida medialolingvistikaning olti asosiy bo'limga ajralganini e'tirof etadi. Shuningdek, so'nggi yillarda himoya qilingan milliy dissertatsiyalarda ham mediamatnning lisoniy xususiyatlari alohida tahlilga tortilmoqda, ular turkumiga quyidagilarni kiritish mumkin: S.A.Atkamovanning “Frazеologizm mediamatnda ifodalash va baholashning uslubiy vositasi sifatida (turli tizimli tillar gazeta matnlari asosida)” mavzusidagi dissertatsiyasi, Sh.A.Usmonovanning “Media diskursda gazeta tili tendensiyalari (o'zbek va ingliz tillari misolida)” nomli ilmiy ishi[16], N.S. Nasrulloevanning “O'zbek va ingliz tillarida kompyuter va internet jargonlarining chog'ishtirma tadqiqi”ga oid izlanishlari, va R.Artikovanning “Mediamatnda presedent fenomenining lingvomadaniy aspekti (o'zbek va ispan gazetalarini misolida)” nomli tadqiqotlari aynan mediadiskursiga oid lisoniy muammolar yechimiga qaratilgan[14]. Mediamatn universal,

muayyan, tipologik hamda mislsiz maqsadlarni o'zida mujassam etgan ko'p tomonlama tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Ingliz ilmiy adabiyotlarida mediamatn (media text) termini o'tgan asr oxirlarida ommaviy kommunikatsiya tekstlarini tahlili borasida qo'llanila boshlandi. N.Fairclough "mediamatn" terminini keng ma'noda qo'llashni taklif qiladi va unga bosma matbuot maqolalari, intervyu, televizion ko'rsatuvlar va veb sahifalarni kiritadi[17].

**Tahlil va natijalar.** Mediamatn - turi va janridan qat'i nazar har qanday ommaviy axborot vositalarining matni hisoblanib, uning sharofati bilan ommaviy kommunikatsiya sohasida nutqiy muloqot amalga oshiriladi. G.Y. Solganikning mediamatn haqidagi fikrlari quyidagicha: "Mediamatn – ommaviy auditoriyaga mo'ljallangan hamda ommaviy axborotga taalluqli muallif tomonidan xarakterlangan o'ziga xos usulga ega turli ko'rinishdagi matnlardir"[18].

Bugungi kunda mediamatn qaysidir ma'noda oddiy matndan ahamiyatliroqdir. Bu matnni har tomonlama va yanada aniq ifodalovchi grafika, shu bilan birga, voqealarni kadrlarda mujassam etgan televizion ovozi matn hamdir. Mediamatn universal xususiyatlarga ega. Uning o'ziga xosligi shundaki, u turli media tuzilmalarga kiritilishi mumkin. M.Y.Kazak mediamatnning asosiy xususiyatlariga quyidagilarni ta'kidlaydi:

1. Mediaviylik - matnning u yoki bu mediavositalar yordamida mujassamlashuvi, tarqalish kanalining formati va texnik imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

2. Ommaviylik - mediamahsulotlar ishlab chiqarilishi barobarida ommaga taqdim etilishi.

3. Integrativlik - turli semiotik kodlarning yagona kommunikativ yaxlitlikka birlashuvi bilan kechadigan jarayon bo'lib, mediamatnni yaratishda uning mazmun-mohiyati, tuzilishi va belgisi ravishda ochiqligini ta'minlaydi.

Media nutqi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Guruhga aloqadorlik (adresat o'z guruhining fikrlarini baham ko'radi).

2. Oshkorlik (ochiqlik, ommaviy adresatga yo'naltirilganlik).

3. Polemik yo'nalish (keyingi muhokama bilan polilog yaratish).

4. Sahnalashtirish va ommaviy xususiyat (bir vaqtning o'zida bir nechta adresat guruhlariga ta'sir qilish).

5. Axborot globaligi va murakkabligi.

6. Dunyoning geomadaniy rasmidagi presedent o'rni va boshqalar[14]

Shuningdek, K.J. Kumar mediadiskursda paydo bo'ladigan mediamuloqot hajmi o'zining vositalari soni va ko'lamining oshib borayotgani bilan kengayib borayotganligini e'tirof etadi. Mediamuloqot vositalari sirasiga quyidagilarni kiritadi:

Televidekiye

Internet

Radio

Nashr (gazeta va jurnallar)

Kino va video materiallar

Kitoblar[14].

"Mediamatn" tushunchasi hozirgi kunda zamonaviy jamiyatdagi real voqelikni tasvirlash uchun kommunikatsiya, jurnalistika nazariyasi, sotsiologiya va boshqa sohalarida qo'llaniladi. Ma'lum bir ma'noda "mediamatn" tushunchasi turli ko'rinishlari va belgilari bilan farqlanadi. Masalan, jurnalistik matn, reklama matni, internet matni tur va ko'rinishiga, janr va shakliga ko'ra tasniflanadi, ammo ularning barchasi mediamatn sifatida ifodalanadi. Mediamatnlar tur va ko'rinishlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

1. OAV turlari bo'yicha mediamatnlarning yaratilishi, tuzilishi va qo'llanilishiga ko'ra[19]:

bosma nashrlar matni (an'anaviy jurnalistik janr turlari, masalan, yangilik, reportaj, maqola, sharh va boshqalar);

telematn (shunga ko'ra janr turlari bo'yicha va an'anaviyga qo'shimcha maxsus janrlar, masalan, tok-show va boshqalar);

radiomatn (janr turlari bo'yicha);

kinomahsulot (janr turlari bo'yicha);

ijtimoiy tarmoqlar matni (SMS, chat);

internet matni (an'anaviy janr turlari va maxsus janr turlari bo'yicha farqlanadi);

veb-nashrlar, masalan, blog, post va ijtimoiy tarmoqlarda sharh, shakl bo'yicha – gipermatn va ijtimoiy tarmoqlarda nashr ichidagi giperhavolasiz post, multimediali nashrlar va boshqalar);

2. Qabul qilish usuliga ko'ra:

bosma-qog'oz matni;

audiomatn;

telematn;

veb-nashr.

3. Subyekt va faoliyat turlariga ko'ra:

kasbiy jurnalistik matnlar (bular o'z o'rnida badiiy-publitsistik, tahliliy, axboriy, ko'ngilochar janr turlari bo'yicha farqlanadi);

nokasbiy (bloggerlik, fuqarolik) jurnalistik matnlar;

reklama matnlari (janr turlari bo'yicha reklama e'loni, buyurtma maqola va boshqalar);

PR-matnlar (janr turlari bo'yicha);

targ'ibot matnlari (janr turlari bo'yicha — varaqadan tortib OAVdagi maqolagacha);

ilmiy, ixtisoslashgan ekspert matnlar (turli ko'rinishlari – ilmiy maqola, qo'llanmadan u yoki bu sohada ekspert sharhigacha )

4. Mediamatnlar uslubiga ko'ra:

hujjatli-publitsistik matn;

ilmiy matn;

badiiy matn (ommaviy madaniyat va san'atga oid matnlar);

ommaviy-ko'ngilochar matn.

5. Mediamatnlar uslubiga ko'ra[19]:

ommaviy-siyosiy matn;

ijtimoiy-muammoli matn;

tarixiy matn;

badiiy matn;

madaniyatshunoslik matni;

falsafiy matn;

diniy matn[19].

Shubhasiz, matnlarning bunday tasniflanishi shartli hisoblanadi va bu ularni asosiy toifalarga bo'linishini ta'minlaydi. Mediamatnlarni o'rganishda ularni toifalarga ajratish yaxshi samara beradi.

Demak, mediamatnlarning turlari o'zining til xususiyatlariga ega. Bunday matnlar ham og'zaki va yozma ko'rinishda mavjud bo'ladi. Mediamatnlarda matn kategoriyalaridan biri "intertekstuallik" alohida ahamiyatga ega.

"Intertekst – bu matnlarning asrlar osha rivojlanib kelayotgan majmuasidir; bu majmua yo ideal yo virtual saviyada yo kitob darajasida mavjud bo'lib, o'ziga xos doirani tashkil qiladi. Ahamiyatli tomoni shundaki, doira ichida matnlar yaratilishi vaqti, o'z janri, ma'no va mazmun yetkazish usuli, qo'llanish yoxud tatbiq qilinish sohasi, eng muhimi, tillar bo'yicha guruhlariga ajratiladi" – deydi N.N.Belozeroval[14]. Intertekstuallik haqida jiddiy izlanishlar olib borgan rus olimasi N. Fateeva esa badiiy matndagi intertekst turlari sifatida quyidagilarni belgilaydi:

1. Allyuziya

2. Reminissensiya

3. Epigraf

4. Sarlavha
5. Havola (sitata)
6. Aforizmlar
7. Maqol, matal[1]

Intertekstual birlik mediamatning jarnlarida turlicha namoyon bo'ladi. Asosan og'zaki mediamatnlarda maqol, matallarni ko'proq qo'llanishini ko'rishimiz mumkin. Bu asosan televideniya ko'rsatuvlarida qo'llaniladi. Mediamatnda bunday birliklarni tahlil qilishda intervyu, reportaj, ocherk kabi yozma va og'zaki namoyon bo'la oladigan janrlarda allyuziya, iqtibos kabi intertekstual birliklar qo'llanilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Mediamatnlr ommaviy muloqotda media ma'lumotlarni, ommaviy axborot vositalari manbalarini yetkazish, saqlash uchun foydalaniladigan aloqa vositalari sanaladi. Bunday ommaviy axborot vositalari matnlari tilshunoslikning yaqinda paydo bo'lgan sohasi, medialingvistikasining asosiy, muhim predmeti hisoblanadi. Zamonaviy insonning hayotini internet va televideniyasiz, radio va zamonaviy aloqa vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ular yordamida odamlar eng so'nggi va eng dolzarb yangiliklarni tezda bilib oladilar va bir-birlarini qisqa vaqt oralig'ida istalgan masalada ba'zi voqealar haqida

xabardor qilishlari mumkin. Bunday matnlarda intertekst turlaridan foydalanish matn mazmunini o'zida ifodalashi, emotsional-ekspressiv imkoniyatlarining yarq etib ko'zga tashlanish imkonini beradi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, intertekstuallik bu kodlangan ma'noning o'quvchi tomonidan tushunilishidir. Shu bois ham intertekstlar oldindan keng omma uchun tanish matnlr bo'lishi kerak, aks holda matn tushunish jarayonida kommunikativ muvaffaqiyatsizlik yuz beradi. Intertekstning xalq ichida mashhurligi, uni o'qishi yoki eshitishi bilan o'quvchi ongida o'ziga xos reaksiya paydo bo'lishi nazarda tutilishi matnning kommunikativ muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan biridir

Demak, intertekstlar kitobxonni matn mazmuni tomon yo'naltiradi. Ya'ni avval kitobxon uchun tanish bo'lgan matn idrok qilinadi, undan keyin berilgan asl matn mazmuni bilan qo'shib idrok qilinadi. Bu holat o'quvchiga muallif niyatini, berilgan matnning g'oyasini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Media nutqining asosiy shakllari esa yangiliklar matnlari, reklama matnlari va boshqa turdagi media matnlardir. Bunday matnlarda intertekstual birliklarning qo'llanishi mediamatn mazmunini to'la ochib bera oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Хомидова М. Бадий матн перцепциясида интертекстуаллик. PhD. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2021.
2. Ёўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоетик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010.
3. Худойқулов М. Журналистика ва publitsistika. О'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2010.
4. Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика. Системный подход к изучению языка СМИ. – Москва: Флинта: Наука, 2008.
5. Литкович Ю. В. Плеоназмы в современном медиа-дискусе: структура, семантика, функции: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — Киев, 2016.
6. Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов: Опыт исследования современной английской медиаречи. — Москва, 2010. — 286 с.
7. Усмонова Ш.А. Медиадискурса газета тили тенденциялари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — Тошкент, 2022.
8. Красноярова О.В. Текст и медиатекст: проблема дифференциации понятий. // Вопросы теории и практики журналистики, 2013. – Т. 4. – №1
9. Kazak M.J. Global Media Journal, available at:
10. Fairclough N. Analysing Discourse: Textual Analysis for Social Research. — Routledge. 2003. — 288p.
11. Солганик Г.Я. К определению понятий «текст» и «медиатекст» // Вестник МГУ. — Серия 10. Журналистика. — 2005. — №2. — С. 7–1.
12. qizi Xomidova, M. F. (2019). INTERTEXTUALITY AND LITERARY TRANSLATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 309-311.
13. Xomidova M. F. The problem of intertextuality in modern linguistics //Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2019. – Т. 3. – №. 4. – С. 259-263.
14. Ataboyev N. Mediamatnlr tilning ijtimoiy ifodasi hamda til boyishininng asosiy resurlari sifatida. International Scientific-Methodological Electronic Journal, 2024,vol.10, No 1 (54),pp.60-75.
15. Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов: Опыт исследования современной английской медиаречи. – Москва, 2010. – С. 286.
16. Усмонова Ш.А. Медиадискурса газета тили тенденциялари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тошкент, 2022. – В. 56.
17. Fairclough N. Analysing Discourse: Textual Analysis for Social Research. — Routledge. 2003. — 288p.
18. Солганик Г.Я. К определению понятий «текст» и «медиатекст» // Вестник МГУ. — Серия 10. Журналистика. — 2005. — №2. — С. 7–1
19. SHamaqsudova S. Matn va mediamatn tushunchasi, mediamatnlarning asosiy toifalari va tipologiyasi.



*Shaxnoza CHORIYEVA,*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi, PhD*  
*E-mail: chorivash@mail.ru*

*DSc, dotsent D.Madrimova taqrizi asosida*

#### LITERARY-AESTHETIC CHARACTERISTICS OF THE LITERATURE OF THE FIRST WORLD WAR

Annotation

The theme of war reflected in the works of the artists belonging to the "Lost generation" literary trend, which appeared in the Western European literature in the 20s of the 20th century; scientific research is being conducted on the interpretation of social, political, ideological, and spiritual ideas. In this article analyzes the categorization of the writers of this direction, which appeared after the First World War, according to whether they participated in the war or not, along with a deep observation of the complexities of the wartime reflected in their works, the depiction of the subtle points of evolution in the psyche of the hero.

**Key words:** "Lost generation", First World War, literature, depiction, hero, decadence, idealized past, "iceberg" theory.

#### ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛИТЕРАТУРЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

«Потерянное поколение», возникшего в западноевропейской литературе в 20-е годы XX века. А также ведутся научные исследования по интерпретации социальных, политических, идеологических и духовных идей. В данной статье категоризация писателей этого направления, появившихся после Первой мировой войны, по тому, участвовали они в войне или нет, наряду с глубоким наблюдением за сложностями военного времени, отраженными в их произведениях, тщательно анализируется их романы отражающие психику героя.

**Ключевые слова:** «Потерянное поколение», Первая мировая война, литература, изображение, герой, декаданс, идеализированное прошлое, теория «айсберга».

#### BIRINCHI JAHON URUSHI DAVRI ADABIYOTINING ADABIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

XX asrning 20-yillari G'arbiy Yevropa adabiyotida yuzaga kelgan "Yo'qotilgan avlod" ("Lost generation") adabiy yo'nalishiga asos solindi. Ushbu adabiy yo'nalishga mansub ijodkorlarning o'ziga xos uslubi, asarlarida aks etgan urush mavzusi; ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy g'oyalari talqini borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur maqolada Birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan mazkur yo'nalish adiblarining urushda qatnashgan yoki qatnashmaganligiga ko'ra toifalarga ajratilishi, ularning asarlarida aks ettirilgan urush davri murakkabliklarining teran mushohadasi bilan bir qatorda, qahramon ruhiyati aks ettirilgan romanlari qiaqacha tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** "Yo'qotilgan avlod", Birinchi jahon urushi, adabiyot, obraz, qahramon, tanazzul, ideallashtirilgan o'tmish, "aysberg" nazariyasi.

**Kirish.** XX asrning birinchi yarmi G'arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida asosiy mavzulardan biri Birinchi jahon urushi (1914-1918) va uning insoniyatga yetkazgan salbiy oqibatlari edi. Yozuvchilar urush va adolat, siyosat va insonparvarlik, davlat manfaatlari va shaxs taqdiri tushunchalarining uyg'unligi haqidagi murakkab savollarga javob izlashadi. Lekin vahshiy urush nafaqat askarlarni jismonan, balki ruhan ham majruh qilib bo'lgan edi. Urushda qatnashgan, jisman va ma'nan jarohat olib frontdan qaytgan yosh ijodkor askarlarning she'riy va nasriy mashqlarida aynan askarlar hayoti, urush jarayonlari, insonning qadr-qimmati, iroda va matonati aks ettirilgan. Ushbu guruh vakillari "yo'qotilgan avlod" nomi bilan adabiy jarayonda o'zligini namoyon etishdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti vakillari Birinchi va Ikkinchi jahon urushi oralig'ida yashab ijod etishgani bois urushda qatnashgan yozuvchilarning asarlarida bu mudhishlik bor bo'yi basti bilan badiiy gavalantirilgan. Amerika adibi Samuel Xayns ta'rificha: "Yo'qotilgan avlod Birinchi jahon urushi davrida erta voyaga yetgan ijtimoiy avlod kogortasi[4] (lot. cohors «muhofaza maydoni») edi. Ushbu kontekstda "yo'qotilgan" so'zi urushdan omon qolgan ichki muvozanati izdan chiqqan odamlarning sarson-sargardon, yo'l-yo'riqsiz ruhiy holatini

anglatadi"[14]. "Yo'qotilgan avlod" (fransuzcha Génération perdue, inglizcha Lost Generation) termini Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'ida yashagan avlodga nisbatan qo'llanilgan, ikki urushni boshdan kechirgan jamiyatda yashagan odamlarning ayanchli qismati bir qator yozuvchilarning ijodida o'z aksini topgan. "Yo'qotilgan avlod" aslida o'n sakkiz yoshida urushga ketib, jangda qatnashgan, urushdan keyin esa odatiy hayotga moslashishlari qiyin kechib, ko'pchiligi o'z joniga qasd qilgan. Parijda yashab ijod etgan amerikalik adiba Gertruda Stayn "yo'qotilgan avlod" atamasini Heminguey bilan bo'lgan suhbatida qo'llaydi, ya'ni unga "Siz hammangiz yo'qotilgan avlodsizlar" deydi. Heminguey ushbu iborani ichkilikka ruju qo'ygan, umidsiz yashaydigan yosh muhojirlarning hayotini aks ettiruvchi "The Sun Also Rises"[10] ("Fiyesta") romaniga epigraf sifatida ishlatgan. Demak, "yo'qotilgan avlod" tushunchasi Gertruda Stayn tomonidan kiritilgan va badiiy adabiyotda ilk bor Heminguey tomonidan qo'llanilgan. Yuqorida keltirilgan ibora to'satdan aytilgan bo'lishiga qaramasdan, urushda qatnashganlarning yo'qotishlari, azoblari va qayg'u-alamlarini yozuvchilar ijodi orqali aniq ochib bera olgan"[3]. Adabiyotda urush sabab azob va yo'qotishlarga mahkum bo'lganlarga "yo'qotilgan avlod" deya nom berishdi. Shu bilan birga bu tushuncha mualliflarning shaxs sifatida



hamda ularning dunyoqarashi, tushunchalari, hayotiy qadriyatlarining qayta tug'ilishi ramzi hamdir.

Jahon adabiyoti tarixida "yo'qotilgan avlod" (lost generation) (G.Stayn) nomini olgan bu avlod namoyandalari – Uilyam Folkner (William Faulkner, 1897-1962) Ernest Xeminguey (Ernest Hemingway, 1899-1961), Frensis Skott Fitsjerald (Francis Scott Fitzgerald, 1896-1940), Jon Dos Passos (John Dos Passos, 1896-1970), Richard Oldington (Richard Aldington, 1892-1962), Erix Mariya Remark (Erich Maria Remarque, 1898-1970), Anri Barbyus (Henri Barbusse, 1873-1935) va boshqalar G'arb adabiyotining keying ravnaqiga ulkan hissa qo'shdilar. Yuqorida nomi zikr etilgan yozuvchilarning aksar qismi urushda bevosita qatnashgan, uning mudhish va qonli qiyoasini o'z ko'zi bilan ko'rgan, urush azoblarini tortgan, bir so'z bilan aytganda, urush voqeligi ularga yot tushuncha emasdi[15]. Y.A. Dichkovskaya, D.I. Latishevich, Y.V. Letyagoning «История американской литературы: «Потерянное поколение» maqolasida adabiy yo'nalish sifatida e'tirof etilgan[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Adabiy yo'nalish – ma'lum tarixiy davrda o'z mafkurasi va tajribasi bilan bir-biriga yaqin turgan ko'plab yozuvchilar ijodidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar – mavzu, g'oya, badiiy tasvir usullari va h.k. birligi. Har bir yo'nalishning o'ziga xos g'oyaviy-estetik tamoyillari, ya'ni dasturi, shu yo'nalish vakillari ijodida bajarilishi shart bo'lganligi adabiy yo'nalishning muhim belgisidir. Adabiy yo'nalish u yoki bu milliy adabiyotda ma'lum bir davrda yuzaga keladi. Adabiy yo'nalish adabiy oqimga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u ma'lum bir davrda biror adabiyot doirasida harakat qiladi. Adabiy oqim esa adabiy yo'nalishga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u yoki bu umumadabiy doirada harakat qila olmaydi. Shu jihatdan aytish mumkinki, "Yo'qotilgan avlod" adabiy yo'nalish sifatida spetsifik xususiyatlariga ega.

Urush voqealarini tasvirlash yo'sini, o'zlari guvoh bo'lgan yoki frontortida bo'lib, jang tasvirlarini tasavvurida gavdalandirganiga ko'ra "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti vakillarini ikki guruhga bo'linadi:

1. Birinchi guruh – yoshi tufayli urushda qatnashmagan, ammo urush davri voqealari haqida asarlar yozgan adiblar – O.Xakslı, U.Folkner, G.Stayn.

2. Ikkinchi guruh – bevosita urush ishtirokchilari bo'lib, o'z shaxsiy hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, badiiy asarlar yaratgan adiblar –R.Oldington, V.Britten, E.M.Heminguey, F.S.Fitsjerald, A.Barbyus, E.M.Remark.

"Yo'qotilgan avlod" adabiyoti ijodkorlari asarlarida uch asosiy mavzu ko'tariladi. Bular: dekadentlik, gender munosabatlar va bepustlik hamda ideallashtirilgan o'tmish mavzulari edi.

Dekadentlik – badiiy va ijtimoiy tafakkurdagi tushkunlik (tanazzul) holatlarining jamlanmasi bo'lib, ertangi kunga, insoniyat kelajagiga umidsiz qarash, inson aql-zakovati, kuch-qudrati, oliy xilqat sifatidagi mavjudligiga ishonchsizlik, mavjud voqelikni qabul qila olmaslikdir. "Yo'qotilgan avlod" adabiyotidagi tushkunlik shaxs va jamiyat o'rtasidagi yemirilishlar sabab yuzaga kelgan edi. Jang maydonlarida na irqiy va na diniy kamsitilgan sobiq askarlar vatanga qaytgach, moddiy ustunlik qiluvchi jamiyatda o'z o'rnini topa olishmaydi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur adabiy oqimning bosh mavzusi – ertangi kunga ishonchsizlik va ruhiy tushkunlikdir. "Yo'qotilgan avlod"ga "Jaz davri" an'analarining uyg'unlashuvi fenomeni dekadentlik hodisasini yanada yorqinroq aks ettirganligi bilan xarakterlanadi. F.S.Fitsjeraldning "The Great Gatsby" ("Buyuk Getsbi")[8], E. Hemingueyning "The Sun also Rises" ("Fiyesta")[10] asarlaridagi mavzu ko'lamida dekadentlik hodisasi ustuvorlik kasb etadi.

Gender munosabatlar va bepustlik – urushga o'zlarini xuddi ritsarlarga qiyoslab ketgan yosh yigitlar uylariga ham

ruhan va ham jismonan zaif bo'lib qaytdilar. Ular ota bo'lish baxtidan yiroq, o'zlarini ayollar oldida ojiz his qiluvchi aybsiz aybdorlar edilar. Ular o'z ojizliklarini alkogol va giyohvand moddalarga qaramlik bilan yengishga harakat qilishgan. Heminguey va Remark asarlarida jamiyatning ushbu tanazzuli tarixiy va badiiy haqiqat asosida tasvirlangan. Yosh yigitlar hatto sevgan qizlariga muhabbat izhorlarini ham ayta olmasdilar. Shu kabi muammolar ayollarning oilada va jamiyatda mutlaq mustaqillikka erishishlariga sabab bo'ldi. Bunga Hemingueyning "The Sun also Rises" ("Fiyesta") romanidagi Jek va Brett munosabatlarini misol qilib keltirish mumkin.

Ideallashtirilgan o'tmish – sobiq urush qatnashchilarining butun o'y-xayoli ideal o'tmish kechinmalari bilan bog'liq edi. Kelajak mavhum, asosan salbiy chizgilar bilan to'la, undan hech qanday umid yo'q. O'sha mukammal o'tmish ular uchun yetib bo'lmay, kelajak esa aslo ahamiyatsiz edi. Masalan, Fitsjeraldning «Buyuk Getsbi» asari qahramoni Getsbi urushga ketishdan oldin sevgilisi Deyzini shu daraja ideallashtirgan ediki, haqiqatda Deyzi qanday bo'lsa, uni shundayligicha ko'ra olmasdi[8].

**Tahlil va natijalar.** "Yo'qotilgan avlod" adabiyotining tom ma'nodagi asoschisi, "aysberg" nazariyasi bilan ismi parallel qo'llaniladigan betakror amerikalik adib Ernest Miller Heminguey (1899-1961) ijodi yuzlab tadqiqotlarning yaratilishiga asos bo'lgan. Amerikalik yozuvchi, jurnalist va harbiy muxbir AQShning Illinoys shtatida tug'ilgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, u adabiyot bo'yicha 1954-yilda Nobel mukofoti laureatidir. Birinchi jahon urushiga ko'ngilli sifatida borishga qaror qilgan Hemingueyni bolaligidan qolgan ko'zidagi jarohat tufayli armiyaga olishmaydi. 1918-yilda Kansas-Sitidagi Qizil Xochga qabul qilinadi va Italiya frontida tez yordam mashinasida haydovchi sifatida ishlaydi.

Heminguey urush voqifi sifatida urush va uning oqibatlarini haqidagi asarlarini yozishda katta tajribaga ega edi. "Yo'qotilgan avlod" adabiyotiga mansub mavzularni uning "A Farewell to Arms" ("Alvido, qurol") va "The Sun also Rises" ("Fiyesta") romanlarida ham ko'rish mumkin. "The Sun also Rises" ("Fiyesta") 1926-yilda nashr etilgan va ushbu roman real voqealarga asoslanib yozilgan. Romanda bir guruh amerikalik va britaniyalik muhojirlarning 1920-yillarda Yevropada sarson-sargordan kezib, yashab yurganliklari aks ettirilgan. Ular Birinchi jahon urushida (1914-1918) qatnashgan, hayotdagi o'rnini yo'qotgan va hamma narsadan ixlosi qaytgan "yo'qotilgan avlod" nomi bilan yuritiladigan qatlam edilar. Romanning bosh qahramoni Jek Barns ismi amerikalik jurnalist bo'lib, u Birinchi jahon urushi janglarida qatnashadi va jang paytida jiddiy jarohat oladi. Natijada bepustlik kasalligiga yo'liqadi. Shundan so'ng u uyga, osuda hayotga qaytadi, ammo urushda qon kechgan, odam o'ldirgan odam tinch hayotga ko'nika olmaydi. Bosh qahramon har oqshom vaqtini barda o'tkazadi, chunki u ichkilikbozlik ruhiy va jismoniy azoblarini bostirishga yordam beradi, deb umid qiladi. Romanning yana bir qahramoni Ledi Bret Eshli bo'lib, ushbu ikki qahramonda "yo'qotilgan avlod" belgilari muallif tomonidan mujassamlashtirilgan. Jek va Bret bir-birlarini sevishadi, ammo Jekning kasalligi bois ular birga bo'la olishmaydi. Bret uni tashlab ketadi. Ammo ko'p vaqt o'tmay, Bret chet elda yolg'iz va pulsiz qolganligi sababli Jekdan yordam so'rab, telegramma yuboradi. Roman oxirida Bret va Jek o'rtasida ochiq suhbat bo'lib o'tadi, agar urush bo'lmaganida, hayotlari butunlay boshqacha bo'lishi mumkinligi haqida suhbatlashishadi. Urushning salbiy oqibatlarini ularni shu kuyga solganidan afsuslanishadi.

Asar shu darajada achinarli xulosa bilan tugaydiki, aynan urush baxtsiz juftliklarning ko'payishiga va bir umr bir-biridan ayro yashashlariga sababchi ekanligi ayanchli qismat

egalari – Jek va Bretning asar so'ngidagi dialogida namoyon bo'ladi:

“Oh? Jake.” Brett said, “we could have had such a damned good time together”.

“Yes,” I said. “Isn't it pretty to think so?”[10]

Asar bosh qahramonlarining mungli suhbatida ularning bir-biriga qanchalik intilishlarini, ammo bu intilishlarning samarasiz ekanligidan ham jismonan, ham ruhan aziyat chekayotganliklarini ko'rsatadi.

Nemis adabiyotini “Yo'qotilgan avlod” tendensiyasi nuqtai nazaridan butun dunyoga mashhur qilgan adib Erix Mariya Remark 1898-yil 22-iyunda Germaniya imperiyasida tug'ilgan. U cherkov maktabini tugatgandan so'ng adabiy klub a'zosi bo'ladi. Remark 1916-yilda frontga chaqirildi. Bir yil o'tgach, yosh muallif urushda jarohat oladi va urushning qolgan vaqtini kasalxonada o'tkazadi. Uygay qaytgan Remark o'zini ijodga bag'ishlaydi va badiiy asarlar yozishga kirishadi. Erix Mariya Remark XX asrning taniqli nemis yozuvchisi va “Yo'qotilgan avlod” adabiyotining taniqli vakillaridan biriga aylanadi. Remarkning “Yo'qotilgan avlod” adabiyoti an'analari asosida yozilgan asarlari uchta bo'lib, ularning ichida eng mashhuri “Im Westen nichts Neues” (“All Quiet on the Western Front”)[11], «G'arbiy frontda o'zgarish yo'q»[12]) romani hisoblanadi. Ushbu asar birinchi marta 1928-yilda nashr etilgan. Muallif ushbu romanini yozib tugatarkan, urushda ro'y bergan barcha yurakni ezuvchi voqealarni, och va sovuqqotgan askarlarni, hattoki voyaga yetmagan bolalarni urushda qatnashganini shunchalik jonli va ishonarli tasvirlagani tufayli kitobxon o'zini urush dahshatlari ichida tasavvur qiladi.

“G'arbiy frontda o'zgarish yo'q”romani urush natijasida halok bo'lganlar, hatto o'qdan qochib qutulib, tirik qolgan taqdirda ham uning qurboniga aylanganlar haqidadir. Roman Birinchi jahon urushida ro'y bergan real voqealar asosida yozilgan. Romanning bosh qahramoni frontda xizmat qilayotgan oddiy askar Paul Boymerdir. Boymer bilan bitta harbiy qo'shinda xizmat qilayotgan odamlar harbiy sohaga umuman aloqasi yo'q insonlar edi. Muallif bosh qahramonni urush dahshatlariga duch kelishi va uning qalb tubida o'chmas iz qoldirgan jarohatlarini tasvirlaydi. Ularning guruhi 150 kishidan iborat edi, ulardan 32 nafari tirik qoladi xolos. Shu tirik qolganlar ichida bosh qahramon ham bor edi. Paul urushdan ta'tilga kelgan kezlarida otasi harbiy kiyimdagi o'g'li bilan faxrlanardi. Biroq u urush haqidagi xotiralarni eslashni xohlamasdi. Chunki bu mavzu u uchun juda ham og'riqli edi. Ushbu asarda Remark aytmoqchi bo'lgan asosiy g'oya – asosiy qahramon ishtirok etgan urushning bema'niligini ko'rsatish edi.

O'z asarlarida “yo'qotilgan avlod” mavzusi aks etgan taniqli yozuvchilardan biri Richard Oldington (1892–1962)dir. O'z asarlarida ingliz qadriyatlarini ko'rsata olgan yozuvchi, shoir, jurnalist Oldington (1892–1962) Angliyada, Portsmautda tug'ilgan. U Dover kollejida, London universitetida tahsil oladi, biroq oliyoyi yetishmovchilik sabab o'qishni oxirigacha yetkaza olmaydi. Oldington 1916-yilda urushga boradi va Fransiyadagi qo'shinda xizmat qiladi. 1918-yilda jang maydonida jarohat oladi va uyga tushkun holda qaytadi. 1929-yilda urushda ko'rgan-kechirganlarini tasvirlab, biografik metod tamoyillariga asoslanib, “Death of a Hero” (“Qahramonning o'limi”) romanini yaratadi. Adib ushbu romani orqali kitobxonga o'sha davr ruhini his qilishni, o'sha davr jamiyatini idrok etish imkoniyatini beradi. Chunki u adabiyotda faqat o'zi qattiq nafratlanagan urush mavzusi bilan cheklanib qolmasdan, balki insonning ongli ravishda qilmishlariga jiddiy urg'u beradi.

“Qahramonning o'limi” romanining ilk satrlaridanoq asosiy g'oya muhabbat va boylik emasligini anglash mumkin. Asar mavzusi urush bilan bog'liq, aniqrog'i, urushning shafqatsizligi va u qanday oqibatlariga olib kelishi haqidadir. Asarda urush haqidagi tafsilotlar to'liq keltirilmagan, chunki asar muallifi Oldingtonning maqsadi urushni tasvirlash bo'lmagan. Uning maqsadi butunlay boshqa edi. Yozuvchi o'zining nozik insoniy tabiatidan kelib chiqib, asarlarida umuminsoniy g'oyalarni aks ettiradi. U o'z romanida beodoblik, qo'rqqoqlik, ikkiyuzlamachilikni qoralaydi, hatto urush ham bunaqangi fojiga yechim bo'la olmasligini ta'kidlaydi.

**Xulosa.** 1914-1918 yillardagi Birinchi jahon urushi 20 million insonning yostig'ini quritdi. Shu davr voqealari tasvirlangan “Yo'qotilgan avlod” adabiyoti ko'plab yozuvchilar ijodini qamrab oladi. Bu adabiyotning klassik namoyandalari – R.Oldington, E.Heminguey va E.M.Remark kabi yozuvchilarning Birinchi jahon urushi ishtirokchilari ekanligi, asarlaridagi syujet voqealari, qahramonlarining kechmishlari muallif taqdiri bilan bog'liqligi hamda asarlaridagi voqealar markazida urush hodisalari turganligi ular ijodining musharakligini ta'minlaydi. Umuman aytganda, “Yo'qotilgan avlod” adabiyoti mualliflari urushdan keyin yoshlarning yuzaki va beparvo hayotining o'ziga xos tomonlarini, ularning odatiy hayot tarziga moslasha olmaganliklarini, urushning ayanchli oqibatlarini o'z asarlarida aks ettirdilar. Ushbu yo'nalish yozuvchilar boshqa-boshqa mamlakatlarda yashashsa-da, ularni bir narsa birlashtirib turgan tinch va baxtli hayotga bo'lgan da'vat edi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бергельсон Г. Во имя мира // Ремарк Э. М. Три товарища. – М., 1989. – С. 410.
2. Дичковская Е.А., Латышев Д.И., Летаго Е.В. История американской литературы: «Потерянное поколение»// Языковая личность и эффективная коммуникация в современном поликультурном мире : материалы IV Междунар. науч.-практ. конф., Минск, 25–26 окт. 2018 г. – Минск : БГУ, 2018. – С. 178-182.
3. Затонский Д. Художественные ориентиры XX века. М., Советский писатель, 1988.
4. Реальный словарь классических древностей / авт.-сост. Ф. Любкер; Под редакцией членов Общества классической филологии и педагогики Ф. Гельбке, Л. Георгиевского, Ф. Зелинского, В. Канского, М. Курторги и П. Никитина. — СПб., 1885.
5. Урнов М.В. Ричард Олдингтон. – Москва: Высшая школа, 1968. – С. 72-74.
6. Aldington R. Death of a Hero. – London: Dundurn, 1998. – P. 308.
7. Aldington R. Death of a Hero. – London: Penguin Books Ltd., 2013. – P. 25.
8. Fitzgerald F.S. The Great Gatsby. – Washington: Fingerprint, 2020. – P. 184.
9. Hemingway E. A Farewell to Arms. – New York: Forgotten Books, 2018. – P. 363.
10. Hemingway E. The Sun also Rises. – New York: Hawthorne Classics, 2021. – P. 250.
11. Remarque E.M. All Quiet on the Western Front. – New York: Ballentine Books, 1987. – P. 304.
12. Remark E.M. /Ruschadan Nizom Komil tarjimas. G'arbiy frontda o'zgarish yo'q. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – 240 b.
13. Snow Ch.P. Richard Aldington: An Appreciation. – London: William Heinemann Ltd, 2001. – P. 193.
14. Samuel H. A War Imagined: The First World War and English Culture. – London: The Bodley Head, 1990. ISBN 0-370-30451-9. – P. 386.

- 
15. Xolbekov M.N. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Maqolalar to'plami. – Toshkent: “Mumtoz so‘z” nashriyoti, 2013. – B.22. (– 373 b.)

Umida ERGASHEVA,  
NavDPI mustaqil tadqiqotchisi

NavDPI professori, filologiya fanlari doktori N.Murodova taqrizi asosida

### TABIYIY HOLATNI IFODALOVCHI SIFATLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Annotatsiya

Ma'lumki, "tabiiy holat belgilari" ma'no jihatidan insonning ruhiy, hayotiy (fizik) va jismoniy holatini anglatuvchi sifatlar qatori holat bildiruvchi sifatlar sirasidan o'rin oladi. Sifat leksemalardagi shaxsning tabiiy holati faqat ko'rish organlari orqali bilinadi.

**Kalit so'zlar:** Sifat leksemalar, tabiiy holat, ijobiy belgi, salbiy belgi, nuqsoniy belgi, tashqi ko'rinish, qiyofa bilan bog'liq sifatlar.

### ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЕСТЕСТВЕННОЕ СОСТОЯНИЕ

Аннотация

Известно, что "знаки естественного состояния" по смыслу относятся к числу прилагательных, обозначающих состояние, а также к числу прилагательных, обозначающих психическое, жизненное (физическое) и физическое состояние человека. Естественное состояние личности в прилагательных лексемах известно только по органам зрения.

**Ключевые слова:** Прилагательные лексемы, прилагательные, относящиеся к естественному состоянию, положительному признаку, отрицательному признаку, дефектному признаку, внешнему виду, внешнему виду.

### LINGUISTIC AND CULTURAL STUDY OF ADJECTIVES EXPRESSING THE NATURAL STATE

Annotation

It is known that "signs of the natural state" in their meaning refer to the number of adjectives denoting the state, as well as to the number of adjectives denoting the mental, vital (physical) and physical condition of a person. The natural state of personality in adjectival lexemes is known only by the organs of vision.

**Key words:** Adjectives, lexemes, adjectives related to the natural state, positive sign, negative sign, defective sign, appearance, appearance.

**Kirish.** Sifatning ma'noviy guruhlari orasida holat bildiruvchi sifatlar shaxsning didi, etika-estetikasini ifodalaydi. M.Sodiqova tadqiqotida holat sifatleri "Tabiiy holat ma'nolarini bildiruvchi sifatlar" deb tilga olingan va u ikki guruhga ajratilgan:

- ijobiy belgilarni ifodalovchi sifatlar;
- nuqsoniy belgilarni ifodalovchi sifatlar[1].

Bu guruhlanish orasida ijobiy belgilarni bildiruvchi sifatlar juda katta guruhni tashkil qiladi. Shu qatorida nuqsoniy belgilarni ifodalovchi sifatlar kichik guruhni tashkil etadi. Ushbu bobda tabiiy holatni ifodalovchi sifatlarni alohida

ajratib tadqiq etish va ularning ma'nolarini O.Yoqubov asarlaridagi illyustrativ misollar asosida reallashtirishni ma'qul deb hisobladik. Ijodkor asar qahramonlari, umuman, shaxsning tashqi ko'rinishi, suratini ifodalashda "tabiiy holat belgilari" semasini o'zida mujassam etgan leksemalar paradigmasidan mohirona foydalangan. Bu leksemalar dennotativ ma'nodan tashqari xalq qadriyatleri, dunyoqarashi, urf-odatiga aloqador elementlarni o'zida mujassam etgan.

Tashqi ko'rinish, qiyofa bilan bog'liq sifatlarni semantik nuqtayi nazardan to'rt guruhga bo'lish mumkin:



1-rasm. Tashqi ko'rinish, qiyofa bilan bog'liq sifatlarning semantik tasnifi

Bu semalarning har biri qiyofa bilan bog'liq sifatlarning biror guruhini umumlashtirish vazifasini o'z zimmasida saqlaydi.

"Ko'rinish, chiroy" bilan bog'liq bo'lgan go'zallikni ifodalovchi sifatlar: go'zal, suluv, zebo, ko'rkam, malih, zarif, farishta, yoqimli, yoqimtoy, jozibali, jozibador, husnli,

husndor, chiroyli, sohibjamol, jamila, xushsurat, xushjamol, xushro'y, xushchiroy, nozanin, lobar, fusunkor, maftunkor, jilvagar. Ushbu sifatlarning differensial semasiga asosan quyidagi ma'nolarni ifodalashiga ko'ra ham bir necha guruhlarga ajratish mumkin:



2-rasm. "Ko'rinish, chiroy" bilan bog'liq bo'lgan go'zallikni ifodalovchi sifatlilar semantik tasnifi

1) "ortiq" ma'nosini bildirgan sifatlilar: go'zal, suluv, zebo, ko'rkam, malih, zarif, farishta // – Yana bilib qo'y, go'zal qizlar musobaqasida ham birinchi o'rinni egallaganman! ("Qaydasan, Moriko", 7-bet)

2) "egallik" ma'nosini ifodalovchi sifatlilar: yoqimli, yoqimtoy, jozibali, jozibador, ko'hlik, husnli, husndor, chiroyli, sohibjamol, jamila // – Mahkam aka taajjublanganidan yuzi allanechuk cho'zilib qolgan, Tohirning chiroyli qora ko'zlari shodlikdan porlab yonar, yolg'iz Burxon otagina qoshlarini bir-biriga tutashtirgan holda, mo'ylovini lablari bilan qimtib sukut qilar, go'yo xatning davomini kutar edi. ("Ota izidan", 77-bet)

3) "baxsh etuvchi" ifodasini beruvchi sifatlilar: xushsurat, xushjamol, xushchiroy // – Ibn Shahvoniy xushsurat shogirdining yelkasiga qo'lini qo'yib, aravadan tushdi, viqor bilan yerni bir-bir bosib, qizil ipak chodir tomon ravona bo'ldi. ("Ko'hna dunyo", 243-bet)

4) "nafosat bilan" ifodasini beruvchi sifatlilar: nozanin, lobar // – Qani o'shal ofatijon nozaninlar? – deb so'radi, so'radi-yu, nigohi bosh vazirga tushib, qiyg'os ko'zlari to'satdan cheksiz bir quvonch bilan charaqlab ketdi. ("Ko'hna dunyo", 361-bet)

5) "ta'sir" ifodasini beruvchi sifatlilar: fusunkor, maftunkor, jilvagor // – Bu uqublatlar evaziga uzoq yo'lda shunday fusunkor joylar uchradi, bu ko'm-ko'k qirlar, chaman gullagan bog'-u rog'lar, hadsiz-hududsiz yaylovlarni ko'rib, bu foniy dunyoning ko'rk-u jamoliga lol qoldik. ("Ko'hna dunyo", 363-bet)

Tashqi ko'rinish, qiyofa bilan bog'liq sifatlilar adresantning turli mazmundagi munosabatini ifodalaydi. Bu kabi leksemalar o'zaro muloqot jarayonida, badiiy matnda shaxsning tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori, ruhiy holatini, rang-ro'yini tasvirlashda ham faol qo'llanadi.

"Ko'rinish, chiroy" integral semasi bilan tutashgan ayrim sifat lingvokulteremalar belgi darajasining ortiqligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra ularning differensial semasi "ortiq" deb belgilanadi. – Ul najot farishtasi Ibn Sino yo'lga chiqmish! ("Ko'hna dunyo", 77-bet) Bu misolda yozuvchi ham qisqalikka, ixchamlikka, ham jozibadorlikka, ham ta'sirchanlikka erishgan. Aslida "Farishta" arabcha (arab tilida: ملك) Islomiyatda – aqlli va ozod mavjudot. Allohning hamma buyruqlarini so'zsiz bajarishadi (aslida Allohni ularga ehtiyoji yo'q, lekin ularni yaratib, o'zlarini chegarasiz idroklari bo'yicha qo'llanadi) Farishtalar inson ko'ziga ko'rinmaydi, lekin o'zi xohlaganda yoki Allohdan buyruq olganda ko'rinishi mumkin. Ular nurdan yaratilgan[2]. Odil Yoqubov farishta so'zini qo'llash bilan Ibn Sinoning butun xususiyatini to'la ta'riflab beradi. Demak, Ibn Sino bu go'zal olamning eng aqllilaridan ham ancha yuqori darajadagi shaxs, hattoki, farishta singaridir. U – abadiy dunyo go'zali, Olloh muruvvatiga loyiq inson sifatida gavdalaniriladi[4]. So'zni bu darajada tanlab qo'llash, unga jiddiy vazifa yuklash so'z semantikasini chuqur bilishni talab etadi. Shuningdek, yozuvchi ijodida farishtaga o'xshatish holatlari ko'p uchraydi (farishta misol, farishta kabi, farishtadek, farishta yanglig', farishtaday... kabilar), biroq ulardagi ta'rif, o'z-o'zidan, yetarli emasligi bilinadi. Ya'ni farishtaga o'xshaydi-yu, uning o'zi emas-da! // – Bir mirini qoldirmay ulashdim-u, mana endi,

farishtaday ma'sum, go'dakday qipyalang'och, o'z yurtimga otlandim!.. ("Ko'hna dunyo", 158-bet) jumlasida esa o'xshatish shu darajada qiyomiga yetganki, narsa o'xshatilayotgan narsaga teng, uning o'zidir. Demak, bunda faqat o'xshovchi ifodalangan, xolos. Bu san'at esa istioradir (O'xshovchi o'xshatilishini ham o'z ichiga olgandir)[3].

Shaxs tashqi ko'rinishini ifodalovchi bir qancha leksemalardan lingvokulturologik fon yaratish uchun foydalaniladi. Sifatlardan go'zal so'zi poetik tilga xosligi bilan ham ajralib turadi.

O'zbek tilida eng faol qo'llanuvchi, ta'sirchanlikni yuqori darajada aks ettiruvchi go'zal leksemasi quyidagi ma'nolarni ifoda etadi:

1. Go'zal – juda ham chiroyli, husndor, xushro'y, go'zal qiz.
2. Go'zal – kishi ko'zini quvontiradigan, maftun etadigan, zavqlantiradigan go'zal tabiat.
3. Go'zal – zavq - shavqqa boy, serzavq, unutilmas.
4. Go'zal – ism (O'TIL, II, 530). Sizlar bilmaysizlar, bizning xotin yoshligida nihoyatda go'zal bo'lgan...[5]

Go'zal sifatining ma'nosini ochishda "ko'rinish, chiroy" "ortiqligi", shuningdek, poetik tilga xosligi O.Yoqubov tomonidan e'tiborga olingan. Masalan, – Xayr, azizim, maboda bir sabab bilan (turmushda nimalar bo'lmaydi!) bu xat qo'lingga tegadigan bo'lsa, bilgin: hayotimning eng so'nggi daqiqalarigacha xayolim senda edi, ko'z oldimda sening mehribon va go'zal chehrang turdi. ("Ota izidan", 83-bet) Bu gapda suyuqliki, turmush o'rtog'i chehrasining go'zalligi tasvirlangan. Shuningdek, uning qiyoslanishi go'zal so'zidagi poetiklikni ham namoyon etgan.

Go'zal so'zi o'z guruhiga kiruvchi suluv, zebo, ko'rkam, malih, zarif, farishta so'zlariga nisbatan ham belgi ortiqligining kuchliligi bilan ajralib turadi. Buning uchun uning xususiyatiga ega shaxsning, aniqrog'i ayolning o'z muhitida katta dovrucqa egaligi namoyon bo'ladi: – U o'z haramiga Chin va Misr, Hindiston va Rumdan husnda yagona harliqolarni yig'dirsa, raqsdan tovusdek tovlanguvchi go'zal raqqosalar, bulbul yanglig' xushovoz xonanda va sozandalar, nomi olamga ketgan malikul kalom va vohidi zamon allomalarni to'plasa!.. ("Ko'hna dunyo", 57-bet) Bu gapdagi raqqosalarga berilgan ta'rif go'zal so'zidagi belgi ortiqligini namoyon etgan.

Go'zal so'zi faqat ayollarga nisbatan emas, hayvonlarga, hududlarga, mavhum tushunchalarga nisbatan ham qo'llanadi. Bular ham go'zal so'zining "ko'rinish, chiroy", "didga mos", "ortiq" lingvokulteremalarini reallashtirish uchun xizmat qilgan: – Bu yerda, atrofi qorli cho'qqilar bilan o'ralgan daralarda qoplonlar, chiyabo'rilar, yo'lbarlar makon qurgan, yuqorida, tog'-u toshlar ustida yovvoyi echkilar, mugizlari quloq-quloq arxarlar gala-gala bo'lib izg'ib yurar, tog' etagidagi qir va sayhonliklarda esa yosh kanizlarday hurkak, go'zal ohular uchrardi. ("Ko'hna dunyo", 122-bet) // – Olam esa chindan ham go'zal, ovloq tog'largacha cho'zilgan qir va adirlar yam-yashil, gurkirab o'sgan yovshan, shuvoq, kiyik o'ti va yovvoyi bedalar orasida mitti-mitti chitirgullar, nafarmon rang no'xataklar, binafsha va chuchmomalar yal-yal yonar, o'tlar orasida ko'zga ko'rinmas qushlar sayrar, havoni yalpiz, kakra, shuvoq va yana

allaqanday giyohlarning sal taxir, xushbo'y hidi tutgan edi. ("Ko'hna dunyo", 302-bet)

Narsa-buyum belgisini bildiruvchi leksemalarning shaxs qiyofa ko'rinishini ifodalashga xizmat qilishi xalqlarning narsa-buyum sifatini o'zlashtirishi va qiyofa tasvirida shu belgilarni aks ettirish xususiyati bilan izohlanadi.

Chiroyli, ajoyib, go'zal kabi sinonimlarni yonma-yon, ya'ni uyushgan holda keltirish ta'kid, kuchaytirish ma'nolarini ham ifodalashi mumkin [16].

Suluv so'zi ham go'zal so'zi bilan bir integral sema ostida ma'no kasb etadi. Lekin bu so'z sememasidagi o'ziga xos tomon shundaki, u ko'proq reallashtirilishida go'zal so'zida e'tibordagi tutilgan vositalar amalga oshiriladi: –Haram bekasini chaqirtiring. Suluv kanizlardan keltirsinlar! ("Ko'hna dunyo", 406-bet)

Zebo so'zi ham o'z sememasiga ko'ra, asosan, ayollarga qaratilgan bo'ladi. Biroq undagi ifoda sal kengroq, u o'zbek ayollariga xos umumiy ko'rinishni, kiyinish va qaddi-qomatni ham e'tibordagi tutadi. Shuning uchun ham O.Yoqubov zebo so'zining ma'nosini ochish maqsadida u kiritilgan gapga qaddi-qomat va libos ko'rkamligini ko'rsatuvchi ifoda vositasini ham keltiradi: – Shoir Unsuriy vazir janoblarining cherts qoch sachragudek qip-qizil, chiroyli yuziga hadiksirab qaradi-da, haram kanizlarining qo'llaridek nozik, oppoq qo'llarini ko'ksiga qo'ydi... ("Ko'hna dunyo", 126-bet) Matndagi sachragudek va qip-qizil, yuz, zebo so'zlari ma'noni ochishga xizmat qilgan. Shuningdek, tashqi qiyofani izohlashda go'zal leksemasi bilan rang-tus hamda shakl ifodalovchi so'zlarni birgalikda qo'llash axborotning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. O.Yoqubov "ijobiy qiyofa" semasini ifodalovchi leksemalarni tadrijiy holda qo'llab, emotsional-ekspressivlikning yuksak namunasini ko'rsatishgan.

Suluv, sohibjamol so'zlari, odatda, qizlarning tashqi ko'rinishini sifatlaydi. Badiiy matnda yuzning chiroyli ko'rinishini ko'rkam, suluv leksemalari orqali ifodalanadi. Ko'rkam so'zi belgi ifoda etish doirasi kengligi bilan go'zal so'ziga nihoyatda yaqindir, biroq ko'rkam so'zida belgi ifodasi kuchsizroq hamda shaxsqa qaratish keyingi o'rinda ekanligi uning o'ziga xos tomonidir. Muallif joyga nisbatan ham ko'rkam sifatini qo'llaydi: – Nahot necha yuz ming so'm sovurilgan bu ko'rkam qasr, antiqa idishlar-u xorijiy mebellar bilan jihozlangan bu "lyuks" xonalar faqat "Dashtstroy" rahbarlari-yu, ularning aziz mehmonlarigagina xizmat qilsa? ("Oq qushlar, oppoq qushlar", 73-bet) Matnda salqin, husn, chiroy so'zlari keltirilsa edi, ular ham ko'rkam so'zining ma'nosini ochishda muhim qimmatga ega bo'lardi.

Suluv – "ko'rinishi yoqimli, chiroyli, go'zal". Sof turkiy leksema hisoblangan suluv birligi suluk shaklida til tarixining ma'lum davrlarida yigitlarga nisbatan ham ishlatilgan. Hozirda faqat qizlarga nisbatan qo'llanishi semantik torayish, leksemaning gender xoslanishi natijasidir: – Ulug'bek ulardan ko'zini uzolmay o'z-o'ziga pichirladi: suluvlar suluvi Mushtariy, go'zallar go'zali Zuxal dubbi akbar, Oltin qoziq... Hammasi joylaridan jilibdur. ("Ulug'bek xazinasi", 138-bet)

Sohibjamol sifati ham ma'lum davrda gender jihatdan farqlanmagan, har ikki jins vakillarini sifatlab kelgan. Alisher

Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida Mavlono Moniyning tashqi ko'rinishi uning ichki dunyosi bilan mutanosib ekanini sohibjamol va zarif so'zlari orqali mahorat bilan ta'riflaydi: – Mavlono Moniy...sohibjamol va zarif va ra'no yigitdur. Ushbu misoldagi sohibjamol va zarif leksemalari shaxs tashqi qiyofasini ifodalab, uning kelishgan, chiroyli va basavlatililigini ta'rifladi, zarif sifati orqali shaxs fe'l-atvorini izohlaydi, uning xushta'b va ziyrakligini ko'rsatadi. Zarif so'zi pokiza, go'zal, latif, xushta'b, ziyrak, nozikfahm kabi ma'nolarda izohlangan. O.Yoqubov asarlarida ham ushbu leksema faol qo'llangan: – Ayol zotini ma'zur tutasiz, mavlono, sizga bir og'iz so'zim bor. O'n gulidan bir guli ochilmagan ul sohibjamol... sizga faqat joriyalik qilgan edimi yoki... ("Ko'hna dunyo", 275-bet)

Lingvokulteremasi "didga mos", "yoqadigan", "yoquvchan", "yoquvchi" bo'lib, integral semasi "ko'rinish", "chiroy" bo'lgan sifatlar ichida "egalik" ifodalovchi differensial semasi bilan ajralib turuvchi: yoqimli, yoqimtoy, jozibali, jozibador, ko'hlik, husnli, husndor, chiroyli, sohibjamol, jamila kabi sifatlar mavjud. Yoqimli, yoqimtoy, jozibali, jozibador, husnli, husndor, chiroyli kabi so'zlar asosdan anglashilgan nimagadir egalikni ifodalaydi. Bu egalik sifatning qo'shimcha semantikasida ifoda etiladi. Sohibjamol, jamila, jambil so'zlari arxisemali egalikni leksik ma'nosiga ko'ra anglatadi.

Yoqimli so'zi belgi ifoda doirasining kengligi bilan go'zal, ko'rkam so'zlariga yaqin, belgi esa kuchsiz ifodalangan: – Gavjum ko'chalardagi odamlar ham har kungidan yaxshiroq kiyingan va nima uchundir odatdagidan muloyimroq va yoqimliroq ko'rinar. ("Muqaddas", 106-bet)

Yoqimtoy so'zi yoqimli so'zidan o'zidagi erkalash ifodasi bilan ajralib turadi: – Kichkinaligida Nigora marhum buvisining qo'lida o'sgan, buvisining, ya'ni og'aynisi Rasullarning bog'i esa Shovvozlarning bog'iga tutash edi. Shu sabab Nigora Shoraximning qizlari bilan birga yotib, birga turib katta bo'lgan. O'ziyam jajjigina bir qizaloq edi. Bu yil yozda ko'rsa... Nozikkina, yoqimtoygina bir juvon bo'libdi. ("Oq qushlar, oppoq qushlar", 9-bet)

Jozibador so'zidagi belgi jozibali so'zidagi belgiga nisbatan egalik, ortiq holda ifodalangan va poetik uslubga xoslanish ham mavjud ekanligi seziladi: – Yerlar go'zal, sirli, jozibador ko'rinar. ("Tengdoshlar", 26-bet)

"Ijobiy qiyofa" semasini ifodalovchi go'zal, sirli, jozibador kabi milliy-madaniy tushunchalar o'zaro sinonimik qatorni hosil qilgan. Bunda leksik birliklar semantikasining konseptual imkoniyatlari yanada to'laroq ifodalangan.

Poetik matnda qo'llanilgan bu kabi sifatlar lingvokulturema sifatida madaniy-ma'naviy yuk tashiydi.

**Xulosa.** Umuman olganda, tahlil etilgan yuqoridagi tabiiy holat bilan bog'liq belgi bildiruvchi differensial semali sifatlar ma'nosini ochish uchun turli vositalardan foydalanilgan misollar keltirildi. Bu vosita faqat o'sha sifatning differensial semasini namoyon etish uchun mos deb bo'lmaydi. Keltirilgan vositalarning har biridan ma'nosi tahlil qilinarotgan har bir sifat differensial semasini ochishda foydalanish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov A. Qizil, oq va qora so'zlarining leksik-semantik xususiyatlari // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to'plami). – Samarqand, 1978. 27–31-b.
2. Фазылов Э.И., Чичулина Л.Г. Русские тюркологи и узбекское языкознание. – Ташкент: Фан, 1979. – 216 с.
3. Hoshimov A. Leksemalarni maydonlarga bo'lish tamoyili. – Toshkent, 1998. – B. 62
4. Иноятова Р. Словообразование и лексико-семантика прилагательных соотносительных тематических групп узбекских и русских языков. – Ташкент, 1998. – 25 с
5. Karimov S. Zulfiya poeziyasi tilida epitetlar // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to'plami). – Samarqand, 1978. 58–66-b.
6. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992. – 140 b.

7. Madraximov O. O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir // O'zRFA Axboroti, ijtimoiy fanlar seriyasi. – Toshkent, 1957, № 1. – 41–47-b.
8. Mamatov M.Sh. Sifat va otlarning ayrim stilistik xususiyatlari haqida // O'zbek tili stilistikasidan kuzatishlar (ilmiy maqolalar to'plami). – Samarqand, 1983. 59–61-b.
9. Ma'rufov Z. Sifat // Hozirgi zamon o'zbek tili. – Toshkent, 1957. – 343–357-b.
10. Pardayev N. Ruhiiy holat ifodalovchi sifatlar semantikasiga doir. – Toshkent, 2002. – B. 65
11. Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. – Toshkent: Universitet, 1996. – 32 b.
12. Qo'ng'urov R. So'z turkumlari nazariyasi masalalariga doir // O'zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari (ilmiy maqolalar to'plami). – Samarqand: 1969. 189–201-b.
13. Sodiqova M. Sifat // Hozirgi o'zbek adabiy tili, ikki tomlik, 1-tom. – Toshkent: Fan, 1966. 230–240-b.
14. Sodiqova M. Sifat // O'zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, 1-tom. – Toshkent: Fan, 1976. 271–306-b.
15. Sodiqova G. Sezgi ifodalovchi sifat sememalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1977, № 3. 53–55-b.
16. Тожиёв Ё., Ҳасанова Н., Тожиमतов Ҳ., Йўлдошева О. Қўрсатилган қўлланма. – Тошкент, 1994. – Б. 83.



*Mastona YULDASHEVA,*  
*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti*

*PhD A.Nazarov taqrizi asosida*

## STRUCTURAL ANALYSIS OF AUTOMOBILE TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

Today, the increasingly development of technology leads to the introduction of new terms, and as a result, from which languages they are introduced, their structural analysis is of interest to linguists.

**Key words:** Car models, terminological combination, multi-component, conversion phenomenon.

## СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ АВТОМОБИЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Сегодня бурное развитие технологий приводит к появлению новых терминов, в результате чего в языках они вводятся, их структурный анализ представляет интерес для лингвистов.

**Ключевые слова:** Модели автомобилей, терминологическое сочетание, многокомпонентность, явление конверсии.

## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI AVTOMOBIL TERMINOLOGIYASINING STRUKTUR TAHLILI

Annotatsiya

Hozirgi kunda texnologiyani keskin darajada rivojlanishi, yangi terminlar kirib kelishiga olib kelmoqda, natijada ularni qaysi tillardan kirib kelayotgani, tuzilish jihatdan tahlil qilish, tilshunos olimlarni qiziqirtirmoqda.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil modellar, terminologik birikma, ko'p komponentli, konversiya hodisasi.

**Kirish.** Faoliyatning barcha sohalari, shu jumladan sanoatga ham ta'sir ko'rsatadigan globallashuv, yangi texnologiyalarning joriy etilishi, global o'zgarishlar allaqachon tabiiy jarayonga aylanib ulgurgan. Hozirgi vaqtda sanoat sohasining etakchi tarmoqlardan biri avtomobilsozlikdir.

Bugungi kunda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, balki ko'plab ta'lim yo'nalishlari, jumladan, tilshunoslik sohasida ham innovatsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Birinchi avtomashinalarning yaratilish va ishlab chiqish tarixi 200 yildan ko'proq vaqtga borib taqalishiga qaramay, bu soha kundan-kunga ommalashib bormoqda, bu nafaqat avtomobilsozlik, balki bir qarashda, butunlay bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat sohalari ham rivojlanib borayotganini anglatadi.

XX- XXI asrlar davomida avtomobil sanoatiga ta'sir ko'rsatadigan bir qator ulkan global o'zgarishlar ro'y berdi. Ushbu soha terminologiyasiga bo'lgan talab tobora kuchayib bormoqda va zamonaviy vaziyatda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Avtomobil atamalarini organish jarayoni hozirgi kungacha to'xtagani yo'q, demak, atama yasalish (shakllanish) jarayonini o'rganish muammosi tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, birinchi navbatda, avtomobil sanoatida atamalarning jadal shakllanishi hozirgi vaqtda qator ekstralingvistik omillar bilan bog'liq, masalan:

1. Ishlab chiqarilayotgan avtomobil konstruksiyalarini takomillashtirish. Hozirgi vaqtda avtomobildagi aksariyat harakatlar elektron tarzda boshqariladi. Ishlab chiqarishni taqsimlash va bo'lish turli ishlab chiqaruvchilar va hatto turli mamlakatlarda ishlab chiqiladigan elektron tizimlarning ko'plab variantlari paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday terminologik birliklarga quyidagilar kiradi: Allrad (nemis) - to'liq privodli - AWD (all-wheel drive) (inglizcha); ABS (Anti-

Blockier-System) (nemischa) – ABS (antilock braking system) (inglizcha); Hydrobremse (nemischa) – gidravlik tormoz – Hydraulic brake (inglizcha); IR-Fernbedienung (nemischa) – masofadan boshqarish – remote-dispatch control (inglizcha);

2. Avtomobil og'irligini kamaytirish maqsadida yangi materiallarni ishlab chiqish. Mazkur shart tejamkor va ekologik toza avtomobil qismlarini yaratish uchun zarurdir. Umuman olganda, terminologik turkumda yangi materiallar kiritilishi bilan yangi terminologik birliklar yuzaga kelmaydi. Biroq, avtomobilning alohida qismlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarishda kimyoviy atamalar va yangi ishlab chiqarish uskunolari va ishlab chiqarish bosqichlari atamalarisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

3. Muqobil energiya manbalaridan foydalanadigan avtomobil modellari sanoati. Bu erda quyidagi atamalarning shakllanishini ko'rishingiz mumkin: siqilgan havoda ishlaydigan dvigatel - Preßluftmotor (nemis), compressed-air engine (inglizcha); elektr dvigatel – elektrisches Stellmotor (nemis), electric engine (inglizcha); gaz dvigateli – Gasmotor (nemis), gas engine (inglizcha).

Ingliz tili va o'zbek tillaridagi terminologiyasini o'rganishimiz natijalariga ko'ra, bu tillar terminologiyasida atamalarni shakllantirishning eng mashhur usuli, tadqiqotga ko'ra, terminologik birikmalar hisoblanadi.

• Ingliz tilida terminologik birikmalar 80% ni tashkil qiladi: masalan, axle shaft - yarim doira o'qi, hypoid gear - gipoidli uzatma, power plant - quvvat qurilmasi, driving wheel - harakatlantiruvchi g'ildiraklar, antiskid system - tortishni boshqarish tizimi, drain hole - drenaj teshigi, exhaust pipe - egzoz trubkasi.

O'zbek tilida esa terminologik birikmalar 85% ni tashkil qiladi: masalan, uzatmalar kutusi, old g'ildirak, rul vali, orqa tormoz mexanizmi, gaz pedali, xavfsizlik yostig'i, g'ildirak o'qi, bagaj qopqog'i, tormoz chirog'i, motor karteri.



• Ingliz tilida oddiy so'zlar 10% ni tashkil qiladi: masalan, engine - dvigatel, body - kuzov, rivert - perchin, hinge - eshik ilgagi, roof - tom, jack - domkrat.

O'zbek tilida esa oddiy so'zlar 8% ni tashkil qiladi: kuzov, dvigatel, shassi, g'ildirak, shina, bak, pedal, rul, val, porshen, shatun.

• Ingliz tilida termin hosilalari 4% ni tashkil qiladi: masalan, removable - olinadigan, heating - isitish, radiator - radiator, alternator - generator.

O'zbek tilidagi esa termin hosilalari 3% tashkil etadi: masalan, starter, amortizator, stabilizator, tutgich, tirsakli, tishli, turtgich, gidrokompensator, reduktor.

• Ingliz tilida qisqartma (abbreviatura)lar 4% ni tashkil qiladi: masalan, ABS (antilock braking system) - ABS (blokirovkaga qarshi tormoz tizimi), ARD (antijoy ride device) - o'g'irlikdan himoya qiluvchi qurilma, YOM (year of manufacture) - ishlab chiqarilgan yili, SPU (sport-utility vehicle) - yo'l tanlamasi.

O'zbek tilida esa qisqartmalar 1% ni tashkil etadi: masalan, ABS, DONS, SONS, LED.

• Ingliz tilida ko'p komponentli atamalar 2% ni tashkil qiladi: masalan, drawbar - farkop, airbag - xavfsizlik yostig'i, motorway - magistral, headlight - fara.

O'zbek tilida esa ko'p komponentli atamalar 3% ni tashkil etadi: masalan, antifriz, avtoblokirovka, samosval, avtostop, avtopilot, mototransport, elektromagnit, benzonasos, gidromufta, gidromaxanik, airodinamik, benzobak.

Shunday qilib, olib borilgan tahlil turli tillarda terminologiyani shakllantirish usullari har xil ekanligini ko'rsatdi. Xususan, ingliz tilida va o'zbek tilida atamalar ko'pincha terminologik birliklarni shakllantirish tarzida shakllanadi.

Ushbu tadqiqot davomida "Avtomobil" predmeti bo'yicha prefiksatsiya va qo'shimchalar yordamida shakllangan juda ko'p atamalar aniqlandi va tahlil qilindi. Prefikslarni shakllantirishda lotin va yunon tillaridan olingan anti-, auto-, dis-, de-, mono-, rever-, trans-, uni-, multi-, re-, va shuningdek, nemis tilidan kelib chiqqan so'zlarga xos morfemalarga tegishli over-, up-, under- prefikslari juda samarali ishtirok etishgan. Masalan: anti-roll bar "bo'ylama barqarorlik stabilizatori", automatic choke "sovuqni ishga tushirish avtomatikasi", de-fogger "muzdan eritish, oyna isitgich", dis-placement "ishchi hajmi", ex-haust system "egzoz tizimi", in-let manifold - "kiritish kollektori", inter-cooler - "oraliq-sovutgich", outer - "tashqi", mono-block - "monoblok", multi-van - "multiven", overheating - "qizib ketish", rever-sing lights - "teskari yoritgichlar", pre-heating timer - "yondirgichlarni oldindan qizdirish taymeri", suspension arm - "osma richag", trans-fer case - "uzatish qutisi", uni-versal joint - "universal bo'g'in", up-holstery - "salon, o'rindiqlarning g'iloqli qoplamalari", im-purity "ifloslanish".

Ingliz tilida taqdim etilgan qo'shimchalar orasida -ment, -ture, -oid, -ance, -ible, -iv, -ic, -ission, -or, -er kabi lotin, yunon va fransuz tillaridan olingan qo'shimchalar eng samarali hisoblanadi, bu esa ingliz tilidagi so'z yasash jarayonlaridagi umumiy lingvistik vaziyatga mos keladi: glove compart-ment - "quti, bardachok", mix-ture control "aralashma tarkibini nazorat qilish", hyp-oid gear "gipoidli uzatma", fus-ible link "xavfsizlik chizig'i", evaporat-ive "bug'ni chiqarish tizimi (benzin bakidan)", electr-ic "elektrik", transm-ission "transmissiya", accelerat-or - "gaz pedali", air clean er - "havo filtri".

O'zbek tilida qo'llaniladigan old qo'shimchalar ba-, be-, bo-, no-, ser- kabi Prefikslar fors tilidan kirib kelgan, anti-, kontr-, sub-, super- kabilar esa baynalmilal prefikslardir. Avtomobilga oid so'zlarda bunday qo'shimchalar deyarli ishlatilmaydi. Ayrim ingliz tilidan kirib kelgan teminlarda uchratishimiz mumkin. Masalan: antifriz, antiradar, antiblokirovka

O'zbek tilida ot yasovchi affiksalar ular ma'nosiga ko'ra turlarga bo'linadi, ulardan narsa, qurol, o'lchov birligi otlari yasovchi affikslarni avtomobilga oid terminlarda eng ko'p uchratish mumkin. Bu guruh ot yasovchi affiksalar, asosan, fe'ning o'zak negiziga qo'shilib, ish-harakat bajarish uchun qo'llanadigan narsa, harakat, holat natijasi bo'lgan otlarni yasaydi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: -k (ik /-ak, -uk), -q (-iq, -oq), gi\ -ki\ -qi\ - g'i\ -g'u, - gich \-kich\ -qich\ -g'ich. Masalan: klapan kallagi, rolik, tortqi, tepki, bo'lak, to'siq, qisqich, oyna tozalagich, tezlik o'lchagich, nur qaytargich, yonilg'i, qisqich, tormoz kucha ytirgich, shovqin so'ndirgich, turtgich.

Tadqiqotimizga ko'ra, ingliz tilidagi "Avtomobil" predmetining terminologik lug'atini shakllantirishda quyidagi eng keng tarqalgan prefiks va qo'shimchalar birliklari aniqlandi: de-, dis-, re-, in- prefikslari, -ment, -er, -ing suffikslari. Masalan, displacement, disassembly, defogger, injector, regulator, replacement kabilar.

Konversiya hodisasi so'z yasashning mahsuldor usullaridan biri bo'lib, shunga mos ravishda turli soha terminologiyalarida lug'at terminologik shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Konversiya - "transpozitsiya turi bo'lib, unda so'zning gapning bir bo'lagidan ikkinchi bo'lagiga o'tishi shunday sodir bo'ladi, bir gap bo'lagi so'zning denominativ shakli nutqning boshqa bo'lak vakili sifatida hech qanday moddiy o'zgarishsiz qo'llaniladi".

O. Yespersenning fikricha, konversiyaning yuzaga kelishining asosiy sababi ingliz tili tizimidagi ot va fe'llarning o'ziga xosligi bo'lib, ularni "ingliz o'ziga xosligi (unikalligi)" deb hisoblash mumkin [5]. Shuning uchun konversiya ingliz tilining so'z boyligini balki o'zbek tili so'z boyligini kengaytirishning muhim vositasidir.

Avtomobil sohasida atamalarni shakllantirish jarayonida konversiya so'z yasashning samarali usuli hisoblanadi. Ingliz avtomobil atamalarini o'rganayotganda biz quyidagi modellarni aniqladik: N>V (to increase, to drum), V>N (a flaw, a chec), Adj>N (a flat, a differtial), Adj>V (to slack, to empty), N>Adj (arm rest, door handle, fan belt).

O'zbek tilidagi konversiya hodisasiga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: Adj>N (ignasimon (klapan), magnitli.) N>V (purkagich, tirkagich), V>N (moylash).

Sanab o'tilgan modellar chastota va qo'llanilish bo'yicha ingliz va o'zbek tillarida so'z yaratish sohasidagi mavjud tendentsiyalarga mos keladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi "Avtomobil" predmeti terminologik birliklarining quyidagi tarkibiy tuzilishi aniqlangan:

1. Ingliz tili va o'zbek tillaridagi "Avtomobil" predmeti terminologik birliklarining komponentli tarkibi:

1) ikki qismli atamalar:

Ingliz tilida: ot + ot, masalan, air duct, air filter, arm rest, brake disk, charge indicator, check connector, seat belt; ravish (sifat) + ot, masalan, connecting rod, cooling system, filling station, reversing lights;

O'zbek tilida: ot+ot, havo filtri, tormoz sistemasi, g'ildirak o'qi, avto ulov, mashina kapoti; sifat+ot, metal klapan, diskli tormoz, o'ramali prujina.

2) uch qismli atamalar:

Ingliz tilida: ot + sifat + ot, masalan, top dead center; sifat + ot + ot, masalan, automatic performance control, automatic transmission fluid, central fuel injection, double overhead camshaft, diagnostic test mode, electronic control unit, single overhead camshaft, progressive power steering, rear window defogger;

ot + ot + ot, masalan, nap., air flow control, brake master cylinder, temperature heat water, vehicle identification number;

prefiks + sifat + ot, masalan, anti-blocking system, multi-point fuel injection.

O'zbek tilida: ot+sifat+ot, sovutuvchi qovurg'asimon moslama, mashina uzun qismi, matorning po'lat g'ildragi;

sifat+ot+ot, markaziy yoqilg'i purkagich;

ot+ot+ot, mexanik uzatma qutisi, davlat raqam belgisi.

3) to'rt qismli atamalar:

Ingliz tilida: sifat(ravish) + ot + ot+ot, masalan, electronic brake control module, full size spare tire.

O'zbek tilida: sifat(ravish) + ot + ot+ot, yengil avtomobil uzatmalar qutisi, asosiy kardan vali uzatmasi.

Ot+sifat (ravish+ot+ot) g'ildirak tepasidagi mashina qanoti, mashina ichki tortma qutisi.

"Avtomobil" predmeti sohasi atamalarining komponentli tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan fan sohasida bir so'zli va ko'p so'zli birliklarning quyidagi nisbati aniqlangan:

bir so'zli atamalar:

Ingliz tilida: boot, brake, cab, clutch, horn, jack, oil, pedal, pump, spring, van, wheel, lock, latch, hinge, lights va boshqalar;

O'zbek tilida, tormoz, shina, rul, kapot, chiroq, pedal, pult, vint, ventil.

hosilalar:

Ingliz tilida: absorber, bumper, accelerator, cylinder, radiator, screwdriver, spanner, suspension, trailer, transmission va boshqalar;

O'zbek tilida, protector, karbutyator, kondensator, amortizator.

murakkab:

Ingliz tilida: windscreen, windshield, speedometer, seatbelt, screwdriver, rearview, hubcap, highway, headrest, headlights, hatchback, dashboard, crankshaft, armrest va boshqa shu kabi;

O'zbek tilida esa, avtopritsept, avtozavod, avtoblokirovka, avtokolonna.

atama birikmalari.

Ingliz tiliga N+N yoki A+N modeli bo'yicha atama birikmalarining shakllanishi xosdir. O'zbek tilida esa bu O+O yoki S+N larda shakllanadi.

Termin birikmalarining eng samarali modellari:

ikkita:

a) N+N modeli bo'yicha yaratilganlari: brake fluid, brake light, car alarm, electrical system, driver's license, fan

belt, fog lights, front door, fuel gauge, license plate, number plate, oil pump, rearview mirror, service station, spark plug, tail-light, temperature gauge, temperature gauge, windscreen wiper, traffic jam;

O+O modeliga o'zbek tilidagi misollar: zaxira g'ildirak, mashina lyuki, g'ildirak tishi, suv haydagich, g'ildirak gaykasi, g'ildirak tishi.

b) A+N modeli bo'yicha yaratilganlari: parking light, spare parts, steering wheel, spare tire; ko'p komponentli: gear-change shift lever, bumper-to-bumper va boshqalar.

S+N modeli uchun o'zbek tilida esa yuqori shlang, richagli podveska, markaziy disk, konussimon uzatma, yarim o'qlar, etakchi val.

Taqdim etilgan komponentlar tahlili bizga shunday xulosa chiqarish imkonini beradi: atama birikmasining elementlaridan biri tayanch so'z hisoblanib, atamaning umumiy atributi(xususiyati)ga ishora qiladi. Atama birikmasining atributiv elementi atamaning o'ziga xos xususiyatini ochib beradi.

"Avtomobil" predmeti sohasidagi atamalarni o'rganish natijasida biz abbreviaturalarning quyidagi turlarini aniqladik:

a) harfli qisqartmalar (A|W – alloy wheels – "yengil qotishma g'ildiraklar"; AFC – Air Flow Control, – "havo ta'minotini boshqaruvi"; CPS - Crank Position Sensor - "tizza holati sensori" va boshqalar);

b) harf yoki bo'g'indan iborat bo'g'in qisqartmalari yoki qisman qisqartmalar (BAT battery - "akkumulyator"; N - neutral - "neytral (pozitsiya)"; ALT altitude - "balandlik"; LS (left side) - "chap tomon" va va boshqalar.);

"Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi atrofda olam va lingvistik shakllarni, nolingvistik va lingvistik bilimlarni turkumlash(kategoriyalash) mexanizmlarining murakkab o'zaro ta'siri natijasidir" degan fikrga qo'shilmaslikning iloji yo'q[6].

**Xulosa.** Atamalarining strukturaviy xususiyatlarini va sanoat terminologiyasi tizimlarining so'z yasash modellarini o'rganish atrofda voqelikdagi hodisalarni nomlash usullarini o'rnatish uchun muhim ahamiyatga ega. Ingliz avtomobil atamalarining strukturaviy tahlili shuni ko'rsatdiki, "Avtomobil" predmeti bo'yicha atama hosil qilishning asosiy usullari affiksatsiya, sintaktik usul, birikma va qisqartirish, shuningdek metaforizatsiyani o'z ichiga oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Лейчик, В. М. Терминоведение. Предмет, методы, структура [Текст] / В.М. Лейчик. - М.: КомКнига, 2009. - 256 с.
2. Jespersen O. A modern English grammar on historical principles. Part II. London; Copenhagen: G. Allen & Unwin, 1954. 512 p.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-2-3-4-5-жилд,-Тошкент.Ўзбекистон, 2020
4. Tom Denton. Automotive technician training.2009.
5. Jespersen O. A modern English grammar on historical principles. Part II. London; Copenhagen: G. Allen & Unwin, 1954. 512 p.
6. G'.Sh.Jo'rayeva, Q.Q.Mirzayev....Avtotransport vositalarining tuzilishi.Toshkent.2020.